

SH.SH. SHODMONOV,  
M.T. YAXSHIYEVA, R.A. YUSUPOV

# PUL NAZARIYASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

---

Sh.Sh. SHODMONOV, M.T. YAXSHIYEVA,  
R.A. YUSUPOV

# PUL NAZARIYASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan BA  
340101 – «Iqtisodiyot nazariyasi» magistratura mutaxassisligi yo'nalishi bo'yicha  
ta'lim olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

*Cho'pon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2011*

UDK: 336.77(075)  
BBK 65.011.3ya73  
Sh74

**Mas'ul muharrir:**

*B. Yu. Xodiyev – iqtisod fanlari doktori, professor*

**Taqrizchilar:**


*R.R. Xasanov – iqtisod fanlari doktori,  
T.M. Ziyaev – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent,  
N.T. O'rmonov – iqtisod fanlari nomzodi, professor.*

**Shodmonov, Sh. Sh.**

Sh74 Pul nazariyasi: 5A 340101 – «Iqtisodiyot nazariyasi» magistratura mutaxassisligi talabalari uchun qo'llanma/ Sh. Sh. Shodmonov, M. T. Yaxshyeva, R. A. Yusupov: mas'ul muharrir B. Yu. Xodiyev, H. X. Jumayev: O'zR. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 152 bet.  
I. Yaxshyeva, M. T. II. Yusupov, R. A.  
ISBN 978-9943-05-402-8

Ushbu o'quv qo'llanma bir-biri bilan mantiqan bog'langan 9 ta bobdan iborat bo'lib, ularda pul evolutsiyasi, pul tog'risidagi nazariy konsepsiyalar, tovar pul munosabatlari va pul-kredit tizimiga oid mavzular o'rin olgan. Ayniqsa, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida pul-kredit siyosati va uning roliga katta e'tibor berilgan.

O'quv qo'llanma magistrilar uchun mo'ljallangan bo'lib, undan aspirantlar, bakalavrlar, malaka oshirish instituti tinglovchilari va pul muammolari bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.



UDK: 336.77(075)  
BBK 65.011.3ya73

ISBN 978-9943-05-402-8

© Sh.Sh. Shodmonov va boshq., 2011  
© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011

## KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki davrlaridan boshlab, hukumat pul-kredit munosabatlariga katta e'tibor berib kelmoqda, chunki biror davlat pul sohasidagi munosabatlarni yo'lga qo'ymasdan iqtisodiyotni to'laqonli rivojlantira olmaydi.

Tashqi iqtisodiy munosabatlar va ichki aloqalarning Respublikamiz tanlagan bozor iqtisodiyoti yo'liga mos ravishda rivojlanishining pul munosabatlarining rivojlanish darajasiga bog'liqligini alohida ta'kidlab o'tish zarur.

Shu sababli Prezidentimiz I.A. Karimov ushbu masalaning dolzarbligiga alohida e'tibor berib: «Bugun dunyo iqtisodiyotidagi ahvolni tahlil qilar ekanmiz, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi hali-beri nihoyasiga yetgani yo'q, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Bugungi kunda bozorni pul resurslari bilan zo'r berib to'ldirish davom etayotgani fond va xomashyo bozorlarida sun'iy ravishda oshirib borilgan spekulativ narxlarning yanada ko'tarilib ketishiga, ta'bir joiz bo'lsa, moliyaviy ko'piklarning battar avj olishiga, inflatsiyaning jilovlab bo'lmas daragada o'sish xavfining ko'payishiga olib kelmoqda.

Jahon miqyosida konvertatsiya qilinadigan asosiy valutilarning beqarorligi jiddiy xavotir uyg'otmasdan qolmaydi. Bu, birinchi navbatda, rivojlanayotgan davlatlarning ushbu valutilarga bo'lgan ishonchiga jiddiy putur yetkazmoqda.

Biz bugun 2010-yil yakunlarini baholar ekanmiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi saqlanib qolayotganini qayd etishimiz zarur. Iqtisodiyotimizda 2010-yili yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanib, aholining real daromadlari 123,5 foizga oshdi, o'tgan yilda inflatsiya darajasi 2009-yildagi 7,4 foiz o'rniga 7,3 foizni tashkil etdi.

Bu avvalambor qat'iy, shu bilan birga, puxta o'ylangan pul-kredit siyosati va inqirozga qarshi ko'rilgan samarali chora-tadbirlarimizning natijasidir»<sup>1</sup> deb ta'kidladi.

Pul sohasidagi munosabatlarni rivojlantirish uchun ular to'g'risidagi turli nazariyalarni o'rganish, umumlashtirish va ulardan O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotga erishishini ta'minlash yo'lida foydalanish zarurdir. Shu bilan birga Respublikada pul munosabatlarining ilmiy asosda rivojlanishi Iqtisodiy tashkilotlar va Xalqaro moliya institutlari bilan o'rnatiladigan munosabatlarning keng qamrovliligini belgilashda katta ahamiyatga egadir.

«Zamonaviy ikki pog'onali bank tizimini yaratish orqali mustaqil pul-kredit siyosatni yuritish, budjet va pul siyosatining mas'uliyat doirasini aniq belgilab qo'yish, ularning o'zaro samarali munosabatini ta'minlash imkoniyati paydo bo'ldi.

Buning natijasida iqtisodiyotimiz manfaatlarini barqaror va ishonchli tarzda qondirib borishga erishildi».<sup>2</sup>

Pul sohasidagi munosabatlarning shakllanishi hamda moliya bozorining rivojlanishi respublika tijorat banklari tomonidan o'tkazilayotgan pul operatsiyalari ko'lami va turlarining ko'payishiga hamda iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik subyektlari uchun respublikamizdan tashqaridagi hamkorlar bilan aloqalarni kengaytirishga zamin yaratadi.

Shu sababli «Pul nazariyasi» fani bo'yicha ushbu o'quv qo'llanma bozor iqtisodiyoti va jahon moliya munosabatlarining negizini tashkil etuvchi pulning mazmunini, uning harakatlarini, undan foydalanish to'g'risidagi nazariyalarni o'rganish va ulardan O'zbekiston Respublikasi uchun zarur bo'lgan amaliy jihatlarni ham tadqiq qilishga bag'ishlangan dolzarb o'quv qo'llanma hisoblanadi.

Shu va boshqa muhim iqtisodiy masalalarni tezroq hal qilish, ularning yechimini topish pul va pul sohasidagi munosabatlarining mazmunini, ularning talablari hamda xususiyatlarini, qonun-qoidalarini

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. /Xalq so'zi, 2011-yil/.

<sup>2</sup> O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2007-yil 31-avgust, 173-soni.

amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsadi va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog'liqdir.

«Pul nazariyasi» fani pul to'g'risidagi tushunchalarni, nazariyalarni, uning qonun-qoidalarini o'rgatadi. «Pul nazariyasi» fani magistr talabalariga mamlakatimizda yashayotgan insonlarning turmush darajasi ko'pdan-ko'p pul sohasidagi ma'salalarning to'g'ri hal qilinishiga, milliy pul barqarorligining ta'minlanishiga ham bog'liqligini o'rgatadi va milliy istiqbol mafkurasining odamlar ongida shakllanishida, ularning intellektual kamolotga erishuvida muhim rol o'ynaydi.

Lekin shu vaqtgacha o'zbek tilida pulning hozirgi davrdagi mazmunini, uning ichki sir-asrorlarini, uning haqiqiy mohiyatini sinchiklab o'rganishga intilayotgan o'quvchilar va talabalarimiz uchun mo'ljallangan iqtisodiy muammolarni hal qilishga harakat qilayotgan rahbar xodimlar, iqtisodchi mutaxassislar, pul to'g'risidagi nazariyalar bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi talabalariga javob beradigan adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar, ayniqsa, darsliklar yetarli emas edi. Yurtboshimiz aytganidek: «...birinchi galda, taraqqiyotimizning har bir yo'nalishi — jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning rivoji haqida maxsus darsliklar, qo'llanmalar, ommabop adabiyotlar yaratish zarur»<sup>1</sup>. Darsliklar va o'quv qo'llanmalari yetishmasligi bo'yicha Oliy o'quv yurtlari va kollejlardagi ahvolni, shuningdek, kadrlar tayyorlash milliy dasturida qo'yilgan muhim vazifalarni hisobga olib, «Pul nazariyasi» fani bo'yicha ushbu o'quv qo'llanmani yozishga jazm qildik.

Bozor iqtisodiyotiga kirib borayotganimizni, bu sharoitda yashashimiz, faoliyat ko'rsatishimiz, iqtisodiy munosabatlarda bo'lishimizni hisobga olib, pul munosabatlari sohasidagi muammolarni, uning sabab-oqibatlarini, qonun-qoidalarini, tushunchalarini, ular bizning sharoitimizda qay darajada, qanday shaklda amal qilayotganligini batafsilroq yoritishga harakat qildik.

Ushbu o'quv qo'llanmada pul munosabatlari sohasidagi jarayonlarning faqatgina yuzaki ko'rinib turgan tomonlarigagina emas, balki ularning ichki mohiyati, ziddiyatlari va bog'lanishlariga, bu jarayonlarning sabab va oqibatlariga alohida e'tibor berildi. Ushbu o'quv qo'llanmada O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida pul

---

<sup>1</sup> Karimov J.A. «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman». «Fidokor» gazetasi, 2000-yil 8-iyun.

munosabatlari sohasidagi muammolar, ayniqsa, Prezidentimiz asarlarida, ma'ruza va nutqlarida, qabul qilingan qonunlar va qarorlarda bayon etilgan tamoyillar, xususiyatlar ham qamrab olindi hamda nazariyani amaliyotga yaqinlashtirish maqsadida pul munosabatlari sohasining ko'pgina umumiy qonun-qoidalari bevosita O'zbekiston hayoti misolida yoritildi.

Asosiy iqtisodiy tushunchalarni soddaroq qilib, oddiy tilda, misollar, jadvallar, grafiklar asosida tushuntirishga harakat qilindi.

Ushbu o'quv qo'llanma yangi standart talablari bo'yicha tuzilgan dastur asosida yozildi. O'quv qo'llanmada dasturdagi asosiy va zaruriy mavzular qamrab olingan. Lekin hajm cheklangan bo'lganligi sababli ko'pgina materiallar mazmuniga ta'sir qilmagan holda iloji boricha qisqartirib berildi. Shuning uchun o'quv qo'llanmada kamchilik va munozarali jihatlar ham bo'lishi mumkin.

O'quv qo'llanmada o'qitishning yangi texnologik xususiyatlari hisobga olinib, har bir mavzuda asosiy tayanch tushunchalar va atamalar, takrorlash hamda munozara uchun savollar, oxirida esa asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirildi.

Ushbu o'quv qo'llanmaning birinchi nashri rus tilida chop etilgan bo'lib, uni tayyorlashda kafedramizning sobiq dotsenti G.M. Romonovskiy faol qatnashib, qo'llanmaning ayrim boblari va mavzulari bevosita u kishi tomonidan tayyorlangan edi. Qo'llanmaning hozirgi, lotin alifbosidagi nashrini tayyorlashda uning birinchi nashridan va G.M. Romonovskiy materiallaridan keng foydalanildi. Shuning uchun mualliflar G.M. Romonovskiyga o'z minnatdorchiligini bildiradilar.

Mazkur o'quv qo'llanma lotin alifbosida birinchi marta chop etilayotganligi bois ayrim xato va kamchiliklardan xoli bo'lmasligi mumkin.

Shuning uchun o'quv qo'llanmaning tuzilishi, mazmuni, bayon qilinish tartibi va uslubi bo'yicha bildirilgan har qanday taklif-mulohazalar muallif tomonidan minnatdorchilik bilan qabul qilinadi va keyingi nashrlarida albatta hisobga olinadi.

## 1.1. Pullarning kelib chiqishi, mohiyati va amal qilish shakllarining tarixiy rivojlanishi

Pul kelib chiqishining evolutsion konsepsiyasiga ko'ra, ular ijtimoiy mehnat taqsimoti, ayirboshlash, tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Qiymat shakllari va ayirboshlash rivojlanishining tarixiy jarayonini tadqiq qilish orqali tovarlar umumiy olami ichidan pul rolini bajaruvchi alohida tovarning ajralib chiqishini tushunish mumkin.

Bir tovarning qiymati uni boshqa bir tovarga ayirboshlash orqali aniqlanadi ( $T-T$ ). Bir qarashda ayirboshlash bitimida har ikkala tovar ham bir xil rol o'ynaydigandek ko'rinadi. Aslida esa ularning roli turlichadir. Bir tovar o'z qiymatini boshqa tovarga nisbatan ifodalaydi. Ikkinchi tovar esa birinchi tovarning qiymatini o'zida ifodalab, ekvivalent rolini bajaradi, ya'ni qiymatning ekvivalent shaklini tashkil etadi. Xuddi mana shu yerda pulning dastlabki kurtagi paydo bo'ladi.

Pulning paydo bo'lishi va rivojlanishida qiymat shakllarining rivojlanish bosqichlari muhim o'rin tutadi. Umuman olganda qiymatning oddiy yoki tasodifiy, kengaytirilgan, umumiy va pul shakllari mavjud.

Ayirboshlash jarayonining tarixan uzoq davom etgan davri mobaynida ekvivalent rolini o'ynovchi ko'plab tovarlar ichidan ba'zi birlari o'zining barcha tomonidan tan olinishi tufayli ajralib chiqa boshladi. Masalan, chorva, jun, tamaki, tuz ana shunday ekvivalent vazifasini bajargan. Chunki, ekvivalent rolini o'ynovchi tovarlarning barchasi ham ayirboshlash jarayonida muomala vositasi vazifasini bir xilda muvaffaqiyatli bajara olmas edi. Natijada barcha tovarlarning qiymatini bir xil tovar qiymati orqali taqqoslash mumkin bo'lgan qiymatning umumiy shakli vujudga keldi.

Universal hisob-kitob ekvivalentiga bo'lgan ehtiyoj eramizdan avvalgi VIII asrdayoq kafolatlangan vaznli va tarkibli standartlashtirilgan yombilar paydo bo'lishiga olib keldi. Birmuncha keyingi davrlardagi yombilarning ayrim turlari ularni bo'laklarga bo'lishda qulay bo'lishi uchun belgili kertiklar bilan yasalgan. Biroq bunday takomillashtirishlar baribir savdogarlarning hisob-kitoblarni amalga oshirishlarida yombilar va ularning bo'laklarini tortib ko'rish zaruratidan xalos etmagan.



**Tovar ishlab chiqarishning o'sishi va tovar ayirboshlashning kengayishi, bunday jarayonlarga ko'p sonli hunarmandlar va boshqa qatnashchilarning jalb etilishi metall pullarning keyingi standartlashtirilishiga va ular miqdorlarining chakana savdo ehtiyojlariga moslashtirilishiga olib keldi.**

Taxminan eramizdan oldingi XII asrda Xitoyda, VII asrda esa O'rta yer dengizi davlatlari – Lidiya va Eginada vazni, miqdori va qotishmalarining tarkibiga ko'ra bir xildagi metall pullar paydo bo'ldi. Ular asta-sekin ishlab chiqarish va foydalanish uchun qulay bo'lishi uchun doira shakliga keltirildi. Ular an'anaviy yombilardan birmuncha kichik o'lchamlari bilan, shuningdek, ularning to'lovga qobiliyatligi va asosiy parametrlari (miqdori, qotishmalar tarkibi, vazni) u yoki bu darajada davlat tomonidan kafolatlanishi va muhofaza qilinishi bilan ajralib turardi. Shunday qilib, o'sha davrdan e'tiboran metall pullar hukmronligining uzoq davri boshlandi.

Bunday pullarda nominallar – metall pulning muayyan vaznli standartini ifodalovchi va pullarning nomlari sifatida muhim o'rin olgan tushunchalarning paydo bo'lishi, ushbu pullar evolutsiyasining eng muhim natijalaridan biri edi. Asrlar qa'ridan bizgacha yetib kelgan tangalarning nomlari – draxmalar, franklar, markalar, talerlar va boshqa ko'plab tangalar nomlari – metall pullarning muayyan vaznli mohiyatlarini anglatardi.

Pullarning yombilarda bo'lmagan yangi sifatlari hisob-kitoblarni amalga oshirishda ularni shunchaki oddiy qayta hisoblashga va vaqti kelib tortib ko'rishdan voz kechishga imkoniyat yaratdi. Belgilar va yozuvlar shunday sifat belgilari bo'lib, ular oldin pul birliklarining bir tomoniga, keyinchalik – ikkala tomoniga ham bosilgan. Eramizdan oldingi V asrdan boshlab esa ular majburiy atributlar tusini olgan.

Muomalaga kirgan pullar «moneta» («tanga») degan atama Yunonaning nomlaridan biri (Juno Moneta – Ogohlantiruvchi Yunona) sharafiga qo'yilgan nomdan olingan bo'lib, uning Rimdagi Kapitoliy tepaligidagi Yunona saroyida ushbu antik davlatning yangi zarbxonasi joylashgan. Tangalarning paydo bo'lishi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan bog'liq edi. Metall pulning eng muhim xususiyatlaridan biri – qiymat ana shu voqeada o'z aksini topgan. Ular muomala uchun yombilarga qaraganda ancha qulay bo'lib, qisqa davr ichida butun dunyoda keng ommalashib ketdi.

Tanganing ko'p asrlik tarixida uning turlari ko'p marta o'zgardi, har bir davr unda o'z «timg'a»sini qoldirdi. Masalan, eramizdan avvalgi

V asrdan boshlab ularda shaharlar nomlarining boshlang'ich harflari, keyinroq – shaharlarning nomlari va hukmdorlar ismlarining qisqacha nomlari paydo bo'ldi. Qadimgi Rimdagi tangalardagi ayrim raqamlar va harflar tangalarning nominallarini bildirgan. Masalan, 1 raqami bir asosni (bir rim funtiga, ya'ni misning 12 unsiyasiga teng bo'lgan og'irlik o'lchamini), S harfi  $\frac{1}{2}$  asosni anglatgan. Antik Eginaning ilk kumush draxmalarida toshbaqalar, fors shohi Doroning (eramizdan oldingi VII–V asrlar) oltin tangalarida esa yoydan o'q uzayotgan shoh tasvirlangan. Qadimgi Rim tangalarida majusiylar xudolari, qahramonlari va imperatorlari aks ettirilgan. Keyingi davrlarda ularning o'rniga qirollar, shohlar va cherkov ierarxlarini suratlarini tasvirlangan. Burjua respublikalari tangalarida podshohlar va avliyolar tasvirlari o'rniga davlat gerblari, turli belgilar va yangi tarixiy hodisalar manzaralari aks ettirilgan.

O'zbekiston hududidagi pullar ko'p asrlik tarixga ega. Bu hudud tovar-pul munosabatlari rivojlangan juda qadimgi davlatlar doirasiga kiradi.

Bu hududda yashagan xalq va elatlar dastlabki tangalar bilan eramizdan avvalgi V–IV asrlardayoq tanish bo'lishgan. Bu tangalar ahmoniylar davrida chiqarilgan oltin «Deriki» va kumush «sikli»lar bo'lgan. Bundan tashqari, tovar-pul munosabatlarining tez rivojlanishi asosan, Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga yurishi va **Selevkid** va **Grek-baqtriya** davlatlarning tuzilishi bilan bog'liq. Eramizdan avvalgi III–II asrlarda shimoliy Baqtriya So'g'd, Buxoro, Xorazmda kumush va suberat (yupqa kumush bilan qoplangan, bronza asosli) tangalar chiqarila boshlandi.

Eramizdan avvalgi I asrlarda sof kumush va mis tangalar chiqarila boshlandi, ularning bir tomonida mahalliy hokimning portreti tasvirlangan, ikkinchi tomonida esa so'g'd, xorazm, keyinroq esa baqtriya tilida yozilgan yozuv va turli tasvirlar aks ettirilgan.

XIX asrning oxirlarida Buxoroda qog'oz pullar ham muomalaga kira boshladi. Shunisi qiziqarlilik, buning uchun amir *mashtinadan* foydalanishni taklif qildi. Lekin shu masala bo'yicha yig'ilgan kengash a'zolari darhol unga qarshi chiqdilar: «pulni qanday qilib mashinada chiqarish mumkin» va pullar avvalgidek qo'lda chiqarila boshlandi. Mahalliy tangalarni bosish O'zbekistonning Sovet Ittifoqiga qo'shilishi bilan to'xtatilib qo'yildi, faqatgina bugunga kelib, mustaqillik yillaridagina o'z pullarimiz – so'm va tiyinlar (1994-yildan boshlab) chiqarila boshlandi.

Rossiyada Dmitriy Donskiy davrida pul sifatida quyma kumushlar – «**grivna**»lar muomalada bo'lgan, tanga sifatida rim dinorlari (VIII

asr yarmigacha), sharq dirxamlari (VIII–X asrlar) g'arb tangalari (XI asrdan) ishlatilgan. Mo'yna boyliklari – ko'n, «rezanlar», «mordlar» va boshqalardan foydalanilgan. Vaqt o'tishi bilan pul o'rniga qimmatbaho metallar – oltin va kumush qo'llanilgan. VIII–XIX asrlarda Yevropada qog'oz pullar ham ishtirok eta boshladi. Rossiyada ular Yekaterina I davrida yuzaga keldi.

Pul aylanishining alohida sohalarida va turli sharoitlarida pulning ma'lum turlari qo'llaniladi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida muomalada oltin tanga ko'rinishidagi naqd pullardan keng foydalanildi. Rossiyada 1895–1897-yillardagi pul islohotidan keyin Birinchi jahon urushigacha 10 rublik va 5 rublik oltin tangalar bo'lgan. Bunday pullarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'z qiymatiga ega va inflatsiyaga uchramaydi.

Umumiy ekvivalent rolining nodir metallarga, jumladan oltinga yuklatilish sabablari quyidagilar orqali izohlanadi:

- sifat jihatdan bir xil o'lchamga keltirish mumkinligi;
- zanglamasligi va uzoq muddat saqlash mumkinligi;
- bo'linuvchanligi va bo'lgandan keyin yana yaxlit holga keltirish mumkinligi;
- bo'linganda ham o'z qiymatini saqlab qola olishi;
- tabiatda nisbatan kamyobligi;
- ozzina miqdordagi va og'irlikdagi nodir metallning qiymati ancha yuqoriligi.

Biroq oltin pullar ham kamchiliklardan xoli emas:

- oltin pullarni qo'llash qog'ozdan tayyorlanadigan pul belgilariga qaraganda qimmatga tushadi;
- pulga bo'lgan ehtiyojlarini oltin pullar bilan qoplash mumkin emasligi, chunki pulga bo'lgan talab oltin qazib chiqarishga qaraganda tez o'sadi.

Ko'p asrlar davomida, deyarli XIX asrning boshiga qadar ko'pchilik mamlakatlarning pul tizimlarida bir xildagi maqomga ega bo'lgan oltin va kumush tangalar parallel ravishda amal qilib kelgan. Bunda oltin bilan kumush o'rtasidagi narxga oid o'zaro nisbat rasman belgilanmagan, balki bozor mexanizmlari bilan belgilangan. Ayrim mamlakatlarda esa to'laqonli oltin va kumush tangalarning amal qilishi oltin bilan kumush o'rtasidagi davlat tomonidan belgilangan narxga oid o'zaro nisbatga ko'ra yuritilgan.

1816-yildan 1900-yilgacha mamlakatlarning ko'pchiligi oltin yoki oltin tangali standartga o'tganlar: bu standartda mamlakatning asosiy pul birligi to'laqonli muomalada bo'ladigan oltin tangada zarb qilingan. Uning nominali tarkibidagi oltin qiymatiga teng edi. Bu davrda bank-

notalarning oltin tangalarga hech qanday to'siqsiz ayirboshlanishi ta'minlangan. Kumush va mis tangalar esa mayda pul rolini o'ynardi. Bunda mayda pullarning metall qiymati ham, odatda, u yoki boshqa darajada oltin tangaga bog'lanar edi. XX asrning boshiga kelib, tovar ishlab chiqarish katta miqyoslarga erishdi va tovar massasining oshib borayotgan hajmlariga xizmat ko'rsatish uchun tobora ko'proq miqdordagi pullar talab qilingan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshida yirik mashinali ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida tovarlarning keskin ortib borayotgan massasi bilan oltin standart shartlariga ko'ra amalda mavjud bo'lishi cheklangan metall pullarning miqdori o'rtasida jiddiy disproporsiyalar vujudga keldi. Lekin oltin standart aksariyat ko'pchilik davlatlarda birinchi jahon urushigacha amal qilib turdi. Birinchi jahon urushi boshlangan vaqtga kelib, amalda barcha mamlakatlar harbiy strategik zaxiralarni shakllantirish maqsadlarida oltin va kumush tangalarni muomaladan olib tashlashdi. Pul muomalasida ularning o'rnini ta'minlanmagan banknotalar va mayda pullar egalladi. Shu munosabat bilan prinsipial jihatdan yangi pul tizimlari paydo bo'ldiki, ular o'zining tovar qiymatiga ega bo'lgan real pullardan shakllantirilmasdan, balki ularning surrogatlariga asoslangan edi. Bunday pul surrogatlari oltin bilan ta'minlanmagan pul belgilari — banknotalar, xazina biletleri, arzon qotishmalardan yasalgan tangalar nomini oldi. To'laqonli oltin tangadan farqli ravishda bunday pul surrogatlari tovar bozorida o'zining qiymatiga ega emas edi, chunki bunday qiymat juda kam bo'lib, faqat ularni tutib turuvchining bunday pullarni almashtirganda muayyan qiymatni olish huquqidan guvohlik beradi. Bunday holda pul belgilari faqat qiymatning vositachi vakillari rolini bajarardi.

Birinchi jahon urushi haddan ortiq moddiy zararlar keltirib, xo'jalik faoliyatini izdan chiqargani sababli, dunyodagi barcha mamlakatlarning hukumatlari real qiymatga ega bo'lmagan juda katta miqdordagi pul belgilarini chiqarishga kirishdi. Buning natijasida urush tugaganidan keyin bu mamlakatlarda qadri tushib ketgan pullar miqdori ko'payib qoldi. Inflatsiya jarayonlari 1930-yillargacha ko'pgina davlatlarni o'z girdobiga tortdi. Bunday jarayonlar sababli iqtisodiy va moliyaviy sohalarda yuz bergan deformatsiyalar shunchalik jiddiy ediki, Yevropada urushdan keyin bir qator mamlakatlarda oltin standartni yana qaytadan tiklashga bo'lgan urinishlar kerakli natija bermadi.

XX asrning 70-yillarida oltinning denominallashuvi yuz berib, buning natijasida oltin oldiniga mamlakatning ichki aylanishida muomala va

to'lov vositasi funksiyalarini, so'ngra 1976-yildan boshlab jahon pullari funksiyasini ham bajarib qo'ydi. Ichki aylanishda va jahon bozorida ham qog'oz hamda kredit pullari oltinni siqib chiqarib tashladi.

To'la qimmatli pullardan pul belgilariga o'tishda, eng avvalo, muomalada oltinga maydalanadigan kredit biletleri paydo bo'ldi. To'la qimmatli pullarni qog'oz pul belgilariga almashtirish jarayonida bunday pul belgilarini harakat ehtiyojlari bilan bog'lash muammosi paydo bo'ldi, oltin pullardan foydalanishda esa bunday hol kuzatilmaydi. Shu bilan bir qatorda, qog'oz pullar chiqarish davlat xarajatlarini qoplash ehtiyoji bilan belgilanar ekan, bunday pullarni muomalaga ko'plab chiqarish zarur bo'lib qoladi. Natijada qog'oz pullarning qadrsizlanishi, ularning xarid quvvatining pasayishi yuz beradi. Oltin pullar esa bunday qadrsizlanishga uchramaydi.

Qog'oz pullarga xos bu kamchiliklar ko'pincha kredit pullardan foydalanish orqali bartaraf qilinishi mumkin. Kredit pullar ham qog'ozdan tayyorlanadi, muomalaga kredit pullar chiqarish banklar tomonidan turli xo'jalik jarayonlari bilan bog'liq holda yuzaga keladigan kredit operatsiyalarini bajarishda amalga oshiriladi. Kredit pullar (banknotalar) va qog'oz pul belgilari kabi pul turlari o'rtasidagi farq, bizningcha, ularni muomalaga chiqarish va sotish haqiqiy jarayonlari bilan bog'liqlikda bajariladigan kredit amallari bilan bog'liq muomalaga chiqariladi, qog'oz pullar esa bunday bog'lanishsiz chiqariladi.

O'z ahamiyati va natijalari jihatidan naqd harakatsiz pullar muhimdir, ularning harakatlari mijozlarning bankdagi hisoblar bo'yicha yozuvlari shaklida qayd qilinadi. Bunday harakat pul belgilarisiz yuz beradi.

Pullarni kengaytirilgan asosda qo'llash ularning qator afzalliklari bilan bog'liqdir, ularga birinchi navbatda pul harakatini amalga oshirish xarajatlarni pul belgilarini chop etish bilan qoplash ularni qayta hisoblash, saqlash kabi xarajatlarni kamaytirish hisobiga erishiladi.

Demak, pulning mohiyati shundan iboratki, u jamiyat iqtisodiy faoliyati, takror ishlab chiqarish turli ishtirokchilari va bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlarning faol unsuri hamda tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi.

## **1.2. Hozirgi davrda pulning amal qilish muammolari bo'yicha nazariy tadqiqotlarning kuchaytirilishi**

Pul — rivojlangan bozor xo'jaligining zarur elementi bo'lib, konyunktura holati va iqtisodiy siklning borishiga doimiy hamda jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Pul tizimi xalq xo'jaligi organizmida «moddalar

almashuvi»ni ta'minlaydi, katta hajmdagi tovarlar va pul massasi harakitini bilvosita ifodalaydi, davlat moliyasi va kredit kanallari orqali ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishini rag'batlantiradi.

Pul tahlilini faollashtirish bu mavzudagi nashrlar sonining keskin o'sishi, pul-kredit muammolari bilan shug'ullanuvchi iqtisodchilar doirasining kengayishi, pul mexanizmining faoliyatiga e'tiborning kuchayishi, pulni modellashtirish usullarini ishlab chiqish va hokazolarda namoyon bo'ladi. Pul haqidagi fan eng dinamik va ommaviy iqtisodiy fanlardan biriga aylandi.

G'arb mamlakatlarida iqtisodiy nazariyaning II jahon urushidan keyingi rivojlanishi pulning faoliyat ko'rsatish muammolariga qiziqishning tobora o'sib borishi uchun xarakterlidir. Bu sohadagi tadqiqotlarning jonlanishi XX asrning 50-yillarida boshlangan bo'lib, «pul renesansi» yoki «pulni takroran kashf etish» deb nomlangan. U paytda g'arb mamlakatlarining pul-kredit tizimi ikkinchi jahon urushini moliyalashtirish uchun pul emissiyasi va ssuda kapitali bozorida keng foydalangan davlat budjet organlari vasiyligidan chiqa boshladi. Markaziy banklar ko'proq mustaqillikka ega bo'ldi va pulning xarid qobiliyatini mustahkamlash uchun shiddatli vositalardan foydalana boshladi. Biroq moliya-kredit tizimini to'liq barqarorlashtirishning uddasidan chiqilmadi. G'arb mamlakatlarining ko'pchiligi pul muomalasining surunkali yetishmasligiga duch kelgan bo'lib, bu inflatsiya bosimining vaqti-vaqti bilan kuchayishi, ssuda kapitali bozorining beqarorligi, foiz stavkalarining keskin tebranishi, valuta muammolari va hokazolarda namoyon bo'ldi. Shunday qilib, pul muammolariga g'arb nazariyotchilari ko'rsatgan kuchli e'tibor asoslangan hisoblanadi.

Bugungi kunda pul va pul siyosatining nazariy muammolari g'arb iqtisodiy fikr namoyondalari o'rtasida qizg'in munozaralar va raqobat maydoniga aylangan. Chunki xo'jalik rivojlanish sur'atini rag'batlantirish va iqtisodiy konyunkturani kundalik boshqarish vositasi sifatida pulni tezkor qo'llashni ifodalovchi *keyns* yondashuvi va pul sohasidagi avtomatik bozor stabilizatorlari harakatini qiyinlashtiradigan iqtisodiyotdagi ziddiyatlar va disproporsiyalarni qoralovchi *monetarizm* o'rtasida chegara yotadi.

Ma'lumki, keynschilik XX asrning 30–40-yillarida shakllangan bo'lib, iqtisodiy siyosat dasturlari va nazariy adabiyotlarda asosiy qoidaga aylandi. Monetarizm maydonga keyinroq, 50-yillar o'rtalarida chiqdi. U asosiy e'tiborni pul massasi va uning iqtisodiyotga ta'siriga qaratdi.

**Pul nazariyasi keynschilik va monetarizm** paydo bo'lishidan ancha oldin vujudga kelgan bo'lib, ko'p asrlik tarixga ega. Pulning fundamental muammolari g'arb siyosiy iqtisodining mumtoz vakillari A. Smit, D. Rikardo asarlaridayoq yo'lga qo'yilgan. Keyinchalik ular XIX–XX asrlarning yirik nazariyotchi olimlari J. S. Mill, U. Jevons, L. Valras, A. Marshall va boshqalar tomonidan umumlashtirilgan va qayta ishlangan. So'nggi yarim asr davomida pulni o'rganish estafetasi g'arb iqtisodiy fanining J. Xiks, P. Samuelson, J. Tobin, F. Modilyani, D. Patinkin, M. Fridman kabi olimlari qo'lga o'tdi. Nobel mukofoti laureati bo'lgan (Patinkindan tashqari) aynan shu olimlarning mehnatlarida «keynschilik–monetarizm» dixotomiyasi (ikkiga bo'linish) eng to'liq amalga oshirilgan.

Urushdan keyingi «pul renessansi» tadqiqotlarni pul nazariyasining abadiy, fundamental muammolariga qaratdi, «keyns inqilobi» esa asosiy e'tiborni to'lov layoqatiga ega bo'lgan talabni tartibga solish muammolariga qaratdi va «yuqori nazariya» muammolarini chetda qoldirib ketdi. Ularning fikriga ko'ra pulning nimaligi emas, balki uning iqtisodiy faollik, ishlab chiqarish, mehnat va moddiy resurslar bandligiga ta'siri muhim. Bunday yondashuv pul nazariyasining nazariy poydevoridagi jiddiy kamchiliklar mavjudligi, ko'plab boshlang'ich tushunchalar va asoslarning real emasligiga e'tibor qaratmadi.

Iqtisodiy tushuncha sifatida «Pul bu nima?» ekanligi, fundamental xususiyatlari va paydo bo'lish sababini aniqlashga intilish qadimgi faylasuflarning asarlaridan tortib to murakkab matematik apparatni kashf etgan zamonaviy mualliflarning ishlarigacha *ko'p asrlik iqtisodiy fikr tarixi orqali* o'tadi. Biroq bu sohadagi ulkan tadqiqotlarga qaramay, pul tabiati masalalari hozirgacha qarama-qarshiliklarga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda pulning nima ekanligi va takror ishlab chiqarish aloqalari tizimida qanday o'rin tutishi haqidagi aniq ilmiy tasavvur yo'q. Pulning ta'rifi haqidagi nazariy munozaralar zamonaviy adabiyotlarda ularning «empirik to'ldirish» masalalari bilan uzviy bog'lanib ketgan. Bunday holat urushdan keyingi yillarda ro'y berayotgan pul-kredit mexanizmi strukturasiidagi jiddiy o'zgarishlar bilan asoslanadi. To'lov aylanmasida naqdsiz hisob-kitob va kredit bitimlarining har xil turlari tobora keng tarqalmoqda, ular banknotalar hamda boshqa naqd to'lovlari o'rnini bosmoqda va yangi to'lov vositalariga ehtiyojni qisqartirmoqda. Pul muomalasi va pul kapitalini jamg'arish sohasi o'rtasidagi chegaralar qisqarib ketmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda keng tarmoqli bank-kredit institutlarining mavjudligi faol muomalada bo'lgan pullarni tezlik bilan jamg'armalarga

aylantirish va buning aksi bo'lgan jarayon uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bunga moliyaviy yangiliklar jarayoni, oxirgi yillarda yangi pul bozori vositalari va gibridd bank schyotlarining paydo bo'lishi xizmat qiladi, bu yerda pul bir vaqtning o'zida daromad keltiradi va tovarlar uchun hisob-kitob vositasi bo'lib xizmat qila oladi. Bularning barchasi pul tushunchasining aniqligini pasaytirib, pul va «pul emas» o'rtasidagi chegaralarni yo'q qiladi.

Kompyuter texnikasi va zamonaviy telekommunikatsiya vositalari tizimini keng qo'llagan holda bank operatsiyalari va hisob-kitoblarni amalga oshirish texnologiyasining o'zgarishi xuddi shu yo'nalishda davom etmoqda. To'lovlarni amalga oshirishning mehnat sig'imini qisqartirish hisob-kitoblarni tezlashtiradi, pul massasiga ehtiyojni kamaytiradi. Shu sababli ko'plab mualliflar «cheksiz va naqd pulsiz jamiyat» paydo bo'lishi istiqbollari jiddiy muhokama qiladilar, bu ham pul ta'rifi haqidagi mulohazalarga dolzarblik baxsh etadi.

### **1.3. Pulning tabiatini tushunishga bo'lgan turlicha konseptual yondashuvlar**

Hozirgi raqobat kurashi tobora kuchayib borayotgan sharoitda pulning mohiyati, pul muomalasi va uning qonuniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, tahlil etish va ommaga yetkazish nafaqat iqtisodiyot uchun, balki hayot uchun ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Pulning ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatidagi mohiyatini iqtisodiyot nazariyasida to'plangan boy ilmiy yondoshuvlarni tahlil qilish asosida o'rganishga to'g'ri keladi.

Chunki pul to'g'risidagi nazariyada turlicha yondashuvlar va qarashlar mavjud bo'lib, ular o'rtasida umumiylik yo'q. G'arb iqtisodchilarining pul ta'rifi haqidagi asarlarida doimo tadqiqot obyekti, uning mohiyati va shakllari, tashqi belgilarini yetarlicha aniq tushunmaslik seziladi. Xususan, pulning konseptual tabiati ko'pincha turli tarixiy davrlarda pulning muayyan shakllari haqidagi masalalar bilan almashadi. Birinchi o'ringa turli pul agregatlarini loyihalashtirish muammolari, pul to'lovlari zaxirasining elementlar tarkibi haqidagi muammolar chiqadi.

Shu sababli, uning to'g'ri mazmunini ko'rsatib berish uchun pul to'g'risidagi asosiy nazariyalarni o'rganib, tahlil etiladi.

Pulning mohiyati haqidagi nazariyada uch asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin: metallistik, nominalistik va miqdoriy.



**Metallistik pul nazariyasi** pulni qimmatbaho metallar, oltin va kumush bilan izohlaydi va XVI–XVIII asrlarda kapital dastlabki jang'arilishi davrida rivojlangan, bu nazariya namoyondalari (Angliyada- U. Stafford, T. Men, D. Nors; Fransiyada- A. Monkreten) tangalarning yemirilishiga qarshi chiqib, metallarning barqaror muomalada bo'lishini yoqlab chiqishdi. Ular pullarning mohiyatini asl metallarning ijtimoiy xususiyatlari emas, balki tabiiy xususiyatlari bilan bog'lashgan, pullarga ijtimoiy, ishlab chiqarish munosabati sifatida qarashmagan, balki ularni buyum deb bilishgan. Shuning uchun ular pullarning to'laqonli tangalarni talab qiladigan funksiyalarini, ayniqsa, jahon puli va xazinalar funksiyalarini mutloqlashtirishgan.

Nominalistik pul nazariyasi XVII–XVIII asrlarda pul muomalasi to'la qiymatli bo'lmagan tangalar bilan olib borilganda shakllandi. Nominalizmning birinchi namoyondalari ingliz J. Berkli, J. Lokk va J. Styuartlar bo'lishgan. Ularning nazariyasi uchun pullar – bu faqat tovarlar ayirboshlanishiga xizmat qiladigan ideal hisob birliklari, mahsulot, davlat hokimiyatining natijasi, pulning asosiy vazifasi to'lov vositasi vazifasidir deb tushunish xarakterli edi, nominalistlar pullarni texnik almashuv quroli sifatida o'rganib, uning qiymat tabiatini to'liq inkor qilishgan.

Fikrimizcha, nominalistlarning pul tartib o'rnatishdan iboratligi haqidagi fikri mutlaqo noto'g'ri, chunki haqiqatda pul stixiyaviy ravishda kishilarning xohish-irodalariga bog'liq bo'lmagan holda davlat paydo bo'lgunga qadar, ayirboshlashning rivojlanishi jarayonida paydo bo'ldi. Pulning mohiyatini uning to'lov vositasi vazifasidan keltirib chiqarishga urinish ham asossizdir

1929–1933-yillardagi iqtisodiy tanazzul davrida nominalizm yanada rivojlandi va oltin standartidan voz kechishni oqlash uchun nazariy asos sifatida tanildi. J.M. Keyns («Pul haqida traktat», 1930-y.) oltin pullarni «yovuzlik qoldiqlari», «Aravaning beshinchi g'ildiragi», deb e'lon qildi<sup>1</sup>. Oltin nisbatan elastikroq bo'lgan qog'oz pullarni u ideal, deb hisoblaydi va ular jamiyatning doimiy gullab-yashnashini ta'minlashlari kerak, deb ko'rsatadi. Qog'oz pullarning oltinni muomaladan siqib chiqarishiga u pulning oltindan ustunligi va nominalizmning g'alabasi sifatida qaraydi.

Shunday qilib, nominalizmning barcha ko'rinishlariga bir xil kamchiliklar xosdir: pulning tovar sifatidagi kelib chiqishini tan olmaslik,

---

<sup>1</sup> Жукова Е.Ф. Общая теория денег. – М.: «Банки и биржи», ЮНИТИ, 1995.

**uning muhim vazifalarini inkor qilish, pulni narx mashtabi bilan ideal hisob birligini ta'riflash.**


**Pulning qiymat miqdori haqidagi masalaning yanada kengaytirilgan talqini miqdoriy pul nazariyasida berilgan. Bu nazariyaning asosiy g'oyalari shundan iboratki, ular pulning qiymati-haqiqiy pulning ham, pul belgilarining ham qiymati ularning muomaladagi miqdori bilan belgilanadi, deb ko'rsatishadi. Mazkur gipotezani birinchi marta XVI asrda fransuz iqtisodchisi J. Boden ilgari suradi. U G'arbiy Yevropada tovarlarning qimmatlashib ketganini qimmatbaho metallarning kirib kelishi bilan izohlaydi. Bu g'oyani XVII asrda Sh.L. Monteske, D. Yum, J. Millar qo'llab-quvvatlaydilar, biroq ular muomaladagi pulning miqdori va ular qiymatining o'zgarishi o'rtasidagi mutanosiblikni qayd etib ko'rsatdilar.**

**Miqdoriy pul nazariyasining tarafdorlari tovarlar bozorga narxsiz, oltin esa qiymatsiz chiqadi va faqat bozordagina oltinlar massasi hamda tovarlar massasining u yoki bu nisbati tovarlarni baholaydi hamda oltinning qiymatini belgilaydi, deb ko'rsatishadi. Bizningcha, bu mutlaqo asossizdir. Tovarlar muomala sohasiga narxsiz kira olmaydi. Ayirboshlashga qadar tovarlar ularning qiymatini ifodalaydigan narxga, oltin esa qiymatga ega bo'ladi. Ayirboshlash jarayonida tovarlarning narxi ularning qiymatiga mos ravishda sotiladi va oltinning haqiqiy qiymati boshqa tovarlarga nisbatan aniqlanadi.**

**Miqdoriy pul nazariyasining XVIII asrdagi yorqin namoyondasi D. Rikardodir. Shuni ta'kidlash lozimki, uning qarashlari ikki tomondama tavsifga ega bo'ldi: bir tomondan, u pulning qiymati ularni ishlab chiqarishga mehnat sarflari bilan aniqlanishini tan olgan, ikkinchi tomondan esa alohida davrlarda pul birligining qiymati pul miqdori o'zgarishlariga bog'liq ravishda o'zgaradi, deb hisoblagan.**

**D. Rikardo pul ham tovar hisoblanadi va o'z qiymatiga ega bo'ladi, pulning qiymati uni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnatning miqdori bilan aniqlanadi, deb to'g'ri fikr bildiradi. Biroq u pulning alohida tovar ekanligini ko'ra bilmaydi. U pulning nisbiy qiymati talab va taklif ta'sirida istalgan tovarning nisbiy qiymati singari o'zgaradi, deb hisoblaydi. Pul alohida umumiy tovar bo'lgani uchun talab buyumi ham, taklif buyumi ham bo'la olmasligini tushunmaydi.**

**Rikardo pulni faqat muomala vositasi sifatidagi vazifasida ko'radi, boylik to'plash vositasi sifatidagi vazifasini esa yo'qqa chiqaradi. Uning fikricha, pul muomalasi sohasining pul bilan o'rtacha to'ldirilishiga qaytali uning qadrsizlanishi imkoniyati vujudga keladi.**



**qonuni bilan metall pul muomalasi qonunlarining farqiga bormaydi. Yuqoridagi nazariyalarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, pul tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning rivojlanishi bilan vujudga kelgan.**

Yuqorida keltirilgan nazariyalarning kamchiliklarini qisqa qilib tushuntiradigan bo'lsak, pulning alohida tovar sifatidagi mohiyatini hech bir nazariya to'g'ri va batafsil yoritmaganligini ta'kidlab ko'rsatish mumkin. Natijada metallistlar pulning nima uchun qimmatbaho boylik ekanligini, uning tub negizida nima yotishini tushunib yetishmagan, pulning mohiyatini yuzaki namoyon bo'lish shakllarida ko'rishgan. Nominalistlar bo'lsa, qog'oz pullarni inkor etmagani holda nima uchun ularning qimmatli ekanligini izohlab bera olmadilar, ular ham metallistlar kabi pulni yuzaki tushunib, davlat tomonidan chiqarilgan pul faqat shartli belgi va hisob birliklarinigina ifodalaydi, deb ko'rsatishadi. Yuqorida ko'rsatganimizdek, klassiklar ham pulning alohida tovar ekanligini va boshqa tovarlardan uning ana shu maxsus xususiyati ajratib turishini tushuntirib bera olmadi. Hozirgi davrda, shu kunlarda ham oltin pul mazmuni bilan qog'oz pul mazmunini bir xil deb qarovchilar juda ko'pdir.

Yuqoridagi nazariyalarni umumlashtirgan holda pulni alohida tovar bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymatini ifodalaydigan umumiy ekvivalent sifatida xizmat qiladi, deb ta'riflash mumkin. U boshqa tovarlar kabi ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, umuman tovar sifatida boshqa tovarlar singari qiymatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, iste'mol qiymatiga ega, uning iste'mol qiymati umumiy ekvivalent sifatida boshqa istalgan tovarga almashuvchanligidir. Bu pul-tovarning umumiy iste'mol qiymatidir. Demak, pul tovar sifatida qiymatga ega bo'ladi, alohida tovar sifatida esa qiymatning bevosita umumiy shakli hisoblanadi. Bu pulning boshqa hech qaysi tovarda bo'lmagan bevosita almashuvchanlik xossasini ko'rsatadi. Yuqoridagi nazariyalar pulning ana shu xossasini tushunib yetmaydi.

Tovarlar olamining tovarlar va pullarga ajralishida iste'mol qiymati hamda qiymat o'rtasidagi ichki ziddiyat yuzaga chiqadi. Barcha tovarlarni iste'mol qiymati sifatida chiqsalar, pul esa ularning qiymatini ifodalovchi vosita sifatida ko'rinadi. O'zining qiymatini ifodalash uchun har bir tovar oldindan pulga aylanishi kerak. Faqat pulga aylangan tovargina iste'mol qiymati bilan bir qatorda qiymatga ham ega bo'ladi.

Pul doimo abstrakt, ijtimoiy mehnatning o'lchovi sifatida namoyon bo'ladi. Oltin bilan qoplangan xususiy aniq mehnat bir vaqtning o'zida

**abstrakt ijtimoiy mehnatning ham bevosita qoplanishini bildiradi. Har bir tovar-xususiy mehnat mahsuli bo'lib, u pulga ayirboshlangach, ijtimoiy tan olinadi. Pul yordamida tovarda mujassamlashgan ijtimoiy mehnat hisobga olinadi. Pul doimo qiymatning umumiy ekvivalent qutbida qiymat o'lchovi sifatida chiqsa, barcha tovarlar doimo nisbiy shaklda bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mana shu har ikki qiymat shakllari o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash orqali pul barqarorligini ta'minlash mumkin. Fikrimizcha, shu yerdan pulning ijtimoiy-iqtisodiy munosabat ifodasi tarzidagi mohiyati kelib chiqadi. Tovarlar qiymati bilan muomaladagi pul miqdori o'rtasida mutanosiblik ta'minlansa, makroiqtisodiy barqarorlikka ham erishiladi, deb o'ylaymiz. Demak, pulning o'zi mohiyat jihatdan jamiyatning iqtisodiy ahvolini ifodalaydi. Uning holatiga qarab jamiyatga baho berish mumkin.**

G'arb mamlakatlari iqtisodchilarining yirik nazariy muammolari – pulning tabiati va funksiyalari; uning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish modellaridagi o'rni; pulning foiz me'yori, inflatsiya va iqtisodiy o'sish dinamikasi bilan aloqasi; pul-kredit siyosatining samaradorligi sohasidagi tadqiqotlari bozor islohotlarini amalga oshirishda MDH mamlakatlari uchun katta qiziqish uyg'otadi. Pul jarayonlarining g'arb olimlariga xos bo'lgan eng yangi talqinlari, original tadqiqot usullari bilan tanishish Respublikamiz – O'zbekistonda o'tish davrida ham, uzoq kelajakda ham umumiqtisodiy va pul-kredit siyosati vazifalari va usullarini nazariy fikrlashga xizmat qiladi.

## XULOSALAR

1. Pul kelib chiqishining evolutsiyon konsepsiyasiga ko'ra, ular ijtimoiy mehnat taqsimoti, ayirboshlash, tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan.
2. Taxminan eramizdan oldingi XII asrda Xitoyda, VII asrda esa O'rtar yer dengizi davlatlari – Lidiya va Eginada vazni, miqdori va qotishmalarining tarkibiga ko'ra bir xildagi metall pullar paydo bo'ldi.
3. 1816-yildan 1900-yilgacha mamlakatlarning ko'pchiligi oltin yoki oltin tangali standartga o'tganlar, lekin oltin standart aksariyat ko'pchilik davlatlarda birinchi jahon urushigacha amal qilib turdi.
4. Yevropada urushdan keyin bir qator mamlakatlarda oltin standartni yana qaytadan tiklashga bo'lgan urinishlar kerakli natija bermadi.
5. XX asrning 70-yillarida oltinning denominallashuvi yuz berib, buning natijasida oltin oldiniga mamlakatning ichki aylanishida muomala va to'lov vositasi funksiyalarini, so'ngra 1976-yildan boshlab jahon pullari

**funksiyasini ham bajarmay qo'ydi. Ichki aylanishda va jahon bozorida ham qog'oz va kredit pullari oltinni siqib chiqarib tashladi.**

6. **XX asrning ikkinchi yarmida g'arb mamlakatlarida iqtisodiy nazariya uchun «pul renessansi» deb nomlangan xo'jalik munosabatlari tizimida pulning faoliyat ko'rsatishi muammolariga tobora kuchayib boradigan qiziqish xarakterlidir.**
7. **Bugungi kunda pul va pul siyosatining nazariy muammolari g'arb iqtisodchilarining bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki oqimi – keynschilik va monetarizm o'rtasida kuchli bahs-munozaralar va raqobat maydoniga aylangan.**
8. **Siyosiy iqtisodiy toifa sifatida «Pul bu nima?» ekanligini aniqlash, ularning fundamental xususiyatlari va sabablarini aniqlashga intilish iqtisodiy fikrlashning ko'p asrlik tarixi orqali o'tadi. Biroq bugungi kunda ham pulning nima ekanligi va uning takror ishlab chiqarish aloqalari tizimida egallagan o'rni haqida umumiy bir ilmiy tasavvur yo'q.**
9. **Pulning mohiyati haqidagi nazariyada uch asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin: metallistik, nominalistik va miqdoriy. Pulning alohida tovar sifatidagi mohiyatini hech bir nazariya to'g'ri va batafsil yoritma olmagan.**

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

*Qiyamatning ekvivalent shakli, oltin, kumush va mis tangalar, qog'oz pullar, kredit pullar, moliyaviy deformatsiya, pul renessansi, oltinning denominatsiyalashuvi, pulning fundamental muammolari, «Keynschilik va Monetarizm» dixotomiyasi, Keyns inqilobi, pulning qiymat miqdori, pul haqidagi konseptual yondashuvlar.*

### **Nazorat uchun savollar**

1. *Pul kelib chiqishining asosiy sabablari nimalardan iborat?*
2. *Metall pullar hukmronligining uzoq davri qachon boshlandi?*
3. *Mamlakatlarning ko'pchiligi oltin yoki oltin tangali standartga qachon o'tilgan?*
4. *Oltinning denominallashuvi qanday oqibatlarga olib keldi?*
5. *«Pul renessansi» tushunchasini qanday izohlash mumkin?*
6. *XX asrning ikkinchi yarmida pul nazariyasiga qiziqishning kuchayib ketishini nimalar bilan izohlash mumkin?*
7. *Bugungi kunda pul va pul siyosatining nazariy muammolari qanday oqimlar o'rtasida kuchli bahs-munozaralar va raqobat maydoniga aylangan?*
8. *Pul nazariyasining fundamental savollari nimalardan iborat?*
9. *Pul muammolari haqidagi konseptual yondashuvlarning mazmunini tushuntirib bering*
10. *Pulning tovar sifatidagi xususiyatlari nimalardan iborat?*

## **2-bob. PUL TOVAR ALMASHUVI VA QIYMAT SHAKLINING TARIXIY RIVOJLANISH NATIJASI SIFATIDA**

---

### **2.1. Ayirboshlash munosabatlari evolutsiyasi, tovar-pul muomalasi. Tovar ishlab chiqarishning yuzaga kelishi va rivojlanishi**

Jamiyat rivojlanishi tarixi ishlab chiqarishning sifat jihatidan bir-biridan farq qiluvchi qator uslublarini o'z ichiga oladi, lekin iqtisodiy hayotning ayrim umumiy shakllarini saqlab qoladi va ishlab chiqarish uslublarining izchilligidan dalolat beradi. Iqtisodiy hayotning mazkur umumiy shakllari orqali jamiyat talabi tuzilmasi paydo bo'ladi, mavjud resurslar taqsimlanadi, uning alohida zvenolari jami umumiy mahsulotlarga qo'shiladi va hisoblanadi. Iqtisodiy hayotning bunday shakllari umumiy taqsimot va mehnat kooperatsiyasi nuqtayi nazaridan ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari o'zaro harakatini, ishlab chiqaruvchilarning umumiy o'zaro aloqalari shakllarini, ularning mulkchilik munosabatlari bilan muvofiqlashgan ayrim yoki qo'shilgan darajasini aks ettiradi.

Umumiy iqtisodiy shakllardan eng dastlabki tarixiy shakli natural ishlab chiqarish hisoblanadi. Unda mehnat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish — ichki xo'jalik ehtiyoji uchun mo'ljallanadi. Bu yerda talab ishlab chiqarish bilan mos keladi va ularning o'zaro bog'liqligini soddalashtiradi. Bunday munosabatlar dastlabki ibtidoiy jamiyatda, patriarxial dehqon va feodal xo'jaliklarida hukmronlik qilgan. Ular o'ziga xos quldorlik xususiyatiga ega bo'lgan. Xo'jalik yuritishning natural shakli rivojlanmagan ehtiyojlar bilan bog'liq ishlab chiqarishning chegaralangan maqsadini amalga oshiradigan o'ziga xos ishlab chiqarish munosabatlarining turi va ishlab chiqarish kuchlarining darajasiga mos keladi.

Natural xo'jalik ishlab chiqarish maqsadlarini nihoyatda cheklab, ishlab chiqarish hajm jihatidan juda oz va turi jihatidan kam bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga bo'ysungan. Shuning uchun ham jamiyat asta-sekinlik bilan tovar ishlab chiqarishga o'tadi. Natural ishlab chiqarishning tovar ishlab chiqarish shakliga almashishi uzoq davom etadigan murakkab va qonuniy jarayondir.

Tovar ishlab chiqarish natural xo'jalikning rivojlanishi, mahsulotlar turi va miqdorining o'sishi natijasida paydo bo'ldi.

**Tovar ishlab chiqarish**, ya'ni tovar xo'jaligida kishilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar buyum orqali, ular mehnati mahsulini oldi-sotdi qilish orqali namoyon bo'ladi. Tovar ishlab chiqarishning natural ishlab chiqarishdan farqi shundaki, bunda tovar yoki xizmat o'zining iste'moli uchun emas, balki bozorga sotish uchun yaratiladi. Natural va tovar xo'jaliklarining bir-biridan farqini 1-jadval orqali ko'rish mumkin.

1-jadval

**Natural va tovar xo'jaligining bir-biridan farqlanishi**

<b>№</b>	<b>Asosiy jihatlar</b>	<b>Natural xo'jalik</b>	<b>Tovar xo'jaligi</b>
1	Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish maqsadi	Shaxsiy ehtiyojlarni qondirishda foydalanish	Boshqa tovarlarga ayirboshlash, bozorda oldi-sotdi qilish
2	Ishlab chiqariladigan mahsulot tarkibining aniqlanishi	Ehtiyojlar va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda oldindan aniqlanadi	Bozordagi muayyan talab va ishlab chiqaruvchining xususiy manfaati asosida aniqlanadi
3	Iste'molchini o'ziga jalb etish uchun kurash	Bunday kurash mavjud emas	Bunday kurash mavjud va tovar xo'jaligining rivojlanishi bilan kuchayib boradi
4	Ishlab chiqarilgan mahsulotning iste'mol qilinishi darajasi	Barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar to'laligicha iste'mol qilinadi	Ishlab chiqarilgan mahsulotlar ayrim turlari va qismlarining sotilmay qolishi, ya'ni iste'mol qilinmasligi
5	Ishlab chiqarish jarayonida ishchi kuchining ishtirok etish tamoyillari	Ishlab chiqarish jarayonida faqat o'zi va oila a'zolarining ishchi kuchidan foydalaniladi	Ishlab chiqarish jarayonida yollanma ishchi kuchidan ham foydalanish mumkin

Tovar ishlab chiqarish ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarning mehnatini o'lchash va uni jamiyatning jami mehnati tarkibiga kiritishning o'ziga xos usulidir. Natural xo'jalikni siqib chiqarish va tovar ayirboshlashning rivojlanish jarayoni mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, xususiy mulkning vujudga kelishi va rivojlanishi asosida individual xo'jaliklarning tovar ayirboshlashga, oldi-sotdiga o'tish yo'li bilan boradi. Ayrim turdagi

mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuv, ularni turli xil ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ayirboshlashni zarur qilib qo'yadi. Ixtisoslashuv esa mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi, natijada vaqtni va moddiy resurslarni tejash tovar xo'jaligi rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchiga aylanib boradi. Demak, tovar ayirboshlash faqat zarurgina emas, balki foydali bo'lib boradi.

Dastlabki davrlarda tovar xo'jaliklari jamoalar, quldor latifundiylari, feodal va dehqon xo'jaliklari o'rtasida aloqalar o'rnatilishiga yordam berib, ishlab chiqarish va umuman jamiyatning rivojlanishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochgan. Ma'lum tarixiy davrlarga kelib, tovar munosabatlari jamiyat iqtisodiyotining barcha tomonlarini keng va chuqur qamrab oladi.

Tovar munosabatlarining bunday uzoq davom etishi nima bilan izohlanadi, buning sababi nima? Avvalo, bu ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlar mehnatni hisoblash va uni jamoaning jami mehnatiga kiritishning maxsus uslubidir. Bu ishlab chiqarishning o'zida emas, ayirboshlash doirasida oldi-sotdi yo'li bilan amalga oshiriladi. Agar natural ishlab chiqarish bevosita umumiy aloqalar bilan xarakterlansa, tovar-pul munosabatlari bevosita ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi o'zaro umumiy aloqalar, shuningdek, ular va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi.

Tovar munosabatlari vujudga kelishining ikki sababi bor:

1) ijtimoiy mehnat taqsimotining ro'y berishi. Bunda ishlab chiqaruvchilar u yoki bu aniq mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Ixtisoslashuv, o'z navbatida, qiyosiy ustunlik tamoyili bo'yicha, ya'ni mahsulotni nisbatan kam muqobil qiymatda ishlab chiqarish layoqati bilan aniqlanadi;

2) ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy jihatdan alohidalashuvi. Bunda ular o'z mehnat natijalarini o'zlari tasarruf qiladilar. Iqtisodiy alohidalik xo'jalik faoliyatiga oid barcha qarorlarni ishlab chiqaruvchining o'zi hal qilishini bildiradi. Xuddi shu ikki holat tovar ishlab chiqarishni zarur qilib qo'yadi va bozor vujudga kelishining shart-sharoiti hisoblanadi. Mehnat mahsuli tovarga, ya'ni bozorda ayirboshlash uchun, sotish uchun tayyorlanadigan narsaga, ishlab chiqaruvchilar esa tovar ishlab chiqaruvchilarga aylanadi.

Tovar ishlab chiqaruvchilarning holati qarama-qarshi: bir tomondan, uning mehnati umumiy xarakterga ega, u jamiyatga uning tovariga talab borligi uchun zarur, boshqa tomondan, uning mehnati o'ziga xos bo'lib, o'z shaxsiy hisobiga olib boriladi va noma'lum iste'molga



**mo'ljallangan.** Mehnatning umumiy ahamiyati tovar savdosi bilan taqdirlanishi kerak, buning uchun bozorda xaridorni topishi lozim.

Tovar ishlab chiqarishning mohiyatini yanada kengroq tushunish uchun uning asosiy unsuri bo'lgan tovarning xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## 2.2. Tovar pul munosabatlarining vujudga kelishi

Ayirboshlash qiymatiga, avvalo, bir turdagi iste'mol qiymatini boshqa turdagi iste'mol qiymatiga ayirboshlaydigan miqdoriy muvofiqlik (proporsiya) sifatida qaraladi:

$$2 \text{ etik} = 1 \text{ kostum}$$

Turli xildagi tovarlarni tenglashtirish ularning ayirboshlashgacha bo'lgan obyektiv tengligini nazarda tutadi. Buni qadimgi grek faylasufi Aristotel ham ta'kidlab o'tgan: «Almashinuv tengsizlikda yuz berishi mumkin emas, tenglik esa umumiy o'lchovsiz», degan edi u.

Tovar-pul munosabatlarini tushunishda tovarning mazmunini, uning xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga egadir. Tovarga ta'rif berishda ham iqtisodchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, E.F. Borisov ta'rifiga ko'ra «Tovar – bu bozorda boshqa tovarga ekvivalent asosida ayirboshlashga mo'ljallangan, mehnat orqali yaratilgan ijtimoiy naflikdir»<sup>1</sup>. Bundan ko'rinadiki, u tovarga inson mehnati mahsuli sifatida qaraydi.

V.I. Vidyapin va boshqalar tahriri asosida tayyorlangan darslikda «ne'mat» va «tovar» tushunchalariga keng izoh berilgan. Unda tovar iqtisodiy ta'rifning maxsus shakli bo'lib hisoblanishi ko'rsatib berilgan: «Tovar – bu ayirboshlash uchun ishlab chiqarilgan maxsus iqtisodiy ne'mat»<sup>2</sup>.

**Bu va boshqa qator olimlarning fikrlari asosida ta'kidlash mumkinki, tovar – bu biron-bir naflilikka va qiymatga ega bo'lgan ayirboshlash uchun yaratilgan mehnat mahsuli.**

Tovar ikki xususiyatga ega: *birinchidan*, u kishilarning qandaydir ehtiyojini qondiradi; *ikkinchidan*, u boshqa buyumga ayirboshlana oladigan buyumdur. Boshqacha aytganda, tovar iste'mol va almashuv qiymatlariga ega.

<sup>1</sup> Борисов Э.В. Экономическая теория учеб. – 2-е изд, перераб. Изд-во ПРОСПЕКТ – М.: ТК Велби ТК, Изд-во ПРОСПЕКТ, 2005, с.144.

<sup>2</sup> Экономическая теория учеб. – изд, исп. I доп. / Под общей ред Акад. В.И. Видяпина, А.И. Добринина, Г.Р. Журавлёвой, Л.С. Тарасевича. – М.: ИНФРА – М.: 2005, с.143.

Buyumning iste'mol qiymati shundan iboratki, u kishilar uchun foydali va naflidir. U shaxsiy iste'mol buyumi yoki ishlab chiqarish vositalari sifatida kishilarning biron-bir ehtiyojini qondiradi.

Naflilikni aniqlashda ham turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, marjinalizm maktabi asoschilari ham, ularning keyingi davomchilari ham tovarlar nafliligini aniqlashda alohida olingan individning hayolidagi psixologik yondashuv bilan, ya'ni hech kim bilan aloqasi bo'lmagan o'rmondagi cholning yoki kimsasiz orolda bir o'zi qolib ketgan Robinzonning xayoli bilan aniqlash usulini qo'llaydilar. Xolbuki, tovar ayirboshlash jamiyat a'zolari o'rtasida, gavjum bozor qatnashchilari o'rtasida sodir bo'ladi. Ular naflilikning negizida obyektiv iqtisodiy jarayon borligini, naflilik tabiat ashyosi bilan jonli mehnatning birikishi natijasida, to'g'rirog'i naflilik aniq mehnat bilan tabiat ashyosining xususiyatlari o'zgartirilishi natijasida vujudga kelishini o'ylab ham o'tirmaydilar. Albatta, tabiatda mavjud bo'lgan yoki inson mehnati bilan yaratilgan har qanday narsa ham naflilikka ega bo'lavermaydi.

Shuning uchun iqtisodiyot nazariyasida ijtimoiy zaruriy naflilik degan tushuncha qo'llaniladi va bozor mana shu ijtimoiy zaruriy naflilikni tan oladi.

*Ijtimoiy zaruriy naflilik deb talab miqdoriga mos keladigan miqdordagi naflilikka aytiladi.*

Ne'matlar tovar bo'lishi uchun, ular ayirboshlashga mo'ljallangan, ma'lum mehnat sarflangan, bozorga sotishga chiqarilgan bo'lishi zarur. Shunga ko'ra, tovar mahsulotdan farqlanadi. Tovar, eng avvalo, o'z iste'moli uchun emas, balki boshqalarning iste'moli uchun bozorga sotish maqsadida tayyorlanadigan mahsulotdir. Tovarining natural-buyum va ijtimoiy-iqtisodiy tomonlari, xususiyatlari ana shundan kelib chiqadi.

Tovarining almashuv qiymati — bu biror turdagi naflilikning boshqa turdagi naflilikka ayirbosh qilinadigan miqdoriy nisbatidir. Masalan, bitta bolta 20 kg donga ayirbosh qilinadi. Ayirbosh qilinadigan tovarlarning bu miqdoriy nisbatida ularning almashuv qiymati ifodalanadi.

Qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlari<sup>1</sup> fikriga ko'ra, tovarlar qiymatining umumiy asosi bo'lib mehnat hisoblanadi, shu sababli ular ma'lum miqdorlarda bir-biriga tenglashtiriladi. Tovarlarning og'irligi, hajmi, shakli va shu kabi tabiiy xususiyatlaridan birortasi qiymatning

---

<sup>1</sup> Tovar qiymatini mehnat bilan aniqlashga yondoshuvlarida ma'lum farqlar mavjud bo'lsada ularga A. Smit, D. Ricardo, U. Petti, J.S. Mill va boshqa ayrim iqtisodchilarni, ularning izdoshlarini kiritish mumkin.

umumiy asosi bo'la olmaydi. Ayirboshlashning zarur sharti bo'lib, tovarlarning turlicha nafilligi hisoblanadi. Biroq, turli tovarlarning nafilligi sifat jihatidan farq qilish bilan birga miqdoriy o'lchamga ega emas. Miqdor jihatdan taqqoslash uchun tovarlarda mavjud bo'lgan umumiy narsa – ularni yaratish uchun sarflangan mehnatdir.

Tovarlar o'lchovdosh bo'lishining boisi shuki, bularning hammasi umuman inson mehnati mahsulidir, ya'ni inson kuchi, miyasi, mushagi, asablari va hokazolari sarfning mahsulidir. Tovarida mujassamlashgan ijtimoiy mehnat uning qiymatini tashkil qiladi. Bu qiymat tovar ayirboshlaganda ko'rinadi, shuning uchun almashuv qiymati (ya'ni, iste'mol qiymatlarini ayirboshlash nisbati) qiymat shakli bo'lib, uning ichki mazmunini tashkil etadi. Bu holat L.M. Kulikov tomonidan qiymat va almashuv qiymatini tovarning alohida asosiy xususiyatlari sifatida ajratilib ko'rsatilishida namoyon bo'ladi. «Qiymat – bu tovar ishlab chiqarish va uni sotish (ko'pincha qisqacha qilib «ishlab chiqarish xarajatlari» deb ataydilar) qanchaga tushganligi ifodasidir. Tovarni ayirboshlaganda (sotilganda) ishlab chiqaruvchi (sotuvchi), tabiiyki, o'z xarajatlarini qoplashni istaydi, biroq bozorda boshqacha nisbatlar tarkib topishi mumkin. Endi ularni boshqa ko'rsatkich – almashuv qiymati ifodalaydi. Bu bir tovar boshqasiga ayirboshlanadigan miqdoriy nisbatdir»<sup>1</sup>. Tovarining o'zi esa ikki tomon – nafillik va qiymatning uzviy birligidan iboratdir.


Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, L. Kulikov tomonidan qiymatga berilgan yuqoridagi ta'rif ba'zi hollarda iqtisodchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan yanglish fikrlardan ham xoli emas. Ya'ni, qiymatning ishlab chiqarish xarajatlari bilan ayniylashtirilishini u tomonidan yo'l qo'yilgan xatolik deb hisoblaymiz (ishlab chiqarish xarajatlari qiymatning bir qismi bo'lib, miqdor jihatidan undan kamdir).

***Tovar qiymatining miqdori ijtimoiy-zaruriy ish vaqti orqali hisoblanadi. Ijtimoiy zaruriy ish vaqti muayyan ijtimoiy normal ishlab chiqarish sharoitida va muayyan jamiyatdagi mehnat malakasi hamda jadallashuvi darajasi o'rtacha bo'lgan sharoitda biron bir tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqtidir.*** Tovar qiymatining miqdorini hisoblashda mehnatning oddiy va murakkab, malakali hamda malakasiz, aqliy yoki jismoniy turlari hisobga olinadi. Qiymatni hisoblashda nisbatan murakkab mehnat ko'paytirilgan yoki darajaga ko'tarilgan oddiy mehnat

---

<sup>1</sup> Куликов Л.М. Экономическая теория: учеб. – М.: ТК Вебли, изд-во Проспект, ТК Вебли, 2005, с.129.

sifatida hisobga olinadi, shu sababli oz miqdordagi murakkab mehnat ko'p miqdordagi oddiy mehnatga tenglashtiriladi. Tovarning ikki xil xususiyatga ega bo'lishiga sabab tovar ishlab chiqaruvchi mehnati tabiatining ikki tomonlamaligidadir. Bir tomondan, bu – muayyan turdagi aniq mehnatdir. Shuning uchun, iste'mol qiymatni yaratgan mehnat **aniq mehnat** deb nom olgan (1-chizma).



1-chizma. Mehnatning ikki yoqlama xarakteridan kelib chiquvchi tovarning ikki xil xususiyati

Ikkinchi tomondan, mehnat – aniq shakldan qat'i nazar, umuman sarflangan inson ishchi kuchidir, jami ijtimoiy mehnatning bir qismidir. U o'zining shu sifatida **abstrakt** mehnat deb ataladi. Bu mehnat esa tovar qiymatini yaratadi.

Qiymat tovarning emas, balki faqat mehnatning ijtimoiy xossasi bo'lib, unda tabiat ashyolarining birorta ham molekulasi, zarrachasi yo'qdir. Qiymatning asosida odamlar bir-birlari uchun mehnat qilishlarini bildiruvchi ijtimoiy mehnat yotadi. Biroq, alohidalashgan tovar ishlab chiqaruvchilar mehnati o'zining ijtimoiy xususiyatini faqat mehnat mahsullarini ayirboshlash orqali ko'rsatadi.

**Tovarlar qiymatining miqdori mehnat unumdorligiga qarab o'zgaradi. Mehnat unumdorligi ma'lum ish vaqti birligi mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan ish vaqti bilan o'lchanadi.** Mehnat unumdorligining o'zgarishi tovar birligi qiymatining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Mehnat unumdorligi o'ssa, tovar birligining qiymati kamayadi yoki aksincha, mehnat unumdorligi pasaysa, tovar birligining qiymati oshadi.

Mehnat intensivligi ish vaqti birligi mobaynida sarflangan mehnat miqdori orqali tavsiflanuvchi ko'rsatkich hisoblanadi. **Mehnatning intensivligi deganda ish vaqti birligi davomida ishchi kuchi sarfi orqali aniqlanuvchi mehnat jadalligining darajasi tushuniladi.** Mehnatning jadallik darajasini aniqlashda ish kunining davomiyliigi yoki bir soat

vaqt birligi sifatida qabul qilinadi. Mehnat intensivligining oshishi muayyan vaqt davomida ko'proq qiymat yaratilishiga imkon beradi.

Tovar qiymatining negizini aniqlash doimiy ravishda tortishuvlar va munozaralarga sabab bo'lib, bu borada quyidagi ikki asosiy yo'nalish mavjud: 1) qiymatning mehnat nazariyasi; 2) qiymatning keyingi qo'shilgan miqdor nafilligi nazariyasi.

**Qiymatning mehnat nazariyasi** asoschilari bo'lib, Uilyam Petti, Adam Smit, David Rikardolar hisoblanadi.

U. Petti – qiymatning mehnat nazariyasining dastlabki asoschisi bo'lib, u qiymatning manbayi mehnat hisoblanishini, aynan mehnat sarfi tovar qiymati miqdorini belgilab berishini ko'rsatib o'tgan. Biroq, U. Petti tovarning iste'mol qiymati va qiymati o'rtasidagi farqni ko'ra olmagan. U tovarning qiymati faqat qimmatbaho metallarni ishlab chiqarishga sarflanuvchi mehnat orqali yaratiladi, deb hisoblagan.

A. Smit o'zining «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqotlar» (1776-y.) nomli asarida tovarning iste'mol va almashuv qiymatini farqlab bergan. U tovar qiymatining yagona manbayi bo'lib, moddiy ishlab chiqarishning har qanday sohasida sarflangan mehnat hisoblanadi, degan xulosaga kelgan. Shu bilan birga, tovar qiymatining miqdorini har qanday mehnat emas, balki jamiyat uchun zarur bo'lgan o'rtacha mehnat belgilab berishini ko'rsatib o'tgan.

D. Rikardo qiymatning yagona mezonini bo'lib, tovar ishlab chiqarishga sarflangan hamda ish vaqti sarflari orqali aniqlanuvchi mehnat hisoblanishini isbotlab bergan. U tovarning iste'mol qiymati va qiymati o'rtasidagi farqni aniq ko'rsatib, har qanday ishlab chiqarishda tovarning qiymati sarflangan mehnat orqali aniqlanishini ta'kidlagan.

Demak, yuqorida ta'kidlaganimizdek, qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlarining fikricha, tovarlarni ayirboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi. Qiymatning miqdori esa ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan, ya'ni ijtimoiy zaruriy ish vaqti bilan o'lchanadi.

Qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlari tovar ishlab chiqarish sharoitida tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi aloqalarni, ijtimoiy mehnatni taqsimlash va rag'batlantirishni tartibga soluvchi, **obyektiv qiymat qonunini** mavjud bo'lishini tan oladi. Ular fikriga ko'ra, bu qonunga binoan tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi.

Qiymat qonuni individual mehnat sarfi ijtimoiy zarur mehnat sarfidan ozroq bo'lgan ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantiradi. Bu bilan ishlab chiqaruvchilarning mehnat unumdorligini oshirishga undaydi. Aks holda ular bozordan siqib chiqarilishlari yoki xonavayron bo'lishlari mumkin.

Qiymat qonuni tovar ishlab chiqaruvchilarni tabaqalashtiradi, mehnat va moddiy sarflarni kamaytirishni rag'batlantiradi va mehnatning ishlab chiqarish sohalari bo'yicha taqsimlanishini tartibga solib turadi. Masalan, eng yuksak mehnat unumdorligiga erishgan ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlarini ijtimoiy zarur sarflaridan kamroq, lekin ayrim individual sarflaridan yuqori narxlarga sotishlari va yuqori foyda olishlari mumkin. Lekin ular ish faoliyatining muvaffaqiyati kafolatlangan deb bo'lmaydi. Chunki ular ishlab chiqarishga fan-texnika yangiliklarini, samarali ishlab chiqarish usullarini o'z vaqtida qo'llab turmasalar, ma'lum vaqtdan so'ng o'z ustunliklaridan ajralib qolishlari mumkin.

Qiymat qonunining tartibga solib turuvchi mexanizmi raqobat kurashi natijasida bozor narxlarining stixiyali ravishda tebranib turishidan, ularning ijtimoiy qiymatdan farq qilib turishidan iborat. Tovar narxining ijtimoiy qiymatidan chetga chiqish shart-sharoitlari quyidagilardan iborat deb hisoblanadi:

Talab = taklif bo'lgan holda, narx = qiymat.

Talab > taklif bo'lgan holda, narx > qiymat.

Talab < taklif bo'lgan holda, narx < qiymat.

Shunday qilib, tovarlar narxining ular qiymatidan farq qilishi tovar ishlab chiqaruvchilarning xohishi bilan sodir bo'lmay, balki obyektiv qiymat qonunining kuchi ta'siri ostida bo'ladi.

**Keyingi qo'shilgan miqdor nafiligi nazariyasining** asoschilari bo'lib, avstriya maktabi vakillari K. Menger (1840–1921), F. Vizer (1851–1926), E. Bem-Baverk (1851–1914) va boshqalar hisoblanadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, kishilar tomonidan juda xilma-xil moddiy va ma'naviy ne'matlar (hamda xizmatlar) ularni ishlab chiqarishga ijtimoiy zaruriy mehnat sarflanganligi uchun emas, balki ushbu ne'matlar nafilikka ega bo'lishi sababli qadrlanadi. Insonlar tomonidan ma'lum nafililiklarga ehtiyoj sezilganligi sababli u yoki bu tovarni ishlab chiqarishga mehnat sarflari amalga oshiriladi. Mazkur nazariya tarafdorlari fikrlariga ko'ra, faqat tovarning nafiligi mehnat sarflariga «ijtimoiy zaruriy» deb nomlanadigan tavsif berishi mumkin.

Keyingi qo'shilgan miqdor nafiligi nazariyasi bilan qiymatning mehnat nazariyasining bir-biriga to'g'ri kelmasligi turli xil iste'mol qiymatlarini yoki nafililigini hisobga olish muammosi bilan bog'liq. Chunki, turli ko'rinishdagi ikkita tovarning nafililigini shunchaki umumiy tarzda o'zaro taqqoslash mumkin emas. Bu nazariya tarafdorlari, nafililikning ikki turini ajratib ko'rsatish zarur deb hisoblaydilar: a) abstrakt yoki umumiy nafililik,

ya'ni ne'matlarning kishilar biron-bir ehtiyojlarini qondirish layoqati; b) aniq naflilik, bu ne'mat mazkur nusxasi foydaliligining subyektiv narxini bildiradi. Bu subyektiv narx ikki omilga bog'liq: mazkur ne'matning mavjud zaxirasi va unga bo'lgan ehtiyojning to'yinganlik darajasi.

Keyingi qo'shilgan miqdor naflligi muammosini o'rmonda yashovchi chol ega bo'lgan besh qop don misolida, uning ongida sodir bo'lgan psixologik xayol orqali tasvirlab ko'rsatadilar. Bu qoplardagi donning naflligi kamayib boruvchi tartibda joylashadi: birinchi qopdagi don eng zarur, ya'ni cholning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun iste'mol qilinadi, ikkinchisi – ovqatlanishni yaxshilash uchun, uchinchisi – uy parrandalarini boqish, to'rtinchisi – pivo tayyorlash, beshinchisi – cholning o'z uyi atrofida sayrab yurgan qushlarni boqib, ko'ngilxushlik qilishi uchun.

Bundan ko'rinadiki, beshinchi qopning naflligi chol uchun u qadar ahamiyatli emas, chunki agar bu qopdagi dondan mahrum bo'lsa u faqatgina ko'ngilxushlik qilish imkoniyatidan voz kechadi xolos. Biroq, to'rtinchi qopdagi donning yo'q bo'lishi cholni pivosiz, uchinchisi esa parrandalarsiz qoldirishi mumkin. Faqat bitta qopdagi don qolgan taqdirda chol uchun uning naflligi eng yuqori darajaga yetadi, ya'ni u ovqatlanish ehtiyoji bilan tenglashadi.

Shu o'rinda turli qoplardagi donlarning naflligi turlicha ekan, ularning qaysi biri donlarning umumiy naflilik darajasini aniqlab beradi, degan savol tug'iladi. Xolbuki, qoplardagi donlarning bir-biridan farqi yo'q ekan, chol uchun ularning naflligi beshinchi, so'nggi qopdagi donning naflligi orqali aniqlanadi. Demak, har bir ne'matning so'nggi qo'shilgan birligi, ya'ni uncha muhim bo'lmagan ehtiyojni qondiruvchi birligining naflligi kamayib borish xususiyatiga egadir.

Qiymat va narx nazariyasida yangi yo'nalishni boshlab bergan kishi mashhur ingliz iqtisodchisi A. Marshall hisoblanadi. Tovarlarining qiymatini aniqlashda mehnat nazariyasi ham, qo'shilgan naflilik nazariyasi ham yetarli asosga ega emas, deb hisoblagan A. Marshall bir nechta nazariyalarni sintez qilish yo'li bilan aniqlik kiritishga harakat qildi. Qo'shilgan miqdor naflligi nazariyasining bir tomonlamaligini u qiymatni faqat naflilik bilan tushuntirishda ko'rdi. A. Marshall keyingi qo'shilgan miqdor naflligi nazariyasini talab va taklif nazariyasi hamda ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasi bilan bog'lashga harakat qildi.

A. Marshallning tovar qiymati nima bilan aniqlanishini bilishda qo'shilgan miqdor naflligi va ishlab chiqarish xarajatlarini sintez qilish (umumlashtirish) zarurligi haqidagi fikri juda mashhur. Neoklassiklarning

qiymat va narxning bir negizli (monistik) nazariyasini yaratishga urinishdan chekinish xususan A. Marshall ishlari bilan bog'liq. Neoklassiklarning qoidalari qiymatning yagona manbayi, narxning yagona asosi va bozor xo'jaligida jamiyat daromadlarining yagona manbayi topilishi zarurligini bildiradi. Bunday yagona manba, masalan, ingliz klassik iqtisodiy maktabi va markscha nazariyalarda mehnat, marjinalistlarda qo'shilgan miqdor nafilligi kategoriyasi hisoblanadi. A. Marshall nazariyasida esa qiymat va narx ham talab (qo'shilgan miqdor nafilligi) va ham taklif (tovar ishlab chiqarish xarajatlari) tomonida yotuvchi bozor kuchlari o'zaro ta'siri orqali aniqlanadi.

A. Marshall fikricha, tovar qiymati teng darajada keyingi qo'shilgan miqdor nafilligi va ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi. Shunday qilib, A. Marshalldan boshlab iqtisodiyot nazariyasida turli nazariyalarni sintez qilishga o'tildi.

Lekin A. Marshall ushbu sintezni oxirigacha yetkaza olmadi. U ijtimoiy zaruriy nafillik va ijtimoiy zaruriy mehnat tovarning ikki tomoni ekanligini aniq ko'ra olmadi. Shuning uchun, u ijtimoiy nafillik o'rniga qo'shilgan nafillikni, ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari o'rniga ishlab chiqarish xarajatlarini qo'ydi. Natijada tovarning qiymati ham, nafilligi ham to'liq hisobga olinmadi. Umuman aytganda uzoq tarixiy davrdan boshlab tortishuvga sabab bo'lgan narsa tovarda gavdalangan ijtimoiy mehnatning ikki yoqlama tavsifi va shu asosda hosil bo'ladigan tovarning ikki xil xususiyatiga ega bo'lishini inobatga olmaslikdir. Mehnat nazariyachilari tovarga sarflangan mehnat miqdoriga asosiy e'tiborni qaratgan bo'lsa, marjinalistlar uning nafilligiga e'tibor berib keladilar. Ularning biri ko'proq tovarni ishlab chiqaruvchilar manfaati nuqtayi nazaridan tahlil qilgan bo'lsa, ikkinchisi iste'molchi (xaridorlar) manfaati nuqtayi-nazaridan qaraydilar. Xolbuki tovarning qiymatini va binobarin narxini aniqlashda uning ikki tomoniga va sotuvchilar bilan xaridorlar manfaati to'qnashgan tugunga e'tibor qaratish zarur.

### **2.3. Pulning mohiyati va funksiyalari.** **Hozirgi zamon pulining iqtisodiy mazmuni**

Bu yerda pulga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Pul – tovar ayirboshlashda umumjamiyat ekvivalenti rolini bajaruvchi alohida tovar, ayirboshlash va qiymat shakli rivojlanishi natijasidir. Pul tufayli tovar qarama-qarshiliklariga ruxsat beriladi. Tovar dunyosining tovar va pulga bo'linishi iste'mol qiymati qiymat o'rtasidagi ichki qarama-qarshilik tashqi



ko'rinish olishini anglatadi. Tovarlar iste'mol qiymati kabi pullarga xuddi qiymatning ashyoviy tashuvchisi sifatida qarama-qarshi turadi. Agar tovar sotilsa, bu bilan uning iste'mol qiymati, uning kimgadir kerakligi isbotlanadi va u qiymatga ega bo'ladi. Pulning oxirgi ko'rinishi tovar ishlab chiqaruvchi qo'lida qoladi va u pulning kattaligiga muvofiq keladigan, o'zi uchun zarur bo'lgan iste'mol qiymatini olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pullarning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati ularning ichki mazmunini ifodalaydigan funksiyalarida namoyon bo'ladi. Pullar quyidagi beshta funksiyani bajaradi: *qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi, jamg'arish vositasi va jahon pullari*.

1. *Qiymat o'lchovi* – pullar umumiy ekvivalent sifatida hamma tovarlarning qiymatini o'lchaydi. Tovarlarini ishlab chiqarish uchun sarflangan ijtimoiy zarur mehnat ularni tenglashtirish uchun sharoit yaratadi. Hamma tovarlar ijtimoiy zaruriy mehnat mahsuli hisoblanadi, shuning uchun o'zi qiymatga ega bo'lgan haqiqiy pullar (kumush, oltin) boshqa barcha tovarlar qiymatining o'lchovi bo'lishi mumkin. Bunda tovarlar qiymatining pullar vositasida o'lchanishi ideal tarzda yuz beradi, ya'ni tovar egasida naqd pullarning bo'lishi shart emas.

Shunday qilib, pullar qiymat o'lchovidan iborat bo'ladi. Jamiyat pul birligidan turli xil ne'matlar va resurslarning nisbiy qiymatlarini solishtirish uchun masshtab sifatida foydalanishni qulay deb hisoblaydi. Masofani metrlar va kilometrlarda yoki vaznni grammlar hamda kilogrammlarda o'lchaganiga o'xshatib ne'matlar va xizmatlarning qiymati ham pul ifodasida solishtiriladi. Bu shubhasiz afzalliklarga ega. Pul tizimi tufayli har bir mahsulotning narxini uni almashtirish mumkin bo'ladigan boshqa hamma mahsulotlar orqali ifodalashga zarurat qolmaydi. Pullarning umumiy ekvivalent sifatida foydalanilishi shuni anglatadiki, har qanday tovarning narxini faqat pul birligi orqali ifodalash yetarli bo'ladi. Pullarning shu tarzda ishlatilishi bitim qatnashchilariga har xil tovarlar va resurslarning nisbiy qiymatini osonlik bilan solishtirish imkonini beradi.

Hozirgi dunyoda turli ne'matlarning qiymati bir xildagi pul birliklarida – bir-biriga yengillik bilan o'tkaziladigan (konvertatsiya qilinadigan) dollarlar va shu kabilarda ifodalanadi. Tovarining pullarda ifodalangan qiymati *narx* deyiladi.

Narx tovarlarni ishlab chiqarish va sotish uchun zarur ijtimoiy mehnat xarajatlari bilan belgilanadi. Tovarlarining narxi va ularning harakati negizida *qiymat qonuni* yotadi. Tovarining narxi bozorda shakllanadi va tovarlarga talab hamda taklif teng bo'lganida bunday narx tovarning

qiymati va pullarning qiymatiga bog'liq bo'ladi. Bozordagi talab va taklif bir-biriga muvofiq kelmaganida tovarning narxi muqarrar ravishda uning qiymatidan chetga tebranib o'zgaradi. Narxlarning tovarni ishlab chiqaruvchining qiymatidan yuqoriga va pastga o'zgarishlari qanday tovarlarning ortiqcha ishlab chiqarilgani, qaysilarining — kam ishlab chiqarilganidan dalolat beradi.

Qiymatiga ko'ra turlicha bo'lgan tovarlarning narxlarini taqqoslash uchun ularni bir masshtabga keltirish, ya'ni ularni bir xildagi pul birliklarida ifodalash zarur. Metall pullar muomalasida *narxlar masshtabi* deb ushbu mamlakatda pul birligi qilib qabul etilgan va boshqa barcha tovarlarning narxlarini o'lchash uchun xizmat qiladigan pullik metallning vazni miqdoriga aytiladi.

**2. Muomala vositasi.** Pullardan tovarlar va xizmatlarni xarid qilish hamda sotishda foydalanish mumkin. Pullar muomala (yoki ayirboshlash) vositasi sifatida jamiyatni barterli (mavozali) ayirboshlashning noqulayliklaridan xalos qiladi. Pullar hamma joyda va osonlik bilan to'lov vositasi sifatida qabul qilinadi. Ushbu ijtimoiy ixtiro resurslarning egalariga va ishlab chiqaruvchilarga alohida «tovar» (pullar) bilan haq to'lashga imkon beradiki, bunday alohida tovar keyinchalik bozorda mavjud bo'lgan har qanday tovarni sotib olish uchun ishlatilishi mumkin. Pullar tovarlar bilan ayirboshlashning qulay usuli bo'lish bilan jamiyatga mintaqaviy ixtisoslashuv va odamlar o'rtasidagi mehnat taqsimotining mahsullaridan foydalanish imkonini beradi. Tovarlar muomalaga kirishi-shigacha pullarda ideal baholanadigan birinchi funksiyadan farqli ravishda pullar tovarlar muomalasida real ishtirok etishi kerak. Pullarning muomalada real ishtirok etishi va ularning ayirboshlashdagi ishtirokining o'tkinchiligi muomala vositasi sifatidagi pullarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Shu sababli to'laqonli bo'lmagan pullar — qog'oz va kredit pullar ham muomala vositasi funksiyasini bajarishi mumkin. Hozirgi vaqtda kredit pullar deb ataladigan pullar: veksellar, banknotalar, cheklar, banklarning kredit kartochkalari pul muomalasida hukmron vaziyatni egallab turibdi.

**3. To'lov vositasi.** Pullarning bu funksiyasi kapitalistik xo'jalikda kredit munosabatlarining rivojlanishi tufayli vujudga keldi. Pullardan tovarlarning kreditga sotilishida to'lov vositasi sifatida foydalaniladi, buning zarurligi tovarlarni ishlab chiqarish va sotishning shart-sharoitlari bir xilda emasligi, ularni ishlab chiqarish va muomalasi muddatining turli xilligi, ishlab chiqarishning mavsumiy tusdaligi, shuningdek, ishchilarga va xizmatchilarga ish haqining to'lanishida foydalaniladi.

To'lov aylanishida **elektron pullarning** joriy qilinishi to'lovlarning tezlashishi, muomala xarajatlarining kamayishi va korxonalar rentabelligining oshishiga yordam beradi. Bunday tizim AQSHda 70-yillardan boshlab to'lov munosabatlari mexanizmiga ayniqsa tez sur'atlar bilan joriy qilindi. Avtomatlashtirilgan hisob-kitob palatalari, avtomatlashtirilgan kassir tizimi va xarid qilish punktida o'rnatilgan terminallar tizimi ularning asosiy elementlari hisoblanadi. Elektron pullar negizida **kredit kartochkalari** paydo bo'ldi. Ular to'lovlarning naqd pullar bilan bajarilishini qisqartirishga yordam berib, naqd pullar va cheklarning o'rnini bosadigan hisob-kitoblar vositasi bo'lib xizmat qiladi. Kredit kartochkalarining ahamiyati shundaki, ulardan foydalanish naqd pullar ishlatiladigan sohani toraytiradi, tovarlar va xizmatlarni sotishda hamda iqtisodiyotdagi tanazzul holatlarini bartaraf etishda kuchli stimuly bo'lib hisoblanadi.

**4. Jamg'arish vositasi.** Pullar ularning egasiga har qanday tovarni olish huquqini ta'minlash bilan ijtimoiy boylikning umumiy timsoli hisoblanadi. Shuning uchun odamlarda ularni to'plash va jamg'arishga intilish paydo bo'ladi. Iqtisodiy subyekt o'z mahsulotiga haq to'lanishi evaziga pullarni olish bilan muayyan «sof boylik zaxirasi»ni yaratadi. Bunday zaxira qisqa muddatli (agar individ pullarini kelgusida xarid qilish yoki qarzini to'lash uchun saqlab qo'ysa) bo'lishi mumkin.

Pullar jamg'arma vositasi funksiyasini bajaradi, shuning uchun ular buni eng qulay shaklda jamg'arishga imkon beradi. Pullar eng likvidli, ya'ni sarflash uchun eng oson tovar bo'lganligi sababli ular boylikni saqlashning eng qulay shakli hisoblanadi. Bunda shuni qayd qilamizki, inflatsiya sharoitida bunday afzallik muayyan tarzda yo'qoladi va pullarning qadrsizlanishini hisobga olish zarurati vujudga keladi. Pullarga egalik qilish, ularni saqlash, qimmatli qog'ozlarni (aksiyalar, obligatsiyalar va shu kabilarni) saqlashdagi kabi miqdorda pul daromadini olib kelmaydi. Biroq pullar shunday afzallikka egaki, ular korxonalar tomonidan yoki uy xo'jaligida har qanday moliyaviy majburiyatni qondirish uchun hech qanday to'siqsiz ishlatilishi mumkin.

Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan pullarning to'plash va jamg'arish vositasi sifatidagi funksiyasi ham oshib boradi. To'plash va jamg'arishsiz takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi. Ko'proq foyda olishga bo'lgan intilish tadbirkorlarni pullarni xazina sifatida saqlamaslik, balki ularni aylanishga sarflashga majbur qiladi.

Metall pullar muomalasi sharoitida markaziy emissiya banklari ichki pul muomalasining zaxiralari shaklida oltin zaxiralarga ega bo'lishi shart edi. Hozirgi vaqtda oltinni muomaladan chiqarilganligi, bankno-

talarning oltin almashirilishi to'xtatilganligi va oltin paritetlarning bekor qilinganligi, ya'ni asl metallning xalqaro aylanishdan chiqarilganligi sababli markaziy bank oltin zaxirasining barcha bunday funksiyalari bekor bo'ldi. Shu bilan birga, oltin strategik zaxira sifatida markaziy banklarda saqlanishda davom etmoqda.

**5. Jahon pullari.** Tashqi savdo aloqalari, xalqaro qarzlarni, tashqi hamkorlarga xizmatlar ko'rsatilishi jahon pullarining paydo bo'lishini taqozo etdi. Pullarning bu funksiyasi xalqaro savdoga xizmat qiladi, xalqaro to'lov vositasi (tashqi savdo balansini tanqisligini qoplashda), xalqaro iste'mol vositasi (tovarga to'lovlarini naqd pulda to'lashda), ijtimoiy boylarni moddiylashtirish (kapitallarni bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazishda) rolini bajaradi.

Pullarning barcha beshta funksiyasi pullarning tovarlar va xizmatlarning umumiy ekvivalenti sifatidagi yagona mohiyatini namoyon qiladi. Ular chambarchas bog'liqlikda va birlikda bo'ladi. Mantiqan va tarixiy jihatdan har bir navbatdagi funktsiya bundan oldingi funksiyalarning muayyan rivojlantirilishini nazarda tutadi.

Pullarning sanab o'tilgan funksiyalarni bajarishi tufayli ular, ayniqsa, bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarishning rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Pullarning iqtisodiy tizimdagi ijtimoiy roli shundan iboratki, ular mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi bog'lab turuvchi bo'lg'in, shuningdek, tovar xo'jaligidagi ijtimoiy mehnatni hisobga olish vositasi hisoblanadi. Pullar tovarlarga narxlarni belgilashda qatnashadi.

## XULOSALAR

1. Natural ishlab chiqarishning tovar ishlab chiqarishga o'tishi — qonuniy va uzoq jarayondir. Ibtidoiy jamoa tuzumining parchalanishi bilan yuzaga kelgan tovar munosabatlari ishlab chiqarishning keyingi barcha uslublarida o'z o'rniga ega va uning maqbulligini ko'rsatadi.
2. Tovar-pul munosabatlarining yuzaga kelishi sabablari ijtimoiy mehnat taqsimoti va shaxsiy mulk paydo bo'lishi bilan bog'liq. Bu ikkalasi ham ishlab chiqaruvchilarning o'ziga xosligini anglatadi. Birinchisi, alohida mahsulotlarni tayyorlash, ikkinchisi, iqtisodiy o'ziga xoslikdan iborat. Tovar ishlab chiqarishning asosiy ziddiyati mehnatning ijtimoiy xarakteri va uning alohidaligi orasidagi ziddiyatdan tashkil topgan bo'ladi.
3. Tovar ikki xususiyat — iste'mol qiymati (foydaliligi) va ayirboshlov qiymati (aniq proporsiyada boshqa tovarga ayirboshlanishi) birligidan iboratdir.
4. Qiymat shakli rivojlanishi o'zida tovar almashinuvi rivojlanishining tarixiy jarayonini mujassamlashtiradi va quyidagi bosqichlarni bosib

o'tadi: oddiy (yoki favqulodda) qiymat shakli, to'liq (yoki mukammal) qiymat shakli, qiymatning ijtimoiy shakli va pul shakllari.

5. Pulning mohiyati quyidagi funksiyalarda o'z aksini topgan: qiymat o'lchovi, muomala vositasi, jamg'arish vositasi, to'lov vositasi va jahon pullari. Tovar, almashinuvining keyingi rivojlanishi zamonaviy rivojlangan bozor iqtisodiyoti uchun xarakterli bo'lgan qiymatning mukammal-pul shakliga olib keldi. Elektron pullar yordamida aks etadigan qiymat munosabatlari o'zining soxta qobig'idan mahrum bo'ladi. Har bir tovar bozordagi tovarlar massasidagi o'z ayirboshlash ko'rinishiga ega. Bu proporsiya to'g'ri va bevosita (qimmat metall orqali emas) boshqa tovarlarga bog'liq bo'lgan zamonaviy pullar yordamida realizatsiya qilinadigan narxlar bilan qayd etiladi.
6. Oltin standarti davrida dunyo miqyosida har kim o'z «milliy mundiri»ni – dollar, funt-sterling, marka, rubl va boshqalarni tiqishtira boshladilar va ularni natural shaklda oltin qiymati ko'rinishida qo'lladilar. Lekin asta-sekin bu doirada oltinni siqib chiqarish yuz bera boshladi va uning o'rnini qiymat ko'rsatkichlari egalladi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

*Umumiy iqtisodiy shakllar, natural xo'jalik, tovar ishlab chiqarish, oddiy tovar ishlab chiqarish, kapitalistik tovar ishlab chiqarish, tovar ishlab chiqarishning asosiy ziddiyatlari, ayirboshlash qiymati, tovar qiymati, qiymat substansiyasi, qiymatning oddiy shakli, mulkning to'liq (yoki mukammal) shakli, qiymatning ijtimoiy shakli, qiymatning pul shakli, qiymatning mukammal-pul shakli, pul, narx, pulning funksiyalari, oltin standarti.*

### **Nazorat uchun savollar**

1. Tovar ishlab chiqarishning yuzaga kelish sabablari va uning mohiyati nimada?
2. Tovar ishlab chiqarish natural ishlab chiqarishdan nimasi bilan farq qiladi?
3. Tovar ishlab chiqarish va uning shakllari rivojlanishi bosqichlari nimadan iborat?
4. Tovar ishlab chiqarishning qarama-qarshiligi nimadan iborat?
5. Tovar ishlab chiqaruvchilarning o'ziga xosligi nimalardan iborat?
6. Tovar ishlab chiqarishning ziddiyatlari qanday hal qilinadi?
7. Mehnatning «tabiiy» o'lchovi qanday?
8. Mehnatning ijtimoiy o'lchovi qanday?
9. Tovar almashinuvi va uning ziddiyatlari rivojlanishining tarixiy jarayonlari qanday?
10. Pulning tovar sifatidagi o'ziga xosligi nimadan iborat?
11. Oltinning demonitarizatsiyasi nima?
12. Ekonomiks zamonaviy pullar tabiatini qanday izohlaydi?

### **3-bob. PUL TO'G'RISIDA NAZARIY KONSEPSIYALARNING TARIXIY SHARHI**

---

#### **3.1. Pulning metallistik nazariyasi**

Pul nazariyasi erkin raqobat vujudga kelgan davrdan ancha oldin paydo bo'lgan bo'lib, ko'p asrlik tarixga ega. Ushbu bobda asosiy pul konsepsiyalarini – metallistik, nominalistik va miqdoriy pul nazariyalarini ko'rib chiqamiz. Bu bizga pul nazariyasining shakllanish mantiqi, turli zamonaviy iqtisodiy maktablarning tarixiy manbalarini tushunishga imkon beradi.

Pulning metallistik nazariyasi kurtaklari qadimgi antik davrda paydo bo'la boshlagan bo'lsada, o'rta asrlarda to'liq shakllanib bo'lgan. Bu nazariyaning ilk namoyondalaridan biri XIV asr fransuz olimi N. Orem edi. Metallistik nazariyaning keyingi rivojlanishi boshlang'ich kapital jamg'arish (XVI–XVIII asrlar) davriga to'g'ri kelib, bunda u tanga pullarning buzilishiga qarshi kurashda ma'lum bir ijobiy rol o'ynadi. Bu nazariya pulni qimmatbaho metallar, oltin va kumush bilan izohlaydi, nazariya namoyondalari (Angliyada – U. Stafford, T. Men, D. Nors; Fransiyada – A. Monkreten) tangalarning yemirilishiga qarshi chiqqanlar.

Pulning metallistik nazariyasining birinchi metamorfozasi XIX asrning ikkinchi yarmiga tegishli bo'lib, Germaniyada 1871–1873-yillarda oltin tanga standartining kiritilishi bilan bog'liqdir. Bunda nemis iqtisodchilari (K. Knis va boshqalar) qimmatbaho metallarnigina emas, balki metallga maydalanadigan markaziy bank banknotalarini ham pul, deb hisoblaganlar.

Nazariyaning ikkinchi metamorfozasi birinchi jahon urushidan keyingi davrda boshlandi, uning namoyondalari oltin tanga standartini o'rnatish mumkin emasligini tan olganlari holda, oltin monometal-lizmining yangi qirqilgan shakllarini: oltin quyma va oltin deviz standartini kiritish uchun o'z nazariyalarini asoslashga urindilar.

Pulning metallistik nazariyasining uchinchi metamorfozasi ikkinchi jahon urushidan keyingi davrga to'g'ri keladi. Fransuz iqtisodchilari A. Tulemon, J. Ryueff va M. Debre hamda ingliz iqtisodchisi R. Xarrodlar oltin standartini xalqaro muomalaga kiritish zarurati haqidagi g'oyani taklif qildilar, Amerika iqtisodchisi M. Galperin va fransuz iqtisodchisi Sh. Rist uni ichki muomalaga kiritish haqidagi talabni ilgari surdi.

Pulning metall nazariyasi o'zining eng tugal ko'rinishida uni milliy boylik sifatida pul haqidagi ta'lim bilan bog'lagan *merkantilistlar* tomonidan shakllantirildi. Merkantilistlar xo'jalik hayoti uchun qat'iy, barqaror pul, to'la qiymatli tangalar zarurligini asoslادilar, bu tovar ishlab chiqarish talablariga javob beradi. Merkantilist-metallistlar boylikni pulga, pulni esa qimmatli metallarga tenglashtiradilar. Ular pul o'z tabiatiga ko'ra, oltin, biroq oltin o'z tabiatiga ko'ra pul emasligini, qiymat belgilari pulning mohiyatini ma'lum vazifalarida — muomala va to'lov vositasi vazifalarida namoyon bo'lish shakli ekanligini tushunmadilar.

Bizning nazarimizda, metallizm nazariyasining xatoligi shundaki, birinchidan, jamiyat boyligining manbai mehnat bilan yaratilgan moddiy ne'matlar yig'indisi emas, balki oltin va kumush, deb hisoblangan; ikkinchidan, muomaladagi metall pullarni qog'oz pullar bilan almashtirish zarurati va maqsadga muvofiqligi inkor qilingan.

Boshlang'ich kapital jamg'arishning yakunlanishi bilan tashqi savdo boylikning o'sishida asosiy manba bo'lmay qoldi. Kapital kiritish va qo'shilgan qiymat olish — boylikning o'sish manbasi sifatida manufakturalar va qishloq xo'jaligining roli tobora orta boshladi. Sanoatning rivojlanishi ichki bozorni rivojlanishini talab qilishi sababli merkantilizm tanqidchilari pulning metallistik nazariyasiga ham qarshi chiqdilar va ichki muomalada muomala xarajatlarini oshirib yuboradigan to'laqonli metall pullar kerak emas degan xulosaga keldilar. Fransiyada pulning metallistik nazariyasiga fiziokratlar va ularning izdoshlari qarshi chiqdilar (masalan, P. Buagilber).

Erkin raqobat va kapitalizm davrida qog'oz pullarning paydo bo'lishi va tarqalishi bilan metallistik nazariya tarafdorlari (masalan, nemis iqtisodchilari K. Knis, V. Leksie, A. Lansburg va b.) pul belgilarining muomalada bo'lish imkoniyatini inkor etmadilar, biroq ularni albatta metall pulga almashtirishni talab qildilar. Bunda qog'oz pullar ayirboshlashning sof texnik vositalari sifatida, oltin va kumush esa tabiatiga ko'ra pul sifatida ko'rib chiqilgan. Inflatsiyaga qarshi yo'naltirilgan pul islohotlari aynan shu tamoyillar bilan izohlanadi.

XIX asrning oxirlarida xalqaro hisob-kitoblar va pul muomalasi amaliyotiga yetakchi mamlakatlar valutalari tobora ko'proq kiritila boshlandi, kredit pullarni bevosita oltinga emas, balki ularni deviz valutasiga ayirboshlashni nazarda tutadigan pul muomalasi oltin-deviz tizimi paydo bo'ldi. Pulning metallistik nazariyasi tasavvuriga Avstro-Vengriyada 1879-yil va Hindistonda 1893-yili joriy qilingan bloklangan chekanka tizimi ham kira olmadi. Muomalada bo'lgan avstriya guldenlari

va hind rupiyalari qiymati, shuningdek, bu valutar kursi ularning tarkibida bo'lgan kumush qiymatidan katta edi. Muomaladagi pul qiymati bilan uning tarkibidagi metall qiymati o'rtasidagi farq nominal pul nazariyasining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Imperializm davrida bu nazariya ustunlikka ega bo'ldi. Neometallistlarning urushdan keyingi davrda pulning metallistik nazariyasini, oltin standartini qayta tiklash uchun qilgan harakatlari muvaffaqiyatli bo'lib chiqmadi, chunki buning uchun na iqtisodiy, na siyosiy sharoitlar mavjud edi. Bu pul tizimlarini oltin ishlab chiqarishga bog'liq qilib qo'ygan va tezavratsiya xavfini (pulga talab) yaratgan bo'lardi. Jahon valuta inqirozi va dunyodagi yetakchi mamlakatlarda to'lov balansi inqirozi XX asrning 60–70-yillarida pulning metallistik nazariyasiga uzil-kesil nuqta qo'ydi.

### 3.2. Pulning nominalistik va davlat nazariyalari

*Pulning nominalistik nazariyasi* metallistik nazariyadan farqli o'laroq, pulning metall bilan aloqasini uzib tashlaydi. Pul ichki qiymatdan mahrum bo'lgan shartli belgilar sifatida ko'rib chiqiladi. Pulning tovar tabiati inkor etiladi, uning vujudga kelishi esa odamlar o'rtasida ayirboshlashni ta'minlash maqsadida yoki davlatning qonun hujjatlari asosidagi kelishuv natijasi sifatida ko'rib chiqiladi. Shu sababli pulning davlat nazariyasi nominalistik nazariyasining bir turi hisoblanadi.

Pulning nominalistik nazariyasi vujudga kelishi uchun tarixiy shart bo'lib oltin quymasidan tanga pullarga o'tish xizmat qildi, bunda pul vazni bo'yicha emas, balki nomi bo'yicha qabul qilina boshlangan. Pulning ustiga yozib qo'yilgan qiymatini uning ichki qiymatidan ayirish imkoniyati pulning davlat tomonidan muomalaga chiqariladigan shartli belgilar ekanligi haqida yolg'on xulosalarning paydo bo'lishi uchun imkon berdi. Qog'oz pul birliklarining paydo bo'lishi bilan nominalistik pul nazariyasi tarafdorlarining soni o'sa boshladi va ularning ta'siri kuchayib bordi. Oltinni pul muomalasi sohasidan siqib chiqarish va uni qog'oz pullarga almashtirishni to'xtatish, shuningdek, naqdsiz hisob-kitob shakllarining jadal rivojlanishi shunga olib keldiki, pulning nominalistik nazariyasi ustunlik qila boshladi.

Pulning nominalistik nazariyasi vujudga kelishi ishlab chiqarishning quldorlik tuzumiga borib taqaladi. Pulning davlat nazariyasi paydo bo'lishiga bevosita dastlab quldorlik tuzumi, so'ngra feodal tuzum murojaat qilgan tanga pullarning buzilishi sabab bo'ldi. Bunday amaliyot tarafdori bo'lib chiqqan rasmiy ideologiyaning tasdiqlashicha, pul davlat



**hokimiyati tomonidan yaratiladigan bo'lib, u o'z xohishi bo'yicha pul birligining xarid qobiliyatini o'zgartirishi mumkin. Keyinchalik bu nazariya qog'oz pullarga o'tishni yoqlay boshladi.**

**Pulning nominalistik nazariyasi o'zining eng to'liq rivojini XVIII asr olimlarining asarlarida topdi. Nominalizmning birinchi namoyandalari ingliz J. Berkli va J. Styuartlar bo'lishgan. Ular birinchidan, pul davlat tomonidan yaratiladi, ikkinchidan, ularning qiymati nominal bilan ifodalanadi, uchinchidan, pulning mohiyati ideal narxlar masshtabiga kiritiladi, deb hisoblaganlar. Masalan, J. Styuart pulni teng bo'lingan narxlar masshtabi sifatida ta'riflaydi. Xususan, J. Styuart taklif qilgan «ideal pul birligi» konsepsiyasiga ko'ra, pul faqat *narx miqyosi funksiyasini* bajaradi. Dj. Billers va N. Barbon (ingl.) pul bu — faqat shartli belgi bo'lib, tovar bilan hech qanday umumiylikka ega emas deb hisoblaganlar. Xuddi shunday qarashlarni subyektiv idealizm tarafdori bo'lgan ingliz olimi Dj. Berkli ham rivojlantirgan. U pulni moddiy qimmatga ega bo'lmagan, abstrakt qiymat munosabatlari sifatida ko'rib chiqqan. Boshqa olimlar bu holni tanqid qilib, bir bosh qandni o'lchov birligi qilib olingan og'irlikka ega bo'lgan tosh yordamidagina o'lchash mumkin. Pullar ham o'zining mustaqil qiymatiga ega bo'lgani holda tovarlar qiymatini o'lchay oladi, deb yozadilar.<sup>1</sup> Demak, nominalistlar pullarni texnik almashuv quroli sifatida o'rganib, uning qiymat tabiatini to'liq inkor qilishgan.**

**Avstriyalik iqtisodchi F. Bendiksen bu nazariyaning iqtisodiy variantini asoslab bergan. Uning fikricha, pul bu — qiymatning shartli belgisi bo'lib, hisob-kitob vositasining yordamchi rolini o'ynagan va almashinish proporsiyalarini ifodalagan. K. Elsterning (Germaniya) ishlarida valuta kurslariga davlatning ta'sir ko'rsatish usullariga alohida e'tibor qaratilgan. Valuta kurslarini samarali tartibga solish uchun davlatlar o'rtasida «shartnoma pariteti»ni qo'llab-quvvatlash haqidagi bitim talab qilinadi.**

**Nominalizmning mohiyati nemis iqtisodchisi G. Knappning pul nazariyasida («Davlat pul nazariyasi», 1905-y.) yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Uning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat: pul-davlat huquqining mahsuli, davlat hokimiyatining uydirmasi; pul-davlat tomonidan to'lov kuchiga ega bo'lgan belgilardir; pulning asosiy vazifasi to'lov vositasi vazifasidir.**

**Knapp pulning mohiyati belgilar materialida emas, balki ularni qo'llashni tartibga soluvchi huquqiy qoidalarda mujassamlashgan, deb**

---

<sup>1</sup> Жукова Е.Ф. Общая теория денег. — М.: «Банки и биржи», ЮНИТИ, 1995. — 126-с.

**yo'zadi.** Uning fikricha, pul to'lov vositasi qonuni bilan belgilangan tartib o'rnatishdir. Har xil pul belgilarining ahamiyati yoki kuchi **Knappning ta'kidlashicha,** davlat hokimiyatining qonunlari, farmon va qarorlari bilan belgilanadi. Knapp qog'oz pullar barcha munosabatlarda metall pullar bilan teng qiymatga ega ekanligini va shuning uchun ham pul tizimi umuman, oltinga muhtoj emasligini isbotlashga harakat qiladi. Bu «Yangi pul nazariyasi» mohiyat jihatdan eski nominalistlarning noto'g'ri g'oyalarini takrorlaydi va rivojlantiradi. Knapp nazariyasi Germaniya imperializmi manfaatlarini ifodalagan bo'lib, Angliyaning «oltin gegemoniyasi»ga qarshi qaratilgan.

Bizning fikrimizcha, nominalistlarning pul tartib o'rnatishdan iboratligi haqidagi fikri mutlaqo noto'g'ri, chunki haqiqatda pul stixiyaviy ravishda kishilarning xohish-irodalariga bog'liq bo'lmagan holda davlat paydo bo'lgunga qadar, ayirboshlashning rivojlanishi jarayonida paydo bo'ldi.

Pulning mohiyatini uning to'lov vositasi vazifasidan keltirib chiqarishga urinish ham asossizdir. Birinchidan, pulning vazifalari uning mohiyatining namoyon bo'lishidir; ikkinchidan, to'lov vositasi vazifasining o'zi boshqa vazifalarning qiymat o'lchovi, muomala vositasi va boylikni to'plash vositasi vazifalarining rivojlanishi natijasi hisoblanadi.

Davlat nominalistlarning fikriga zid o'laroq, pulni yaratmaydi, balki muomala sohasidagi haqiqiy pul o'rinbosarlarning to'lov quvvatini qonuniylashtiradi, xolos. Davlat, albatta, chop etish uskunasiidan foydalanib, pul belgilari chiqarishi mumkin, biroq u pulning haqiqiy xarid va to'lov quvvatini belgilashda mutlaqo kuchsizdir.

Knapp va uning izdoshlari o'z nazariyalarida ish haqini muzlatib qo'yish tajribasini yoqlaydilar, unga ko'ra qog'oz pullar qadrsizlanganda, ishchilarga oldingi pul summasida ish haqi to'lanadi. Bu pulga ular kam miqdordagi iste'mol buyumlari sotib olishlari mumkin bo'ladi. Nominalistik nazariya mohiyat jihatdan qog'oz pullar qadrsizlanishini ishchilar hisobidan qoplash yo'lini ko'rsatganlar.

Bizning nazirimizda nominalistlar davlat pul nazariyasining xatoligini yana shunday asoslash mumkinki, birinchidan, pul huquqiy emas, balki iqtisodiy tushunchadir. Ikkinchidan, metall pullar mustaqil qiymatga ega bo'ladi, uni davlatdan olmaydi, qog'oz pullarning vakillik qiymati ham davlat tomonidan belgilanmaydi, balki obyektiv iqtisodiy qonunlar bilan belgilanadi.

1929–1933-yillardagi iqtisodiy tanazzul davrida nominalizm yanada rivojlandi va oltin standartidan voz kechishni oqlash uchun nazariy asos sifatida tanildi. J.M. Keynes («Pul haqida traktat», 1930-y.) oltin

pullarni «vuzlik qoldiqlari», «**Aravaning beshinchi g'ildiragi**», deb e'lon qildi<sup>1</sup>. Oltin nisbatan elastikroq bo'lgan qog'oz pullarni u ideal, deb hisoblaydi va ular jamiyatning doimiy gullab-yashnashini ta'minlashlari kerak, deb ko'rsatadi. Qog'oz pullarning oltinni muomaladan siqib chiqarishiga u pulning oltindan ustunligi va nominalizmning g'alabasi sifatida qaraydi. Pulning nominalistik va davlat nazariyasi budjet xarajatlarini moliyalashtirishning inflatsion usullarini nazariy asoslash uchun foydalanilgan. Pul davlat nazariyasi fashistlar Germaniyasi rasmiy mafkurasining elementlaridan biri sifatida namoyon bo'lib, uning yordamida bosib olingan mamlakatlar bilan hisob-kitobning bosqinchilik shakllarini oqlashga harakat qilingan.

1960-yillardagi valuta inqiroziga qadar pulning nominalistik nazariyasi mamlakatlarning ichki muomala sohasida oltinni «taxtdan tushirish», uni qog'oz pullar bilan almashtirishga yo'naltirilgan edi. 1960-yillarda to'lov balansi taqchilligini bartaraf qilish uchun mablag'larni yaratishning nominalistik loyihalari paydo bo'ldi. 1967-yilda XVF maxsus o'zlashtirish huquqlarini – SDR (Special drawing rights) – kredit zaxira pul birliklarini chiqardi. Oltin xalqaro hisob-kitoblardan ham siqib chiqarila boshlandi.

Fikrimizcha, Keynes nominalizmining amaliy maqsadi oltin standartidan voz kechilganligini, qog'oz pullar muomalasiga o'tilganligini nazariy jihatdan asoslash va inflatsiya jarayonlarini boshqarish orqali iqtisodiyotni tartibga solishdan iborat bo'lgan. Shunday qilib, nominalizmning barcha ko'rinishlariga bir xil kamchiliklar xosdir: pulning tovar sifatidagi kelib chiqishini tan olmaslik, uning muhim vazifalarini inkor qilish, pulni narx masshtabi, ideal hisob birligi ta'riflashdir.

### 3.3. Pulning miqdoriy nazariyasi

Erkin raqobat kapitalizmi davrida (XVIII–XIX asrlar) ustunlik qilgan «qadriyatli to'r» konsepsiyasi pulning miqdoriy nazariyasida eng yorqin ifodasini topgan.

Bu nazariyaga ko'ra muomaladagi to'lov vositalari miqdorining o'zgarishi tovarlar narxi darajasiga bevosita va proporsional ta'sir ko'rsatadi. Pul munosabatlari real (moddiy-buyum) jarayonlar uchun «to'r» bo'lib xizmat ko'rsatadi va iqtisodiy rivojlanishga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Keyinchalik pulning miqdoriy nazariyasi bozor iqtisodiyotining ichki

<sup>1</sup> Жукова Е.Ф. Общая теория денег. – М.: «Банки и биржи», ЮНИТИ, 1995. – 126-с.

**koordinatsiyasi, uning narx dinamikasi va raqobat mexanizmi asosida o'zini-o'zi samarali tartibga solish qobiliyati haqidagi g'oya tarafdori bo'lgan neoklassik konsepsiyaning muhim bir qismiga aylandi.**

Miqdoriy nazariya pulning qiymati va mos ravishda tovar narxlari darajasini pul miqdorining o'lchami bilan izohlaydi: muomalada pul qanchalik ko'p bo'lsa, narx shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha. Bu qonuniyat qog'oz pullarga ham, metall pullarga ham taalluqli. Bu nazariyaning ilk namoyondalari Sp.L. Monteske va D.Yum (XVIII asr o'rtalari) bu qonuniyatlarni XVI–XVII asrlarda Yevropa boshidan kechirgan «narx inqilobi»dan ozod qildi. Bu nazariyadan oltin va kumush to'plash millatni boy qiladi degan fikr tarafdori bo'lgan merkantilistlarni tanqid qilish uchun foydalanilgan. Pulning miqdoriy nazariyasi tarafdorlarining fikriga ko'ra bunday jamg'arish natijasida qimmatbaho metall qadrsizlanadi va tovarlar narxi o'sadi. Millatning haqiqiy boyligi oltin va kumushning jonsiz to'plamida emas, balki manufakturalar yaratish va ularda jonli mehnatni qo'llashdan iborat. Miqdoriy pul nazariyasining XVIII asrdagi yorqin namoyondasi D. Rikardodir.

Shuni ta'kidlash lozimki, uning qarashlari ikki tomonlama tavsifga ega bo'ldi: bir tomondan, u pulning qiymati ularni ishlab chiqarishga mehnat sarflari bilan aniqlanishini tan olgan, ikkinchi tomondan esa alohida davrlarda pul birligining qiymati pul miqdori o'zgarishlariga bog'liq ravishda o'zgaradi, deb hisoblagan.

D. Rikardo pul ham tovar hisoblanadi va o'z qiymatiga ega bo'ladi, pulning qiymati uni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnatning miqdori bilan aniqlanadi, deb to'g'ri fikr bildiradi. Biroq u pulning alohida tovar ekanligini ko'ra bilmaydi. U pulning nisbiy qiymati talab va taklif ta'sirida istalgan tovarning nisbiy qiymati singari o'zgaradi, deb hisoblaydi. Pul alohida umumiy tovar bo'lgani uchun talab buyumi ham, taklif buyumi ham bo'la olmasligini tushunmaydi.

Rikardo pulni faqat muomala vositasi sifatidagi vazifasida ko'radi, boylik to'plash vositasi sifatidagi vazifasini esa yo'qqa chiqaradi. Uning fikricha, pul muomalasi sohasining pul bilan ortiqcha to'ldirilishi tufayli uning qadrsizlanishi imkoniyati vujudga keladi. U qog'oz pul muomalasi qonuni bilan metall pul muomalasi qonunlarining farqiga bormaydi. Pulning miqdoriy nazariyasi tarafdorlari nafaqat pulning qiymat o'lchovi sifatidagi funksiyalarini, balki metall muomaladagi pul miqdorini tartibga soluvchi xazina sifatidagi funksiyasini ham inkor qiladilar. Pulning miqdoriy nazariyasi nafaqat metall, balki qog'oz pullarga nisbatan ham asossiz, chunki ularning muomalada bo'lish qonuniyatlari faqat

ular qiymatining mehnat nazariyasi asosida ochib berilishi mumkin. Yuqoridagi nazariyalarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, pul tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning rivojlanishi bilan vujudga kelgan.

Yuqorida keltirilgan nazariyalarning kamchiliklarini qisqa qilib tushuntiradigan bo'lsak, pulning alohida tovar sifatidagi mohiyatini hech bir nazariya to'g'ri va batafsil yoritmaganligini ta'kidlab ko'rsatish mumkin. Natijada metallistlar pulning nima uchun qimmatbaho boylik ekanligini, uning tub negizida nima yotishini tushunib yetishmagan, pulning mohiyatini yuzaki namoyon bo'lish shakllarida ko'rishgan. Nominalistlar bo'lsa, qog'oz pullarni inkor etmagani holda nima uchun ularning qimmatli ekanligini izohlab bera olmadilar, ular ham metallistlar kabi pulni yuzaki tushunib, davlat tomonidan chiqarilgan pul faqat shartli belgi va hisob birliklarinigina ifodalaydi, deb ko'rsatishadi. Yuqorida ko'rsatganimizdek, klassiklar ham pulning alohida tovar ekanligini va boshqa tovarlardan uning ana shu maxsus xususiyati ajratib turishini tushuntirib bera olmadi. Hozirgi davrda, shu kunlarda ham oltin pul mazmuni bilan qog'oz pul mazmunini bir xil deb qarovchilar juda ko'pdir.

Zamonaviy sharoitlarda pulning miqdoriy nazariyasi juda keng qo'llanilmoqda. G'arb mamlakatlarining iqtisodchilari va ishbilarmon doiralari vakillari uni davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, pul muomalasi va butun sanoat sikliga ta'sir uchun ko'rsatma sifatida ko'rib chiqadilar. Aynan pul massasini tartibga solishda tovarlar narx darajasi va xo'jalik faolligi holatiga ta'sir usuli ko'zda tutiladi. Ushbu ta'sir usullarini ishab chiqqan Dj.M. Keynes pulning miqdoriy nazariyasini konyunktura nazariyasi bilan bog'lash zarurligini ko'rsatgan. Muomala sohasi orqali sanoat sikli harakatiga ta'sirini Keynes va uning izdoshlari quyidagi tarzda belgilagan. Muomaladagi pul massasi va kredit resurslari hajmining o'sishi ortidan iqtisodiyotning jonlanishi, foyda va bandlikning o'sishi keladi. Bunday jonlanishga bank foizining pasayishi xizmat qilishi mumkin, u kreditga talab va investitsiyalarni, shuningdek, taqchillikni moliyalashtirishni, ya'ni u yoki bu tovarlarga hukumat talabini kengaytirishni rag'batlantiradi. Hukumat xarajatlari, pul muomalasi hajmini oshirib, iqtisodiyotning jonlanishiga xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

Keynes nazariyasi tarafdorlari miqdoriy nazariyaning yangi variantini — ortiqcha talab nazariyasini ilgari surdilar, unga muvofiq inflatsiya sababi pul massasi va hukumat xarajatlarining o'sishida emas, balki aholining ortiqcha talabi o'sishida («ortiqcha talab»ning paydo bo'lishida) yotadi. Ular shu ortiqcha talabni soliqlarni oshirish, zayomlar

chiqarish, ish haqini muzlatib qo'yish, shuningdek, majburiy jamg'armalar yordamida qisqartirishni taklif qiladilar.

Ortiqcha talabga qarshi kurash g'arb mamlakatlarida keng qo'llanilgan. Ortiqcha talabni yo'qotishning turli usullari keng qo'llangan, masalan, Buyuk Britaniyada 1967-yilning kuzida funt sterling devalvatsiyasidan so'ng o'tkazilgan. Biroq miqdoriy pul nazariyasi retseptlari kapitalistik dunyoda chuqur valuta inqirozi va inflatsiyaning o'sishiga to'sqinlik qila olmadi.

**Sey ayniyati va qonuni.** Pulning miqdoriy nazariyasi takror ishlab chiqarish klassik modeliga uyg'unlik bilan kirishib ketadi. U mukammal raqobat va to'liq narx elastikligi sharoitlarida bozorlarda avtomatik ravishda tashqaridan hech qanday aralashuvlarsiz barcha ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalangan holda muvozanatlashadi. Bu tasavvurlar J.B. Sey nazariyasini amalga oshirishda o'z aksini topgan. U tovar bozorlarida talab va taklifning to'liq mos kelish tamoyilini bildiradi.

Biroq bu qonun turlicha tanqidlarga uchradi: ayniyatdan Sey qonunigacha Sey ayniyatini algebraik ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$\sum_{i=1}^n X_i^{xd} = 0$$

bunda:  $X_i^{xd}$  —  $X$  tovarga ortiqcha talab.

Klassik yo'nalishning zamonaviy izdoshlari talab va taklif faqat yakuniy hisobda mos keladi degan farazga amal qiladilar. Bu bozorning permanent holati emas, balki uning yakuniy muvozanat sharoiti xolos. Bunday talqinda vaqtinchalik muvozanatsizlik, ortiqcha talab yoki taklif imkoniyati paydo bo'ladi. Biroq bu nomutanosibliklar qisqa muddatli xarakterga ega bo'lib, erkin bozor xo'jaligi pirovardida muvozanatga erishadi.

Siyosiy iqtisod matematik maktabining yirik vakili, xalqaro iqtisodiy jamiyat asoschilaridan biri va uning birinchi prezidenti (1931–1933) **Irving Fisher** (1867–1947) pullarning miqdoriy nazariyasini zamonaviylashtirishga katta hissa qo'shdi. U «Pullarning xarid qilish kuchi. Uning belgilanishi va kredit, foizlar va tanazzullarga munosabati» asarida (1911) pullar massasi bilan tovarlar narxlari darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni formallashtirishga harakat qilgan. Tovarlar uchun to'langan pullar soni va sotilgan tovarlar narxlari summasi teng bo'lgani uchun buni I. Fisher tarozi bilan o'xshatmoqchi bo'ladi.

Ayirboshlash tenglamasini matematik ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$MV = \sum PQ$$

**bunda:**  $\Sigma$  – (Expenditure) – pul muomalasining umumiy hajmi, ya’ni mazkur jamiyatda shu yil davomida tovarlarni sotib olish uchun sarflanadigan pullar summasi;  $M$  (Money) – ushbu jamiyatda yil davomida muomalada yurgan pullarning o’rtacha miqdori:

$$V = \frac{\Sigma PQ}{M},$$

bunda  $V$  (Velocity) – ne’matlarga ayirboshlashdagi pullar aylanishlarining o’rtacha soni;  $P$  (Price) – ushbu jamiyatda sotib olinadigan har qanday alohida tovarning o’rtacha sotish narxi;  $Q$  (Quantity) – tovarlarning jami xarid qilingan soni. Fisher formulasi oltin tangali standart sharoitida to’g’ri bo’lmaydi, chunki u pullarning ichki qiymatini hisobga olmaydi. Biroq oltinga almashtirilmaydigan qog’oz pullar muomala qiladigan sharoitda u muayyan mazmun kasb etadi. Bunday sharoitda pul massasining o’zgarishi, garchi I. Fisher tovarlar narxlarining mutloq elastikligini nazarda tutib, narx mexanizmini ma’lum ma’noda ideallashtirsada, lekin tovarlar narxlari darajasiga ta’sir ko’rsatadi. Boshqa neoklassiklar kabi Fisher ham mukammal raqobatchilikka asoslanadi va o’z xulosalarini monopoliyalar hukmronlik qiladigan hamda narxlar oldingi elastikligini jiddiy yo’qotgan jamiyatga tegishli deb biladi.

Ko’pgina hozirgi iqtisodchilar ayirboshlash tenglamasini bir xillik, ya’ni  $MV = PQ$  sifatida ifodalashadi. Gap shundaki, bu tenglama  $P-T$  ayirboshlash harakatini tovarlarning jami massasiga daxldor deb ifodalashga urinadi, ya’ni tovarlar sotib olingan pullar summasi sotib olingan tovarlar narxlari summasiga teng (bir xil). Bu tautologiyadir va shuning uchun ayirboshlash formulasi narxlarning umumiy (mutloq) darajasini izohlash uchun xizmat qila olmaydi.

Miqdoriy nazariya tarafdorlarining faraz qilishicha, ayirboshlash formulasi mutloq kattalik  $EQ$  ni (ayni bir vaqtda talab va taklif mexanizmi undan nisbiy tebranishlarni) izohlaydi.

I. Fisher va uning izdoshlari shunday nuqtayi nazarga amal qilishgan. Ular pullarning aylanish tezligi ( $V$ ) va ishlab chiqarish darajasi ( $Q$ ) muomalada yurgan pullar miqdoriga ( $M$ ) va narxlar darajasiga ( $P$ ) bog’liq bo’lmasligini asoslashga urinishgan. Ular pullarning aylanishi tezligi avvalo demografik (aholining zichligi va hokazo) parametrlarga bog’liq bo’ladi, deb faraz qilishgan. Ishlab chiqarish darajasi esa asosan mehnat bozorida yuzaga kelayotgan shart-sharoitlar bilan belgilanib, narxlar darajasi va muomalada yurgan pullar soniga bog’liq bo’lmaydi.

**Shubhasiz, bozor xo'jaligi hukmronlik qiladigan sharoitda bunday qoidalar yaqqol noreal tus kasb etadi.**

### **XULOSALAR**

1. Metall pullar nazariyasi pul muomalasini tovar ayirboshlash bilan bir xil hisoblaydi hamda oltin va kumush o'z tabiatiga ko'ra pul hisoblanadi deb ta'kidlaydi.
2. Pulning nominalistik nazariyasida pullar faqat ichki qiymatdan mahrum bo'lgan shartli belgilar sifatida ko'rib chiqiladi. Pulning tovar tabiati inkor etiladi, ularning kelib chiqishi esa odamlar o'rtasida ayirboshlash vositasi yoki davlatning qonun hujjatlari natijasi sifatida ko'rib chiqiladi. Shu sababli pulning davlat nazariyasi nominal nazariyasining bir turi sanaladi.
3. Pulning miqdoriy nazariyasida ta'kidlanishicha, to'lov vositalari miqdorining o'zgarishi tovarlar narxi darajasiga bevosita va proporsional ta'sir ko'rsatadi.
4. Bu nazariyalarning har biri u yoki bu nazariya tarafdorlari qaysi funksiyani asosiy hisoblashiga qarab bir taraflamalikka duchor bo'ladi.
5. Fisher formulasi oltin tangali standart sharoitida to'g'ri bo'lmaydi, chunki u pullarning ichki qiymatini hisobga olmaydi. Biroq oltinga almashtirilmaydigan qog'oz pullar muomala qiladigan sharoitda u muayyan mazmun kasb etadi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

*Merkantilistlar, metallistik nazariya, fiziokratlar, oltin muomalasi, oltin-deviz sistemasi, «neometallistlar,» nominalistik nazariya, davlat puli nazariyasi, pulning G.F. Knapp nazariyasi, funksional yo'nalish, «boshqariladigan valuta» konsepsiyasi, maxsus o'zlashtirish huquqlari – SDR (Special drawing rights), pulning miqdoriy nazariyasi, D. Rikardo qiymatning mehnat nazariyasi, J.M. Keyns pulning miqdoriy nazariyasi, Sey ayniyati va qonuni, I. Fisher tenglamasi.*

### **Nazorat uchun savollar**

1. Metall pullar nazariyasining mazmunini tushuntirib bering.
2. Merkantilistlarning pul haqidagi fikrlarini tushuntirib bering.
3. Pul bo'yicha nominalistik nazariyaning mazmunini tushuntirib bering.
4. Davlat puli nazariyasining mazmunini tushuntirib bering.
5. Urushdan keyingi davrda davlat puli nazariyasining evolutsiyasi qanday darajada bo'lgan?
6. Maxsus o'zlashtirish huquqlari – SDR (Special drawing rights) nimani anglatadi?
7. Pulning miqdoriy nazariyasi mazmunini qanday tushuntirish mumkin?
8. Dj.M. Keyns pulning miqdoriy nazariyasini tushuntirib bering.
9. Sey qonunining mohiyati nimadan iborat?
10. Umumiy muvozanatda I.Fisher modelini tushuntirib bering.



#### 4.1. Keynscha pul nazariyasining asosiy tavsifnomalari

Klassik makroiqtisodiy model pulning miqdoriy nazariyasini sezilarli soddalashtirib, uni unchalik to‘g‘ri talqin qilmaydi. Shu sababli ushbu bobda eski va yangi keyns modellari ko‘rib chiqiladi va u klassik model bilan taqqoslanadi.

Neoklassiklarning yondashuvi kapitalistik voqelikka zid keldi va bu hol 1929–1933-yillardagi «Buyuk depressiya» jarayonida alohida namoyon bo‘ldi. Ahvolni tuzatish ishi J.M. Keynsning zimmasiga tushdi. U «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asarida (1936-y.) pullarning aylanishdan chiqib ketishi sabablarini aniqlashga urinadi, chunki, uning fikricha, buning natijasida yalpi to‘lovga qobiliyatli talab hajmi qisqaradiki, bu ishlab chiqarish rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. J.M. Keynsning fikricha, pullarning chiqib ketishining bosh sabablari «uchta fundamental psixologik omillar»: iste‘molga moyillik, likvidlikni afzal ko‘rish va kapital aktivlardan keladigan bo‘lg‘usi daromad taxmini bilan bog‘liq.

Bu nazariya akademik tadqiqotlar va ta‘limda ham, siyosatni ifodalashda ham qo‘llanadigan ustunlik qiluvchi makroiqtisodiy modelga aylandi, biroq bu nazariyaning rivojlanishidagi bosqichlarni farqlash lozim:

a) **eski** keyns modeli bu — keyns nazariyasini Xiks va Xansen tomonidan interpretatsiya qilish bo‘lib, ko‘pincha uni Xiks-Xansen modeli deb atashadi; uning rivojlanishiga, shuningdek, Kleyn, Samuelson va Modilyani ham munosib hissa qo‘shishgan;

b) **yangi** keyns modeli — XX asr 60-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab Klauer, Leyonxuvud, Berrou va Grosman tomonidan ishlab chiqilgan.

Biroq Keyns yondashuvi umumiy bo‘lib qolaverdi, u o‘z vazifasini to‘liq bandlikda muvozanat umumiy holat emasligini ko‘rsatishda deb bildi. Umumiy holat bu — ishsizlik mavjudligidagi muvozanat, to‘liq bandlik — o‘ziga xos holat. To‘liq bandlik holatiga erishish uchun davlat maxsus siyosat yuritishi lozim, chunki avtomatik amal qiluvchi bozor kuchlari unga erishishni kafolatlamaydi.

Keyns modeli makroiqtisodiy agregatlar yordamida ifodalanadi. Bunda agregatsiyalashning ikki turidan foydalaniladi:

1) model xususiy sektordagi firmalar va individlarning xulq-atvori va davlat sektorining xulq-atvorini aks ettiradi (keyns modeli xorijiy sektorni ham qamrab oladi, biroq bunga hali qaytiladi);

2) modelda ma'lum bir tovar turlari va o'zgaruvchilar tarkibiy qismlarga birlashadi, shuning uchun iste'mol tovariga belgilangan umumiy talab (aytaylik  $X_1$ ) emas, balki barcha iste'mol tovarlariga umumiy talab ( $S$ ) tahlil qilinadi.

Eski keyns modelida investitsion tovarlar iste'mol tovarlaridan prinsipial farq qilmaydigan tovarlar bozori mavjudligi ko'zda tutilgan. Model barcha turdagi bozorlarni bitta bozorga birlashtiradi. Bundan tashqari, alohida pul bozori va obligatsiyalar bozori ham mavjud. Obligatsiyalar bozori barcha turdagi obligatsiyalar va pulsiz moliyaviy aktivlarni birlashtirishni ifodalaydi. Va nihoyat, modeldagi to'rtinchi bozor bu – ishchi kuchi bozori. Modelda bu bozorlarning har biri faoliyati va ular o'rtasidagi aloqalari belgilab berilgan.


Ishchi kuchi bozorini tahlil qilar ekan, Keyns shunday xulosaga keldiki, garchi real ish haqi –  $w$  istalgan yo'nalishda o'zgarishi mumkin bo'lsada, biroq **pulli ish haqi** (yoki ish haqi stavkasi) belgilangan darajadan pasayishi mumkin emas (bu eng kam ish haqi to'g'risidagi qonunlar va boshqa institutsional omillar bilan, shuningdek, kishilarning kamroq ish haqi uchun ishlamaslik istagi bilan belgilanadi) va shu sababli ish haqi moslashuvchan hisoblanmaydi va bozorni muvozanatga keltira olmaydi.

**Moliyaviy (pul) bozori.** Keynsning moliyaviy bozor nazariyasi, boshqa klassik oqimlar kabi asosiy e'tiborni pul talabi va taklifiga qaratadi. Klassik model yoki miqdoriy nazariya shu bilan ifodalanadiki, pulga umumiy talab bu – pul daromadi darajasi funksiyasi ( $Y$  real daromadning  $P$  umumiy narx darajasiga ko'paytmasi). Taxminlarga ko'ra, bu aloqa proporsional xarakterga ega bo'ladi – kutilayotgan pul qoldiqlari  $K$  pul daromadi ulushiga teng bo'ladi:

$$MV = YP, M = YP/V, K = 1/V, M = KYP.$$

Bu modelda pul taklifi ekzogen qayd etilgan kattalik sifatida ko'rib chiqiladi. Bozor – pulga bo'lgan talab uning taklifiga teng bo'lgan holatda muvozanatda bo'ladi.

Grafikda  $PY$  daromad emas,  $P$  narx aks ettirilganligi sababli  $OM^d$  og'ish  $Y$  darajasiga bog'liq bo'ladi.  $Y$  qanchalik yuqori bo'lsa, istalgan narx darajasida nominal pul qoldiqlariga talab shunchalik katta bo'ladi.



2-chizma. Pulga bo'lgan talab va taklid egri chizig'i:

$OM_1^d$  – nominal pul qoldiqlariga talab egri chizig'i.

$M^S$  – pulga taklif egri chizig'i.

Bozor narx darajasi  $P_e$  nuqtaga yetganda muvozanatda bo'ladi. Klassik model Yqayd qilingan kattalikda to'liq bandlik darajasida muvozanatga avtomatik tendensiyani ko'zda tutadi, shuning uchun tahlil davomida bitta  $OM^d$  egri chizig'i bilan kifoyalanish mumkin (2-chizma).

Moliya bozorining Keynes modeli biroz boshqacha xarakterga ega, uning o'ziga xos xususiyati pulga bo'lgan talab talqini bilan bog'liq. Alohida olingan shaxslarning kassa qoldiqlari ikki qismga bo'linadi: birinchidan, berilgan pul daromadi darajasini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bitimlarni amalga oshirish

uchun saqlanuvchi **transaksiya qoldiqlari** mavjud; ikkinchidan, xo'jalik subyektlari aktivlar sifatida saqlaydigan **spekulativ qoldiqlar** mavjud. Transaksiyon qoldiqlarga talab pul daromadi darajasiga bog'liq bo'ladi (pulning miqdoriy nazariyasi singari). Spekulativ qoldiqlarga talab esa obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasiga bog'liq bo'ladi – foiz me'yori qanchalik baland bo'lsa, spekulativ qoldiqqa talab shunchalik past bo'ladi.

Keynsning pulga talab agregat funksiyasi transaktsion va spekulativ qoldiqlarga talab funksiyasini birlashtirish yo'li bilan hosil bo'ladi. Spekulativ qoldiqlarga talab bu – ( $r$ ) obligatsiyalar bo'yicha foiz me'yori kattaligiga teskari funksiya: grafikda –  $SB^D$ .

Transaksiyon qoldiqlarga talab ( $r$ ) bilan bog'liq emas, balki faqat  $P_y$  ga bog'liq: grafikda –  $TB^d$ . Har qanday foiz darajasida umumiy pul qoldiqlari summasiga talab  $SB^d$  va  $TB^d$  ni bir-biriga qo'shish yo'li bilan olingan  $M^d$  egri chizig'i bilan ifodalanadi.

$M^d$  – likvidlikni afzal ko'rishning keynscha egri chizig'i. U  $P$  va  $Y$  darajasiga bog'liq bo'ladi.  $PY$  ning o'sishi bilan transaktsion qoldiqlar  $TB_1^d$  gacha, likvidlik egri chizig'i esa  $M_1^d$  gacha o'sgan bo'lardi ( $SB^d$  va  $TB_1^d$  bir-biriga qo'shish yo'li bilan) (3-chizma).

Pulga talab grafigidan pul bozorining keyns modelini hosil etish mumkin. Pul taklifi ekzogen  $\bar{M}^S$  nuqtada berilgan. Bozor foiz me'yori


$r_e$  ga teng bo'lgan holda muvozanatda bo'ladi.

Agar  $P$  va  $Y$  qiymatlari balandroq va likvidlikni afzal ko'rish egri chizig'i  $M_i^d$  holatga ega bo'lsa, bozor foiz me'yori faqat  $r_e$  dan katta bo'lgan holatdagina muvozanatda bo'lishi mumkin (4-chizma).


Bu korrektsiyalovchi mexanizm keynscha pul bozori nazariyasida obligatsiyalar bozorining ma'lum bir nazariyasi ko'zda tutilishini ko'rsatadi. Pul bozorida muvozanatsizlik obligatsiyalar bo'yicha stavkalariga ta'sir ko'rsatadi deb taxmin qilinadi.

Pul bozoridagi ortiqcha taklif doimo obligatsiyalar bozoridagi ortiqcha talabga teng bo'lib kelgan, shunday ekan, bir bozor muvozanatda bo'lsa, boshqa bozorda ham muvozanat paydo bo'ladi. Foiz stavkasi  $r_i$  bo'lganda pulga talab ortiqcha bo'lsa, ko'rsatilgan taxminga muvofiq ularning kurs qiymatini pasaytiradigan va  $r$  ni oshiradigan ortiqcha obligatsiyalar taklifi mavjud bo'ladi. Shunday qilib, keynscha pul bozori nazariyasi bilan klassik model o'rtasidagi asosiy farq shundaki, keyns modelida pulga talab obligatsiyalarga talab bilan bog'liq. Bu talab funksional jihatdan obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasiga ham, daromad darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Keyns modelida bevosita pul bozorini tenglashtiruvchi o'zgaruvchan ko'rsatkich bu — klassik modeldagi kabi mutloq narx darajasi emas, balki foiz me'yoridir.

Klassik modelda tovarlar taklifi ishchi kuchi bozoridagi bandlik darajasi bilan belgilanadigan funksiya hisoblanadi. Ishchi kuchi bozori muvozanatda bo'lgan holatda tadbirkorlar ishchilarni faqat foyda oshib boradigan paytgacha (ya'ni, eng yuqori mehnat mahsuli real ish haqiga tenglashgan nuqtagacha) yollaydi. Agar muvozanatli umumiy bandlik darajasi berilgan bo'lsa, rejalashtirilgan iste'mol va investitsion tovarlar



3-chizma. Likvidlikni afzal ko'rishning keynscha egri chizig'i.



4-chizma. Pul bozorining keynscha modeli.

taklifga teng bo'lgan umumiy mahsulot darajasini aniqlash mumkin. Rejadagi xarajatlar rejadagi umumiy taklifga teng bo'lgan holatda tovarlar bozori muvozanatda bo'ladi.

Keynscha tovarlar bozori modelining xususiyati shundaki, iste'mol tovarlari rejadagi talab foiz me'yoringining funksiyasi emas, balki amalda olingan milliy daromadning ijobiy funksiyasi hisoblanadi. Uchta bozorning o'zaro aloqasini algebraik va grafik shakllarda ifodalash mumkin.

### Klassik model

### Keyns modeli

(to'liq bandlik)

#### Ishchi kuchi bozori

$$N^S = N^S \left( \frac{W}{P} \right) \qquad N^S = N^S \left( \frac{W}{P} \right) \qquad (1)$$

$$N^D = N^D \left( \frac{W}{P} \right) \qquad N^D = N^D \left( \frac{W}{P} \right) \qquad (2)$$

$$N^S = N^D = N_e \qquad N^S = N^D = N_e \qquad (3)$$

#### Pul bozori

$$M^S = \bar{M}^S \qquad M^S = \bar{M}^S \qquad (4)$$

$$M^D = kp\bar{y} \qquad M^D = kp\bar{y} + L_2(r) \qquad (5)$$

$$M^S = M^D = M_e \qquad M^S = M^D = M_e \qquad (6)$$

#### Tovarlar bozori

$$y = y(N_e) \qquad y = y(N_e) \qquad (7)$$

$$e = c(r) + i(r) \qquad e = c(\bar{y}) + i(r) \qquad (8)$$

$$y = e = \bar{y} \qquad y = e = \bar{y} \qquad (9)$$

bunda:  $N^S$  – mehnat taklifi;

$\frac{W}{P}$  – real ish haqi;

$N_e$  – ishchi kuchi bozorida muvozanat;

$\bar{M}^S$  – ekzogen qayd etilgan pul taklifi darajasi;

$e$  – tovarlarga rejadagi talab;

$c$  – iste'mol tovarlariga rejadagi talab;

$i$  – investitsion tovarlarga rejadagi talab;

$r$  – foiz me'yori;

$\bar{y}$  – amaldagi real daromad;

$kpy$  – pulga transaksion talab;

$L_2(r)$  – pulga spekulativ talab.

Agar keyns modelini ishsizlik mavjudligida ko'rib chiqadigan bo'lsak, tenglamalar tizimi o'zgaradi:

$$\text{Ishchi kuchi bozori} - N^S = N^D \left( \frac{W}{P} \right),$$

$$\bar{N}^D = N^D(\bar{y}).$$

$$\text{Pul bozori} - M^S = \bar{M}^S,$$

$$M^D = kpy + L_2(r),$$

$$M^S = M^D = M_e.$$

$$\text{Tovarlar bozori} - \bar{y} = y(N),$$

$$e = c(\bar{y}) + i(r),$$

$$\bar{y} = e.$$

Bu o'zgarishlar keyns modelida bozorlar o'rtasidagi aloqa xarakteri va sabablar yo'nalishi klassik modeldan boshqacha ekanligini ta'kidlaydi. Bu o'zgarishlar ikkita keynscha yangilikni ifodalaydi. Ulardan biri tovarlar bozorida muvozanat faqat rejadagi talab va amaldagi taklifning tengligini talab qiluvchi g'oyadan iborat  $e = \bar{y}$ . Keyingi yangilikka ko'ra ishchi kuchiga amaldagi talab  $\bar{N}^D$  amalda ishlab chiqarilgan mahsulot  $\bar{y}$  bilan belgilanadi va demak, tovarlar bozori muvozanatda bo'lgan holatda muvozanatga erishadi. Umumiy ko'rinishda bu yangiliklar shuni anglatadiki, garchi tovarlar va ishchi kuchi bozorlari tozalanmay qolgan holatda ham muvozanatga ega bo'ladi.

#### 4.2. Keyns modelida pulga bo'lgan talab nazariyasi

Pulga talabning Keynscha nazariyasi quyidagi sxema bo'yicha tuziladi:

1. Boylikning muqobil shakllarini aniqlash – bu pullar yoki obligatsiyalar bo'ladi. Aksiyalar va g'azna veksellari obligatsiyalarning substitutlari sifatida ko'rib chiqiladi va alohida hisobga olinmaydi.

2. **Pullar** barcha tomonidan muomala vositasi sifatida qabul qilinadigan va foiz ko'rinishida foyda keltirmaydigan aktiv sifatida izohlanadi; **obligatsiyalar** – hukumatning muddatsiz qarz majburiyatlari, ularning **kupon stavkasi qat'iy belgilanadi**.

3. Indivud pul shaklida saqlashga moyil bo'lgan **boylik ulushini** aniqlash.

4. Indivudning eng kam risk bilan o'z aktivlar portfelidan daromadni maksimallashga intilishi.

5. Pulga talabning Keynscha nazariyasi pulni jamg'arishning uch motivini nazarda tutadi – transaksion, spekulativ va kutilmagan maqsadlarga (yoki ehtiyotkorlik motivi).

Pulga talabning Keynscha modeli ikki qismdan tarkib topadi:

$$M^D = M_1^D + M_2^D = k p \bar{y} + L_2(r) = L(\bar{Y}) + L_2(r).$$

Tenglamaning birinchi qismi transaksion motivni, ikkinchi qismi esa spekulativ motivni aks ettiradi.

Transaksion motiv J. Keynsning hisoblashicha, «daromad miqdori uni olish va sarflash o'rtasidagi vaqt muddatiga bog'liq bo'ladi». Demak, bu motivni amalga oshirish uchun nominal pul qoldiqlari summasi  $k p \bar{y}$  ga teng bo'lgan pul daromadining doimiy ulushini ifodalaydi, bunda  $k$  doimiy ko'rsatkich. Masalan, indivud har bir haftaning boshida 20 doll. daromad oladi va uni bir maromda sarflaydi. Hafta davomida o'rtacha pul qoldig'i 10 doll.ni tashkil qiladi.

[ (20+0): 2 ], yoki transaksion qoldiq haftalik daromadning doimiy ulushini (1/2) yoki yillik ulushini 1/104 – ifodalaydi. Demak, pul daromadining doimiy ulushi quyidagiga teng:

$$k = \frac{p \bar{y}}{M_1^D}.$$

Agar daromad olish vaqti ikki baravar kichraysa (masalan, daromad haftada ikki marta olinadi) doimiy ko'rsatkich  $k$  ikki baravar kamayadi. Keynschilarda  $k$  ko'rsatkichi klassik miqdoriy nazariya tarafdorlari bilan bir xil emas. Bular uchun  $k$  butun pul massasining muomala

tezligiga teskari ko'rsatkichni ifodalaydi:  $k = \frac{1}{V}$ , keynschilarda esa u faqat transaksion qoldiqlar tezligiga taalluqli xolos. Keyns modelida barcha pul qoldiqlarining muomala tezligi foiz stavkasining funk-

siyasi hisoblanadi, chunki unga spekulativ pul qoldiqlari ta'sir ko'rsatadi.

Keynsning monetar nazariyasida spekulativ talab asosiy rolni o'ynaydi. Spekulativ motiv, Keynsga ko'ra, «kelajakning nima keltirishini bozorga nisbatan yaxshiroq bilish evaziga foyda olish» istagiga asoslanadi.

Obligatsiyalarga joriy foiz stavkasi ularni xarid qilish haqida qaror qabul qilish paytida ( $r_1$ ) orqali belgilanadi. Yil yakunida kutiladigan foiz stavkasi darajasi  $-r_{1,2}^e \cdot U$   $r_1$  qayd qilingan foiz stavkasiga bog'liq emas. Pulga spekulativ talab  $r_1$  va  $r_{1,2}^e$  o'rtasidagi munosabatga bog'liq: obligatsiyalarga kiritilgan har bir dollar uchun individ yiliga foiz ko'rinishida  $r_{1,2}^e$  plus  $CG$  kapital qiymatning o'sishini olish istagida bo'ladi.

Agar  $CG$  ni bir investitsion dollarga to'g'ri keladigan summa ko'rinishida ifodalasak, unda:

$$g = \frac{CG}{\text{obligatsiyaning joriy narxi}} = \frac{r_1}{r_{1,2}^e} - 1 \quad (1)$$


bunda:  $g$  – bir dollarga kapital qiymatning o'sishi.

Bu ifoda shundan kelib chiqadiki, obligatsiya narxi obligatsiyaga foiz stavkasiga teskari kattalik hisoblanadi. Demak,  $CG = (1/r_{1,2}^e - 1) r_1$ . Tenglamaning ikkala tomonini  $r_1$  joriy foiz stavkasiga ko'paytirib,  $r_1 \cdot CG = (r_1 / r_{1,2}^e) - 1$  ni olamiz.  $r_1$  obligatsiyaning joriy narxiga teskari ko'rsatkich ekanligi sababli, tenglamaning chap tomonini (1) formuladagi kabi qayta yozish mumkin.

Obligatsiyani 1 dollarga sotib olib, individ yil yakunida  $r_1 + g$  dollar ishlab olish niyatida bo'ladi.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, pulga spekulativ talab ( $D$ ) foiz stavkasiga pasaygan paytda katta bo'ladi, obligatsiyalarga investitsiyalar ulushi esa barcha aktivlarda o'sadi va aksincha (5-chizma).


Agar transaktsion motiv pul daromadiga bog'liq, spekulativ motiv – foiz stavkasiga bog'liq pulga talabni izohlasa, ehtiyotkorlik motivi kela-jakka ishonchning yuqori emasligidan iborat. Agar obligatsiyalarga qo'yil-



5-chizma. Keyns modelida pulga bo'lgan talab egri chizig'i ko'rinishi.



malar riskli bo'lsa, pulni saqlash uchun qo'shimcha stimuly paydo bo'ladi, garchi bu pullar foyda keltirmasada, biroq ularni saqlash ayniqsa, narx beqarorligi sharoitlarida yo'qotishlarga duch kelish riski bilan bog'liq bo'lmaydi. Naqd pullar — boylikning yuqori likvidli qismi bo'lib, uni istalgan paytda boylikning boshqa shakllariga (tovarlar, xizmatlar, qimmatli qog'ozlar va b.) aylantirish imkonini beradi. Ehtiyotkorlik motivi foiz stavkasi darajasiga bog'liq bo'ladi.




6-chizma. Keynes modelida bo'lgan talabning elastikligi.

Foiz stavkasi juda past hisoblanadigan darajagacha tushib ketishi mumkin, shunday ekan, o'sgan pul zaxiralarini individlar foiz stavkasining o'sishini kutgan holda naqd pul shaklida saqlaydi. Bu esa likvidli tuzoqni vujudga keltirishi mumkin. Bunday xulq-atvor ehtiyotkorlik bilan izohlanadi, chunki foiz stavkasining pastligi daromadlarni yo'qotish riski bilan bog'liq. Likvidlikni afzal ko'rish egri chizig'i gorizontal holatda bo'ladi (6-chizma).

Foiz me'yori  $r_0$  bo'lganda moliya bozori daromad darajasi keng doiradagi muvozanat holatida bo'ladi. Pulga talab foiz bo'yicha cheksiz elastiklik bilan tavsiflanadi. Pul massasi qanchalik o'smasin, u foizning o'zgarishiga olib kelmaydi, investitsion xarajatlarni rag'batlantirmaydi. Shu tariqa likvidli tuzoq to'liq bandlikda muvozanatga erishish va real daromadning o'sishiga to'sqinlik qiladi.

Likvidlikni afzal ko'rish egri chizig'i  $M^D$  ning o'zgarishi  $LM$  egri chizig'i shakliga ta'sir etadi:



7-chizma. Pul omillari harakatining ko'rinishi.

$IS$  egri chizig'ining  $LM$  egri chizig'i gorizontal qismini kesib o'tishi iqtisodiy vaziyatning keynscha varianti bo'lib, bu yerda pul omillari harakati likvidli tuzoq bilan to'liq to'xtatib qo'yilgan hamda pul-kredit siyosati depressiya va inqiroz oldida kuchsiz bo'ladi (7-chizma).

Tizimning holatiga ta'sir etish uchun davlatning budjet vositalari yordamida aralashuvi talab qilinadi, bu

bu *IS* egri chizig'ining chapga siljishiga, demak, yakuniy mahsulotning o'lishiga olib keladi. Aksincha, agar *IS* egri chizig'i *LM* egri chizig'ini vertikal qismda kesib o'tadigan bo'lsa, model klassik ko'rinishga ega bo'ladi: tovar sektorida talabning o'sishi foiz me'yoringing o'sishiga olib keladi, biroq ishlab chiqarish darajasiga ta'sir etmaydi. Pul omillari bevosita nominal daromad miqdoriga, uning narx komponentiga ta'sir etadi, bu esa miqdoriy nazariyaga xos.

#### 4.3. Pulning Keynscha va neoklassik nazariyasi sintezi

Keyns nazariyasining rivojlanishi uni shunday talqin qilishga olib keldiki, bunda u neoklassik pul nazariyasi (mikroiqtisodiyot) va neoklassik miqdoriy nazariyaga juda o'xshab ketdi. Bu model keyns-neoklassik sintez deb atala boshlandi. Avvalo bu sintez iste'mol funksiyasi nazariyasiga Pigu samarasini (yoki boyluk samarasini) kiritish bilan tavsiflanadi.

*Pigu samarasini* unga muvofiq umumiy rejadagi iste'mol xarajatlari xususiy sektor real sof boyligining funksiyasi hisoblanadigan nazariyasi sifatida izohlash mumkin. Bu tovarlar bozorida real kassa qoldiqlari samarasining boshqacha varianti bo'lib, bu yerda puldan tashqari boylukning boshqa shakllari ham moliyaviy aktivlar (masalan, obligatsiya) va tabiiy aktivlar (asbob-uskunalar, turar-joylar) shaklida tahlil qilinadi.

Mikrodarajada Pigu samarasi nazariyasi hozirgi kun va kelajak o'rtasida iste'mol xarajatlarini taqsimlashda foydalilikni maksimal-lashtirishga yo'naltirilgan individ strategiyasidan kelib chiqadi, bundan xulosa chiqarish mumkinki, iste'mol to'plangan boyluk summasining funksiyasi hisoblanadi. Boshqa barcha shartlar bir xil bo'lganda real boylukning o'sishi real iste'molning o'sishiga olib keladi. Pigu ning ta'kidlashicha, aktivlarga ega bo'lishning o'zi xuddi insonning jamiyatda egallagan o'rni kabi o'zidan-o'zi foydalilik keltirmaydi. Foiz stavkasi hattoki nolga teng bo'lganda ham jamg'armalar musbat qiymatga ega bo'ladi, degan fikrni bildiruvchi Keyns gipotezasining negizi aynan shu yerda, chunki *IS* egri chizig'i gorizontol o'qni kesib o'tadi. Pigu ning fikriga ko'ra, boylukdan olinadigan qoniqish pasayuvchi eng yuqori foydalilik qoidasiga bo'ysunadi: individ boyligining real qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, bu boylukning o'sishidan olinadigan foyda, jamg'armalarning foydalilik darajasi shunchalik past bo'ladi. Demak, boshqa shartlar bir xil bo'lganda, real boylukning o'sishi individni ko'proq iste'mol qilish va kamroq jamg'arishga majbur qiladi. Shunday ekan, iste'mol boylukka nisbatan yomonroq ne'mat emas.

Makrodarajada keyns-neoklassik sintez modellari Pigu samarasini ajratib turuvchi jihat sifatida qamrab oladi. Biz oldinroq Keynesning rejadagi real iste'mol xarajatlari faqat bitta real daromadning funksiyasi hisoblanadi degan qoidasini ko'rib chiqqan edik:

$$c = f(\bar{y}) = a + b\bar{y}. \quad (1)$$

Agar Pigu samarasini hisobga oladigan bo'lsak, o'ziga xos ko'rsatkich sifatida  $\bar{w}$  amaldagi real boylikni kiritish zarur:

$$c = f(\bar{y}, \bar{w}) = a + b\bar{y} + h\bar{w}. \quad (2)$$

Agar boylikni faqat pul va obligatsiyadan iborat holda soddaroq ifodalab, narx o'zgarishining moliyaviy aktivlar real qiymatiga ta'sirini yo'qotadigan bo'lsak, unda:

$$\bar{w} = \frac{\bar{M}^S}{P} + \frac{\bar{B}^S}{rp} \quad (3)$$

bunda:  $\bar{B}^S$  – obligatsiyalarning nominal yozib qo'yilgan qiymati;

$\frac{\bar{B}^S}{r}$  – ularning nominal bozor qiymati.

Shunda iste'mol funksiyasi quyidagi ko'rinishga keladi:

$$c = a + b\bar{y} + h \left( \frac{\bar{M}^S}{p} + \frac{\bar{B}^S}{rp} \right) \quad (4)$$

rejadagi xarajatlar funksiyasi esa:

$$c = a + b\bar{y} + h \left( \frac{\bar{M}^S}{p} + \frac{\bar{B}^S}{rp} \right) + d - jr + \bar{g}, \quad (5)$$

bunda:

$(d-fr)$  – investitsion funksiya,

$\bar{g}$  – davlat xarajatlari,

$e$  – rejadagi xarajatlar.

$Z'$  nuqtada muvozanat to'liq bandlikda ishlab chiqarish darajasi –  $y$  ni tavsiflaydi. Agar kapitalistlarning kutishi pessimistik bo'lsa, investitsion funksiya pastga harakatalanadi,  $d$  – pasayadi. Xarajatlar

funksiyasi  $e$ , holatga o'zgaradi. Xo'jalik  $Z$  nuqtaga yetadi, bunda to'liqsiz bandlik sharoitida  $\bar{y}$  daromad mos keladi. Ish haqi va narxlar moslashuvchan bo'lib qolar ekan, tovar bozori va ishchi kuchi bozorida ortiqcha taklifning mavjudligi  $W$  ish haqi pul stavkasi va  $R$  absolut narx darajasini pasaytiradi (8-chizma).


$P$  ning pasayishi natijasida moliyaviy aktivlar real qiymati ( $\bar{M}^S / P + \bar{B}^S / rp$ ) o'sadi, chunki ek-

zogen belgilanadigan obligatsiya va nominal pul zaxirasi o'zgaras bo'ladi. (5) tenglamaga muvofiq bu rejadagi iste'mol xarajatlarining o'sishiga olib keladi, xarajatlar umumiy funksiyasini oshiradi. **Pigu samarasi aynan shudir.**

U tufayli rejadagi xarajatlar funksiyasi yana o'sadi va  $e_1$  holatga kelgunga qadar o'sishda davom etadi va to'liq bandlik holatiga mos keluvchi  $Z_1$  nuqtada muvozanat qayta tiklanadi.

Bu samara bilan birga foiz me'yorining o'zgarishi ham ro'y beradi. Narxning pasayishi bilan transaksion fondlardan pulning ozod bo'lishi va spekulativ qoldiqlarga o'tishi ro'y beradi. Obligatsiyalarga eski stavka saqlanib qolganda bu o'zgarishlar ortiqcha pul taklifi va obligatsiyalarga ortiqcha talabning paydo bo'lishiga, boshqacha aytganda, foiz me'yorining pasayishiga olib keladi. (5) tenglamadan kelib chiqadiki, foiz me'yorining pasayishi rejadagi xarajatlar  $e$  ga ta'sir etadi, ularning o'sishiga olib keladi va xarajatlar funksiyasini xuddi Pigu samarasi kabi yuqoriga itaradi. Biroq, agar birinchi holatda xarajatlarga to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan ta'sir mexanizmi o'ringa ega bo'lsa, keyigi holatda bu mexanizm bevosita xarakterga ega bo'ladi. Biroq, keyns modelida iqtisodiyot likvidli tuzoqqa tushib qolgan va investitsiyalar foiz me'yoriga nisbatan noelastik bo'lib qolganda bilvosita mexanizm ish bermasligi mumkin. Pigu samarasining mohiyati shundaki, u bevosita mexanizimli modelni beradi, natijada bilvosita keyns mexanizmidagi buzilishlar to'liq bandlikka avtomatik tendensiyani yo'qotmaydi.

Ko'rsatilgan tendensiya  $IS-LM$  egri chiziqlari yordamida ham aks ettirilishi mumkin. Bu tahlilda bevosita pul bozori mavjud bo'ladi. Egri chiziqlarning gorizontallik qismida kesishuvi likvidli tuzoq va



8-chizma. Rejalashtirilgan xarajatlar grafiqi.

investitsion funksiyaning noelastikligidan darak beradi. Biroq ortiqcha tovar taklifi  $(y - \bar{y}_1)$  mavjud ekan, bu absolut narx darajasining pasayishiga olib keladi, Pigu samarasi  $IS_1$  egri chizig'ini  $IS_2$  holatga keltiradi, bu yerda daromad va ishlab chiqarish hajmi to'liq bandlik darajasiga yetganda muvozanat o'rnatiladi. Aktivlar real bahosining o'zgarishi qay tarzda  $IS$  egri chizig'ining o'zgarishiga olib kelishi bu egri chiziqning algebraik ifodasidan ko'rinib turibdi. Tovar bozorida muvozanat  $\bar{y} = e$  shartini talab qilishi sababli, (5) tenglamada mos keluvchi o'zgarishlarni kiritib ( $e$  o'rniga), quyidagiga ega bo'lamiz:

$$y = \frac{a + d + \bar{g} + h \left( \frac{\bar{M}^S}{p} + \frac{\bar{B}^S}{rp} \right)}{1 - b} - \frac{fr}{1 - b} \quad (6)$$


Bu  $IS$  egri chizig'ining Pigu samarasini hisobga oladigan modeli uchun tenglamasidir. Tenglamaning birinchi hadi taqribiy qism sifatida moliyaviy aktivlar (boylik) real qiymatiga ega bo'ladi. Ularning kattalashuvi  $IS$  egri chizig'ining foiz me'yorining istalgan berilgan qiymatida o'zgartirish mumkin hamda o'sadi (9-chizma).

Pigu nazariyasi shunday xulosaga olib keladiki, agar keyns modeliga boylik samarasi kiritilsa, to'liqsiz bandlik bilan muvozanatni saqlashning yagona sababi ish haqi va narxlarning elastik emasligi bo'lishi mumkin, chunki bunda bevosita (Pigu samarasi) va bilvosita (keyns pul bozori orqali) mexanizmlar harakati buziladi. Bu keyns modeli doirasida olingan tipik neoklassik xulosadir.

Keyns-neoklassik sintezning asosiy jihatlarini quyidagilardan iborat:

1. Makroiqtisodiy xulq-atvor funksional aloqalar individual maksimallashtirish qarorlaridan kelib chiqadi. Keynes tahliliy usuli makroiqtisodiy tuzilmalarning mikroiktisodiy asoslarini detalli ishlab chiqishga imkon bermaydi.

2. Makroiqtisodiy muvozanatni tahlil qilishda bazis asoslar sifatida narx elastikligi haqidagi qoidadan foydalaniladi. Narx muvozanatsizlikning



9-chizma. Tovar bozorida muvozanatning keyncha grafigi.

**yujudga kelishiga tovar tabiiy hajmiga qaraganda tezroq javob qaytaradi.** Keynsning ishida narxning nisbiy elastiksizligiga asosiy e'tibor qaratilgan.

3. Pul xo'jaligi va barter o'rtasidagi farqqa e'tibor qaratilmaydi. Bu yerdan pulning neytralligi haqidagi pozitsiya kelib chiqadi. Keynsning ishlarida pul neytral hisoblanmaydi.

4. Pul, obligatsiya, tovar va ishchi kuchi bozorlarini bir-biriga bog'laydigan asosiy tamoyil sifatida Valras qonunidan foydalaniladi. Valras qonuniga muvofiq ishsizlik ortiqcha ishchi kuchi sifatida talqin qilinadi, unga bironta boshqa bozordagi ortiqcha talab qarshi qo'yiladi (masalan, tovar yoki pul bozorida). Valras qonunidan foydalanish rejalashtiriladigan talab va taklif tushunchalari bilan bog'liq. Biroq bu tushunchalar narx elastikligi sharoitlarida foydalilikni maksimal-lashtiruvchi xulq-atvor modeli bilan bog'liq bo'lib, neoklassik narx nazariyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Keyns bu tushunchalarni qo'llamagan. Bu pozitsiyalar bo'yicha keyns-neoklassik sintez yangi keynschilar tanqidi obyektiga aylandi.

## XULOSALAR

1. Keynsning makroiqtisodiy modeli quyidagi to'rtta bozorni birlashtiradi va ularning o'zaro aloqasini namoyish etadi: tovar, pul, obligatsiya va ishchi kuchi bozori.
2. Umumiy keyns yondashuvi to'liq bandlikda muvozanat umumiy holat emasligini ko'rsatishni vazifa qilib qo'ygan. Umumiy holat bu — ishsizlik mavjudligidagi muvozanat, to'liq bandlik — o'ziga xos holat. To'liq bandlik holatiga erishish uchun davlat maxsus siyosat yuritishi lozim, chunki avtomatik amal qiluvchi bozor kuchlari unga erishishni kafolatlamaydi.
3. Keyns nazariyasi quyidagi sxema bo'yicha tuziladi: 1) individ pul shaklida ushlab turishga moyil bo'lgan boylik ulushini aniqlash; 2) muqobil boylik shakllarini — pul, obligatsiyalarni aniqlash; 3) pul barcha tomonidan muomala vositasi sifatida qo'llanadigan aktiv sifatida foydalaniladi va foiz ko'rinishida daromad keltirmaydi, obligatsiyalar — hukumatning muddatsiz qarz majburiyatlari; 4) individning eng kam risk bilan o'z portfelidan oladigan daromadni maksimallashga intilish; 5) pulga talab uni to'ldirishning uchta motivini nazarda tutadi — transaksion, spekulativ va kutilmagan maqsadlar (ehtiyotkorlik motivi).
4. Keyns nazariyasining rivojlanishi uni shunday talqin qilishga olib keldiki, bunda u neoklassik pul nazariyasi (mikroiqtisodiyot) va

neoklassik miqdoriy nazariyaga juda o'xshab ketdi. Bu model keyns-neoklassik sintez deb atala boshlandi. Avvalo bu sintez iste'mol funksiyasi nazariyasiga Pigu samarasini kiritish bilan tavsiflanadi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

*Buyuk depressiya, eski va yangi Keyns modeli, Xiks va Xansen egri chizig'i, pulga talabning Keyns nazariyasi, transaksion motiv, pulga spekulativ talab, obligatsiya narxi, likvidlik, Pigu samarasi, neoklassik sintez.*

### **Nazorat uchun savollar**

1. *Eski va yangi Keyns modeli qanday ifodalanadi?*
2. *Keyns modelida makroiqtisodiy agregatlarning qaysi turlaridan foydalaniladi?*
3. *Transaksion va spekulativ qoldiqlar nimani anglatadi?*
4. *Keynscha pul bozori nazariyasi bilan klassik model o'rtasidagi farqni tushuntirib bering.*
5. *Xiks va Xansen tomonidan ishlab chiqilgan IS-LM egri chiziqlar nimani anglatadi?*
6. *Keyns modelida pulga bo'lgan talab nazariyasi nimalarga bog'liq?*
7. *Obligatsiyalarning joriy foiz stavkasi qanday aniqlanadi?*
8. *Keyns-Neoklassik sintezi orqali Pigu samarasini tushuntirib bering.*
9. *Keyns – neoklassik sintezining asosiy jihatlari nimalardan iborat?*
10. *Valras qonunining mohiyati nimadan iborat?*

### **5.1. Monetarizm doktrinasining vujudga kelishi va uning evolutsiyasi**

XX asrning soʻnggi oʻn yilliklari davomida Gʻarb mamlakatlari iqtisodiy nazariyasi ikkita yirik yoʻnalish — reformizm anʼanalarini aks ettiruvchi keyns maktabi va «neoklassik tiklanish» shiori ostida birlashgan konservativ doktrinalar ittifoqi oʻrtasida raqobat maydoniga aylandi. Oʻtkirlik va keng miqyosli xarakter bilan ajralib turadigan bu qarama-qarshilik siyosiy-mafkuraviy, iqtisodiy qarashlar va konsepsiyalar tizimini ham, davlatning xoʻjalik hayotini tartibga solish boʻyicha amaliy chora-tadbirlar sohasini ham qamrab oladi.

Konservativ alyans XX asr 70-yillarining ikkinchi yarmida uzil-kesil shakllanib, uni Chikago universitetida XX asrning 50-yillarida paydo boʻlgan monetaristik maktab boshqardi. Dastlab, monetarizm professor Milton Fridman atrofida yigʻilgan iqtisodchilarning kichik guruhi bilan ifodalangan. Ular oʻz oldiga ommaviyligini yoʻqotgan tartibga solinmaydigan bozor iqtisodiyoti konsepsiyasi jozibadorligini qayta tiklash vazifasini qoʻydilar. Bunda pul takror ishlab chiqarish mexanizmini barqarorlashtiruvchi asosiy omil deb eʼlon qilindi.

Monetarizmning tarixiy ildizlari uzoq davrni bosib oʻtgan va neoklassik qarashlarning muhim tarkibiy qismi boʻlgan pulning miqdoriy nazariyasida yotadi. Monetaristlar oʻz oldiga XX asrning 30-yillarida ommaviyligini yoʻqotgan va keyinchalik turgʻun holatga tushib qolgan miqdoriy nazariyani jonlantirish va modernizatsiyalash vazifasini qoʻydilar. 1956- yili monetarizmning oʻziga xos manifestiga aylangan «Pulning miqdoriy nazariyasi: yangicha ifodalash» maqolasida Fridman oʻz taʼlimotini miqdoriy nazariyaning «aniqroq va voqelikka koʻproq mos keladigan» versiyasi deb atadi.

M. Fridman (1912–2006) 1912-yili Nyu-Yorkning yahudiy muhojirlar yashaydigan kambagʻal tumani — Bruklinda tavallud topdi. Oʻqish davomida u oʻzining matematik qobiliyatini namoyish etib, keyinchalik iqtisodiyot fani bilan qiziqib qoldi. 1932-yili Rutger universitetini yakunlagach, u Chikago shahriga iqtisodiyot fanini chuqurroq oʻrganish uchun koʻchib oʻtdi. Bu yerda u iqtisodiyotda bozor omillarining roliga



neoklassik qarashlar tarafdori bo'lgan yirik olimlar — F. Nayt, J. Viner, G. Saymonson bilan uchrashdi. M. Fridmanning bir nechta maqolalari bilan monetarizm doktrinasining jahon maydoniga chiqishi boshlandi. Monetarizm doktrinasini o'tkir munozara va qattiq tanqidlar obyektiga aylanib, ular davomida Fridmanning ilmiy obro'si o'sib bordi. 1967-yil u Amerika iqtisodiy assotsiatsiyasining prezidenti etib saylandi, 1974-yili esa unga iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti topshirildi. M. Fridman monetaristik doktrinaning shakllanishida yetakchi rol o'ynadi. U monetarizmning nazariy asoslarini shakllantirib, ularning dalillarini ishlab chiqdi. Xuddi shu yo'nalishda F. Keygan, D. Meyzelman, K. Brunner, A. Meltser, D. Lendler va A. Shvarts ham ishladilar. Shu bilan birga, monetarizmni bir kishining yoki kishilar guruhining erishgan yutuqlari deb aytish noto'g'ri bo'lardi. Monetarizm bu — **ma'lum bir davr mahsuli**, kapitalizm iqtisodiyotidagi muhim o'zgarishlar uchun o'ziga xos reaksiyadir. Bu oqim paydo bo'lgan dastlabki o'n besh yil ichida tan olingani yo'q. Shu yillari kapitalistik dunyo iqtisodiy o'sishni boshidan kechirgan. Bu yuqori konyunkturani davlatning g'ayratli siyosati, uning talabni rag'batlantirish bo'yicha harakatlari natijasi sifatida tavsiflagan keyns nazariyasi nufuzining o'sishiga xizmat qildi. Faqat 60-yillarning ikkinchi yarmida, AQSH Vetnamda boshlab yuborgan harbiy harakatlar budjet taqchilligi va tovarlar narxining keskin o'sishiga olib kelgandan so'ng monetaristlar pozitsiyasi kuchaydi va ularning ommaviyligi o'sa boshladi.

Monetaristik doktrina bir qator bosqichlardan o'tgan bo'lib, ularning har birida asosiy e'tibor ma'lum bir muammolar doirasini ishlab chiqishga qaratildi. Xususan, XX asr 50-yillarining ikkinchi yarmi va 60-yillar boshida asosiy kuch-harakatlar pulga talab barqaror funksiyasi shaklida ifodalangan pulning miqdoriy nazariyasi yangi variantini ishlab chiqishga qaratilgan edi. Bu funksiya monetaristlarda pul massasi va nominal (pul) daromad o'rtasida bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajargan pul muomalasi barqaror va ishonchli bashorat qiladigan tezligining analogi bo'ldi. Keyingi yillarda pulga talab funksiyalari bo'yicha ko'plab ekonometrik hisob-kitoblar qilindi. Ushbu doktrina tarafdorlari monetaristik tezisning adolatli ekanligini, ko'rsatilgan funksiya turli tarixiy vaziyatlarda aniq ko'zga tashlanadigan xo'jalik subyektlari xulq-atvori barqaror qonunlarida aks etishini aniqlashga harakat qildilar. Monetaristlar ularning bozor iqtisodiyoti modeli ishonchliroq va konyunkturani bashorat qilish uchun eng yaxshi asos bo'lib xizmat qiladi deb ta'kidladilar.

Monetarizm doktrinasi rivojlanishida keyingi qadam sanoat sikllari sababi va xarakteri masalasiga taalluqli bo'lib, bundan oldingi bosqich – an'anaviy miqdoriy nazariyaning umumiy narx darajasi nazariyasidan nominal daromad nazariyasiga aylanishi bilan bog'liq edi. Monetaristik tadqiqotlar markazida pul zaxiralari o'zgarishi va pul qiymatidagi yalpi milliy mahsulot (daromad) tebranishi o'rtasidagi bog'liqlikning puldagi ifodasi yotadi.

Monetarizm evolutsiyasida inflatsiya tabiati haqidagi munozaralar muhim rol o'ynadi. Fridman va boshqa monetaristlar inflatsiyani to'lov vositalarining tezlashgan emissiyasi natijasida vujudga keluvchi «sof pul bilan bog'liq» hodisa sifatida talqin qiladilar. Bunda doktrinaning neoklassik ildizlari, uning pul miqdori va umumiy narx darajasi o'rtasida bevosita aloqa mavjudligini e'tirof qiluvchi miqdoriy pul nazariyasi bilan bog'liqligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Monetarizm doktrinasi rivojlanishida keyingi bosqich ish haqi va ishsizlik darajasi bilan bog'liq edi. 1967-yili Fridman ishchi kuchi bozorining qattiq sharoitlari bilan belgilanadigan va hukumat siyosati choratadbirlari tomonidan o'zgartirib bo'lmaydigan «ishsizlik tabiiy darajasi» mavjudligi haqida fikr bildirdi.

Monetaristlarning «fiskalizm» deb tan olgan keyns siyosatiga qarshi urushi ham o'z bosqichlariga ega. XX asrning 70-yillari o'rtalarida keyns va monetaristlar maktablari o'rtasidagi kurash bevosita xo'jalik siyosati amaliy tadbirlarida namoyon bo'ldi. 1980-yillar boshida iqtisodiy siyosatni ifodalashda uning qoidalaridan foydalanish monetarizmning om-maviyligi keskin o'sganligi ko'rsatkichi bo'ldi. Markaziy banklar amaliyotida pul qoidalarining turli variantlari keng tarqaldi.

Monetarizmning asosiy jihatlari haqidagi masalalar bo'yicha fikrlar xilma-xilligi juda keng. Asosiy sabab shundaki, monetarizm iqtisodiy fikrlashning keng oqimi sifatida ko'p o'lchamli hisoblanadi.

Monetaristlar o'z konsepsiyalari bevosita real kuzatiladigan jarayonlarga asoslanadigan dalillardan kelib chiqishi haqida tasavvur uyg'otishga harakat qiladilar. Ularning metodologiyasiga muvofiq, nazariya bu – empirik kuzatuvlar summasiga mos keluvchi gipotezadan boshqa narsa emas. Biroq haqiqatda monetaristik konsepsiya avval boshdanoq apriorli mulohazalar va doktrina ko'rsatmalariga bo'ysundirilgan edi. Dalillarni to'plash, qayta ishlash va talqin qilish oldindan miqdoriy nazariya qoidalari va neoklassik ta'limning umumiy xulosalarini tasdiqlash vazifasi bilan belgilab qo'yilgan edi. Monetarizmning eng mashhur bo'lgan Fridman varianti quyidagi elementlarni qamrab oladi:

1. Muomaladagi pul miqdori va tovarlar narxi darajasining o'zgarishi o'rtasida aloqa mavjudligini ta'kidlovchi pulning miqdoriy nazariyasi.

2. Monetaristik iqtisodiy sikl nazariyasi, unga ko'ra yalpi pirovard mahsulotning nominal o'sishi yoki pasayishida aks etadigan xo'jalik konyunkturasidagi yirik tebranishlar pul massasining o'zgarishi bilan izohlanadi.

3. Takror ishlab chiqarishning real (nomonetar) omillariga ta'sir ko'rsatishning maxsus o'tkazma mexanizmi, keynschilar o'ylaganidek foiz me'yori orqali emas, balki tovarlar narxi darajasi orqali amalga oshiriladi.

4. Pul ko'rsatkichlari va real ishlab chiqarish omillari o'zgarishi o'rtasida vaqt farqi mavjudligi sababli iqtisodiy tartibga solish bo'yicha davlat chora-tadbirlari samaradorligining pastligi.

5. Maxsus «**pul qoidasi**», u konyunkturaga davlat ta'siri usullarini xo'jalik holati, sikl bosqichi va boshqalardan qat'iy nazar yiliga 3–4 foiz muomaladagi pul massasining avtomatik o'sishi bilan almashtiradi.

Ushbu qoidalarning barchasi Fridman tomonidan intensiv statistik tahlilning yakuniy natijasi sifatida talqin etiladi. Bu belgilardan kelib chiqib, quyidagicha ta'rif berish mumkin: *monetarizm* (ingl. *money – pul*) – muomalada bo'lgan pul massasiga xo'jalik konyunkturasini shakllantirish jarayonida asosiy omil rolini beruvchi hamda pul miqdori va yalpi yakuniy mahsulot o'rtasida aloqa sabablarini aniqlovchi iqtisodiy nazariya.

**Konservativ iqtisodiy doktrinalar ittifoqi.** Amerikalik iqtisodchi P. Devidson g'arbdagi zamonaviy iqtisodiy fikrlashning beshta asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatadi: eng chap qutbda – radikal-ijtimoiy oqimlar (institutsionalizmdan tortib to marksizmgacha); eng o'ng qutbda – monetaristik doktrina; ular o'rtasida keyns ta'limining uch modifikatsiyasi (markazda – original yoki buzib ko'rsatilgan keynschilik versiyasi, R. Xarrod, A. Lerner ishlari bilan ko'rsatilgan; chaproqda – neokeynschilar maktabi – J. Robinson, N. Kaldor, L. Pazinetti; o'ngroqda – keyns-neoklassik sintez, – P. Samuelson, R. Solou, J. Xiks, J. Tobin, D. Patinkin).

XX asrning 80-yillari boshida g'arb mamlakatlarida iqtisodiy neokonservatizm umumiy nomi ostida birlashtirilgan butun bir iqtisodiy doktrinalar majmui paydo bo'ldi. Bu qatorga monetarizm, seplay-sayd (taklif iqtisodiyoti – G. Steyn, J. Gilder va b.) va yangi klassik maktab (ratsional kutish nazariyasi va uning turlari – F. Modilyani, J. Tobin, B. Makkallum, R. Lukas, T. Sardjent va N. Uolles) kiradi.

Konservativ alyansning barcha zamonaviy oqimlarini ularning metodologiyasi va ayrim nazariy masalalar bo'yicha egallagan pozitsiyalaridan qat'iy nazar davlatning faol makroiqtisodiy siyosatiga qarshi chiqish birlashtiradi. Ularning ta'kidlashicha, kapitalizm iqtisodiyoti o'zining asosida barqarordir, davlatning aralashuvi esa xo'jalikning o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishning tabiiy mexanizmlarini buzadi. M. Fridmanning asarlari yangi klassik doktrinaning katta qismi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ko'plab mualliflar monetarizmni «sof iqtisodiy nazariya», turli siyosiy yo'nalishlar vakillari uchun ma'qul keladigan abstrakt-nazariya gipotezalar tizimi sifatida talqin qiladilar. Shu tariqa monetarizmni kapitalizm rivojlanishining ma'lum bir shartlari natijasida tug'ilgan va aniq mafkuraviy yo'nalishga ega bo'lgan ijtimoiy va tarixan asoslangan doktrina sifatida to'g'ri baholashning kaliti yo'qotiladi. Bu yerda gap iqtisodiy tizimning o'zini-o'zi tartibga solish xususiyatini birinchi o'ringa chiqaruvchi va shu vaqtning o'zida davlatning o'zgartirishlar kiritish siyosati zarurligini inkor etuvchi kapitalizm apologetikasining maxsus shakli haqida boradi. Bunday falsafadan maqsad urushdan keyingi davrda sanoati rivojlangan ko'plab mamlakatlar hukumatlari o'tkazgan reformizm va ijtimoiy manevrlash siyosatini to'xtatish edi. Hali «yangi kurs» davridayoq» (Ruzvelt) AQSHdagi rahbar doiralar, ijtimoiy konfrontatsiyadan qo'rqqan holda, turli ijtimoiy mojarolarni yumshatish, qator iqtisodiy islohotlar o'tkazish va ishchilar sinfiga ma'lum bir yonbosishlar tomon yo'nalishni tanlab oldilar. Bu yo'nalishga to'lov layoqatiga ega talabni kengaytirish vositasida yuqori bandlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasini qo'ygan keyns iqtisodiy nazariyasi ko'rsatmalari ham mos keldi. Monetaristlar esa, aksincha, bozor kuchlarini ishlab chiqarish samaradorligining o'sishini ta'minlovchi intizom vositasi sifatida keskin faollashtirish g'oyasi bilan chiqdilar.

Monetaristlar keynschilardan farqli o'laroq, to'la ish bilan bandlik iqtisodiy o'sishga ta'sir etmaydi, chunki uning samarasi uncha katta bo'lmaydi deb hisoblaydilar. Shu bilan bir vaqtda ular pulning aylanish tezligi uni ishlatish (sarflash va jamg'arish) usullarini darhol o'zgartirmaydi, chunki kishilar iqtisodiy sa'y-harakatlari ruhiy jihatdan barqaror bo'lishini ta'kidlaydilar. Monetarizm rivojlangan jamiyatda iste'mol yuqori darajada bo'lib, kishilarning ehtiyoji va ulardagi moyillik tez o'zgarmaydi, degan qoidaga asoslanib, insonlarning pul sarflari ham oldindan hisob-kitob qilinib, nimaga qancha sarflanishi belgilab qo'yi-

ladi, deb qaraydilar. Shunga asoslangan monetaristlar pulning aylanish tezligi va ishlab chiqarish hajmi kam hamda sekin o'zgaradi, degan xulosaga keldilar. Shu sababli pul miqdorining o'sishi narxlar umumiy darajasining ham o'sishini keltirib chiqaradi. O'zlarining bu xulosalarida monetaristlar narxlar va muomaladagi pul miqdori o'rtasida bog'lanish borligini asoslashga harakat qiladilar, ya'ni narx pul miqdoriga bog'liq bo'lib, talab va taklifni muvofiqlashtirish orqali iqtisodiyotni o'z-o'zidan tartiblaydi, talab va taklif muvozanati esa o'z navbatida, boshqa muvozanatlarni ta'minlaydi. Demak, iqtisodiyotni tartibga solish uchun muomaladagi pul miqdorini o'zgartirib, uni me'yoriy holga keltirish zarur, deb ko'rsatishadi.

Faqat monetarizm emas, balki boshqa nazariyalar ham pul massasi bilan ishlab chiqarish hajmi o'rtasida bog'liqlik mavjudligini tan oladi. Farq shundaki, monetarizm pul massasini bosh muvozanat, deb qaraydi. Uning namoyandalari pul massasiga ta'sir etuvchi chora-tadbirlar davlat investitsiyalaridan farq qilib, darhol iqtisodiy vaziyatga ta'sir etadi, deb hisoblaydilar. Ular pulga ta'sir etishni samarali tadbir, deb hisoblashlarining sababi shundaki, pul real iqtisodiy vaziyatga mos bo'ladi, investitsiyalar ishga tushguncha sharoit o'zgarib, ular yaxshi natija bermasligi ham mumkin. Demak, pul massasini o'zgartirish xatari kam tadbir bo'ladi, degan xulosaga keladilar.

Ammo monetaristlar keyingi paytlarda iqtisodiyotda yuz bergan o'zgarishlarni jumladan, iqtisodiy o'sish barqarorlashganligi, uni ta'minlashda intensiv omillarning roli oshganligi, pulning aylanishi tezlashganligi kabilarni inobatga olib, pul massasini doimiy ravishda bir me'yorda oshirib borishni ma'qul, deb hisoblaydilar. Bu me'yor shundayki, pul miqdorining o'sishi mehnat unumdorligining o'sish sur'atiga nisbatan 2% yuqori bo'lishi kerak. Pulning bir me'yorda o'sib borishi iqtisodiyotni barqarorlashtirish va davriy tebranishlarni cheklash imkonini beradi. Shu sababli davlat va uning nazoratidagi Markaziy bank pul muomalasi borasida qattiq siyosat o'tkazishi kerak bo'ladi, deb ko'rsatadilar. Monetaristlar pul-kredit muassasalari pul taklifi o'sish sur'atlarini barqarorlashtirishlari, ya'ni uni yiliga 3–5% ga kengaytirilishi lozim, degan xulosaga keldilar.

Bizning nazarimizda, real iqtisodiy holatni hisobga olmagan holda muomaladagi pul miqdorini doimiy ravishda bunday o'stirib borish pul barqarorligiga putur yetkazadi, bunda aniq iqtisodiy sharoitni hisobga olish kerak, deb o'ylaymiz. Monetaristlar tavsiyalariga ko'ra, bir qator mamlakatlarda pul massasining o'sish miqdori qonun yo'li bilan aniq ko'rsatildi yoki uning eng quyi va yuqori chegaralari belgilab qo'yildi.

Biz monetaristlarning investitsiyalar va aholi bandligining o'sishi inflatsiyani yanada kuchaytiradi, degan fikrlariga qo'shila olmaymiz. Bunga bir tomonlama qaramaslik kerak, ya'ni aholi bandligining o'sishi ular daromadlarini o'stirib, jami talabni rag'batlantirish orqali tovarlar taqchilligini yuzaga keltirishi mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish hajmini o'stirib, jami taklifni ham rag'batlantiradi. Bizning fikrimizcha, davlat jami talab bilan jami taklif o'rtasida mutanosiblikni ta'minlashga qaratilgan siyosatini to'g'ri va o'z vaqtida olib berishi zarur.

Bunday sharoitda monetar tadbirlar ko'rish, iqtisodiyotga faqat pul emissiyasi orqali ta'sir ko'rsatish bilan cheklanish to'g'ri bo'lmaydi. Muomalaga har qancha pullar chiqarilmasin, sotiladigan tovarning o'zi bo'lmasa, birlamchi asos bo'lmasa, pullar o'z holicha oddiy qog'oz bo'lib qolaveradi. Biz monetaristlarning bozor mexanizmlarining erkin amal qilishi kerakligi haqidagi fikrlariga ham qo'shila olmaymiz. Ayniqsa, aholisi zich joylashgan, tug'ilish darajasi yuqori (yiliga o'rtacha 1,8%), turmush darajasi pastligi bilan ajralib turadigan O'zbekistonda bu og'ir ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining asarlarida bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda sinalgan monetar siyosat usullarining MDHga kirgan qator respublikalarda qo'llanilganligi oqibatida ishlab chiqarishning keskin pasayib ketganligini va inflatsiyaning kuchayganligini ko'rsatib berdi. Monetar siyosatni asos qilib olgan mamlakatlarning achchiq saboqlarini tahlil qilib, Prezident I.A. Karimov: «Binobarin, monetarizm hech qachon ishlab chiqarishni tanglikdan olib chiqishga qodir bo'lgan yagona yo'naltiruvchi va hal qiluvchi kuch bo'lgan emas. Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqish chog'ida ana shu qattiq monetarizmga tayanmaslik kerak. Balki muvozanatga keltirilgan monetar siyosatni asosiy tarmoqlarni va ishlab chiqarishni tarkiban qayta tashkil qilishni qo'llab-quvvatlash siyosati bilan birga qo'shib olib borish zarur»<sup>1</sup>, deb ta'kidlaydi.

## 5.2. M.Fridmanning pul nazariyasi

Monetaristlar tomonidan ishlab chiqilgan pulning miqdoriy nazariyasi versiyasi uning an'anaviy variantlaridan keskin farq qiladi. Fridman ko'p yillik pasayish va degradatsiyadan so'ng neoklassik pul nazariyasi

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelejok sari. — T.: «O'zbekiston», 1998. — 355—356-betlar.

avvalgi ko‘rinishda tiklanmasligini tushunar edi. Nazariyaning ayrim xulosalarini, umumiy yondashuv va metodologiyani o‘zgartirish, unga ko‘proq moslashuvchanlik baxsh etish talab qilingan.

Fridman miqdofiy nazariyani qayta qurishni uning mikroasoslarini mustahkamlashdan boshladi. Avvalgi yondashuvlardan farqli o‘laroq u avval boshdanoq pul va narx o‘rtasida sabab aloqalari mavjudligi haqida makroiqtisodiy xulosalarni ifodalashga shoshilmadi. Asosiy e‘tibor kassa qoldig‘iga (pul miqdori) talab muammosi, iqtisodiy jarayonning ayrim qatnashchilarida pulga ehtiyojni shakllantirish qonuniyatlari tomon ko‘chdi. Shundan so‘ng «tipik individuum» xulq-atvori butun xo‘jalikka tarqaladi va butun monetarizm doktrinasini uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi **pulga talab** agregat funksiyasi chiqariladi.

Boshlang‘ich nuqta sifatida M. Fridman ta‘kidladiki, miqdoriy nazariya bu — «ishlab chiqarish, pul daromadi yoki narx nazariyasi» emas, balki **pulga talab nazariyasi**. Monetaristlar (Keynsdan farqli ravishda) pulga talab eng yuqori darajada barqaror bo‘ladi va aynan shu xo‘jalik mexanizmining barqarorligi kafolati hisoblanadi degan g‘oyani ilgari surdilar.

Shuni qayd etib o‘tish joizki, pulga talabning barqaror funksiyasi pul miqdoriy nazariyasining zamirida yotgan pul muomalasi tezligi barqarorligining yaqqol ifodasi xolos. Biroq an‘anaviy talqinlardan farqli o‘laroq monetarizm pul muomalasining tezligi formulasi qat‘iy determinatsiyalanmagan va ehtimoliy aloqa bilan almashtiriladi. Pulga talab muammosi iste‘molchi tanlovi umumiy nazariyasining bir qismi sifatida talqin etiladi.

Pulga ehtiyoj tovar ayirboshlash bitimlari summasi bilan belgilanadigan transaksion turdagi nazariyadan farqli o‘laroq, Fridman nazariyasi «**portfelli modellar**» yoki «**aktivlarni afzal ko‘rish**» nazariyasi konsepsiyasiga mansub hisoblanadi.

Pulga talab modelini tuzishda xo‘jalik agentlarining ikki turi — uy xo‘jaliklari (boylikning yakuniy egalari) va ishlab chiqarish firmalari xulq-atvori tahlil qilinadi. Ulardan birinchisi uchun pul boylik (qiymat)ni saqlashning shakllaridan biri hisoblansa, keyingilari uni kapital aktivi (ishlab chiqarish xizmatlari manbasi) deb hisoblaydi. Ikkala holatda ham pul harakatda emas (oqim emas), balki vaqt ko‘rsatkichi (zaxira) sifatida tahlil qilinadi hamda to‘planadigan va bir-birini almashtiradigan aktivlar portfelining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Fridman portfelida pul bilan birga obligatsiyalar, aksiyalar, tovar zaxiralari, inson kapitali ham o‘rin olgan. Inson kapitali insonga

**Investitsiyalar bilan, ya'ni uning ta'lim olishi, salomatligini mustahkamlash xarajatlari va hokazolar bilan bog'liq.** Har bir individ daromadlarini o'z ta'bi va xohish-istaklari bo'yicha taqsimlaydi. Bunda u har bir aktiv turining istiqboldagi daromadlilik tasavvurlariga rioya qiladi.

Portfelning asosiy elementi pullardir. Ular o'z egasiga to'lovni amalga oshirish kafolatini ta'minlaydi, kutilmagan vaziyatlar uchun likvidlik zaxiralarini yaratadi va h.k. Bunday boylik shaklidan kutiladigan daromad quyidagicha belgilanadi —  $r^m$  ( $r$  — daromadlilik,  $m$  — pul). Pul qiymati, uning xarid kuchi  $P$  narx darajasiga bog'liq bo'ladi. Monetaristlar bu omilning ta'sirini hisobga olib,  $M/P$  kassa qoldiqlari va  $Y/P$  real daromad hajmi bilan ishlaydi.

Obligatsiya va aksiyalardan daromad foiz to'lovlar  $r^b$  va dividendlar  $r^d$  shakliga ega. Tovarlar «xizmatlarni» naturada, o'z foydaliligi bilan keltiradi. Biroq ular tovar narxlari o'zgarishida qadrsizlanadi yoki qiymati oshadi. Shu sababli umumiy narx darajasining o'zgarish sur'ati hisobga olinadi  $1/P \cdot \Delta P/\Delta t$ . Fridman shuningdek,  $w$  ko'rsatkichi — nafaqat moddiy, balki ma'naviy boylikni, ya'ni inson kapitalini ham qamrab olgan boylikni ham hisobga oladi. Taqsimlash lozim bo'lgan real daromadlar summasi (narx o'zgarishini hisobga olgan holda)  $y$  orqali belgilanadi, hisobga olinmagan omillar, subyektlarning ta'bi va xohish-istaklarni ifodalovchi ko'rsatkich esa  $u$  orqali belgilanadi. Natijada boylikning individual egalari uchun pulga talab tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$M/P = f(y, w, r^m, r^b, r^d, 1/P \times \Delta P/\Delta t, u),$$

bunda:

$M/P$  — real pul qoldiqlari;

$y$  — milliy daromad doimiy narxlarda;

$w$  — boylik («tabiiy» komponent);

$r^m$  — pul qoldiqlarining kutilayotgan daromadlilik nominal me'yori;

$r^b$  — obligatsiyalarning kutilayotgan daromadlilik nominal me'yori;

$r^d$  — aksiyalarning kutilayotgan daromadlilik nominal me'yori;

$1/P = \Delta P/\Delta t$  — tovar narxlari darajasining kutilayotgan o'zgarish sur'ati;

$u$  — pulga bo'lgan talabga ta'sir etuvchi boshqa omillar.

Pulni jamg'aruvchi agentlarning ikkinchi toifasi bu — firmalar. Fridman kapitalistik korxonalar aylanmasida pul iste'molchilarga qaraganda boshqacha rol o'ynaydi deb tan oladi. Biroq bir qator soddalashtirishlar yordamida tadbirkorlik sektorining talabi ham yuqorida



ko'rsatilgan tenglama holatiga keltiriladi. Bunda faqat hisobga olinmagan omillar  $u$  kengaytiriladi.

Nominal pul qoldiqlariga talab boylikning barcha shakllaridan eng yuqori daromad olish tenglamasi yo'li bilan aniqlanadi (marjinal). Agar eng yuqori foydalilikni ta'minlovchi muvozanatga erishilgan paytdan boshlab obligatsiyalar, aksiyalar va tovarlarning daromadlilik me'yori oshadigan bo'lsa, nominal pul qoldiqlariga talab eng yuqori daromadlilik bu aktiv turlarining yangi daromadlilik bilan tenglashadigan nuqtagacha tushadi. Nominal qoldiqlarning qisqarishi ularning eng yuqori daromadlilikini oshiradi, chunki bundan kam summada har bir o'sish ularning boshlang'ich summasi katta bo'lgan holatga qaraganda ko'proq foyda keltiradi; pul qoldig'i har bir birligi ayirboshlashni ta'minlash bo'yicha katta ish bajarishi lozim bo'ladi. Demak, Fridman ilgari surgan pulga individual talab nazariyasi neoklassik tahlil asoslari bilan bog'liq foydani maksimallash tamoyillariga asoslanadi.

Aytib o'tish kerakki, Fridman nazariyasida buyumlarning pul, tovar yoki xizmat shaklida daromad keltiruvchi kapital talqinidan foydalaniladi. Mos ravishda pul ham – to'plangan kapital fondning bir qismi, obligatsiya, aksiya, ko'chmas mulk, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan birgalikda «kapital aktiv» hisoblanadi. Shu bilan bir paytda, pullar kapital bo'lmagani holda, xarid va to'lov vositasi sifatida xizmat qilishi, xo'jalik tizimida buyumlarni ayirboshlashni bilvosita ifodalashi mumkin.

Fridman nazariyasi rivojlanishida keyingi qadam pulga talab barqaror funksiyasini pul daromadini aniqlash nazariyasiga aylantirish yo'li bilan amalga oshirildi. Bunda muomaladagi pul massasining o'zgarishi joriy maqsadlarda YAMM siklik tebranishlarining asosiy sababi hisoblanadi. Bunday o'tishni asoslab berishda miqdorchilar uchun an'anaviy bo'lgan pul taklifi (pul emissiyasi) ekzogen (tashqi) xarakterga ega degan fikr muhim o'ringa ega.

Monetaristlar jamiyatda ishlab chiqarishning murakkab mexanizmini «pul-narx» sabab formulasini qamrab oluvchi «pul-pul daromadi» soddalashtirilgan tizimiga keltiradilar.

### 5.3. Pulga bo'lgan talab

Fridman modelida pulga talab oddiy (o'lchanadigan) daromad bilan emas, balki uning barqaror qismi, doimiy (permanent) daromad bilan belgilanadi, u joriy va o'tgan yillar uchun o'rtacha o'lchangan kattalik sifatida hisob-kitob qilinadi. Boshqacha aytganda, xo'jalik subyektlari

**pulga talab bildirar ekan, ular o'z e'tiborlarini hozirda olinadigan daromadga emas, balki o'tmishdagi daromadlarga yo'naltiriladi, bu esa kutishni shakllantirishning adaptiv modeliga mos keladi.**

Doimiy daromad gipotezasi Fridmancha pulga talab tenglamasining asosida yotadi, bu yerda jon boshiga doimiy real daromad pulga talab tebranishlarini belgilab beradi:

$$\frac{M}{NP_p} = \gamma \left( \frac{Y_p}{NP_p} \right)^\delta,$$

bunda:  $M/NP_p$  – aholi jon boshiga real kassa qoldiqlari;

$P_p$  – doimiy narx darajasi;

$N$  – aholi;


$Y_p/NP_p$  – aholi jon boshiga real doimiy daromad;

$\gamma, \delta$  – funksiyaning raqamli ko'rsatkichlari;


$\delta$  – daromad bo'yicha pulga talab elastikligi.

Xususan, 1870–1954-yillarda yillik ma'lumotlar bo'yicha AQSHda regressiya raqamli koeffitsientlarini hisob-kitob qilishda daromad bo'yicha pulga talab elastikligi 1 dan ancha katta ( $\delta = 1,81$ ), ya'ni 10% bo'ldi – kassa qoldiqlariga talab real daromadi 18,1% o'sdi. Bu Fridmanga pulni iste'mol tovarlari kabi «dabdabalilik predmeti» sifatida tavsiflashga imkon berdi.

Empirik hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, pulga talab (pul muomalasi tezligi) va daromad (real, doimiy narxda) o'rtasidagi bog'liqlik konyunktura davri doirasida to'g'ridan-to'g'ri, uzoq muddatli davrda esa teskari bo'ladi. Grafikda bu quyidagi ko'rinishda aks etadi (10-chizma).



a) konyunkturali sikl



b) uzoq muddatli davr

10-chizma. Pulga talab va daromad o'rtasidagi bog'liqlik grafifi.

Monetaristlarning xulosalari shunga borib taqaladiki, pul massasidagi o'zgarishlar xo'jalik konyunkturasidagi barcha yirik o'zgarishlarni belgilab beradi yoki I. Fisher terminologiyasiga ko'ra, xo'jalik pulning «nog'orasiga o'ynaydi». Bu tezisning zamirida pul massasining to'liq mustaqillik tamoyili yotadi.

Pul nima ekanligining erkin talqinidan kelib chiqib, monetaristlar naqd pul va tijorat banklari depozitlarining barcha turlarini qamrab oluvchi keng pul agregatidan foydalanadi. Tobin aytib o'tganidek – monetaristlar: «Biz pul nima ekanligini bilmaymiz, lekin u nima bo'lmasin, uning zaxirasi yiliga kamida 3–4% barqaror o'sishi lozim» deyдилar, ya'ni **pul qoidasini** keltirib chiqaradilar.

Pul massasining ekzogen xarakteri himoyasiga keng tarqalgan dalillar qatoriga markaziy bank muomaladagi to'lov vositalari darajasini samarali nazorat qila oladi degan fikr kiradi. Monetaristik adabiyotlarda pul bazasini tartibga solishga asoslangan **pul multiplikatori** sxemasi keng qo'llaniladi.

***Pul massasi bilan pul bazasi o'rtasidagi nisbat pul multiplikatori deb ataladi.***

Ular tarkibiga muomalaga chiqarilgan naqd pul miqdori, shuningdek, tijorat banklarining markaziy bank zaxira schyotlarida qolgan qoldiq mablag'lari kiradi. Aynan shu tarkibiy qismlar qonunga ko'ra bank depozitlarini ta'minlash vositasi hisoblanadi. *MB* baza hajmiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi, depozitlar esa bu bazaning hosilasi ekanligi sababli taxmin qilinadiki, pul hokimiyati doim ham pul zaxirasini kerakli yo'nalishda korrektirovka qila olmaydi. Pul massasi va zaxira bazasi o'rtasida bog'liqlik quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$M = mB,$$

bunda: *M* – pul miqdori;

*B* – baza;

*m* – pul multiplikatori.

Bank zaxiralari summasini o'zgartirishda ko'paytirish samarasi g'oyasi o'tgan asrning 20-yillarida, AQSH Federal zaxira tizimining shakllanish davrida e'lon qilingan. Biroq, pul multiplikatorining oldingi talqinlaridan farqli o'laroq, zamonaviy monetaristlar bu ko'rsatkichni turli xo'jalik agentlari – banklar, nomoliya kompaniyalari, davlat xulq-atvorini aks ettiruvchi qator funksional ko'rsatkichlar bilan bog'lagan holda uning iqtisodiy interpretatsiyasini kuchaytirishga harakat qiladilar. Bu qatorga xususan, naqd pul koeffitsiyenti  $C/D$  (*S* naqd pul summasining *D*

talab qilib olinguncha bank depozitlariga nisbati) va zaxira koeffitsienti  $R/D$  ( $R$  MB da bank zaxiralari summasining  $D$  depozitlar umumiy summasiga nisbati).  $B = R + C$  tengligini hisobga olgan holda koeffitsientlarni  $M = C + D$  pul massasi formulasiga kiritib, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$M = B \left( \frac{1 + \frac{C}{D}}{\frac{R}{D} + \frac{C}{D}} \right)$$

Tenglikning o‘ng tomonidagi ikkinchi had (qavs ichida) – xulq-atvor ko‘rsatkichlari orqali ifodalangan **multiplikator**.

«Baza-multiplikator» modeli pul massasining mustaqil xarakteri haqida monetaristik tezisni asoslashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, 1875–1960-yillarda AQSHda ikki xulq-atvor koeffitsientlari (naqd pul va zaxira) va bazaning o‘zgarishini tahlil qilib, F. Keygan (monetarist), shunday xulosaga keldiki, pul massasi o‘zgarishining 9/10 qismi bazadagi o‘zgarishlar bilan va faqat 1/10 qismi boshqa sabablar bilan izohlanadi. Zaxira bazasining o‘ziga keladigan bo‘lsak, baholarga ko‘ra, uning 1914- yilgacha bo‘lgan o‘zgarishlari asosan oltin zaxirasining tebranishi bilan, FZT yaratilgandan so‘ng – federal zaxira banklarining davlat qimmatli qog‘ozlar portfeli o‘zgarishlari bilan izohlanadi.

Pul massasi shakllanishining zamonaviy jarayoni o‘ta murakkab bo‘lib, turli, ko‘pincha qarama-qarshi yo‘nalishlarda amal qiluvchi xilma-xil iqtisodiy kuchlar ta’siri ostida bo‘ladi. Zamonaviy emissiya mexanizmining kredit xarakteri kapitalistik xo‘jalik tomonidan kuchli, hal qiluvchi ta’sirni asoslab beradi. Kassa qoldiqlariga ehtiyoj, yakuniy hisobda, to‘lov vositalari zaxiralarini shakllantirishda asosiy o‘ringa ega bo‘ladi.

Biroq faqat yakuniy hisobda. Pul chiqarishning kredit kanallari bu chiqaruvning xo‘jaliklar talablariga to‘liq moslikni kafolatlamaydi hamda pul sohasidagi jarayonlarning mustaqilligini bartaraf etmaydi. Zamonaviy pul emissiyalari apparati bozor munosabatlarining asosiy subyektlaridan biri bo‘lgan davlatning kuchli ta’siri ostida bo‘ladi. Davlat pul-kredit va moliya tizimidan moliyaviy resurslar tizimi va iqtisodiy faollik holatiga ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida foydalanadi. Bu esa pulning kredit asoslariga putur yetkazadi va pul muomalasi optimal chegaralarining buzilishiga olib keladi, inflatsiya jarayonlarining sabablaridan biri aylanadi.

## XULOSALAR

1. Monetarizm XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lib, 70-yillarning ikkinchi yarmida konservativ alyans ko'rinishida uzil-kesil tashkil topdi. Monetaristik maktabning eng yorqin vakili – M. Fridman.
2. Monetarizm (ingl. *money* – pul) – muomalada bo'lgan pul massasiga xo'jalik konyunkturasi shakllantirish jarayonida asosiy omil rolini beruvchi hamda pul miqdori va yalpi pirovard mahsulot o'rtasida sabab aloqasini aniqlovchi iqtisodiy nazariya.
3. Monetarizمنىng eng katta muammolarini M. Fridman ochib bergan: 1) nominal daromadning o'sish sur'ati va pul miqdorining o'sish sur'ati o'rtasida aloqa mavjud; 2) qisqa muddatli davrda pul massasining o'zgarishi ishlab chiqarishga, uzoq muddatli davrda esa narxga ta'sir ko'rsatadi; 3) inflatsiya doimo pul bilan bog'liq hodisa bo'lib kelgan va ishlab chiqarishga nisbatan pulning tezroq o'sishi bilan bog'liq bo'lgan; 4) pul o'zgarishlarining nominal daromadga ta'siri uzatish mexanizmi nisbiy narxlar va boylik egalari boshqa aktiv turlarining o'zgarishi bilan bog'liq.

### Asosiy tayanch tushunchalar

*«Neoklassik uyg'onish», konservativ alyans, monetarizm doktrinasi, monetarizm rivojlanishining bosqichlari, talab funksiyalari, nominal daromad nazariyasi, ishsizlikning tabiiy darajasi, monetarizمنىng asosiy belgilari, «pul qoidasi», monetarizm nazariyasi, M.Fridmanning pul nazariyasi, kassa qoldiqlari, pulga talab nazariyasi, «portfelli model», pul daromadining nazariy ta'rifi, doimiy daromad, pul agregati, pul multiplikatori, pul bazasi.*

### Nazorat uchun savollar

1. Iqtisodiyot nazariyasida konservativ alyans qachon va nima sababdan paydo bo'ldi?
2. Monetaristik doktrinaning shakllanishida M. Fridmanning roli qanday?
3. Monetarizm evolutsiyasida inflatsiya tabiati haqidagi munozaralarni tushuntirib bering.
4. Monetarizمنىng eng mashhur bo'lgan Fridman varianti qanday elementlarni qamrab oladi?
5. Fridmanning «portfelli modellar» yoki «aktivlarni afzal ko'rish» nazariyasi qanday mazmunga ega?
6. Boylikning Individual egalari uchun pulga talab tenglamasi qanday ko'rinishga ega?
7. Fridman modelida pulga bo'lgan talab qanday o'lchanadi?
8. Monetaristlarning «pul qoidasi» mazmunini tushuntirib bering.
9. Pul multiplikatori nima?

**6.1. Inflatsiyaning mohiyati va uning yuzaga  
chiqish shakllari**


Inflatsiya XVIII asrning o'rtalarida muomalaga ta'minlanmagan juda ko'p mikdorda pul chiqarilishi natijasida pul tizimidagi inqiroz holat asosida yuzaga chiqqan. Inflatsiya (lotincha «*inflation*» so'zidan olingan va shishish, ko'pchish, ko'tarilish ma'nosini anglatadi) o'z mohiyatiga asosan pulning qadsizlanishi, tovar va xizmatlarga bo'lgan baholarning muntazam ravishda oshib borishi jarayonini anglatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, rivojlangan mamlakatlar tajribasi inflatsiya nisbatan me'yor darajasidagi pul massasi holatida ham yuzaga chiqishi mumkin.

Hozirgi zamon inflatsiyasi nafaqat tovarlar va xizmatlarga bo'lgan baholarni muntazam o'sishi natijasida pulning sotib olish qobiliyatini pasayishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonidagi nomutanosiblik, pul muomalasi, moliya hamda kredit sohasidagi salbiy omillar bilan tasniflanadi. Inflatsiyani yuzaga chiqishining asosiy sabablari bo'lib iqtisodiyot tarmoqlari, jamg'arma va iste'mol, talab hamda taklif, davlat daromadlari va xarajatlari, xo'jaliklarning pul massasi hamda unga bo'lgan talabi o'rtasidagi mutanosiblik va markaziy bankning kredit ekspansiyasi hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tgan omillar o'z mohiyatiga asosan inflatsiyaga va uning darajasiga turlicha ta'sir etishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda iqtisodchi olimlar inflatsiyaning yuzaga chiqadigan omillarini asosan ikki guruhga: ichki va tashqi omillarga ajratadilar. Biz ushbu omillarning mohiyatini yoritishga harakat qilamiz.

1. Ichki omillarning mohiyatiga asosan pullik (monetar) va pulsiz omillarga ajratish mumkin. Pullik omillarga davlat moliyasining inqirozi, budjet taqchilligining mavjudligi, davlat qarzdorligining ortishi, pul emissiyasi, kredit dastaklarining aylanishini ko'payishi, pul aylanmasining tezligi va boshqalar kiradi. Pulsiz omillarga milliy iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi nomutanosiblik, tarmoqlar iqtisodiy rivojlanishidagi bir maromsiz daraja, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida monopoliyaning (oligopoliya) mavjudligi, narx shakllanishidagi davlat monopoliyasi, markaziy bankning kredit ekspansiya va boshqa omillarni kiritish mumkin.

2. Tashqi omillar o'z mohiyatiga asosan biror aniq davlat rivojlanishiga ta'sir etadigan dunyoda amalga oshayotgan jarayonlarni aks ettiradi. Ushbu omillarga dunyo mamlakatlarida yuzaga chiqadigan soha inqirozlari, hisoblanadigan xomashyo, energetika, neft, valuta inqirozlarini kiritish mumkin. Ushbu omillardan tashqari biror-bir davlatning boshqa davlatlarga nisbatan olib boradigan davlat miqyosidagi valuta siyosatini, yashirin holatda valuta, oltin eksportining amalga oshirilishini ham kiritish mumkin (11-chizma.)



11-chizma. Inflatsiyaning yuzaga chiqish sabablari.

11-chizmada inflatsiyaning yuzaga chiqish shakllarini tahlil etamiz. Ushbu chizma tahlilidan ko'rinib turibdiki, inflatsiya asosan uch yo'nalishda yuzaga chiqadi. Birinchi yo'nalishda mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narxlarni asossiz ravishda o'sib ketishi tufayli pul qadrsizlana boshlaydi. Buning natijasida milliy valutaning xarid qilish qobiliyati tushib ketadi. Ikkinchi yo'nalishda, xorijiy valutalariga nisbatan milliy valutaning kursi pasayib ketadi. Buning natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar va mamlakat aholisi erkin muomaladagi xorijiy valutalarni (AQSH dollari, yevro, shveysariya franki va boshqalarni) jamg'ara boshlaydi. Uchinchi yo'nalishda oltinga bo'lgan milliy pul birligida ifodalangan narx ko'tarilib ketadi. Buning natijasida mamlakat aholisi o'rtasida oltinning to'planib qolishi, ya'ni tezavratsiya amalga oshadi.

Inflatsiyaning iqtisodiyotga ko'rsatadigan aniq ta'sirini quyidagi holatlarda kuzatish mumkin:

**1. Inflatsiyaning boyliklarning qayta taqsimotiga ta'siri.** Hozirgi vaqtda kishilarning boyligi pul (naqd pul, bankdagi omonat pul), aksiya

va mulk shaklida ifodalanadi. Bu boylik hamisha harakatda — iqtisodiy faoliyatda bo'ladi. Muayyan vaqt va muayyan yo'llar bilan bir kishidan yana bir kishiga o'tib turadi. Bu jarayon boylik va daromadning taqsimoti hamda qayta taqsimoti bo'lib, inflatsiya ham bunday qayta taqsimotni keltirib chiqaradi. Iqtisodiy faoliyatda amal qiluvchi ikki tomonning biri haqdor, yana biri qarzdor sifatida maydonga chiqadi. Bunday haqdorlik va qarzdorlik munosabati pul qarz berish va qarz olishda, bankka omonat pul qo'yish va kredit berishda, nasiya savdoda yuzaga keladi.

Inflatsiya darajasi nisbatan past bo'lgan sharoitda qaytarib olingan qarzning amaliy qiymati qarz bergan vaqtdagidan ortiq yoki deyarli farq qilmagani uchun uning boylik taqsimotiga ko'rsatgan ta'siri kuzatilmaydi. Inflatsiya darajasi yuqori yoki ta'sir qilarli darajada bo'lganda, ayniqsa, inflatsiya darajasi foiz stavkasidan yuqori bo'lganda, bunday ta'sir yaqqol kuzatiladi, ya'ni qarz beruvchi qaytarib olgan pulning amaliy qiymati qarz bergan vaqtdagidan past bo'lganda qarz beruvchi ziyon ko'radi, qarz oluvchi esa foyda ko'radi. Nasiya savdoda muayyan muddatdan keyin qaytarib olgan pul hatto tannarxini ham qoplay olmaydi.

Inflatsiyaning naqd pul qiymatini, hatto bankka qo'yan omonat pulning qiymatini ham kamaytiradi. Bunday holat foizsiz omonatda, foiz stavkasi inflatsiya darajasiga bog'liq bo'lmagan sharoitda aniq kuzatiladi. Muqim daromad, muqim ish haqi, nafaqa kabi kirim bilan yashaydigan kishilarning turmush darajasini pasaytiradi. Uzoq muddatga muqim foizli omonat qo'yanlar, naqd pul ushlab turganlarga nisbatan olganda foizdan keladigan foyda inflatsiya ta'sirida real qiymati kamayib ketgani uchun ular ko'rgan ziyon ancha katta bo'ladi. Banklar esa omonat pulni saqlovchi sifatida foyda ko'rsa, kredit beruvchi sifatida ziyon ko'radi. Davlat budjetida kamomad bo'lsa, uning qarzi yengillashadi. Umuman olganda, inflatsiya sharoitida tovarga tovar almashtirish kabi ibtidoiy savdo shakli jonlanadi. Nasiya savdoda oldin to'lash (zakot berish) barham topadi, aholi qo'lidagi pul tovarga ishonchli deb qaralgan erkin muomaladagi chet el valutasiga almashtiriladi yoki qimmatbaho buyumlar sotib olinadi. Sarmoyalar oltin, ko'chmas mulkka ko'proq jalb qilinadi va ulardan ko'proq foyda olinadi.

## **2. Inflatsiyaning yalpi milliy mahsulot (YaMM) miqdoriga ta'siri.**

Inflatsiya darajasi yuqori bo'lgan davr hamisha bandlik va mahsulot miqdori oshgan davrga to'g'ri keladi. Inflatsiyaning pasayish davri esa ishsizlik ko'paygan, sarmoya sarfi kamaygan davrga to'g'ri keladi. Ushbu jihatdan olganda inflatsiya bilan mahsulot miqdori o'rtasida muayyan bog'liqlik bor.




Talab va taklif o'rtasidagi muvozanatdan ma'lumki, jami talab egri chizig'i bilan egri chizig'i (egri chiziqning qiyshiq yoki tik tushgan bo'lishidan qat'iy nazar) kesishgan nuqta baho darajasidir. Agar ma'lum sabablarga ko'ra jami talab oshsa, jami talab egri chizig'i o'ng yuqori tomon siljiydi, bunga mos holda jami talabni yetarli darajada qoldiradigan jami taklif imkoniyati bo'lmasa, jami taklif egri chizig'i joyda turadi-da, ularning kesishish nuqtasi bo'lmish baho egri chizig'i yuqori siljiydi. Natijada baho darajasi o'sadi. Agar jami talab ortishi sababli jami taklif ham oshsa, u holda jami taklif egri chizig'i ham siljiydi (jami taklif egri chizig'i tik tushgan bo'lsa, o'ng tomonga, qiyshiq tushgan bo'lsa chap-yuqoriga siljiydi)da, baho egri chizig'i ham yuqori siljiydi. Demak, jami taklifning ortishi (jami taklifning kamayishiga barobar) yoki jami taklifning ortishi (jami talabning kamayishiga barobar) bahoning o'zgarishini keltirib chiqaradi. O'z navbatida bahodagi o'zgarish jami talab yoki jami taklifda o'zgarish bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu ma'noda mahsulot miqdori baho darajasiga, aniqrog'i inflatsiya darajasiga ma'lum darajada bog'liqdir.

**3. Inflatsiyaning ishsizlikka ta'siri.** Inflatsiya va ishsizlikning o'zaro bog'liqligini chuqur tahlil etgan avstraliyalik iqtisodchi olim A. Fillips grafiklar yordamida inflatsiya va ishsizlik o'rtasida teskari aloqa mavjudligini isbotlaydi. Uning fikricha inflatsiya darajasi yuqori bo'lgan holatda ishsizlik darajasi past bo'ladi. Buni 11-chizmadagi grafikda ko'rishimiz mumkin. A. Fillipsning fikricha, inflatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda haqiqiy ish haqi qiymati tushib boradi. Ushbu holat aholining turli toifalari narx-navo ko'tarilishi natijida yo'qotilgan haqiqiy ish haqini kompensatsiya qilish maqsadida ishlashga majbur

bo'ladi. Buning natijasida, mamlakat aholisi o'rtasida ishsizlik darajasining pasayishi kuzatiladi. Iqtisodchilarning tugamas munozarasiga sabab bo'lgan Fillips egri chizig'i nihoyat inflatsiya bilan ishsizlik o'rtasidagi munosabatni aniqlab berdi (12-chizma.)

Fillips egri chizig'iga ko'ra, inflatsiya darajasini 1% ga pasaytirish uchun ishsizlikni 2% ga o'stirish lozim bo'ladi. Ishsizlik va inflatsiya darajasidagi nisbatni tartibga solishda davlatning iqtisodiy siyosati asosiy rol o'ynaydi. Davlat ish bilan bandlik darajasi, ishlab



12-chizma. Fillips egri chizig'i:

$W$  – nominal ish haqining o'sish sur'ati;

$P$  – inflatsiya darajasi;

$U$  – ishsizlik darajasi.

chiqarish hajmi va ish haqi darajasi o'rtasidagi oqilona nisbatni ta'minlash orqali nafaqat ishsizlik va inflatsiya darajasini nazorat qilishi, balki ularning iqtisodiyot rivojlanishi va aholi turmush darajasiga salbiy ta'sirining oldini olishi ham lozim.

Fillips egri chizig'i nazariyasi ishsizlik bilan inflatsiya o'rtasida o'zaro bog'lanish bor, birini kamaytirish hisobiga ikkinchisi oshadi, bunday jarayon qisqa muddatda ham, uzoq mudatda ham amal qiladi, deb isbotlagan bo'lsada, keyinchalik amaliyotning sinoviga unchalik bardosh bera olmadi. Ko'plab o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, «inflatsiya qat'iyatlikka moyil». Agar qandaydir talab yoki taklif zarbasiga uchramasa, bunday qat'iyatlik o'zgarmasdan o'zining ilgari sur'ati bilan davom etaveradi. Qisqa muddatda ishsizlik darajasi tabiiy ishsizlik darajasidan past bo'lgandagina haqiqiy talab zarbasida inflatsiya darajasi o'sadi. Qisqa muddatda Fillips egri chizig'i muqim (bir izda) bo'lganda, ishsizlik bilan inflatsiya o'rtasida o'zaro almashuv bo'ladi. Uzoq muddatda esa ular o'rtasida hech qanday o'rin almashuvi bo'lmaydi. Uzoq muddatda past darajadagi ishsizlik ketidan hamisha tezlashgan inflatsiya kelib chiqadi va bunday o'sayotgan inflatsiyani uzoqqa qolmay taxmin qilish mumkin. Natijada yana bir daraja o'sgan qat'iy inflatsiya davri boshlanadi. Demak, inflatsiya uzoq muddatda Fillips egri chizig'i tabiiy ishsizlik darajasidan past bo'lgandagina inflatsiya haqiqatdan o'sa boshlaydi. Shuning uchun aytish mumkinki, uzoq muddatda Fillips egri chizig'i tabiiy ishsizlik darajasini ifodalovchi nuqtaga tik tushgan chiziqdir. Ma'lum bir davlatga nisbatan olib qaraganda ishsizlik darajasini tabiiy ishsizlik darajasida yoki undan past darajada, inflatsiyani qat'iy holatda ushlab turish ancha mushkul, hatto uzoq muddatda mumkin emas. O'zgaruvchan iqtisodiy faoliyatlar va hodisalar yoki tasodif zarbalar sababidan bunday muqimlik hamisha buzilib turadi va oqibatda ikkalovi ham barobar o'sadigan nomaqbul holat yuzaga keladi, biroq ikkalasining o'sish darajasi barobar bo'lmaydi, albatta.

**4. Inflatsiyaning bahoga bo'lgan ta'siri.** Ma'lumki, inflatsiya baho darajasining o'sishi bilan ifodalanadi, biroq inflatsiya sharoitida barcha baholar teng nisbatda o'smaydi, balki o'rtacha baho darajasi o'sadi: «ba'zi tovarlar bahosi keskin o'sadi, ba'zi tovarlar bahosi qat'iy bo'ladi, ba'zi tovarlar bahosi hatto tushadi». Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, inflatsiya sharoitida baholar o'rtasidagi nisbat buziladi va chalkashlashib ketadi. Inflatsiya darajasi qancha yuqori bo'lgan sari, bahoning chalkashlashuvi shuncha katta bo'ladi. Natijada baho tovar qiymatini ifodalash funksiyasidan mahrum bo'ladi. Inflatsiya sababidan

bahoning chalkashlashish ta'siriga aniq uchraydigan tovar – puldir. O'zgarmas baho yo'lga qo'yilgan (davlat bahoning o'sishining jilovlangan, turli shartnomalarida yozma ravishda cheklangan) ahvolda, inflatsiyaning ta'siri yana ham sezilarli darajada bo'ladi. Bunday bahoda sotiladigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarining foydasi kamayadi, ular hatto ziyon ko'radi. Erkin bahoda sotiladigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar bahoni bozorga, aniqrog'i o'z'lari mo'ljallagan inflatsiya darajasiga qarab belgilagan uchun ular foyda ko'radi, hech bo'lmaganda ziyon ko'rmaydi, ziyon ko'rsa ham boshqa korxonalaridan kam ko'radi. Natijada sarmoyalar, aniqrog'i bozordagi o'zgarishlarga sezgir bo'lgan xususiy sarmoyalar keyingi mahsulotni ishlab chiqaradigan tarmoqlarga ko'proq jalb qilinadi, oqibatda sarmoya sarflashda xatoliklarga yo'l qo'yiladi va sarmoyalar muvozanatiga putur yetadi.

5. Inflatsiyaning kishilar ongiga ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy ta'siri ham ancha katta bo'ladi. Inflatsiya sharoitida baholar ketidan o'z navbatida aholi daromadi va ish haqi ham oshadi. Kishilar daromad va ish haqining oshganini o'zlarining tirishib ishlashganining mahsuli deb hisoblashadi. Biroq, bahoning o'sishini esa yomon ko'rishadi, inflatsiya sharoitida go'yo turmush nochorlashib ketib borayotganday, inflatsiya esa ularning peshona teri bilan yiqqan boyligini o'g'irlab ketayotganday noto'g'ri tushunchaga kelishadi. Amaliyotda kutilgan tekis inflatsiya sharoitida bunday holat kuzatilmaydi. Jadallashgan inflatsiya sharoitida ham unday holatni isbotlash qiyin.

**Inflatsiya keltiradigan ziyonlar.** Inflatsiya keltiradigan ziyonlar konkret sharoitga bog'liqdir. Agar mo'ljaldagi inflatsiya bo'lib iqtisodiy faoliyatlar (soliq, foiz, ish haqi, daromad va boshqalar) inflatsiya darajasiga qarab tartibga solinsa, u holda barcha milliy daromadlarda, barcha nisbiy baholarda o'zgarish bo'lmaydi. Har bir kishi va guruhlar to'laydigan soliqlar ham inflatsiyaning ta'siriga uchramaydi. Barcha baho va daromadlarning o'sishiga ergashib, soliq summasi ham oshib boradi. Shuning uchun amaliy qiymati bo'yicha hisoblanganda to'langan soliq miqdorida o'zgarish bo'lmaydi. Inflatsiyaning mavjudligi obligasiya, ko'chmas mulk egalarining boyligini ham ziyonga uchratmaydi. Obligasiya shaklida qarz berilgan pullarni qaytarib olganda (qarz muddati tugaganda) undan tushgan muqim daromad inflatsiya keltirib chiqargan ziyonni qoplay oladi. Ya'ni foizning o'sishi qarz berilgan pulning qarz berilgan muddatda yo'qotgan qiymatini qoplashga etadi.

Kapital bozorida soliq miqdori va stavkasi inflatsiyaga qarab tartibga solingani uchun soliqdagi o'zgarish (ortish) inflatsiya ta'sir ko'rsata

**olmaydigan darajada bo'лади. Shuning uchun inflatsiya kapital samara-dorligiga keskin ta'sir qilmaydi. YaMM ning nominal miqdori ko'paysa ham real miqdorida hech qanday o'zgarish bo'lmaydi. Bu kutilgan tekis inflatsiya iqtisodiyotga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.**

Inflatsiya jarayonidagi o'zgarishlar uni taxmin qiluvchilar uchun ham tasodif hodisadir. Kutilmagan inflatsiyaning keltirib chiqaradigan ziyonni haqdor bilan qarzdor o'rtasidagi munosabatdan aniqroq tushunish mumkin. Agar korxonalar bilan ishchilar o'rtasida muayyan muddatga, muayyan miqdorda haq to'lash xususida shartnoma tuzilgan bo'lsa, qarz beruvchi bilan qarz (kredit) oluvchi o'rtasida muqim foizli shartnoma tuzilgan bo'lsa, budjet kamomadi bo'lgan davlatlarda davlat obligasiyalari tarqatilgan bo'lsa, kutilmagan inflatsiyaning yuzaga kelishi haqdorni ziyonga qaratadi, qarzdorni o'zlari o'ylamagan darajada qarzlarini yengillashtiradi. Garchi jamiyat miqyosida olganda bunday foyda – ziyon o'zaro qoplanib ketsa-da, alohida shaxs, guruh, korxonalariga keltiriladigan ziyon ancha katta bo'лади.

Alohida qayd qilish zarurki, inflatsiya keltiradigan og'ir-oqibat kutilmagan notekis inflatsiya sharoitida kelib chiqadi. Bunday ziyon – soliq stavkasi, haqdorlik va qarzdorlik muammolari, nisbiy baholarda aniq kuzatiladi, uning alohida shaxs va guruhlarda keltiriladigan ziyoni ancha katta bo'лади. Ko'pchilik davlatlar bo'lajak inflatsiya darajasini tamoman yoki asosiy jihatdan mo'ljallab olishga oldindan ko'ra bilishga hozircha qodir emas, shuning uchun biz yuqorida ko'rib o'tgan ziyonlar turli darajada sodir bo'lib turadi.

Alohida shaxslarga inflatsiya bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ularning turmush tarzini o'zgartiradi, boyligida o'zgarish paydo qiladi, naqd pullarning xarid quvvatini kamaytirganidan ularni ruhan tushkunlashtiradi va asabini buzadi. Albatta, haqdor sifatida ziyon, qarzdor foyda ko'radi. Kun sayin oshib borayotgan narx kishilarning o'ziga hozircha zarur bo'lmagan narsalarni ortiqcha sotib olishga majbur qiladi. Agar bunday holat umumiy tus olsa, mahsulotlarni talashib sotib olish, oqibat sun'iy ravishda yetishmovchilikka olib keladi.

## **6.2. Inflatsiyaning shakllari va turlari**

Xalqaro amaliyotda inflatsiyaning narxlarni o'sishi, ya'ni pul miqdorining o'sishi jihatdan asosan uch xil shakli ajratiladi:

**1. Sokin inflatsiya.** Ushbu inflatsiya iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ushbu holatda mahsulotlar va ko'rsatiladigan

xizmatlarga bo'lgan narx-navolar yiliga o'rtacha 3% dan 10% gacha oshishi mumkin. Bu mamlakatlarda muomaladagi pul massasi va milliy pul birligining xarid qilish qobiliyati saqlanib turadi.

**2. Shiddatli inflatsiya.** Ushbu inflatsiya iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ushbu holatda mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolar yiliga o'rtacha 10% dan 100% gacha, ba'zi holatlarda 200% gacha oshishi mumkin. Buning natijasida muomaladagi pul massasi ko'payadi va milliy pul birligining xarid qilish qobiliyati tushadi. Mamlakat aholisi o'rtasida pulni moddiylashtirish, ya'ni milliy pul birligini jamg'arish emas, balki oltin, ko'chmas mulk holatida jamg'arish jarayoni kuchayadi.

**3. Jilovlanmagan (giperinflatsiya) inflatsiya.** Ushbu inflatsiya holatida mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolar yiliga 1000% dan ortiq yoki oyiga 100% dan ortiq darajada oshadi. Ushbu holatda milliy iqtisodiyotda inqiroz yuzaga chiqadi. Buning natijasida ishlab chiqarish va bozor boshqaruvsiz faoliyat ko'rsatadiki, narx-navo va ish haqi o'rtasidagi farq ortadi. Mamlakat aholisi qo'lidagi qog'oz pullarga tovarlar sotib oladi. Bu holat esa muomalada tovar va xizmatlar bilan ta'minlanmagan ortiqcha qog'oz pullarni to'lib-toshishiga olib keladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, inflatsiyaning asosiy sababi, odatda, bir emas, balki bir nechta bo'lib o'zaro mahkam bog'langan bo'ladi va narx-navoning ko'tarilib borishi bilangina namoyon bo'lib qolmaydi, balki narx-navoni boshqarilishiga ham bog'liq bo'ladi. Ushbu jihatdan quyidagi inflatsiya shakllari ajratiladi.

**1. Oshkora inflatsiya.** Talab tomoniga qaragan makroiqtisodiy tengsizlik doimiy ravishda narx-navoning ko'tarilib borishi bilan ifodalanadigan bo'lsa, bunday inflatsiya oshkora inflatsiya deb ataladi.

Oshkora inflatsiya bozor mexanizmini buzmaydi: narx-navo ba'zi bozorlarda ko'tarilishi bilan bir vaqtda boshqa bozorlarda pasayib borishi mumkin. Buning asosiy sababi shundan iboratki, bozor mexanizmlari o'z ta'sirini davom ettirib, milliy iqtisodiyotga baholar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkora yetkazib turadi, investitsiyalarni ilgari surib, ishlab chiqarishning kengayishi bilan taklifni rag'batlantirib boradi.

**2. Yashirin inflatsiya.** Inflatsiyaning ushbu turi shunday ko'rinshda bo'ladiki, bunday holatda ba'zi bir iste'mol mahsulotlariga narx-navo ma'muriy tarzda davlat tomonidan o'rnatiladi va tartibga solib turiladi. Bundan asosiy maqsad, davlat tomonidan ba'zi mahsulotlarga narx-navo «ijtimoiy past» darajada belgilanadi. Yashirin inflatsiya sharoitida narx-navoning keskin o'sishi kuzatilmaligi mumkin. Lekin

milliy pul birligining qadsizlanishi, aholi o'z pul mablag'lariga kerakli mahsulotlarni xarid qila olmaslik holatlari paydo bo'ladi.

Iqtisodiyotda yashirin inflatsiya yuzaga chiqqanda mahsulotlarning narx-navosi hamda aholi daromadlarining o'sishi vaqtincha to'xtatiladi. Yashirin inflatsiya vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri bu narxlar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatishdir. Buning natijasida bozor mexanizmi deformatsiyalanadi. Uning qaysi darajada o'zgarganligi darajasi va davomiyligi davlat tomonidan olib boriladigan siyosatga hamda tartibga solish shakliga bevosita bog'liq bo'ladi. Ushbu inflatsiyaning salbiy tomoni shundan iboratki, inflatsiya davrida ishsizlik darajasi oshadi, chunki ishlab chiqarish rivojlanmaydi.

Xorijiy va milliy iqtisodiy nazariyaning qarashlariga asosan iqtisodiyotdagi muvozanatlik buzilishi va uning oqibatida inflatsiyani yuzaga chiqishining quyidagi omillari mavjud:

– qog'oz pullarni emissiya qilishda va tashqi savdoda davlatning mutloq monopoliyasi;

– davlat xarajatlarining ortishi;

– kasaba uyushmalari tomonidan budget muassasalari ishchi-xodimlarining ish haqlarini oshirish bo'yicha faoliyati;

– iqtisodiyotda mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish sohasida ayrim xo'jalik subyektlarining monopoliya (oligopoliya) holati mavjudligi.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan omillar nafaqat o'zaro bog'liq, balki ular talab va taklifning o'sishi yoki pasayishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy amaliyotda inflatsiyaning yuzaga chiqish usullari quyidagi turlarga ajratiladi: taklif inflatsiyasi, talab inflatsiyasi, xarajatlar inflatsiyasi, kredit inflatsiyasi, import bilan bog'liq bo'lgan inflatsiya va kutilayotgan inflatsiya.

Taklif inflatsiyasida ishlab chiqarish xarajatlarini oshishi natijasida mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navoning o'sishi yuzaga chiqadi. Ushbu inflatsiya turida monopol holatdagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarishda asosiy vositalarni modernizatsiya qilish bilan bir vaqtda ulardan to'liq foydalanmaslik oqibatida xarajatlar ortadi. Buning natijasida kam ishlab chiqarilgan mahsulotlarning narx-navosi ham oshib ketadi.

**Talab inflatsiyasi.** Inflatsiyaning ushbu turi mamlakat aholisi va xo'jalik subyektlarining daromadlari haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar miqdoridan tez o'sadi. Odatda, talab inflatsiyasi ishchi kuchining to'liq ish bilan bandlik holatida yuzaga chiqadi. Aholi daromadlarining tez sur'atda o'sishi

natijasida tovar va xizmatlarga bo'lgan narx-navo oshadi. Bunday holatda talabning har qanday o'sishi narx-navoning o'sishiga olib keladi.

**Karajatlar inflatsiyasi.** Inflatsiyaning ushbu turi xomashyo va energetik resurslarga bo'lgan xarajatlarning o'sishi tufayli ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar narx-navosining o'sishi natijasida yuzaga keladi. Xomashyo va energetik resurslarga bo'lgan dunyo narxlarining ko'tarilishi hamda xorijiy valutaga nisbatan milliy valuta kursining pasayishi xarajatlar inflatsiyasini yuzaga kelishining asosiy sabablari hisoblanadi. Xarajatlar inflatsiyasida ma'lum bir mahsulot narxining o'sishi avtomat ravishda boshqa mahsulotlar narxining ham o'sishiga olib keladi. Masalan, neft mahsulotlariga bo'lgan dunyo bahosining o'sishi natijasida unga bevosita bog'liq mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar narx-navosi o'sib ketadi. Xarajatlar inflatsiyasi taklif inflatsiyasiga o'xshash, lekin bu inflatsiyada ba'zi xarajatlarning o'sishi aniq olingan mamlakat iqtisodiyotiga bevosita bog'liq bo'lmagan holatlarda yuzaga chiqishi mumkin.

**Kredit inflatsiyasi.** Ushbu inflatsiya turi ba'zi mamlakatlarda banklar tomonidan olib boriladigan kredit ekspansiyasi natijasida yuzaga keladi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun yuqori darajadagi qayta moliyalashtirish stavkasining o'rnatilishi natijasida xo'jalik subyektlariga beriladigan kredit qimmatlashadi. Xo'jalik subyektlari olingan kredit va u bo'yicha foizlarni o'zlari ishlab chiqaradigan mahsulot tannarxiga kiritadi hamda ushbu holat mahsulotlar narx-navosini ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

**Import bilan bog'liq inflatsiya.** Inflatsiyaning ushbu turi aniq olingan mamlakatda tashqi omillar asosida yuzaga chiqadi. Ushbu holatda import qilinadigan mahsulotlarga bo'lgan narx-navoning oshib ketishi natijasida ba'zi mahsulotlarga bo'lgan narx-navolar zanjir tarzida ko'tarilishi mumkin.

**Kutilayotgan inflatsiya.** Inflatsiyaning ushbu turida davlat tomonidan olib borilayotgan pul-kredit va budget siyosati natijasida joriy yil uchun inflatsiyaning tahliliy darajasi belgilanadi va bu tartibga solib turiladi.

### 6.3. Inflatsiya nazariyalari

Hozirgi vaqtda inflatsiya tabiatini o'rganishda iqtisodchi olimlar uning monetar sabablarini, ya'ni tovar massasiga nisbatan pul massasi hajmining ko'payib ketishini asos qilib ko'rsatadilar. Inflatsiya bilan olib boriladigan faoliyatda uning darajasini o'lchash uchun dastak lozim bo'ladi. Ushbu

dastak bo‘lib baholar indeksi hisoblanadi. Baholar indeksi joriy umumiy iste‘mol narxlarining bazis davridagi narxlarga nisbatan o‘sishi (pasayishi) bilan aniqlanadi. Ushbu indeksni aniqlashda mamlakat fuqorolarining iste‘mol savatiga kiritilgan mahsulotlar va xizmatlarning chakana narxlaridan foydalaniladi. Ushbu formula quyidagicha ifodalanadi:

$$IPTS = \frac{PKt}{PKb} \times 100\%.$$

Bunda: *IPTS* – iste‘mol tovarlari narxlarining indeksi;

*PKt* – iste‘mol savatining joriy narxi;

*PKb* – iste‘mol savatining bazis narxi.

Inflyatsiya darajasining o‘shishini quyidagi misol orqali tushuntirish mumkin. Masalan 1 litr benzinning bazis davridagi narxi 500 so‘m bo‘lgan va uning joriy davrdagi narxi 585 so‘mga teng. Demak, biz kuzatgan davr ichida 1 litr benzinning narxi 117 % ga ortgan.

$$1 \text{ litr benzin} = \frac{585 \text{ so‘m}}{500 \text{ so‘m}} \times 100\% = 117\%.$$

Baholar indeksidan tashqari inflatsiyani boshqarishda yalpi ichki mahsulot indeksi ko‘rsatkichidan ham foydalaniladi. Yalpi ichki mahsulot – bu ma‘lum bir davr mobaynida, odatda, bir yilda mamlakatda ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlar umumiy miqdorining puldagi ifodasidir. Yalpi ichki mahsulot baholar indeksining umumiy darajasini o‘lchash uchun deflyatordan foydalaniladi.

**Deflyator** – bu pulda ifodalangan iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘tgan davrdagi baholar darajasiga nisbatan taqqoslash maqsadida qo‘llaniladigan koeffitsiyentdir. Deflyator yordamida aniq bir muddatdagi real ish haqi darajasini aniqlash mumkin.

Xalqaro amaliyotda inflatsiyaning mohiyatini o‘rganish va uni oqilona boshqarish bo‘yicha turli nazariyalar mavjud, ulardan biri bo‘lib angliyalik taniqli iqtisodchi olim Jon Meynard Keynes yaratgan nazariya hisoblanadi. J.M. Keynes bozor iqtisodiyoti faoliyatiga davlat aralashuvining bilvosita dastakini ishlab chiqdi. Ushbu dastak yordamida davlat tomonidan faol moliya siyosati olib borish, talabni rag‘batlantirish va ommaviy ishsizlikni pasaytirishni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Keynes tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy mexanizm quyidagi asosiy nizomlardan iborat:

1) mamlakatdagi ishchi kuchining ish bilan ta‘minlanganlik darajasi ishlab chiqarish hajmi bilan aniqlanadi;



2) umumiy talab taklifga to'g'ri kelmaydi, chunki ma'lum pul mablag'lari jamg'arishga sarflanadi;

3) ishlab chiqarishning hajmi oqilona talab darajasidagi tadbirkorlikka asosan aniqlanadi;

4) investitsiyalar va jamg'armalar tengligi holatidagi investitsiya hamda jamg'arma aktlari mustaqil faoliyat ko'rsatadi.

J.M. Keynsning asosiy fikri quyidagilardan iborat: qo'shimcha pul emissiyasi aholining to'lovga qobiliyatlilik talabini oshiradi. Buning natijasida tovarlar va xizmatlarni ko'payishi uchun asos yuzaga keladi. Ishlab chiqaruvchilar tomonidan xaridorlarning pullarini olish maqsadida ishlab chiqarish hajmini ko'paytiradilar va muomaladagi ortiqcha pul emissiyasi massasini mahsulotlar va xizmatlar bilan to'ldiradilar. Xalqaro amaliyotda J. M. Keyns tomonidan ilgari surilgan nazariya «tartibga solinib turiladigan inflatsiya» nomini olgan.

O'tgan asrning 60 yillarida inflatsiya nazariyasining yangi maktabiga asos solindi. Ushbu maktabga AQSHlik mashhur iqtisodchi, Nobel mukofatining laureati, «Chikago iqtisodiy maktabi»ning vakili Milton Fridman asos soldi. Xalqaro amaliyotda ushbu maktab «monetarizm» deb nomlanadi. Monetarizm maktabining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1) «Pullar ahamiyatga egadir», ya'ni kredit — pul sohasidagi o'zgarishlar mamlakat iqtisodiyotining umumiy holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi;

2) Mamlakat markaziy banki iqtisodiyotdagi xo'jalik holatidan qat'iy nazar pul massasining barqaror o'sishini ta'minlab turishi lozim.

M. Fridmanning asosiy g'oyasi quyidagilardan iborat: mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi davlat budjetining holati, ishsizlik darajasi va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan qat'iy nazar davlatning pul siyosatidagi asosiy vazifasi pul emissiyasini yiliga o'rtacha 3—5 % ga oshirishi lozim. Ushbu g'oya J. Keyns g'oyasiga qarama-qarshidir. J. Keyns pul massasini o'sishidagi cheklovlar va talabni oldinga surgan bo'lsa, M. Fridman esa taklif va pul massasining doimiy o'sishini yoqlab chiqqan.

Monetarizm maktabi tarafdorlari inflatsiyaga qarshi quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydilar:

— tadbirkorlikni to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantirish (foydaga investitsiya qilingan qismidan soliqlarni pasaytirish);

— davlat xarajatlarini qisqartirish;

— investitsiyaga yo'naltirilgan jamg'armalarning o'sishini rag'batlantirish (mamlakat aholisining jamg'armalarini tijorat banklariga va qimmatli qog'ozlarga joylashtirish),

O'z mohiyatiga asosan monetaristik siyosat qat'iy siyosat bo'lib, uni amalga oshirishda qattqlik va turli demogogiyaga nisbatan befarqlikni talab etadi. Shuni ta'kidlash lozimki, Dj. Keyns va M. Fridman yaratgan nazariyalar inflatsiyaga qarshi oqilona kurash olib borish talablariga to'liq javob bermaydi. Har ikkala nazariya o'zining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomonlarga ham egadir.

Ayrim iqtisodchilar, masalan, klassik iqtisodiy maktab namoyandalari oltin puldagi tovar narxining oshishini muomaladagi pul miqdorining oshib ketishi sababli sodir bo'ladi, deb hisoblaganlar. Biz bu fikrni masalaga bir tomonlama qarash natijasi, deb hisoblab, unga to'la ravishda qo'shila olmaymiz, chunki ular oltin pul bilan qog'oz pullar muomalasi o'rtasidagi farqli xususiyatlarni anglab yetmagan edilar. Lekin bu ortiqcha oltin tangalardan xazina to'plash maqsadida foydalanilgan, ular muomaladan chiqib, xazina sifatida jamg'arilgan, zarur bo'lgan taqdirda yana muomalaga tushirilgan. Shunday qilib, oltin pul muomalasida pul chiqarish ko'paysada u tabiatan o'zini-o'zi tartiblash-tirib, pulning qadrsizlanishiga olib kelmagan.

Pulning qadrsizlanishi qog'oz pullar tizimida yanada kuchayadi, qog'oz pullar qadrsizlanishiga yuqorida qayd qilgan, ya'ni oltin pullar qadrsizlanishiga ta'sir qiladigan omillardan tashqari bir qator omillar ta'sir qiladi. Ularning asosiylari quyidagilardir:

- 1) muomalaga keragidan, talabdan ortiqcha pullarning chiqarilishi;
- 2) ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmining tushib ketishi;
- 3) milliy pulga nisbatan aholida ishonchning pasayishi;
- 4) pul aylanishining tezlashishi va boshqalar.

Mana shu omillar ta'sirida qog'oz pullar qadrining tushib ketishi pulning qadrsizlanishi deyiladi. Boshqacha aytganda, pul muomalasi qonunlari buzilishi natijasida qog'oz pullar xarid quvvatining tushib ketishi pulning qadrsizlanishi deyiladi. Shunday qilib, pulning qadrsizlanishi asosan qog'oz pullarga taalluqli bo'lib, u hozirgi davrda hamma mamlakat pullariga xosdir. Qog'oz pullarning qadrsizlanishi inflatsiya jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, asosan unda o'z ifodasini topadi.

Qog'oz pullarning qiymati ayrim iqtisodchilar o'ylaganlaridek, davlat tomonidan o'z xohishicha belgilanmaydi, balki ularning pul muomalasi qonunlariga amal qilishi bilan belgilanadiki, buning buzilishi qog'oz pullarning qadrsizlanishini keltirib chiqaradi. Qog'oz pullarning qadrsizlanishi 3 yo'nalishda sodir bo'ladi:

1. Uning oltinga nisbatan qadrsizlanishi. Bunda oltinning yoki oltin buyumlarning qog'oz puldagi narxi oshadi.

2. Tovar va xizmatlarga nisbatan qadrsizlanishi. Odatda, qog‘oz pullarining oltinga nisbatan qadrsizlanishi uning tovarga nisbatan qadrsizlanishi bilan bir vaqtda yuz beradi. Pulning tovarga nisbatan qadrsizlanishi pul xarid quvvatining pasayishi natijasida tovarlar narxining o‘shidir.

3. O‘z qadrlining barqarorligini saqlab qolgan chet el valutariga nisbatan qadrsizlanish. Bunday qadrsizlanish valuta kursida o‘z ifodasini topadi. Valuta kursi bir mamlakat valutasining boshqa mamlakat valutasidagi narxidir.

Hozirgi paytda pulning qadrsizlanishi bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlardagina emas, balki qulay iqtisodiy ahvoldagi boshqa mamlakatlarda ham kuzatilmoqda

O‘zbekistonda inflatsiya yillik sur‘atlarining o‘zgarishi taqqoslansa, ular darajasining yilma-yil pasayib borayotganligi ko‘rinadi (2- jadval).

2-jadval

**O‘zbekiston Respublikasida 2000–2010-yillarda inflatsiyaning  
asosiy ko‘rsatkichlari  
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan narxlarning o‘shishi, foizda)**

Yillar	Iste‘mol tovarlari narxlari yig‘ma indeksi (INI)	Oziq-ovqat tovarlari	Nooziq-ovqat tovarlari	Xizmatlar
2000	24,9	18,9	36,6	47,1
2001	27,4	27,9	21,1	36,9
2002	27,6	28,0	19,3	41,3
2003	10,3	5,4	13,9	30,9
2004	3,7	-1,2	5,3	22,1
2005	7,8	6,7	6,9	13,5
2006	6,8	3,9	8,0	15,4
2007	6,8	3,3	8,4	17,2
2008	7,8	2,7	7,7	27,2
2009	7,4	2,5	7,1	22,4
2010	7,3	2,1	6,8	21,5

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.**

*Bu albatta, O‘zbekistonda milliy valuta «so‘m» muomalaga kiritilganidan keyingi olib borilgan mustaqil iqtisodiy siyosat bilan bog‘liqdir.*

#### **6.4. Inflatsiyaning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari va uni jilovlash usullari**

Har bir mamlakatda inflatsiya mavjudligi undagi iqtisodiy holatning yomonlashuviga sabab bo'ladi. Ushbu salbiy holatlar quyidagi yo'nalishlarda yuzaga chiqadi:

1) ishlab chiqarish hajmi qisqaradi, chunki narx-navolarning doimiy tarzda tebranib turishi ishlab chiqarishni rivojlantirishga bo'lgan istiqbolarga ishonchni yo'qotishga olib keladi;

2) ishlab chiqarish sohasidagi kapital savdo va vositachilik operatsiyalariga oqib o'tishi kuzatiladi. Chunki savdo va vositachilik sohaslarida kapital aylanishi tez amalga oshadi va katta foyda keltiradi. Inflatsiya yuqori bo'lgan davrda aholi o'rtasida puldan qochish holati kuzatiladi, ya'ni kishilar qo'llaridagi pullarni imkoniyat darajasida tezroq sarflashga harakat qiladilar. Ular pullarga turli tovarlar sotib oladilar. Buning natijasida savdo va vositachilik do'konlarida tovarlar tez sotiladi;

3) narx-navoning keskin va notekis o'zgarishi natijasida chayqovchilik kengayadi. Inflatsiya natijasida tovar tanqisligi (defitsit) yuzaga chiqadi. Ushbu taqchillik narx-navoning keskin ko'tarilishiga olib keladi;

4) davlat moliya resurslari qadrsizlanadi. Davlat budjeti daromadlari budjet xarajatlari amalga oshirilgunga qadar davrda qadrsizlanadi. Budjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash qiyinlashadi va buning natijasida budjet taqchilligi (defitsit) yuzaga chiqadi;

5) mamlakatda kredit operatsiyalari cheklanadi. Chunki inflatsiya darajasi tufayli yuridik va jismoniy shaxslarga tijorat banklaridan beriladigan kreditlarining foiz stavkalari yuqori darajada o'rnatiladi. Ushbu salbiy holat ishonchni pasaytiradi.

Inflyatsiyaning eng asosiy ijtimoiy oqibati bo'lib, daromadlar va boyliklarni qayta taqsimlanishining amalga oshishi hisoblanadi. Ushbu qayta taqsimlanish quyidagi omillar natijasida amalga oshadi:

- mamlakat aholisining daromadlari indeksatsiya qilinmasligi;
- tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar baholar indekslarining o'zgarishini hisobga olinmagan holda berilishi.

Inflyatsiya sharoitida mamlakatda ichki mahsulot va milliy daromad quyidagi yo'nalishlarda qayta taqsimlanadi:

1) milliy iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish sohalari va mamlakat hududlari o'rtasida narx-navoning notekis o'sishi natijasida;

2) mamlakat aholisi va davlat o'rtasida. Bunda davlat tomonidan muomaladagi ortiqcha pul massasidan qo'shimcha daromad sifatida foydalanadi. Xalqaro amaliyotda bu inflyatsion soliq deb nomlanadi;

3) mamlakat aholisining sinflari va turli toifalari o'rtasida. Mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan narx-navoning notekis o'sib ketishi natijasida aholi o'rtasida ijtimoiy toifalarga bo'linish (boylar, kambag'allar, qashshoqlar), mulkiy holatdagi farqning chuqurlashuvi, jamg'armalar va joriy iste'molning keskin o'zgarishi yuzaga chiqadi. Inflatsiyaning ijtimoiy salbiy ta'siri eng avvalo qat'iy belgilangan daromadlari oluvchi shaxslar hisoblangan — nafaqaxo'rlar, nogironlar, ko'p farzandli oilalar va davlat xizmatchilari (o'qituvchilar, vrachlar, bog'cha xodimlari va boshqalar) uchun juda og'ir kechadi;

4) debitorlar va kreditorlar o'rtasida. Ushbu holatda qarz olinganda pul qadrsizlanishi natijasida debitorlar daromad oladi va buning aksi, kreditorlar qo'shimcha zarar ko'radi.

Biz yuqorida keltirgan inflatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy salbiy oqibatlari qo'shimcha ravishda mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalariga ham faol ta'sir ko'rsatadi. Inflatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar bilan qo'shimcha sug'urta va turli kafolatlar asosida o'zaro munosabatlar olib boradilar. Xalqaro amaliyotda ushbu munosabatlar savdoning kamsitilishi yoki diskriminatsiya deb nomlangan.

Mamlakat iqtisodiyotiga ayniqsa jilovlanmagan (giperinflatsiya) juda salbiy ta'sir etadi. Buning natijasida iqtisodiy va ijtimoiy qarama-qarshiliklar keskinlashadi, aholi o'rtasida hukumatga bo'lgan norozilik kuchayadi. Shuning uchun, hukumat qarama-qarshiliklarni ijobiy hal etish, milliy pul tizimini barqarorlashtirish uchun oqilona ishlab chiqilgan inflatsiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi.

Jahonning iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarida inflatsiyaga qarshi kurash olib borishda juda katta nazariy va amaliy tajriba to'plangan. Inflatsiyani butunlay yo'qotish imkoniyati yo'q. Chunki uni yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan omillarni (ichki va tashqi, pullik va pulsiz) to'liq yo'qotish mumkin emas. Shuning uchun hozirgi davrda eng asosiy maqsad inflatsiyani butunlay yo'qotish emas, balki uni boshqaruvchan qilish va uning salbiy iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini zaiflashtirish hisoblanadi.

Dunyoning turli mamlakatlarida hukumat tomonidan mavjud iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda inflatsiyaga qarshi turli antiinflyatsion siyosatlar ishlab chiqiladi va ular amalga oshiriladi. Davlat tomonidan antiinflyatsion siyosatni olib borishda turli chora-

**tadbirlar** — budget, ijtimoiy, soliq, baho, kredit-moliya, sanoat-investitsiya, tashqi iqtisodiy va emissiya amalga oshiriladi.

**Budget siyosati** — bu davlatning asosiy iqtisodiy siyosati hisoblanadi va uning asosiy maqsadi mamlakatning aniq belgilangan muddatti mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari belgilanadi va amalga oshiriladi. Budget siyosati yordamida soliqlar va yig'implar asosida yig'ilgan davlat moliya resurslarini umummilliy vazifalarni bajarish uchun qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi. Budget siyosatining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy siyosat hisoblanadi. Chunki mamlakatdagi ijtimoiy tadbirlarni moliyalashtirish asosan davlat budjeti tomonidan amalga oshiriladi.

**Soliq siyosati** — bu davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalarini bajarishi uchun zarur moliya mablag'larini yig'ish, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlar va mamlakat aholisidan soliqlar, to'lovlar hamda majburiy ajratmalarni belgilash, ularni undirish yuzasidan qonun asosida belgilangan tizimdir.

**Baho siyosati** — bu mahsulotlar, xizmatlar va to'lovga qobiliyatli talab o'rtasidagi mutanosiblikka erishish hamda uni tartibga solib turish bilan bog'liq siyosatdir.

**Kredit-moliya siyosati** — bu Markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasi, majburiy zaxiralar me'yori va ochiq bozordagi operatsiyalar orqali mamlakat bank-kredit tizimini boshqarish hamda tartibga solib turishdan iborat.

**Sanoat-investitsiya siyosati** — bu yalpi ichki mahsulotning o'sishini ta'minlovchi mamlakat sanoat-texnologik qudratini rivojlantirishga qaratilgan siyosatdan iborat.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat siyosati** — bu davlat tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni boj-ta'rif dastaklari yordamida tartibga solib turishdan iboratdir.

**Emissiya siyosati** — bu Markaziy bank tomonidan milliy iqtisodiyotning holatiga asosan muomalaga qog'oz pul chiqarish, ularning aylanishini tartibga solish va muomaladagi ortiqcha pullarni aylanmadan chiqarib turishdan iborat siyosatdir.

Dunyoning har bir mamlakatida hukumat tomonidan amalga oshiriladigan antiinflatsion siyosati mavjud inflatsiyani tartibga solishga hamda uning o'sish sur'atlarini pasaytirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bunday siyosatni olib borishda asosan ikki shakldan foydalaniladi:

- 1) pul islohotlarini amalga oshirish;
- 2) «Inflatsion» jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solib turish.

Pul islohotlari — bu mamlakatdagi pul muomalasini tartibga solish va kuchaytirish maqsadida davlat tomonidan mavjud pul tizimini to'liq yoki

qisman o'zgartirishni amalga oshirishdir. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish holati, pullarning ta'minlanganlik darajasiga asosan pul islohotlarining revalvatsiya, devalvatsiya va denominatsiya usullaridan foydalaniladi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardan Germaniya Federativ Respublikasi, Isroil va boshqalarda revalvatsiya usulidan foydalanildi. Revalvatsiya o'z mohiyatiga asosan milliy pul birligini xorijiy valutaga nisbatan kursini ko'tarib qo'yishdan iborat. Pul islohotining ikkinchi usuli bo'lib, devalvatsiya hisoblanadi. Devalvatsiya o'z mohiyatiga asosan milliy pul birligini xorijiy valutaga nisbatan tushirib qo'yishdan iborat. Devalvatsiya usulidan asosan iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlarda keng foydalaniladi. Pul islohotining uchinchi usuli bo'lib denominatsiya hisoblanadi. Denominatsiya o'z mohiyatiga asosan milliy pul birligidagi ortiqcha nollarni olib tashlab, muomalaga yangi pullarni chiqarishdan iborat. Denominatsiya usulidan Rossiya (3 dona nolni olib tashladi) va Turkiya (liradan 6 dona nolni olib tashladi) hukumatlari foydalanishdi.

Inflyatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solib turish o'z mohiyatiga asosan mamlakatda tovar va xizmatlarga bo'lgan narx-navoning o'sib borishini cheklash hamda pul tizimini barqarorlashtirish maqsadida davlat tomonidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir. Ushbu chora-tadbirlar ikki yo'nalishda olib boriladi:

**1) Deinflatsion siyosat.** Ushbu siyosat mamlakatda pulga bo'lgan talabni pul-kredit va moliya mexanizmlari yordamida tartibga solib turadi. Deinflatsion siyosat davlat xarajatlarini qisqartirish, kreditlar uchun foiz stavkalarini oshirish, soliq yukini kuchaytirish (soliqlar soni va ularning foiz stavkalarini ko'tarish) va pul massasini cheklashni o'z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, deinflatsion siyosat mamlakatdagi iqtisodiy o'sishning sekinlashuviga sabab bo'ladi;

**2) Daromadlar siyosati.** Ushbu siyosat olib borishda davlat tomonidan tovar va xizmatlarga bo'lgan narx-navo va ish haqi ustidan birgalikda nazorat o'rnatiladi hamda ularning o'sishini ma'lum chegarasi belgilanadi yoki butunlay «muzlatib» qo'yiladi. Daromadlar siyosati o'z mohiyatiga ko'ra qat'iy siyosat hisoblanadi va u aholi o'rtasida noroziliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunga qaramasdan inflatsiya bilan kurashishda ayrim mamlakatlarda daromadlar siyosatidan foydalaniladi.

Xalqaro amaliyotda rivojlanayotgan mamlakatlarda inflatsiyaga qarshi qarash olib borish tajribasida biz ta'kidlab o'tgan ikki yo'nalishdan oqilona birgalikda foydalanilgan. Iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlarda inflatsiyaga qarshi kurashish va milliy pul tizimini mustahkamlash uchun asosan quyidaga chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

– milliy iqtisodiyotni sogʻlomlashtirish, investitsiya faoliyatining tushib ketishini bartaraf etish va iqtisodiy rivojlanishning oqilona darajasini taʼminlash;

– raqobatbardosh, yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil etish va uni rivojlantirish maqsadida davlat strategiyasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish;

– xalq isteʼmol tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish fondlarining tarkibini oʻzgartirish va unda zamonaviy texnika hamda texnologiyalarni joriy etish;

– tijorat banklarining investitsiya va kredit faoliyatini ragʻbatlantirish;

– soliq tizimini takomillashtirish va ushbu yoʻnalishda asosiy eʼtiborni soliqlarning ragʻbatlantiruvchi funksiyasiga qaratish;

– davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash;

– mamlakat ichida mahsulotlar, valuta, kredit, yer, koʻchmas mulk, mehnat va qimmatli qogʻozlarning yagona bozorini shakllantirish hamda uni rivojlantirish;

– pul-kredit siyosatini iqtisodiyotning rivojlanish holatiga asosan oʻzgartirib turish;

– tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish hamda tovar va xizmatlar eksportini ragʻbatlantirish;

– erkin bozor baholarini saqlagan holda daromadlar, xarajatlar va narx-navoni davlat tomonidan tartibga solish va uni nazorat qilish;

– davlat budjet taqchilligini noinflatsion yoʻllar bilan qisqartirish;

– davlatning strategik oltin-valuta zaxiralarini chuqur tahlil etish va ulardan oqilona foydalanish.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish maʼlum muddat talab etadi. Oqilona ishlab chiqilgan antiinflatsion siyosatni amalga oshirish pirovard natijada milliy pul birligini mustahkamlanishiga va pul tizimini barqarorlashuviga olib keladi.

## XULOSALAR

1. Inflatsiya – oʻz mohiyatiga asosan pulning qadrsizlanishi, tovar va xizmatlarga boʻlgan baholarning muntazam ravishda oshib borishi jarayonini anglatadi.
2. Xalqaro amaliyotda inflatsiyaning asosan uch xil shakli ajratib koʻrsatiladi, bular: sokin inflatsiya, shiddatli inflatsiya va jilovlanmagan (giperinflatsiya) inflatsiya.
3. Xorijiy amaliyotda inflatsiyaning yuzaga chiqish usullari quyidagi turlarga ajratiladi: taklif inflatsiyasi, talab inflatsiyasi, xarajatlar



inflatsiyasi, kredit inflatsiyasi, import bilan bog'liq bo'lgan inflatsiya va kutilayotgan inflatsiya.

4. Baholar indeksi joriy umumiy iste'mol narxlarining bazis davridagi narxlarga nisbatan o'sishi (pasayishi) bilan aniqlanadi.
5. Deflyator -- bu pulda ifodalangan iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'tgan davrdagi baholar darajasiga nisbatan taqqoslash maqsadida qo'llaniladigan koeffitsiyentdir.
6. Xalqaro amaliyotda J. M. Keynes tomonidan ilgari surilgan nazariya «tartibga solinib turiladigan inflatsiya» nomini olgan.
7. Inflatsiya nazariyasining yangi maktabiga «Chikago iqtisodiy maktabi»ning vakili Milton Fridman asos soldi.
8. Inflatsiya va ishsizlikning o'zaro bog'liqligini chuqur tahlil etgan avstraliyalik iqtisodchi olim A. Fillips grafiklar yordamida inflatsiya va ishsizlik o'rtasida teskari aloqa mavjudligini isbotlaydi.
9. Dunyoning har bir mamlakatida hukumat tomonidan amalga oshiriladigan antiinflatsion siyosati mavjud inflatsiyani tartibga solishga hamda uni o'sish sur'atlarini pasaytirishga qaratilgan bo'lishi lozim

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

*Inflyatsiya, ichki omillar, tashqi omillar» sokin inflatsiya, shiddatli inflatsiya, jilovlanmagan inflatsiya, oshkora inflatsiya, yashirin inflatsiya, talab inflatsiyasi, deflyator, J. Keynes nazariyasi, M. Fridman nazariyasi, devalvatsiya, revalvatsiya, denominatsiya, soliq siyosati, baho siyosati, budjet siyosati, kredit moliya siyosati.*

### **Nazorat uchun savollar**

1. *Inflatsiya nima?*
2. *Inflatsiyaga qanday omillar ta'sir etadi?*
3. *Pul bozorining tartibga solish yo'llarini tushuntirib bering.*
4. *Talab inflatsiyasi nima?*
5. *Taklif inflatsiyasi nima?*
6. *Davlatning inflatsiyaga qarshi siyosati nimalardan iborat?*
7. *Giperinflatsiya nima?*
8. *Yashirin inflatsiya nima?*
9. *Antiinflatsion siyosatni tushuntirib bering.*
10. *Baholar indeksi nimadan iborat va deflyatorning mohiyatini tushuntirib bering.*
11. *Inflatsiya to'g'risidagi J. Keynes va M. Fridman nazariyalari nimalardan iborat?*
12. *Monetarizm maktabining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?*
13. *Inflatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yoritib bering.*
14. *Antiinflatsion siyosatning mohiyatini kengroq tushuntirib bering.*

## **7-bob. PUL-KREDIT TIZIMI. BANKLAR VA ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI ROLI**

### **7.1. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi**

Pul va u bilan bog'liq munosabatlarni tahlil qilish pul nazariyasi fanining eng muhim sohasini tashkil qiladi. Pulning harakati bozor iqtisodiyotining moliyaviy asoslaridan biri bo'lib, uning barqarorligi pul tizimi, daromadlar va xarajatlar aylanishiga hayotiy tus bag'ishlaydi, butun iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlab beradi, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanishga imkon tug'diradi va to'la bandlikka erishishni ta'minlaydi. Aksincha, beqaror amal qiluvchi pul tizimi ishlab chiqarish, bandlik va narx darajasining keskin tebranishiga asosiy sabab bo'lib, iqtisodiy rivojlanishga to'siq bo'lishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag'lari to'xtovsiz harakatda bo'ladi, tovarlar va xizmatlar ayirbosh qilish jarayonida resurslar uchun to'lovlarni amalga oshirishda, ish haqi hamda boshqa majburiyatlarni to'lashda pul qo'ldan qo'lga o'tib, aylanib turadi. Pulning o'z vazifalarini bajarish jarayonidagi bu to'xtovsiz harakati **pul muomalasi** deyiladi.

Jahonda tarixan shakllangan hamda har bir mamlakat tomonidan qonuniy ravishda mustahkamlab qo'yilgan pul muomalasining turli tizimlari amal qiladi. Mamlakat **pul tizimi**ning muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- 1) milliy pul birligi (so'm, dollar, iena, funt sterling, marka va h.k.);
- 2) naqd pul muomalasida qonuniy to'lov vositasi sifatida amal qiluvchi qog'oz, tanga va kredit pullar tizimi;
- 3) pul emissiyasi, ya'ni belgilangan qonuniy tartibda pulni muomalaga chiqarish tizimi;
- 4) pul muomalasini tartibga soluvchi davlat idoralari.

Pul muomalasi naqd va kredit pullar yordamida amalga oshiriladi. Naqd pul muomalasiga bank biletleri va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. Naqd pulsiz hisoblar cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi **pul agregati** deb yuritiladi. Muomalada mavjud bo'lgan pul massasi ularni (naqd va kredit pullarni) qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Pul muomalasi o'ziga xos qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Uning qonunlaridan eng muhimi muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va shunga muvofiq muomalaga pul chiqarishdir.

Muomalani ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagi omillarga bog'liq:

1. Muayyan davrda, aytaylik bir yil davomida sotilishi va sotib olinishi lozim bo'lgan tovarlar summasiga. Tovarlarni va xizmatlar qancha ko'p bo'lsa, ularning narxi qancha baland bo'lsa, ularni sotish va sotib olish uchun shuncha ko'p pul miqdori talab qilinadi.

2. Pul birligining aylanish tezligiga pul bir xil bo'lmagan tezlik bilan aylanadi. Bu ko'p omillarga, jumladan sotilayotgan tovarlar turiga, ularning xaridorgirlikiga bog'liq bo'ladi. Pul qanchalik tez aylansa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori shuncha kam bo'ladi.

3. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori kreditning rivojlantirishiga, puldan to'lov vositasi vazifasidan foydalanishga ham bog'liq. Ko'pincha tovarlar qarzga (kreditga) sotiladi va ularning haqi kelishuvga muvofiq keyingi davrlarda to'lanadi. Demak, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori kredit miqdoriga muvofiq kamroq bo'ladi. Ikkinchi tomondan, bu davrda ilgari kreditga sotilgan tovarlar haqini to'lash vaqti boshlanadi. Bu pul miqdoriga ehtiyojni ko'paytiradi. Undan tashqari hozirgi vaqtda ko'pgina oldi-sotdi jarayonlari naqd pulsiz, bir-biriga bank orqali pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Biz ularni o'zaro hisob-kitoblar deb ataymiz.

Mazkur holatlarni hisobga olganda, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P_m = \frac{T_b - X_k + X_T - O'_{h-k}}{A_t}$$

bunda:  $P_m$  – muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori;

$T_b$  – sotilishi lozim bo'lgan tovarlar summasi (tovarlarni miqdori x narxi);

$X_k$  – kreditga sotilgan tovarlar summasi;

$X_T$  – to'lash muddati kelgan tovarlar va xizmatlar hamda boshqa to'lovlar summasi;

$O'_{h-k}$  – naqd pulsiz o'zaro hisob-kitoblar;

$A_t$  – pulning aylanish tezligi.

Masalan, sotilgan tovarlar summasi 100 mln. so'mni, kreditga sotilgan tovarlar — 20 mln. so'mni, ilgari kreditga sotilib, ayni paytda to'lash muddati kelgan tovarlar va boshqa to'lovlar — 40 mln. so'mni, naqd pulsiz o'zaro hisob-kitoblar summasi 30 mln. so'mni tashkil qilib, pulning aylanish tezligi 6 marta bo'lsa, u holda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori 15 mln. so'mga teng bo'ladi. Ya'ni

$$P_m = \frac{100 - 20 + 40 - 30}{6} = 15 \text{ mln.so'm.}$$

Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori pul muomalasi qonunini miqdoran ifodalaydi. Chunki muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoriga nisbatan muomalaga kam pul chiqarilsa, ko'pgina xo'jaliklarda pul yetishmasligi, normal holatda xo'jalik yuritib bo'lmay qolish holati yuz beradi. Yoki, aksincha, muomalada bo'lgan pul miqdori sotilayotgan tovarlar va xizmatlar summasiga nisbatan oshib ketishi hamda buning natijasida tovarlar bilan ta'minlanmagan pulning paydo bo'lishi pulning qadrsizlanishi, ya'ni inflatsiyani bildiradi.

Pul miqdoriga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olib, pul muomalasi qonuniga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ***boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda, muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori sotishga chiqariladigan tovarlar summasiga to'g'ri mutanosib, pulning aylanish tezligiga teskari mutanosibdir.***

Ta'kidlash lozimki, pulning hamma tizimlari uchun pul muomalasi qonuni umumiy bo'lib, shu bilan birga oltin va qog'oz pul muomalasi qonunlarining o'ziga xos xususiyatlari va bir-biridan farqlari mavjud.

Masalan, 1) ***oltin pul muomalada bo'lganda:***

***a) ortiqcha oltin pul xazinaga jalb qilinadi va har xil bezaklar uchun foydalanishga chiqariladi;***

***b) tovarlar hajmi ko'payib, muomala uchun qo'shimcha pul zarur bo'lganda xazinadagi oltin pullar muomalaga kiritiladi. Shu yo'l bilan muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul miqdori o'z-o'zidan tartiblanadi.***

***2) Muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul miqdori tovarlar qiymatining miqdoriga teskari mutanosiblikda, oltinning o'z qiymatiga nisbatan esa to'g'ri mutanosiblikda o'zgaradi:***

***a) oltin pul qiymati va tovarlar hajmi o'zgarmagan taqdirda tovarlar qiymati qancha past bo'lsa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori ham shuncha kam bo'ladi. Agar tovarlar qiymati o'zgarmasa, pulning miqdori tovarlar hajmining ortishiga qarab unga mutanosib ravishda ko'payadi;***

**b) agar tovarlar hajmi va qiymati o'zgarmaydi, deb faraz qilsak, muomaladagi oltin pul miqdori oltinning o'z qiymatiga qarab o'zgaradi, ya'ni uning qiymati oshsa, pul miqdori kamayadi, qiymati pasaysa, pul miqdori ko'payadi.**

Qog'oz pul muomalasi qonunlari oltin pul muomalasidan farq qilib, uni quyidagicha ifodalash mumkin:

**– qog'oz pul qancha miqdorda chiqarilmasin, unda belgilangan qiymat miqdori muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul miqdorining qiymatiga teng bo'ladi;**

**– qog'oz pulning har birligida belgilangan qiymat miqdori muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul qiymatining muomalaga chiqarilgan qog'oz pul miqdori nisbatiga mos keladi.**

Qog'oz pul tizimi amal qilib turgan davrdan buyon o'tgan real iqtisodiy hayot shuni ko'rsatadiki, oltin pul muomaladan chiqarilgan va qog'oz pullarning oltin pul bilan aloqasini yo'qotishga rasman urinilgan bo'lsada, uning nominal qiymat belgisi sifatidagi harakatida oltin pul bilan bo'lgan aloqasi hozirgacha obyektiv ravishda saqlanib qolgan. Faqat u modifikatsiyalashib, murakkablashib bormoqdaki, natijada uni mantiqiy mushohada qilish orqali tushunish ancha qiyinlashadi. Shuning uchun ham qog'oz pullar har bir davlatning maxsus qonuni bilan muomalaga chiqariladi. Bu qonunda pulning belgisi, birliklari, miqyoslari va chet el valutalari bilan rasmiy almashuv tartibi o'rnatiladi. Ammo uning qiymat belgisi sifatida qancha qiymatga ega ekanligini hech qanday davlat qonuni bilan o'rnatib bo'lmaydi, u faqat obyektiv iqtisodiy qonun – pul muomalasi qonuni asosida o'rnatiladi va amal qiladi<sup>1</sup>.

Milliy iqtisodiyotda davlat tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassasalarning majburiyatlari pul sifatida foydalanadi. Pul operatsiyalarining asosiy ko'pchilik qismi naqd pulsiz, cheklar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli muomalada bo'lgan pul miqdorini hisoblash uchun  $M_1 \dots M_n$  pul agregatlari yoki tarkibiy qismi tushunchasidan foydalaniladi. Barcha pul agregatlari yig'indisi yalpi pul massasi yoki yalpi pul taklifini tashkil qiladi.

Respublikamizda umumiy pul miqdori quyidagi (tarkib)lar asosida hisoblanadi:

$M_0$  – muomaladagi naqd (qog'oz va metall) pullar.

<sup>1</sup> Yusupov R.A. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida milliy valuta barqarorligining ta'minlashning nazariy asoslari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2001, 12–13-betlar.

$M_1 = M_0 +$  aholining joriy hisob varaqlaridagi pul qoldiqlari, korxonalarining hisob varaqlaridagi pul mablag'lari, banklardagi talab qilib olish mumkin bo'lgan pul omonatlari.

$M_2 = M_1 +$  tijorat banklaridagi muddatli omonatlar va jamg'arma hisob varaqlaridagi pullar, ixtisoslashtirilgan moliyaviy muassasalardagi depozitlar va boshqa aktivlar. Mazkur agregat tarkibiga kiruvchi pul mablag'larini bevosita bir shaxsdan boshqa biriga o'tkazish hamda ayirboshlash bitimlarida foydalanish mumkin emas. Ular asosan jamg'arish vositasi vazifasini bajaradi.

$M_3 = M_2 +$  bank sertifikatlari + aniq maqsadli zayom obligatsiyalari + davlat zayom obligatsiyalari + xazina majburiyatlari.

Bundan ko'rinadiki, pul massasining har bir alohida agregati o'zining likvidligi darajasiga ko'ra farqlanadi. Likvidlik – bu turli aktivlarning o'z qiymatini yo'qotmasdan (ya'ni, eng kam xarajatlar asosida) tezlik bilan naqd pulga aylana olish qobiliyatidir. Pullar (metall tanga va qog'oz pullar) eng yuqori likvidlikka ega bo'ladi. Mijoz o'zi istagan vaqtida olishi mumkin bo'lgan bank hisob varaqlaridagi pul omonatlari ham likvidli hisoblanadi. Pul massasi tarkibiga to'lov vositasi vazifasini bajarish layoqati pastroq bo'lgan aktivlar qo'shib borishi bilan ularning likvidlik darajasi ham pasayib boradi.

Naqd pullar rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida umumiy pul massasining 9–10 foizini, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mustaqil hamdo'stlik davlatlarida 35–40 foizni tashkil qiladi.

**Pul bozori** – bu mamlakatdagi pul miqdori hamda foiz stavkasining turli darajalarida pul mablag'lariga bo'lgan talab va pul taklifining o'zaro nisbatini ifodalovchi mexanizm.

**Pul taklifi** – bu bozorda pul sifatida muomalada bo'lgan turli-tuman moliyaviy mablag'lar, ya'ni pul agregatlari yig'indisi hisoblanadi. Mamlakatdagi pul taklifi asosan Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi.

Pul taklifi asosan Markaziy bank tomonidan tartibga solinsada, u iqtisodiyotdagi barcha taklifni qamrab olmaydi. Chunki, bu jarayonga uy xo'jaligi xatti-harakati hamda tijorat banklarining siyosati ham ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat banklari o'z ixtiyorlarida bo'lgan aktivlari hisobiga yangi pullarni hosil qilishlari, ya'ni ularni bank krediti sifatida mijozlariga berishlari mumkin. To'g'ri, ularning bu faoliyatlari Markaziy bank tomonidan o'rnatiluvchi majburiy zaxira me'yorlari orqali cheklanadi. Ya'ni, tijorat banki o'zining joriy xarajatlarini qoplashi hamda mijozlar tomonidan kreditlar qaytarilmasligi xavfining oldini olish maqsadida

ma'lum miqdordagi pul mablag'larini zaxira sifatida saqlashi lozim. Aktivlarning qolgan qismi esa muomalaga chiqarilib, u ma'lum muddatdan so'ng yana bankka qaytishi hamda majburiy zaxira me'yoridan ortiqcha qismi yana muomalaga chiqarilishi mumkin. To'xtovsiz ravishda takrorlanuvchi bu jarayon pul taklifi multiplikatori yoki bank multiplikatori deyiladi.

**Pul taklifi multiplikatori** – bu bankdagi pul depozitlari qo'shimcha ravishda o'sgan hajmining majburiy zaxiralar qo'shimcha hajmiga nisbati bo'lib, pul mablag'larining bir birlikka ko'payishi iqtisodiyotdagi pul taklifining qanchaga o'sishini ko'rsatadi:

$$m = \frac{M_s}{R} \quad \text{yoki} \quad m = \frac{1}{r},$$

bunda:

$m$  – pul taklifi multiplikatori koeffitsiyenti;

$M_s$  – bankdagi pul depozitlarining qo'shimcha ravishda o'sgan hajmi;

$R$  – majburiy zaxiralar qo'shimcha hajmi;

$r$  – majburiy zaxiraning foizdagi me'yor.

Masalan, Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan majburiy zaxira me'yorini 20%ni tashkil etsin. Agar tijorat bank aktivini 100 mln. so'm deb olsak, u holda pul taklifi multiplikatori 5 ga teng bo'ladi (100 mln. so'm/20 mln. so'm). Bu esa tijorat banki 500 mln. so'm hajmida (100 mln. so'm x 5) yangi pullarni muomalaga chiqarish imkoniga ega ekanligini ko'rsatadi.

Pulga talab ikki qismdan iborat bo'lishi mumkin: ayirboshlash uchun zarur bo'lgan pulga bo'lgan talab hamda aktivlar sotib olish uchun zarur bo'lgan pulga talab.

Ayirboshlash uchun zarur pulga bo'lgan talab aholining kundalik shaxsiy ehtiyojlari, korxonalarining ish haqi to'lash, material, yoqilg'i va shu kabilarni sotib olish uchun kerak bo'lgan pul miqdorini ifodalaydi. Ayirboshlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori yuqorida ko'rsatgan formula bilan aniqlanadi. Ushbu formulaga asosan aholi va korxonalarga ikki holda ayirboshlash uchun ko'proq pul talab qilinadi: narxlar o'sganda va ishlab chiqarish hajmi ko'payganda.

Kishilar o'zlarining moliyaviy aktivlarini har xil shakllarda, masalan, korporatsiya aksiyalari, xususiy yoki davlat obligatsiyalari shaklida ushlab turishlari mumkin. Demak, aktivlar tomonidan, ya'ni investitsiyalar uchun pulga talab ham mavjud bo'ladi. Aktivlar tomonidan pulga talab foiz stavkasiga teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Foiz stavkasi past bo'lsa,

kishilar ko'proq miqdoridagi naqd pulga egalik qilishni afzal ko'radi. Aksincha, foiz yuqori bo'lganda pulni ushlab turish foydasiz va aktivlar shaklidagi pul miqdori ko'payadi. Shunday qilib, pulga bo'lgan umumiy talab, aktivlar tomonidan pulga bo'lgan va ayirboshlash uchun pulga bo'lgan talabning miqdori bilan aniqlanadi. Shunday qilib, pul muomalasi qonunlarini, pulning harakat shakllarini bilish inflatsiyaning mohiyatini, turlarini va qonuniyatlarini bilishda uslubiy ahamiyatga egadir.

## 7.2. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul doimiy va uzluksiz harakatda bo'lishi lozim. Buning uchun esa bo'sh pul mablag'lari ham pul-kredit muassasalari orqali to'planib, iqtisodiyotga investitsiyalar sifatida yo'naltirilishi lozim. Bu jarayonlarni amalga oshirishda *kredit munosabatlari* muhim ahamiyat kasb etadi.

*Kredit* bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni pulga muhtoj bo'lib turgan huquqiy hamda jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun ma'lum muddatga, foiz to'lovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi.

Pul shaklidagi kapital *ssuda kapitali* deyilsa, uning harakati *kreditning mazmunini* tashkil qiladi.

Kredit munosabatlari ikki subyekt o'rtasida, ya'ni pul egasi (qarz beruvchi) va qarz oluvchi o'rtasida yuzaga keladi.

Turli xil korxonalar (firma)lar, tashkilotlar, davlat va uning muassasalari hamda aholining keng qatlami kredit munosabatlarining subyektlari hisoblanadi. Sanab o'tilgan subyektlarning aynan har biri bir vaqtning o'zida ham qarz oluvchi va ham qarz beruvchi o'rnida chiqishi mumkin.

Kredit munosabatlarining obyekt jamiyatda vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridir. Takror ishlab chiqarish jarayonida tovarlar, iqtisodiy resurslar va pul mablag'larining doiraviy aylanishi *kredit munosabatlarining* mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Shu bilan birga doiraviy aylanish jarayonida muqarrar suratda vaqtincha bo'sh turadigan pul mablag'lari va boshqa pul resurslari kredit mablag'larining manbayini tashkil qiladi.

Kredit resurslarining asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- 1) korxonalarining amortizatsiya ajratmalari;
- 2) mahsulot sotishdan olingan pul tushumlari;
- 3) korxonalarining ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag'batlantirish fondlari;



4) korxonalar foydasi. Ular davlat budjeti va kredit tizimi bilan hisob-kitob qilinguncha, shuningdek uning tegishli qismi korxonalar ehtiyojlari uchun foydalanguncha bankdagi hisoblarida saqlanadi;

5) bankdagi budjet muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning joriy pul resurslari;

6) aholining bo'sh pul mablag'lari.

Takror ishlab chiqarish jarayonida vaqtincha bo'sh pul resurslari hosil bo'lishi bilan bir vaqtda, iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari va sohalarida qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Avvalo kredit **qayta taqsimlash vazifasini** bajaradi. Uning yordamida korxonalar, davlat va aholining bo'sh pul mablag'lari ssuda fondida to'planib, keyin bu mablag'lar kredit mexanizmi orqali iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini hisobga olib qayta taqsimlanadi. Shu orqali kredit ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, kredit pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat va h.k.) yuzaga chiqarib, ularni **xo'jalik amaliyotiga joriy etish vazifasini** bajaradi.

Uchinchidan, kredit naqd pullar o'rniga kredit pullarni rivojlantirish va pul muomalasini jadallashtirish bilan **muomala xarajatlarini tejash vazifasini** bajaradi.

To'rtinchidan, kredit ssuda fondining harakati (qarz berish va qarzni undirish) orqali **iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasini** bajaradi.

Beshinchidan, kredit o'z muassasalari orqali iqtisodiy subyektlar faoliyati ustidan **nazorat qilish vazifasini** bajaradi.

Nihoyat, kreditning o'ziga xos vazifasi **iqtisodiyotni tartibga solish** hisoblanadi. Bunda kredit uchun foiz stavkalarini tabaqalashtirish, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar berish kabi usullardan foydalaniladi. Kredit bir qator turlarda amalga oshiriladi.

Tarixiy taraqqiyot davomida kreditning ikki – pul va tovar shakllaridan foydalanib kelingan. Hozirgi vaqtda mamlakat ichki aylanmasida pul kreditidan kengroq foydalanib, u bank, tijorat, davlat, iste'mol va xalqaro kredit shakllarini oladi.

Bank krediti – kreditning asosiy va yetakchi shakli sifatida chiqadi. U pul egalari – banklar va maxsus kredit muassasalari tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektori) pul ssudalari shaklida beriladi.

Bank krediti yo'nalishi, muddati va kredit bitimlari summasi bo'yicha cheklanmaydi. Uning foydalanish sohasi ham juda keng, tovar muomalasidan tortib kapital jamg'arilishigacha xizmat qiladi.

**Xo'jaliklararo kredit** bir korxonaga (muassasa) tomonidan ikkinchisiga beriladi va ularning kapital qurilish, qishloq xo'jalik sohalaridagi munosabatlariga, shuningdek, ichki xo'jalik hisobi bo'g'inlari bilan munosabatlariga xizmat qiladi.

**Tijorat krediti** – bu korxonalar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning bir-biriga beradigan kreditlaridir. Tijorat krediti, avvalo, to'lovni kechiktirish yo'li bilan tovar shaklida beriladi.

**Iste'mol krediti** – xususiy shaxslarga, hammadan avvalo, uzoq muddat foydalanadigan iste'mol tovarlari (mebel, avtomobil, televizor va boshqalar) sotib olish uchun ma'lum muddatga beriladi. U chakana savdo magazinlari orqali tovarlarning haqini kechiktirib to'lash bilan sotish shaklida yoki iste'mol maqsadlarida bank ssudalari berish shaklida amalga oshiriladi. Iste'mol kreditidan foydalanganlik uchun ancha yuqori foiz undiriladi.

**Ipoteka krediti** – ko'chmas mulklar (yer, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriladi. Bunday ssudalar berish vositasi, banklar va korxonalar tomonidan chiqariladigan ipoteka obligatsiyalari hisoblanadi.

**Davlat krediti** – kredit munosabatlarining o'ziga xos shakli bo'lib, bunda davlat pul mablag'lari qarzdori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo'lib chiqadi. Davlat krediti mablag'lari manbasi bo'lib, davlat qarzi obligatsiyalari xizmat qiladi. Davlat kreditning bunday shaklida, avvalo, davlat budjeti kamomadini qoplash uchun foydalanadi.

**Xalqaro kredit** – ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakatini namoyish qiladi. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valuta) shaklida beriladi. Kreditor va qarzi oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hisoblanadi.

So'nggi vaqtlarda kreditlashning lizing, faktoring, farfeyting, trast kabi shakllari keng rivojlanib bormoqda.

**Lizing** – bu kreditning pulsiz shakli bo'lib, odatda, ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to'lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat. Lizing bo'yicha bitimlar 1 yildan to 10 yilga qadar tuzilishi mumkin. Odatda, ishlab chiqarish vositalarini ularning egalari bevosita emas, balki maxsus lizing kompaniyalari orqali ijaraga beradilar.

**Faktoring** – bu boshqa iqtisodiy subyektlarning qarzdorlik bo'yicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlarini anglatadi. Bunda bank korxonalarining «debitorlik hisob varaqalari»ni o'zi uchun

foydali shartlar asosida naqd pulga sotib oladi, keyin esa bu qarzlarni qarzdordan undirib oladi.

**Farfeyting** – bu uzoq muddatli faktoring munosabatlari bo‘lib, qarzdorlik bo‘yicha huquqlarni sotib olgan bank ularni, odatda, 1–5 yil vaqt o‘tgandan so‘ng undirishi mumkin bo‘ladi.

**Trast** – bu mijozlarning kapitallarini boshqarish bo‘yicha operatsiyalarni bildiradi.

Kredit berish bir qator **tamoyillarga** asoslanadi.

Bular quyidagilar: ssuda berishning maqsadli tavsifi, kreditning rasmiylashtirilgan muddatda qaytarilishi, ssudaning moddiy ta‘minlanganligi va to‘lovliligi.

Qarzga berilgan ssudaning albatta qaytarilib berilishi, undan foydalanilganlik uchun olingan foydadan ssuda foizini to‘lash zarurati korxonalarni xo‘jalik yuritishning eng samarali usullarini izlab topishga undaydi.

Qarz (ssuda)ga berilgan pul hisobiga olinadigan daromad foiz yoki foizli daromad deyiladi. Shu daromad (foiz)ning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanish **foiz stavkasi** yoki **foiz normasini** tashkil qiladi:

$$r' = \frac{r}{K_{ssuda}} \cdot 100,$$

bunda:

$r'$  – foiz normasi;

$r$  – foiz summasi;

$K_{ssuda}$  – qarzga berilgan pul (kapital) summasi.


Agar 100 ming so‘m yiliga 20 ming ssuda foizi to‘lash sharti bilan qarzga berilgan bo‘lsa, ssuda foizi normasi 20% ni tashkil qiladi.

### 7.3. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar, ularning vazifalari va bank islohotlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini ta‘minlashda banklar muhim rol o‘ynaydi. **Banklar** pul mablag‘larini to‘plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solish bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiy muassasadir.

Banklar faoliyatining asosiy tomonlaridan biri kredit munosabatlariga xizmat qilish bo‘lib, ular kredit muassasalarining asosini tashkil qiladi. Banklar tizimi, odatda, ikki, bosqichli bo‘lib, o‘z ichiga **markaziy**

**(emission) bank va tijorat (depozitli) banklarning tarmoq otgan ahaxobchalarini oladi.** Bugungi kunda esa mamlakatimizda 30 ta bank faoliyat ko'rsatib, shundan 3 tasi davlat banklari, 13 tasi aksiyadorlik tijorat banklari, 9 tasi xususiy banklar, 5 tasi xorijiy kapital ishtirokidagi banklar hisoblanadi (1-rasm).



*1-rasm.*


Keyingi yillarda tijorat banklari faoliyatining kengayib borishi o'z navbatida ular tomonidan berilayotgan kreditlar, banklardagi depozitlar va umumiy kapital hajmiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda banklarning umumiy aktivlari aholi va yuridik shaxslar hisob raqamlaridagi mablag'lar miqdoridan 2 barobardan ham ortiq bo'lib, bu ularning to'liq himoyasini va to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha ijobiy natijalarga erishildi. 2011-yil 1-yanvarda tijorat banklarining jami aktivlari summasi 20,1 trln. so'mni tashkil etdi, bu esa aksariyat jihatdan banklarning kreditlar berishga qo'yilmalarini oshganligi bilan izohlanadi (2-rasm).

Umumiy aktivlari mamlakatimiz bank tizimining 90 foizdan ortig'ini tashkil qiladigan 14 ta tijorat banki «Fitch Reytings», «Mudis» va «Standart end Purs» kabi yetakchi xalqaro reyting kompaniyalarining «barqaror» degan yuqori reyting bahosini olishga muvaffaq bo'ldi.

Bank tizimining mustahkamlanishi va unga nisbatan aholi ishonchining ortishi natijasida omonatlar hajmi sezilarli ravishda ortib bormoqda. Joriy yilning uchinchi choragida asosiy foiz stavkalari sezilarli

## Banklarning jami aktivlari (mlrd. so'm)




**Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.**

*2-rasm.*

darajada o'zgarmadi. Faqatgina jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha stavkalar birmuncha pasaydi. Faqat o'tgan yilning o'zida aholi omonatlari miqdori 1,7 barobar oshdi (3-rasm).

Rasmdan ko'rinadiki, 2003–2010-yillar mobaynida aholi daromadlari hajmi 16 barobardan ko'proq oshgan. Hozirgi kunda banklarning umumiy aktivlari aholi va yuridik shaxslar hisob raqamlaridagi mablag'lar

## Banklardagi aholi omonatlarining o'sishi dinamikasi, 1-yanvar holatiga, mlrd. so'm



**Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.**

*3-rasm.*

miqdoridan 2 barobardan ham ortiq bo‘lib, bu ularning to‘liq himoyasini va to‘lovlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda maxsus tijorat banklari tashkil etilishi mumkin. Tijorat banklari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan tegishli litsenziyani olganlaridan keyin xorijiy valutada operatsiyalar amalga oshiradi.

Milliy valutada omonatlarning ortishi inflatsiya sur‘atlarining pasayishi, banklarda nisbatan qulay va foydali omonat turlarining paydo bo‘lganligi bilan izohlanadi. Banklarning vositachilik rolini yanada oshirish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning mablag‘larini depozitlarga jalb qilish hamda ularni iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan kredit siyosati olib borildi.

«O‘tgan yili mamlakatimiz moliya-bank tizimi likvidligini yanada mustahkamlash, uning barqarorligini kuchaytirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirildi. 2010-yilda tijorat banklarining jami kapitali 36 foizga ortdi va banklarimiz erishgan 23 foiz miqdoridagi kapitalning yetarlilik darajasi dunyoda qabul qilingan xalqaro standartlardan 3 barobardan ko‘pdir. Faqat o‘tgan yilning o‘zida depozitlar hajmi 1,5 barobardan ziyod oshdi».<sup>1</sup>

**Davlat banki** mamlakat pul-kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi.

Davlat banki **Markaziy bank** hisoblanadi. Buning mazmuni shundan iboratki, birinchidan, ko‘pchilik mamlakatlarda davlat banki yagona markaziy bankdan iborat bo‘lib, u o‘tkazadigan siyosat tartiblari yuqori davlat organlari tomonidan o‘rnatiladi.

Ikkinchidan, Markaziy bank tijorat banklari va jamg‘arma muassalaridan mablag‘larni qabul qilib, ularga kredit beradi. Xususan, shu sababga ko‘ra markaziy bank «banklar banki» deyiladi.

Uchinchidan, Markaziy bank faqat foyda olishga intilib faoliyat qilmaydi, davlatning butun iqtisodiyot holatini yaxshilash siyosatini amalga oshiradi va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga ko‘maklashadi.

Markaziy bank ko‘plab xilma-xil **vazifalarni** bajaradi.

Birinchidan, boshqa bank muassasalarining majburiy zaxiralarini saqlaydi. Bu zaxiralar pul taklifini boshqarish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Markaziy bank mamlakatning rasmiy oltin-valuta zaxiralarini saqlash vazifasini ham bajaradi.

---

<sup>1</sup> *Karimov I.A.* Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. (Xalq so‘zi, 2011-yil).

Ikkinchidan, cheklarni qayd (inkassatsiya) qilish mexanizmini ta'minlaydi va banklararo hisob-kitoblarni amalga oshiradi, ularga kreditlar beradi.

Uchinchidan, davlatning monetar siyosatini amalga oshiradi.

To'rtinchidan, barcha banklar faoliyatini uyg'unlashtiradi va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Beshinchidan, xalqaro valuta bozorlarida milliy valutilarni ayirboshlaydi.

Oltinchidan, pul taklifi ustidan nazorat qilish ma'suliyatini oladi, milliy valutani muomalaga chiqaradi.

Iqtisodiyotning ehtiyojlariga mos ravishda pul muomalasini tartibga soladi.

Monetar siyosatning asosiy maqsadi inflatsiyani past darajada ushlab turish va so'mning barqaror ayirboshlash kursini ta'minlashdan iborat. Mazkur vazifalar makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan umumiy iqtisodiy siyosat bilan uzviy bog'langandir.


O'zbekiston Markaziy banki o'zining asosiy vazifalarini bajarish bilan bir qatorda, bank xizmatlarini erkinlashtirishga qaratilgan siyosatni ham olib boradi. Bank tomonidan pul kredit siyosatining vositalari sifatida ochiq bozorda qimmatli qog'ozlar operatsiyasi, ichki valuta bozorida operatsiyalar, qayta moliyalashtirish stavkasi va tijorat banklariga majburiy zaxira talablari vositalari ham ishga solinadi.

O'zbekiston Markaziy banki pul bozorlarida qisqa muddatli likvidlikni tartibga solish maqsadida ochiq bozorda operatsiyalarni amalga oshiradi. O'tgan 2010-yilda bank-moliya sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish va ularning ko'lamini kengaytirish masalalari davlatning doimiy e'tibor markazida bo'ldi. Birinchi navbatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish va ularning erkinligini mustahkamlash masalalariga alohida ahamiyat qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2007-yil 12-iyuldagi 670-sonli qaroriga asosan banklarning nizom jamgarmasini ko'paytirish va investitsion resurs bazasini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'tgan yili mamlakatimiz moliya-bank tizimi likvidligini yanada mustahkamlash, uning barqarorligini kuchaytirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi.

2010-yilda banklarning jami kapitali 3557,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi va bu 2007-yil bilan solishtirganda qariyb 2,4 marta koʻpdir (4-rasm).

**Banklarning jami kapitali**  
(mlrd. soʻm)



4-rasm.

2010-yilda Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan pul-kredit siyosati «Monetar siyosatning 2010-yilga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari» hamda bank tizimi oldiga qoʻyilgan asosiy maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda olib borildi.

Xususan, iqtisodiyotning pulga boʻlgan talabini toʻliq qondirish orqali iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish, muomaladagi pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralari, valuta va foiz siyosatining asosiy yoʻnalishlari hamda milliy valuta barqarorligini yanada mustahkamlash kabi vazifalarga alohida eʼtibor qaratildi.

2010-yilda pul massasi hajmini boshqarish, moliya bozori barqarorligini va likvidligini taʼminlash hamda foiz stavkalarini tartibga solishda Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalaridan keng foydalanildi.

Oʻtgan 2010-yilda Markaziy bank tomonidan tashqi savdo aylanmasi ijobiy qoldigʻi oshishining pul massasiga taʼsirining oldini olish va ortiqcha likvidlikni sterilizatsiya qilish maqsadida pul bozorida tegishli chora-tadbirlar koʻrib borildi. Bunda tijorat banklarining boʻsh pul mablagʻlarini Markaziy bank tomonidan maxsus depozitlar va depozit sertifikatlariga jalb qilish amaliyotidan keng foydalanildi.




Banklarning kredit portfeli tarkibida ham sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Umumiy kredit portfelida uzoq muddatli, ya'ni 3 yildan ortiq muddatga beriladigan investitsiya kreditlarining ulushi 2000-yilning oxiridagi 35 foizdan 2010-yilning oxirida 75,2 foizga o'sdi.

Milliy valutada omonatlarning ortishi inflatsiya sur'atlarining pasayishi, banklarda nisbatan qulay va foydali omonat turlarining paydo bo'lganligi bilan izohlanadi. Banklarning vositachilik rolini yanada oshirish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'larini depozitlarga jalb qilish hamda ularni iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishga yo'naltirilgan kredit siyosati olib borildi.

Mamlakatimizda 2010-yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i 11 trln. 365 mlrd.so'mni tashkil etdi va bu 2007-yilga nisbatan 2,4 marta ko'pdir (5-rasm).

**Iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i (mlrd. so'm)**



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

5- rasm.

**Tijorat banklari** o'zlarining xo'jalik mavqeiga ko'ra aksionerlik tipidagi muassasalar hisoblanadi. Huquqiy mavqeiga ko'ra, faoliyatning biron bir turiga xizmat ko'rsatuvchi, ixtisoslashgan yoki milliy bank bo'lishi mumkin. Tijorat banklar sanoat, savdo va boshqa xil korxonalarni omonat tarzida jalb etilgan pul mablag'lari hisobidan kreditlaydi, korxonalar o'rtasida hisob-kitobni amalga oshiradi, shuningdek, vositachilik va valuta operatsiyalari bilan shug'ullanadi.

*O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda maxsus tijorat banklari tashkil etilishi mumkin. Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan tegishli litsenziyani olganlaridan keyin xorijiy valutada operatsiyalar amalga oshiradilar.*

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati» to'g'risidagi qonunida aytilishicha, tijorat banklari va aksiyali pay asosida tashkil topgan xususiy banklar bo'ladiki, ular «kredit hisob-kitob va o'zga xil bank xizmatini ko'rsatadilar». Tijorat banklar faoliyatining asosiy maqsadi foyda chiqarib olishni ko'zda tutadi. Tijorat banklari daromadining manbai mijozlarining bank xizmati uchun to'lovi va aktivlardan – zayom, kredit, qimmatli qog'ozlardan olinadigan foiz hisoblanadi.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash borasida e'tiborli jihatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 10-noyabrda 4051-sonli «Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq:

– tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun 18 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 200 barobari miqdoridagi imtiyozli mikrokreditlar bo'yicha maksimal stavkani yillik 5 foizdan 3 foizga;


– kichik biznes subyektlari faoliyatini kengaytirish va aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 24 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 500 barobari miqdoridagi mikrokreditlar bo'yicha – Markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasining 100 foizidan 50 foiziga;

– kichik biznes subyektlari uchun 3 yilgacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 2000 barobari miqdoridagi imtiyozli mikrolizing xizmatlari bo'yicha maksimal stavkani yillik 7 foizdan 5 foizga tushirildi.

Kreditlashda bunday ahamiyatli imtiyozlarning belgilanishi mazkur soha vakillari tomonidan kreditga bo'lgan talab va ayni paytda ularga berilayotgan kredit hajmining yildan-yilga oshib borishiga olib kelmoqda. Jumladan, 2007–2010-yillar davomida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga berilgan jami kreditlar miqdori 2,9 barobar oshgan (6-rasm).

Bunga qo'shimcha ravishda tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini kelasi yil hosili va yer uchastkasini ijara huquqini garovga qo'yish bo'yicha kreditlash mexanizmi ishlab chiqilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, kreditlarni ta'minlashning yangi garov mexanizmi fermer xo'jaliklarini qarz mablag'laridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi.

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar (mlr. so'm)



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

6-rasm.

«Markaziy bank tijorat banklari bilan birgalikda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kreditlar ajratish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish, boshlang'ich kapitalni shakllantirish, mikrokreditlar berish ko'lamini kengaytirish borasidagi ishlarni davom ettirishi lozim. 2011-yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning ushbu sektoriga ajratiladigan kreditlar hajmini kamida 1,3 barobar ko'paytirish darkor.

O'zbekiston banklar assotsiatsiyasi tijorat banklari bilan hamkorlikda Investitsiya loyihalari bo'yicha loyiha hujjatlari tayyorlashni moliyalashtirish jang'armasini tashkil qilishi zarur. Bu esa kichik biznes subyektlarining biznes rejalarini tayyorlash sarf-xarajatlarini kamaytirish, ularning sifatini oshirish va kreditlar berish muddatlarini qisqartirish imkonini yaratadi<sup>1</sup>.

**Ixtisoslashgan tijorat banklar** – iqtisodiyotning turli sohalarida tijorat tamoyillarida kredit-pul operatsiyalarining muayyan turlarini amalga oshiradi. Jumladan bizning respublikada Sanoat qurilish banki – sanoat, transport, aloqa va moddiy-texnika ta'minoti sohalarida; Zamin, G'alla, Paxta banklar – agrosanoat kompleksi tarmoqlari va sohalarida; Tadbirkor banki mayda va o'rta biznes, kooperativ va yakka tartibdagi mehnat faoliyati sohasida kredit-pul operatsiyalarini amalga oshiradi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. (Xalq so'zi, 2011-yil).

**Xalq banki** – mamlakatda omonat ishlarini tashkil etishni, naqd pulsiz hisob-kitob qilishni va aholi uchun kassa vazifasini amalga oshirishni, aholiga shaxsiy ehtiyojlarga kredit berishni va shu kabi operatsiyalarni ta'minlaydi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki** eksport – import operatsiyalarini bevosita amalga oshiruvchi korxonalar va muassasalarga kredit beradi, qo'shma korxonalarga kredit berishda qatnashadi, yig'ma valuta rejasining ijrosini, valuta resurslaridan tejab foydalanishini nazorat qiladi, shuningdek, tashqi iqtisodiy operatsiyalarga oid hisob-kitoblarni tashkil qiladi va amalga oshirishni ta'minlaydi. Tijorat banklari tizimida tor ixtisoslashishi bo'yicha investitsion va ipoteka banklarni ajratib ko'rsatish lozim.

**Investitsion banklar** – maxsus kredit muassasalari bo'lib, obligatsiya hamda qarz majburiyatlari boshqa turlarini chiqarish yo'li bilan uzoq muddatli ssuda kapitalini jalb qiladi va ularni mijozlar (asosan davlat va tadbirkorlar) ga taqdim qiladi.

**Investitsion kompaniyalar** o'zlarining qimmatli qog'ozlarini chiqarish yo'li bilan huquqiy investorlar pul resurslarini to'playdi va ularni korxonalar (milliy va chet el)lar aksiya va obligatsiyalariga joylashtiradi. Bunday kompaniyalar to'liq investorlar manfaatini ifodalaydi va ularning asosiy maqsadi qo'yilgan kapital hisobiga foyda olish hisoblanadi.

**Ipoteka banklar** – bu ko'chmas mulk (yer va inshoot) hisobiga uzoq muddatli ssuda berishga ixtisoslashgan kredit muassasalar. Ipoteka bankning resurslari o'zlarining ipoteka obligatsiyalari hisobiga shakllanadi. Olingan ssudadan uy-joy va boshqa inshootlar qurish, korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun foydalaniladi.

Barcha tijorat banklari zaxira (rezerv)larining hajmi va tarkibi bo'yicha Markaziy bank tomonidan o'rnatiladigan ma'lum talablarga javob berishi zarur. Hukumat va O'zbekiston Markaziy banki tomonidan davlat ehtiyojlari uchun fermer xo'jaliklardan paxta va bug'doy yetishtirish xarajatlarini maqsadli kreditlashga bosqichma-bosqich o'tkazish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2010-yilda tijorat banklari tomonidan korxonalarining qimmatli qog'ozlarini sotib olish orqali ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash va fond bozorida faol ishtirok etish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirildi.

«Ijtimoiy himoya yili» Davlat dasturiga muvofiq, yosh oilalarning uy-joy va maishiy sharoitlarining yaxshilash maqsadida ipoteka va iste'mol kreditlarining ajratish yo'li bilan ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga katta ahamiyat berildi. Xususan, 2007-yilda tijorat banklari

tomonidan yosh oilalarga imtiyozli shartlar asosida 112,8 mlr. soʻmdan ortiq ipoteka va isteʼmol kreditlari hamda mikro kreditlar ajratildi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlantirish, tovarlar va xizmatlar uchun toʻlovlarni amalga oshirishda aholiga qulayliklar yaratish maqsadida bank plastik kartochkalarini muomalaga chiqarish, ular bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmini koʻpaytirish borasidagi ishlar davom ettirildi. Xususan, plastik kartochkalar boʻyicha toʻlovlarni amalga oshirishda foydalaniladigan uskunalar hamda zaruriy materiallarni import qilish va ulardan foydalanishda bojxona va soliq imtiyozlari amal qilish muddatining 2010-yil 1-yanvarga qadar uzaytirilishi banklarning bu boradagi faoliyatlarini yanada ragʻbatlantirmoqda.

2007-yilda muomalaga 3 mln. plastik kartochkalar kiritish va plastik kartochkalar bilan operatsiyalarni amalga oshirish boʻyicha 10 ming terminallar oʻrnatildi. 2010-yilga kelib esa ular soni 6 barobar ortdi.

### XULOSALAR

1. Pulning iqtisodiyotda oʻz vazifalarini bajarish jarayonida toʻxtovsiz harakatda boʻlishi, tovarlar va xizmatlar ayirbosh qilish jarayonida qoʻldan qoʻlga oʻtib, aylanib turishi, uning bu toʻxtovsiz harakati pul muomalasi deyiladi.
2. Jahonda tarixan shakllangan hamda har bir mamlakat tomonidan qonuniy ravishda mustahkamlab qoʻyilgan pul muomalasining turli tizimlari amal qiladi. Mamlakat pul tizimining muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: milliy pul birligi; naqd pul muomalasida qonuniy toʻlov vositasi sifatida amal qiluvchi qogʻoz, tanga va kredit pullar tizimi; pul emissiyasi, yaʼni belgilangan qonuniy tartibda pulni muomalaga chiqarish tizimi; pul muomalasini tartibga soluvchi davlat idoralari.
3. Pul muomalasi naqd va kredit pullar yordamida amalga oshiriladi. Naqd pul muomalasiga bank biletleri va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. Naqd pulsiz hisoblar cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, toʻlov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Bularning hammasi birgalikda pul agregati deb yuritiladi.
4. Muomalani taʼminlash uchun zarur boʻlgan pul miqdori muayyan davr davomida sotilishi va sotib olinishi lozim boʻlgan tovarlar summasi, pul birligining aylanish tezligi va kreditning rivojlanishi kabi omillarga bogʻliq boʻladi.
5. Kredit boʻsh turgan pul mablagʻlarini ssuda fondi shaklida toʻplash va ularni pulga muhtoj boʻlib turgan huquqiy va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun maʼlum muddatga, foiz toʻlovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi.

6. Kredit resurslarining asosiy manbalari korxonalarining amortizatsiya ajratmalari; mahsulot sotishdan olingan pul tushumlari; korxonalarining ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag'batlantirish fondlari; korxonalar foydasi; bankdagi budget muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning joriy pul resurslari; aholining bo'sh pul mablag'laridan iborat.
7. Banklar pul mablag'larini to'plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy muassasadir. Ular kredit munosabatlariga xizmat qilib, kreditning har xil shakllarini o'z ichiga olib, kredit muassasalarining asosini tashkil qiladi. Banklar tizimi, odatda, ikki bosqichli bo'lib, o'z ichiga markaziy (emission) bank va tijorat (depozitli) banklarning tarmoq otgan shaxobchalarini oladi.
8. Oxirgi yillarda tijorat banklarining soni, ular bajaradigan operatsiyalar, ularning ustav fondi va quyilmalar salmog'i oshib bormoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda 28 ta tijorat banklari va 893 ta ularning filiallari faoliyat ko'rsatmoqda. Tijorat banklarini tashkil qilishdagi ustav kapitali miqdori 2008-yil 1-yanvardan faoliyat ko'rsatuvchi xususiy banklar uchun 2,5 mln. yevro ekvivalenti miqdoridagi mablag'ga ega bo'lishi kerak, qolgan tijorat banklari uchun 5,0 mln. so'm yevro ekvivalenti bo'lishi lozim.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

*Pul muomalasi, pul tizimi, kreditlar, ssuda fondi, foiz normasi (stavkasi), bank krediti, xo'jaliklararo kredit, tijorat krediti, iste'mol krediti, ipoteka krediti, davlat krediti, xalqaro kredit, lizing, faktoring, farfeyting, trust, banklar, bank operatsiyalari, bank foydasi (marja), bank foyda normasi, ipoteka, emissiya.*

### **Nazorat uchun savollar**

1. *Pul muomalasining mazmunini tushuntiring.*
2. *Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday omillarga bog'liq?*
3. *Pul agregatlari nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?*
4. *Kreditni nima zarur qilib qo'yadi? Kredit tushunchasining mazmunini bayon qiling.*
5. *Kreditning asosiy turlarini sanab ko'rsating va ularning tavsifini bering. Kredit qanday vazifalarni bajaradi?*
6. *Markaziy va tijorat banklarining vazifalarini ko'rsating.*
7. *Banklar tizimi necha bosqichdan iborat?*
8. *O'zbekiston respublikasida bank-kredit sohasida amalga oshirilgan islohotlarni tushuntirib bering.*
9. *Respublikada tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida aktiv ishtirok etishining sabablarini qanday izohlaysiz?*
10. *Tijorat banklari tomonidan olib borilayotgan «Trust» xizmatlari qanday xizmatlarni o'z ichiga oladi?*

### **8.1. Pulning iqtisodiy tizimga ta'siri**

Ko'rsatilgan tadqiqotlarning ikkala turi u yoki bu darajada monetar siyosatning amaliy ta'sirini baholash uchun yaroqli axborot beradi.

Zamonaviy iqtisodiy fikrlash oqimlari o'rtasidagi kurashning zamirida yotgan dunyoga turlicha qarash kapital xo'jalik mexanizmining tabiati, uning imkoniyatlari va istiqbollarini qarama-qarshi baholashga olib keladi.

Klassik yondashuvda kapitalizm qa'rida barcha resurslardan to'liq foydalanishda xo'jalikni muvozanat holatiga keltiruvchi kuchli prujina yotadi degan tushuncha mavjud. Keynes modeli esa kapitalistik xo'jalikning uzoq muddat iqtisodiy stagnatsiya holatida bo'lishi va o'z-o'zini tartibga solishda ichki mexanizmlarning harakatsizligidan kelib chiqadigan imkoniyatlarga asoslanadi. Bundan kelib chiqib, monetaristlar makroiqtisodiy siyosatning bir turini, neokeynschilar esa boshqa turini himoya qiladilar:

1. Monetaristlarning hisoblashicha, agar hukumat ishlab chiqarish hajmi va umumiy talabga ta'sir etishga harakat qiladigan bo'lsa, pul massasini nazorat qilish fiskal siyosatga qaraganda muhimroq vositaga aylanadi. Keynschilar pul massasining o'zgarishi ham, fiskal siyosat ham ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatishini isbotlaydilar. Bu «siqib chiqarish» samarasi haqidagi bahs-munozaralardir.

2. Ikkinchi farq yana ham fundamentalroqdir. U istalgan barqarorlashtiruvchi, jumladan, pul massasini nazorat qilishga asoslangan chora-tadbirlar umuman olganda qisqa muddatli va uzoq muddatli rejada real ishlab chiqarish va bandlikka ta'sir ko'rsata olish masalasi bilan bog'liq. Monetaristlar agar kutilayotgan inflatsiya sur'ati amaldagisiga teng bo'lsa, uzoq muddatli rejada ta'sir ko'rsatish mumkin emas, qisqa muddatli rejada esa mumkin deb ta'kidlaydilar. Keynschilar davlatning iqtisodiyotga ta'sir ko'rsata olish imkoniyati nuqtayi nazarini himoya qiladilar.

3. Shuningdek, ikkala modelda xulq-atvor tenglamalari va uzatish mexanizmlari o'rtasida ham muhim farqlar mavjud.

Kapitalizmning rivojlanishi o'suvchi chiziq bo'ylab borar ekan, bozor va uning «ko'rinmas qo'li» (A. Smit) cheksiz imkoniyatlariga bo'lgan

ishonch shubhasizdir. Biroq kapitalistik takror ishlab chiqarishdagi ziddiyatlar o'tkirlashib, yakson qiladigan shaklda namoyon bo'la boshlagan paytda vaziyat sezilarli o'zgardi. Rivojlangan mamlakatlardagi bozorlarning ko'pchiligi oligopoliya strukturasi kasb etdi, erkin narx shakllanishi tamoyili buzildi. Bunday sharoitlarda markazlashmagan signal tizimidan voz kechish mantiqan to'g'ri hisoblanadi.

O'zini-o'zi tartibga soluvchi samarali tizim sifatida kapitalistik xo'jalik haqidagi tezis L. Valras modelidan kelib chiqqan umumiy iqtisodiy rivojlanishning neoklassik modellarida o'zining eng yorqin ifodasini topdi. Bu yerda xo'jalik tovar bozorlari tizimi bilan ifodalangan bo'lib, ularning holati talab va taklif tenglamalari bilan tavsiflanadi. Bu tizimdagi jiddiy aloqalarni tartibga soladigan tovarlarning nisbiy narxlari model shartlari bo'yicha xo'jalikning ahvoli haqida barcha zarur axborotlarni qamrab olgan. Pul sektori nisbiy narxlarni belgilashda qatnashmaydi. Uning vazifasi – pulda ifodalangan absolut narx darajasini aniqlash hisoblanadi. Shu tariqa valras modellarida *klassik dixotomiya* tamoyillari keltiriladi. Narx shakllanishi ikki darajada amalga oshiriladi va ikki xil asosga ega bo'ladi – tovarlar muomalasi va pul muomalasi. Pul sektoridagi umumiy narx o'zgarishlariga olib keluvchi o'zgarishlar real jarayonlarga – kapital jamg'arish, investitsiyalash, ishchi kuchi resurslari dinamikasi va hokazolarga kuchli ta'sir ko'rsatmaydi. Pul mustaqil qiymatga ega bo'lmagan «to'r» sifatida ko'rib chiqilgan.

Bir-biriga teng modellarning muhim jihati ularning doimiy muvozanatlanganligidir. Ularning bu xususiyati Valras qonunini ifodalaydi. Ushbu qonunga ko'ra, barcha bozorlarda, jumladan, pul bozorida ortiqcha talab umumiy summasi doimo nolga teng, chunki ayrim bozorlarda nisbiy narxlarning ma'lum bir yig'indisida ortiqcha tovarlar taklifi aniqlansa, boshqa bozorlarda albatta xuddi shu hajmda ortiqcha talab topiladi. Demak, tizim umuman olganda doimo muvozanatda bo'ladi.

Valras qonuni Sey ayniyatining murakkablashgan modifikatsiyasi ekanligini sezish qiyin emas. Biroq asosiy farq shundaki, Sey qoidalari barter (ya'ni «pulsiz» xo'jalik) shartlariga taalluqli, Valras tizimi esa umumiyroq yondashuvga da'vo qiladi va ko'rsatilgan tamoyilni «pulsiz» xo'jaliklarga ham tarqatadi.

Umumiy muvozanat nazariyachilarining asoslari va xulosalariga qarshi kapitalistik ishlab chiqarish jarayoni avvalboshdan muvozanatsiz bo'ladi. Narx mexanizmi vujudga kelgan muvozanatsizliklarni yo'q qilishni qisman o'ziga oladi, qayta qurishning butun og'irligi qoidaga ko'ra, real sektorga – ishlab chiqarish va tovar muomalasining zimmasiga



to'g'ri keladi. Bu sotilmagan tovarlarning to'planishi, kuch-quvvatlardan to'liq foydalanmaslik, ommaviy ishsizlik kabi zamonaviy bozor tizimining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan hodisalarda o'z ifodasini topadi.

G'arb mamlakatlarida narx shakllanishida dixotomiyani yo'qotishga ko'p harakat qilib ko'rilgan. Keynes bu vaziyatdan chiqib ketishning pulga talab funksiyasini likvidlikni afzal ko'rish funksiyasiga aylantirishda ko'rgan, bu yerda pul sohasi real ishlab chiqarishga foiz stavkalari va kapitalni investitsiyalash jarayoni orqali ta'sir ko'rsatadi. Bunda Keynes xo'jalik konyunkturasi beqarorligidan kelib chiqib, uni innovatsion siklning beqaror xarakteri bilan bog'lagan, bu esa, o'z navbatida, uning modelida foiz me'yori bozor dinamikasini oldindan aytish mumkin emasligi bilan asoslanadi.

Umumiy iqtisodiy rivojlanish modellari asosida yotuvchi bozorning samarali o'zini-o'zi tartibga solish tamoyili iqtisodiy neokonservativizmning barcha nazariyalari tomonidan qurol qilib olingan. U monetaristik maktab qurilishiga asoslanadigan fundamental tamoyil hisoblanadi.

## 8.2. Pulning iqtisodiyotga ta'siri, portfelli yondashuvlari va yo'nalishlari

Pul massasining milliy daromadga ta'siri masalalari bo'yicha monetaristik qarashlarga asos bo'lib, **portfelli modellar** xizmat qiladi (Brunner, Meltser va b.).

**Portfelli aktivlar** — o'z ichiga pul, hukumat obligatsiyalari va natural shakldagi kapitalni (jumladan, uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari) qamrab oladi. Aktivlar portfelinii quyidagicha ifodalash mumkin:

$$W=M+B+K, \quad (1)$$

Bunda:  $M$  — pul;  $B$  — obligatsiyalar;  $K$  — kapital.

Aktivlarning har bir turi keltiradigan musbat daromad qisman moliyaviy foiz daromadi va qisman aniq bo'lmagan xizmatlardan (masalan, pul bilan bog'liq holatda — ulardan muomala vositasi sifatida foydalanishda keltiradigan xizmatlar) tarkib topadi. Saqlanayotgan aktivlar o'rtasida nisbat turli aktivlar bo'yicha daromadlilik eng yuqori me'yorlarini tenlashtiradigan holatda bo'lganda aktivlar portfeli muvozanatda bo'ladi. Demak, ushbu boylik hajmida aktivlar o'rtasidagi nisbat nisbiy daromadlilik me'yorlari bilan belgilanadi, har bir aktiv turining miqdori esa shu daromadlilik me'yorlari va umumiy boylik hajmiga bog'liq bo'ladi.

Agar aktivlar portfelida pul zaxirasining o'sishi ro'y bersa, bu quyidagi ikki samaraga olib keladi:

1) Boylik zaxirasini, ya'ni portfel hajmini oshiradi. Aktivlarning nisbiy daromadlilikgi o'zgarishsiz qolishi shartlarida har bir muayyan aktivlar – pul, obligatsiya va kapitalga bo'lgan talabda boylik samarasining ta'sirini aniqlash mumkin. Odatda, boylik samarasi musbat bo'ladi, chunki har bir aktiv turiga talab o'sib boradi.

2) Portfel o'rnini almashtirish samarasi yoki taqsimot samarasi. Pul zaxirasining o'sishi ushbu aktiv turlari o'rtasidagi boshlang'ich nisbatni qayta tiklash uchun kapital va obligatsiyalar zaxirasini oshirish istagini uyg'otadi.

Bu yerda pul massasi va milliy daromad oqimining turli aloqa mexanizmlari vujudga keladi:

a) birinchi aloqa mexanizmi boylik samarasi (yoki kassa qoldiqlari samarasi, yoki Pigu samarasi) bilan izohlanadi. Pulning o'sishi rejadagi iste'mol xarajatlarning o'sishiga olib keladi, bu esa, o'z navbatida, milliy daromadga ta'sir ko'rsatadi;

b) boshqa bir mexanizm pul massasi o'sishining kapitalga bo'lgan talabga ta'siri bilan bog'liq. Kapital zaxirasi eng yuqori daromadlilik me'yoringing pul zaxirasi o'sishi tufayli paydo bo'lgan yangi, nisbatan arzon kapital taklifi bilan tenglashish darajasiga ko'tarilmaguncha investitsiyalar o'sishi davom etaveradi.

Keynschilar (Tobin) obligatsiyalar va kapitalni aktivlar – obligatsiyalar bo'yicha daromadlilik umumiy me'yoriga ega substitutlar sifatida ko'rib chiqadilar. Ular nomonetar aktivlar, masalan, davlat obligatsiyalari taklifining o'zgarishi kapital taklifi narxi va xarajatlarga sezilarli boylik va joylashtirish samarasini ko'rsatadi, monetaristik qoidalarga ko'ra esa, faqat pul massasining o'zgarishida vujudga keladigan samaralar e'tiborga loyiq hisoblanadi.

Monetaristlar va Tobin versiyasi o'rtasidagi bu farqlar siyosatda ham muhim farqlarni vujudga keltiradi. Monetaristlar pul-kredit siyosati va budjet holatining hal qiluvchi vositasi bo'lib pul zaxirasining nisbiy kattaligi xizmat qiladi deb hisoblaydilar. Tobinga ko'ra makroiqtisodiy siyosat vositalarini faqat pul zaxiralari bilan cheklash kerak emas, moliyaviy ahvol ko'rsatkichi bo'lib kapital taklifi narxi xizmat qilishi lozim, chunki unga yuqorida ko'rsatilgan omillar ta'sir etadi. Bu narx aksiyalarga daromad foiz me'yori bilan ifodalangan. Tobinning asarlarida pul massasining o'sishi hukumat xarajatlarini defitsit moliyalashtirish natijasida vujudga kelganda ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

**Portfel nuqtayi nazaridan yondashuv bu** — keynschilar va monetaristlar o'rtasidagi farqni aniqlashning bir yo'li. Ushbu tahlilda Tobin va Fridmanning nuqtayi nazarlari ifodalangan. Garchi keynschilar va monetaristlar bir xil portfel modellarini qo'llasalarda, asosiy farq shundaki, keynschilar asosiy e'tiborni boshlang'ich samaraga qaratadilar, monetaristlar esa yakuniy samarani ko'rsatadilar. Keynschilarning fiskal siyosat bo'yicha ko'plab tahliliy ishlari IS egri chizig'ida ro'y beruvchi o'zgarishlarni ko'rsatadilar, monetaristlar esa asosiy e'tiborni aktivlar zaxirasining uzoq muddatli samarasiga qaratadilar.

Xo'jalik tizimida pul impulslarini «uzatish» mexanizmi haqidagi masala doimo monetaristik doktrinaning zaif nuqtasi bo'lib kelgan. Xo'jalikdagi asosiy o'zaro aloqalar haqidagi tasavvurni aniq ifodalovchi va pul zaxirasi o'zgarishining qay tarzda daromad, bandlik va narx tebranishlariga aylanishini tushuntirib beruvchi kapitalistik iqtisodiyotning ochiq struktura modeli uzoq vaqt bo'lmagan. Shu sababli Fridman va Shvarts o'zlarining sikllar haqidagi maqolalarida pul massasining o'zgarishi va boshqa agregatli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar — YAMM, iste'mol xarajatlari, tovar narxleri va hokazolarning o'zgarish sur'ati o'rtasidagi korrelatsion bog'liqlik g'oyasini rivojlantirdilar. Bunday korrelatsiyaning mavjudligi mualliflar tomonidan puldan iqtisodiy faollik holati tomon boruvchi sabab aloqasi sifatida talqin etilgan. Asosiy maqsad — xo'jalik konyunkturasi siklik tebranishlarida pulning hal qiluvchi rol o'ynashi haqidagi g'oyaning asoslanganligini ko'rsatishdir.

Albatta, pul sohasidagi jarayonlar inqirozlarning bo'lib o'tish o'tkirligiga ta'sir ko'rsatishini rad etish qiyin. Biroq inqirozning borishi o'tkirlashuvidan uning asosiy sababigacha katta masofa yotibdi. Monetaristlar iqtisodiy siklning paydo bo'lish va rivojlanishiga doir murakkab jarayonlarni detalli tadqiq etishga moyil emaslar. Ular e'tiborni haqiqatni aniqlash uchun eng qisqa yo'lni ko'radigan oddiy korrelatsion aloqalarga qaratadilar. Masalan, 1929—1933-yillarda iqtisodiy inqiroz davomida pul massasining keskin (uchdan bir qismga) qisqarishini monetaristlar inqiroz sababchisi bo'lgan Federal zaxira tizimi (FZT) xatolari bilan izohlaydilar. Bunda ushbu inqiroz bundan oldingi davrda to'planib qolgan real qarama-qarshiliklarni — sanoat kapitalining haddan ortiq to'planib qolishi, kredit tizimining «shishib» ketishi, fond birjasida chayqov «bum»i va hokazolarni kuch bilan hal qilishning shakllaridan birini ifodalashi hisobga olinmaydi. Shuningdek, AQSHdagi inqiroz kapitalistik dunyoning barcha mamlakatlarini qamrab olgan butunjahon iqtisodiy inqirozining uzviy bir qismi ekanligi ham hisobga olinmagan.

Real ishbilarmonlik sikllari nazariyasiga muvofiq konyunktura tebranishlari ishlab chiqarish sohasida xomashyo va energiya vositalarining yetishmasligi, mehnat mahsuldorligidagi o'zgarishlar, ishlab chiqarish texnologiyasidagi sifat o'zgarishlari va hokazolar bilan bog'liq oldindan aytib bo'lmaydigan qoidabuzarliklar tufayli vujudga keladi. Pul massasi va YAMM o'rtasidagi kovariatsiyaga keladigan bo'lsak, ular tovar muomalasi va real ishlab chiqarish hajmidagi tebranishlar tufayli pulga talabning o'zgarishi asosda paydo bo'ladi.

Asosiy g'oya shundaki, pul massasidagi o'zgarishlar xo'jalik subyektlari tasarrufida bo'lgan aktivlar portfeli umumiy strukturasi va mos ravishda, bu aktivlarning nisbiy daromadlilikiga ta'sir ko'rsatadi. Tahlil «nominal» va «real» (doimiy maqsadda) iqtisodiy ko'rsatkichlarni farqlashdan boshlanadi. Asosiy e'tibor xo'jalik agentlarining bozor narxlari o'zgarishiga reaksiyasiga qaratiladi. Narx tebranishlari pul birliklarining xarid kuchiga emas, balki nominal soniga yo'naltirilgan kassa qoldiqlari talabiga taalluqli bo'ladi. Miqdoriy nazariyaga muvofiq pul emissiyasi avtomatik ravishda narx darajasini va unga mos ravishda pulning real xarid kuchini o'zgartiradi. Bozor munosabatlari subyektlari bunga pulni jamg'arish yoki aksincha moliyaviy aktivlar yoki tovarlarni xarid qilish uchun zo'r berib sarflash bilan javob beradilar. Bularning barchasi pirovardida joriy narxlarda nominal daromad hajmida o'z aksini topadi.

Fridman neoklassiklar, xususan, A. Marshallning bozor nomutanosibliklari vujudga kelganda narx xo'jalikni korrektirovka qilishni ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi degan g'oyasini qabul qilgan. Boshqacha aytganda, talab va taklif o'rtasida nomutanosiblik vujudga kelganda vaziyatni to'g'irlash yukining barcha og'irligi monetaristik modelda narx tizimining zimmasida bo'ladi.

Keyns modelida esa narxning «muzlatilganligi» sababli bu mexanizm ko'p jihatdan blokirovka qilingan yoki umuman o'chirib qo'yilgan bo'ladi, shunday ekan bozor balansini korrektirovkalash asosan narx darajasi emas, balki mahsulot chiqarishni o'zgartirish hisobiga amalga oshiriladi.

To'lov balansining monetar modellarida pul massasi tahliliy jihatdan ikki tarkibiy qismga ajratiladi:

a) **ichki** — bank krediti jarayonida vujudga keladigan va pul bazasining ichki tarkibiy qismi- naqd pul va markaziy bankdagi zaxira depozitlariga tayanadigan depozit emissiyasi;

b) **tashqi** — mamlakatning markazlashgan oltin-valuta zaxiralari o'zgarishi bilan bog'liq emissiya.

Agar pul massasini –  $M^S$ , ichki depozit emissiyasini –  $D$  va valuta zaxiralari bilan ta'minlangan emissiyani –  $R$  belgilasak, unda:

$$M^S = D + R, \quad \text{yoki} \quad R = M^S - D. \quad (1)$$

Ko'rsatilgan nisbatni o'sish sur'atida aks ettirish mumkin:

$$\frac{dR}{dt} = \frac{dM^S}{dt} - \frac{dD}{dt}. \quad (2)$$

$dR/dt$  – pul zaxirasining o'zgarish sur'ati va ichki kredit emissiyasi sur'ati o'rtasidagi farqqa teng bo'lgan to'lov balansining saldosi ekanligi sababli monetaristlarning fikricha to'lov balansi pul bilan bog'liq holatni ifodalashi yaqqol ko'zga tashlanib qoladi.

Monetaristlarning to'lov balansi haqidagi markaziy tezisi – pul muomalasi jarayonlarining tashqi iqtisodiy operatsiyalar yakuniy saldosi bilan aloqasi haqidagi qoidadir. Pozitsiyaning mohiyati shundaki, pul bozoridan to'lov balansiga boradigan impulslar asosiy sifatida ko'rib chiqiladi. Ochiq iqtisodiyotda pul bozori muvozanatining ta'minlaydigan mexanizm yangi jihatlariga ega bo'ladi.

Monetaristik adabiyotlarda «kichik» va «katta» mamlakat modellari foydalaniladi. Valuta kursleri qat'iy belgilab qo'yilgan hollarda kichik mamlakat iqtisodiy mustaqilligini yo'qotadi. U na o'zining pul massasini, na narxni va na foiz stavkalarini nazorat qila olmay qoladi. Agar (1) tenglamaga murojaat qilib,  $M^S$  pulga talabni  $M^d$  pul taklifiga almashtirsak – muvozanat sharoitlarida bu ko'rsatkichlar teng, unda:

$$R = M^d - D. \quad (3)$$

Bunda mamlakat oltin-valuta zaxiralari summasi  $R$  bilan pulga talab va ichki kredit emissiyasi (pul taklifi) mos kelmaslik darajasi o'rtasidagi asosiy funksional bog'liqlik aks ettirilgan. Agar, aytaylik, pul massasining ichki tarkibiy qismi  $D$  talabni qondirish uchun yetarli bo'lmasa yoki aksincha undan katta bo'lsa, pul sohasini muvozanatga keltiradigan va shu bilan bir paytda to'lov balansini to'g'irlaydigan tashqi kanal ishga tushadi.

Xususan, ichki aylanmada pul yetishmagan holatlarda mamlakat rezidentlari tashqi bozorda tovar va qimmatli qog'ozlarni sotishni kengaytiradilar. To'lov balansi yaxshilanib, mamlakatning valuta zaxiralari o'sadi. Mos ravishda pul massasining tashqi tarkibiy qismi va butun pul massasi o'sadi. Pul bozoridagi disproportsiyani yo'q qilish bilan bir paytda to'lov balansi ham muvozanatga keladi. Teskari

vaziyatda, agar ichki kredit emissiyasi kassa qoldiqlariga talabdan ortiq bo'lsa, rezidentlar bunga tovar va qimmatli qog'ozlarni xorijdan xarid qilish bilan javob beradilar. To'lov balansi yaxshilanadi, valuta zaxiralari qisqaradi. Natijada pul massasi tashqi komponent hisobiga qisqaradi va bu to'lov balansini tenglashtirishga xizmat qiladi.

Bunday mexanizm ishining muhim sharti qat'iy belgilangan kurslar tizimining mavjudligi bo'lib, bunda tashqi sohadagi disproportsiyalarni to'g'irlash valuta kursining o'zgarishi hisobiga emas, balki valuta zaxiralarni bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazish hisobiga ro'y beradi. Bunday vaziyatning oqibatlaridan biri pul muomalasi ustidan nazoratni yo'qotish va mamlakatning narx o'sishi sur'atini cheklay olmasligi bo'ladi. Pul hukumatlari harakat erkinligiga ega bo'lishi uchun model shartlariga ko'ra yoki «kichik mamlakat» shartlaridan voz kechish, yoki o'zgaruvchan kurslar tizimiga o'tish zarur.

Dunyo ishlab chiqarishining katta qismi to'g'ri keluvchi zaxira valutasiga ega «yirik mamlakat» modelida iqtisodiyot jahon konyunkturasi kaprizlaridan himoyalangan bo'ladi. Brettonvud bitimlarini bekor qilgunga qadar AQSH bunday mamlakat roliga davogarlik qilishi mumkin edi. AQSH dollari kapitalistik dunyo mamlakatlari uchun zaxira valutasini funksiyasini bajarishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli AQSH ko'p yillar davomida o'z oltin zaxirasini to'liq tugatmasdan, chet el oldida qarzlarni to'plab, to'lov balansi defitsitini qoplab keldi. FZT pul massasini tartibga solish qobiliyatini saqlaydi va mos ravishda ichki monetarizm qonunlari amalga kiradi. Hamkor mamlakatlarning harakatlar erkinligi esa to'liq to'xtab qoladi. O'z valutasining dollarga nisbatan kursini qo'llab-quvvatlashga majbur bo'lgan holda ular AQSH ortidan ergashib, uning ichki emissiyasidagi barcha tebranishlarga javob qaytarganlar.

Butunjahon inflatsiyasi nazariyasi «**xalqaro monetarizm**» yo'nalishi hisoblanadi. Ayniqsa, unga globalchilar katta e'tibor qaratadilar, ular pul muvozanatini dunyo tizimida ko'rib chiqadilar.

Jahon inflatsiyasining pul tabiati haqidagi g'oyalar R. Mandell, A. Laffer, A. Svobodaning ishlarida rivoj topdi. Bulardan keyingisi jahon inflatsiya nazariyasining quyidagi asosiy qoidalarini ifodaladi:

1) dunyo narx darajasini dunyo pul zaxiralari belgilab beradi;

2) dunyo pul zaxiralarning mamlakatlar o'rtasida taqsimlanishi mamlakatlarning «samarali hajmi»ga bog'liq bo'ladi (*ky* ifodasi bilan belgilanadi, bunda *y* — mamlakat YAMM darajasi, *k* — daromadlar aylanmasiga pul muomalasi tezligiga teskari ko'rsatkich).

3) pul zaxirasining o'sishi dunyo narx darajasiga ko'rsatuvchi ta'sir pullarning milliy kelib chiqishiga bog'liq emas.

Model milliy pullarni yagona dunyo «pul»iga summalash tamoyillari va «umumiy narx qonuni» asoslanuvchi dunyo narxlarining mukammal elastikligiga asoslanadi. U turli mamlakatlar narx darajasi dinamikasida bir xillikni namoyish etishi ko'zda tutilgan. Jahon bozorlari yuqori integratsiyalangan ekanligi sababli yaqin substitutlar bo'lgan barcha tovarlar va aktivlar bozorlarida bitta narx ustunlik qilishi lozim. Biroq bunday bir-birini almashtirish faqat ayrim o'xshash xomashyo tovarlari bozorlarida kuzatiladi. U boshqa bozorlarda, ayniqsa, yuqori texnologiyali tovarlar, moliyaviy aktivlar va qimmatli qog'ozlar bozorida kuzatilmaydi.

«Xalqaro monetarizm»ning asosiy zaifligi ayrim qoida va asoslarning omonatligida emas, balki pul tashqi iqtisodiy o'zgarishlarni belgilab beruvchi omil degan asosiy tezisdadir. To'lov balansi taqchilligi yoki musbat saldosu bu – pul bozorini to'g'irlash bosqichi emas, balki turli mamlakatlar iqtisodiy munosabatlarida siklik yoki struktura muvozanatsizligi ko'rsatkichi hisoblanadi.

### 8.3. Pul qoidasi va pul-kredit siyosati

Keynschilar va monetaristlar o'rtasidagi asosiy farq shundaki, ular davlatning xo'jalik hayotidagi rolini turlicha ko'radilar. Keynschilar iqtisodiyot raqobatli kuchlar stixiyali harakati bilan bartaraf qilinishi mumkin bo'lgan stagnatsiyaga surunkali tendensiyaga egaligidan kelib chiqadilar. Shuning uchun iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun faol hukumat siyosati talab qilinadi.

Monetaristlar zamonaviy davlat o'z zimmasiga olayotgan iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarga keskin salbiy munosabat bildiradilar. Ular uchun bu iqtisodiy beqarorlikning asosiy sababidir. Ular ayniqsa, daromadni tenglashtirish va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi katta farqni yo'qotishga intiluvchi «umum farovonlik davlati» (welfare state) g'oyasini qabul qila olmaydilar. Monetaristlar «kollektivizm» tendensiyasini rad etib, raqobatli, monopoliyagacha kapitalizm yutuqlarining ifodasi sifatida «bozor vositasida individuumlarning ko'ngilli kooperatsiyasi»ni unga qarshi qo'yadilar. Fridmanning ta'kidlashicha, aynan shunday tizim jamiyatning har bir a'zosiga «shaxsiy erkinlik»ni kafolatlaydi.

Monetaristlar va keynschilar o'rtasida davlatning xo'jalik hayotidagi roli masalasi bo'yicha fikrlar qarama-qarshiligi yakuniy hisobda hukumat organlari tomonidan konyunkturaga – pul-kredit siyosati va fiskal

siyosatga ta'sir etish uchun foydalaniladigan makroiqtisodiy nazoratning ikki asosiy vositasini bir-biriga qarshi qo'yishda namoyon bo'ladi. Markaziy bankning pul massasi hajmiga ta'siri bilan bog'liq birinchi siyosat turi monetaristlar tomonidan eng samarali va tovar-pul munosabatlari tizimiga organik kiradigan siyosat sifatida baholanadi. Soliq stavkalarini o'zgartirish va davlat qarzlarini boshqarish bilan ifodalanuvchi ikkinchi siyosat esa ular tomonidan hukumat apparatining o'zboshimchaligi bilan bog'lanadi va xo'jalik rivojlanishi uchun samaradorligi past sifatida baholanadi. Xo'jalik mexanizmining aniq sozlash mumkin emasligini Fridman monetar va fiskal tadbirlar samarasining namoyon bo'lishida uzoq va tebranuvchan vaqt farqining mavjudligi bilan asoslaydi. Hukumatning xo'jalik sohasidagi noqulay holatlarga (iflatsiya, pasayish, ishsizlik) doimiy qarshilik ko'rsatishga harakatlari xo'jaliklarning o'zini-o'zi korrektirovkalashini qiyinlashtirib, ularga yolg'on signallar beradi xolos. Shuning uchun rivojlanish barqarorligini ta'minlashning eng yaxshi yo'li – joriy konyunkturaga bog'liq bo'lmagan *«ko'r qoida»*dir. Biroq fiskal omillar diskreditatsiyasida eng muhim rolni monetaristlar ilgari surgan davlat xarajatlarini moliyalashtirish jarayonida xususiy investitsiyalarni siqib chiqarish samarasi o'ynaydi.

**Siqib chiqarish samarasi** qanday amal qiladi? Soliq stavkalarini oshirishda bevosita xarid kuchini aholidan olib qo'yish ro'y beradi. Agar bu mablag'lar qo'shimcha pul chiqarish yo'li bilan joylashtirilmasa, umumiy talab qisqaradi. Defitsitni qoplash uchun zayomlarni joylashtirishga keladigan bo'lsak, pul bozorida ssuda fondlari cheklangan sharoitlarda bu foiz me'yorining keskin o'sishiga olib keladi, bu esa yana xo'jalik faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Avvalo foizning o'sishi xususiy kompaniyalarni tashqi manbalardan moliyalashtirishni qiyinlashtiradi, chunki qimmatli qog'ozlar kurs qiymati foiz stavkalari balandligiga teskari nisbatda o'zgaradi. Boshqa salbiy holatlar ham vujudga keladi, masalan, mablag'larning davlat obligatsiyalari bozoriga kuchli oqimi iste'mol xarajatlarining qisqarishiga olib kelishi muqarrar. Faqat markaziy bank tomonidan kuchaytirilgan pul emissiyasigina kapital bozoriga davlat moliyalashtirishi ta'sirini neytrallashi va foiz darajasini pasaytirishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, «sof» fiskal siyosatning o'zi neytral. U yaratuvchi ikki qarama-qarshi samara bir-birini so'n-dirishi mumkin.

Keynschilar iqtisodiy siyosatda avvalo manevr qilish san'atini, davlat nazorati organlarining xo'jalik rivojlanishi bo'lajak tendensiyalarini oldindan to'g'ri aytib berish qobiliyatini ko'radilar. Davlat siyosatining



asosiy maqsadi mehnat resurslari bandlik darajasining yuqori bo'lishiga erishish va ishlab chiqarishning maksimal sur'atini ta'minlashdan iborat. Monetaristlar uchun birlamchi vazifa – narx barqarorligini, pul birligi barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Ishchi kuchi bozoridagi holat va chiqarilayotgan mahsulot hajmi ularning modellarida sutrukutura omillari harakati bilan belgilanadi va ularni iqtisodiy siyosat chora-tadbirlari bilan o'zgartirib bo'lmaydi. Shu sababli ular «aktivizm» va har qanday kuch bilan konyunkturaning davriy tebranishlarini bartaraf qilishga intilishga qarshi chiqadilar.

Bu umumiy qoidalardan turli tartibga soluvchi chora-tadbirlar sxemalari kelib chiqadi. Keynsning sxemalarida «*oraliq nishon*» (maqsad – intermediate target) bo'lib kapitalni investitsiyalash jarayonida katta rol o'ynaydigan foiz me'yori xizmat qiladi. Monetaristlar esa pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi pul massasi deb hisoblaydilar, bu ularning sxemalarida iqtisodiy faollik holatining kaliti hisoblanadi.

Monetaristlar evolutsiya jarayonida iqtisodiy tartibga solishning Keyns vazifalarini hal qilishga moslashtirilgan an'anaviy pul-kredit va bank institutlarini tubdan qayta qurish taklifi bilan chiqadilar. Xususan, ular markaziy bankning diskretsiya siyosatiga qarshi chiqib, iqtisodiy siyosatda avtomatizm va pul qoidasini qo'llashning asoslanganligi tarafdori bo'ladilar. M. Fridman, masalan, pulning o'sish sur'atini tanlashda yakuniy mahsulot narxining uzoq muddatli barqaror darajasiga yo'naltirish zarur deb hisoblaydi. U pul massasining yiliga o'rtacha 4% mexanik o'sish qoidasini kiritishni taklif qildi. Bu raqam 3%lik real mahsulot o'sishi va 1%lik pul muomalasi tezligining uzoq muddatli pasayishidan tarkib topadi. Bunda qoidaga qat'iy xarakter berilishi lozim: u konyunktura tebranishlarini hisobga olmasligi va o'sish ilgari tanlab olingan sur'atga muvofiq oyma-oy muntazam ro'y berishi kerak.

O'tgan asrning 1970-yillari o'rtalarida pul qoidasi biroz o'zgargan ko'rinishda va targetlangan pul massasi nomi ostida qator mamlakatlarda qo'llana boshladi. Bank zaxiralari va naqd pulning o'sish oriyentirlarini kiritish haqida ilk bora Bundesbank (Germaniya) e'lon qildi, 80-yillar boshiga kelib esa bu siyosatni boshqa ko'plab mamlakatlar qurol qilib oldilar. Italiya – yangi kreditar umumiy summasini kiritdi. 1975-yili  $M_1$  targetlash yo'liga Kanada ham o'tdi; uning ortidan Buyuk Britaniya (1976-y.) va Fransiya (1977-y.) ham keldi, ular pul massasining turli tor va keng ko'rsatkichlari uchun «nishon» o'rnatdilar. Targetlash siyosatiga shuningdek, Niderlandiya, Ispaniya va boshqa ayrim mamlakatlar ham qo'shildi.

1978-yildan boshlab to'liq bandlik va muvozanatli o'sish haqidagi qonunga (Xemfri-Xoukins qonuni) muvofiq AQSH FZT tijorat banklarining zaxira qoldiqlari bilan operatsiyalar bo'yicha foiz stavkasi va pul agregatlari uchun yaqin 12 oyga maqsadli oriyentirlar «ayri»sini muntazam ravishda chop eta boshladi. Shu bilan bir paytda hukumat tepasiga kelgan R. Reygan ma'muriyati biznesga soliqlarni kamaytirish, Ruzveltning «yangi kurs» vaqtlari davrida ta'sis qilingan eng muhim ijtimoiy dasturlarni to'xtatish siyosatini o'tkaza boshladi. 1979-yilning oxirida Angliyada hukumat tepasiga M. Tetcher boshchiligidagi konservatorlarning kelishi ham iqtisodiy strategiyadagi keskin o'zgarish bilan, xususan, birinchi o'ringa tovar narxlarini darajasini barqarorlashtirish vazifasini chiqarish bilan namoyon bo'ldi.

Tahlilning ko'rsatishicha, mamlakatlardan hech qaysi biri Fridmanning pul qoidasini sof holatda qo'llamagan. Manevr qilish erkinligini saqlab qolar ekan, iqtisodiy hukumatlar amalda targetlashni diskreksiya tamoyili bilan uyg'unlashtirgan. «Siqib chiqarish» siyosati inflatsiya bosimining pasayishiga olib keldi. Bu ayniqsa, Germaniya va Angliyaga taalluqli. Biroq bu siyosatning foiz stavkalarining o'sishi, ishlab chiqarishning rivojlanish sur'ati pasayishi, ishsizlikning o'sishi kabi salbiy oqibatlar ham aniqlandi. Monetaristik eksperiment yillarida (1979–1982-y.) AQSHda real mahsulot yo'qotish 450 mlrd. dollarga teng bo'ldi, bu amerika iqtisodiyoti o'zining potentsial imkoniyatlaridan past ishlaganligini anglatadi.

Markaziy bankning pulni qat'iy targetlash siyosatidan chekinishi monetaristik ta'limotning fiaskosi, uning muhim tavsiyalari xatoliklari sifatida qabul qilindi. Biroq monetaristlarning o'zlari buni umuman boshqacha talqin qildilar: monetaristik siyosatdan hech qanday chekinish bo'lmagan va FZT buni xayoliga ham keltirmagan deb hisoblaydi M. Fridman. Uch yil davomida monetaristik strategiyaning asosiy talabi – pulning barqaror o'sishi ta'minlanmadi. AQSH MB rahbariyati oppozitsiyasi shu bilan bog'lanadiki, byurokratiya apparati o'z imtiyozlarini va pul qoidasini avtomatik bajarishda yo'qotishi mumkin bo'lgan ahamiyatini saqlab qolishga intildi.

Muvaffaqiyatga erishmagan targetlash amaliyoti monetarizmga oqim sifatida putur yetkazdi va uning mag'lubiyati haqida gap-so'z tarqaldi. Pul massasi «endogen» xarakterining keynsdan keyingi nazariyasiga qiziqish tiklandi. Pul massasi nominal daromadning funksiyasi sifatida ko'rib chiqiladi, buning aksi emas. Endogen pul massasi nazariyasi miqdoriy nazariya bilan uch jihatdan farqlanadi:

1) kapitalistik iqtisodiyot to'liq bandlikni saqlagan holda uzoq muddatli muvozanatga tabiiy tendensiyaga ega degan tasavvurdan voz kechish;

2) daromad aylanmasida pul muomalasi tezligi barqaror va foiz me'yoriga bog'liq emas degan dalildan voz kechish;

3) miqdoriy nazariya tomonidan e'lon qilingan puldan nominal daromadga va umumiy narx darajasiga boruvchi sabab bog'liqligidan voz kechish.

Biroq monetaristik maktab «qurolni qo'ldan qo'yish»ni istamadi. Ko'p yillar davomida u pul tizimini tubdan sog'lomlashtirish, davlatni emissiya mexanizmiga erkin dostup imkoniyatidan mahrum qiluvchi islohotlar o'tkazish takliflari bilan chiqmoqda. Monetaristlar «sog'lom» pul tizimi faoliyat ko'rsatishining bazis qoidalari kelishib olingan yangi «pul konstitutsiyasi» qabul qilishni talab qiladilar. Islohotlardan asosiy maqsad – hukumat byurokrtiyasini pul muomalasi ustidan hokimlik qilishdan mahrum etishdir. Davlat-monopolistik tartibga solish miqyosini ulkan hajmda kengaytirish sharoitlarida bu mavzu o'ta dolzarb bo'lib, monetaristlarning uzoq yillar «cho'kib ketmasligi» va o'ziga keng jamoatchilik e'tiborini jalb qilishga imkon beradi.

Monetaristik maktabning istiqbollari haqida gapirganda bu oqim vakillarining pul dinamikasi jarayonlarini, pulga talabning shakllanish qonuniyatlari, pulning aylanish tezligi, pul omillarining xo'jalik subyektlari xulq-atvorining ta'siri va hokazolarni tadqiq etishga qo'shgan hissasini e'tiborga olmaslik mumkin emas. Demak, monetaristik ta'limotsiz pul va kredit, pul muomalasi, inflatsiya, pul bashorati usullari kabi makroiqtisodiy muammolarni hal qilish qiyin.

## XULOSA

1. Klassik yondashuv kapitalizm qa'rida barcha resurslardan to'liq foydalanishda xo'jalikning muvozanat holatiga keltiruvchi kuch yotadi degan tushuncha mavjud. Keyns modeli esa kapitalistik xo'jalikning uzoq muddat o'zini-o'zi tartibga solish ichki mexanizmlarining harakatsizligi va iqtisodiy stagnatsiya holatida «исходит» bo'lish imkoniyatlaridan kelib chiqadi.
2. Pul massasining milliy daromadga ta'siri masalalari bo'yicha monetaristik qarashlarga asos bo'lib, portfelli modellar yoki «aktivlarni afzal ko'rish» konsepsiyasi xizmat qiladi. Portfelli aktivlar pullar, hukmat obligatsiyalari va kapitalni qamrab oladi. Har bir aktivlar turi daromad keltiradi.
3. Monetaristlar pul massasining o'zgarishi va boshqa agregatli makroiqtisodiy

tisodiy ko'rsatkichlar – YAMM, iste'mol xarajatlari, tovar narxlari va hokazolarning o'zgarish sur'ati o'rtasidagi korrelatsion bog'liqlikni kuzatadilar. Bunday korrelatsiyaning mavjudligi mualliflar tomonidan puldan iqtisodiy faollik holati tomon boruvchi sabab aloqasi sifatida talqin etilgan. Pul impulslarini uzatish mexanizmlariga quyidagilar kiradi: narx tizimi, inflatsiya, ishsizlik, valuta kursi va to'lov balansi.

4. Monetaristlar va keynschilar o'rtasida davlatning xo'jalik hayotidagi roli masalasi bo'yicha fikrlar qarama-qarshiligi yakuniy hisobda hukumat organlari tomonidan konyunkturaga – pul-kredit siyosati va fiskal siyosatga ta'sir etish uchun foydalaniladigan makroiqtisodiy nazoratning ikki asosiy vositasini bir-biriga qarshi qo'yishda namoyon bo'ladi. Markaziy bankning pul massasi hajmiga ta'siri bilan bog'liq birinchi siyosat turi monetaristlar tomonidan eng samarali va tovar-pul munosabatlari tizimiga organik kiradigan siyosat sifatida baholanadi.
5. Soliq stavkalarini o'zgartirish va davlat qarzlarini boshqarish bilan ifodalanuvchi ikkinchi siyosat esa ular tomonidan hukumat apparatining o'zboshimchaligi bilan bog'lanadi va xo'jalik rivojlanishi uchun samaradorligi past sifatida baholanadi. Shu sababli iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun hukumatning faol siyosati talab qilinadi. Bu siyosat soliq stavkalarini o'zgartirish va davlat qarzlarini boshqarishdan iborat.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

*Pulni «siqib chiqarish» samarasi, «ko'rinmas qo'l» (A. Smit), L. Valras modeli, klassik dixotomiya tamoyillari, Sey ayniyati, portfelli aktivlar, monetaristik doktrina, Federal zaxira tizimi (FZT), an'anaviy miqdoriy nazariya, Fillips egri chizig'i.*

### **Nazorat uchun savollar**

1. Monetaristlar makroiqtisodiy siyosatning qanday turini himoya qildilar?
2. Valras modelining **klassik dixotomiya** tamoyillarini tushuntirib bering.
3. Valras qonuni va Sey ayniyati o'rtasida qanday farq bor?
4. **Portfelli aktivlar** o'z ichiga nimalarni qamrab oladi va aktivlar portfelini qanday ifodalash mumkin?
5. Aktivlar portfelida pul zaxirasining o'sishi ro'y bersa, bu qanday samaraga olib keladi?
6. Qanday masala doimo monetaristik doktrinaning zaif nuqtasi bo'lib kelgan?
7. Fillips egri chizig'ining monetaristik variantini tushuntirib bering.
8. To'lov balansining monetar modellarida pul massasi tahliliy jihatdan qanday tarkibiy qismlarga ajratiladi?
9. Siqib chiqarish samarasining potensial kanallarini aytib bering.
10. Siqib chiqarish samarasi qanday amal qiladi?

## **9-bob. O‘ZBEKISTONNING BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISH DAVRIDA MILLIY VALUTA – SO‘MNI BARQARORLASHTIRISH YO‘LLARI**

---

### **9.1. Pul-kredit islohotlari, ularning maqsadi, vazifalari va usullari**

Makroiqtisodiy siyosatning zarur yo‘nalishlaridan biri pul (monetar) siyosati hisoblanadi. U o‘zida pul-kredit tizimi faoliyatini reglamentatsiyasi bo‘yicha davlat chora-tadbirlari yig‘indisini, pul muomalasi va kredit holatiga ta‘sirini, ssuda kapitallari bozorini naqd bo‘lmagan hisoblar tartibi va boshqalarni xo‘jalik konyunkturasi boshqarish va qator umumiyqtisodiy maqsadlar – pul birligini mustahkamlash, narxni barqarorlashtirish, iqtisodiyotni tuzilmali qayta qurish, iqtisodiy o‘shish sur‘atlarni barqarorlashtirish va boshqa maqsadlarda mujassamlashtiradi.

Pul islohotlari – davlat tomonidan pul tizimini mustahkamlash va tartibga solish maqsadlariga ega bo‘lgan pul muomalasi doirasida o‘zgarishlarning amalga oshirilishidir.

Pul islohotlari so‘zi keng ma‘noda bir pul birligidan ikkinchisiga o‘tishni, tor ma‘noda esa pul tizimini qisman o‘zgarishini anglatadi. Pul islohotlari siyosiy tizim, mamlakat iqtisodiyotining holati, tarixiy sharoitlar va boshqalarga bog‘liq holda turli usullar yordamida amalga oshiriladi. Ular emission qonunchilik o‘zgarishi yo‘li orqali barcha yoki qisman qadrsizlangan pul ko‘rsatkichlarini muomaladan chiqarish va ularning o‘rniga yangi pullarni chiqarish, pulning oltin qiymati yoki uning valuta kursining o‘zgarishi, pul tizimini qayta qurish bilan yonma-yon kechadi.

Pul muomalasi tarixida pul islohotining quyidagi ko‘rinishlari mashhur:

1) bir pul tizimidan ikkinchisiga yoki bir pul tovaridan ikkinchisiga o‘tish;

2) to‘la qiymatga ega bo‘lmagan va qadrsizlangan tangalarni qiymatga to‘la egalari yoki maydalab bo‘lmaydigan belgilarni maydalab bo‘ladiganiga almashtirish;

3) pul emissiyasi tizimida o‘zgarishlar yasash;

4) valutani barqarorlashtirish va pul muomalasini tartibga solish bo‘yicha tadbirlar ko‘rish;

5) davlat qayta qurishi bilan bog‘liq holda yangi pul tizimini joriy qilish.

Pul islohotlarining *birinchi ko‘rinishiga* misol qilib bir metallardan (kam qiymatli) boshqasiga (qiymatlirog‘iga) o‘tishni keltirish mumkin. Masalan, miss pullardan kumushga, kumushdan oltinga yoki bimetallizmdan monometalizmga va undan oltin quymalari va oltindevizli pul standartiga o‘tish. Dastlab oltin tangali standart XIX asr boshlarida Buyuk Britaniyada joriy qilingan va shu asrning ikkinchi yarmida Yevropa va Osiyoning boshqa mamlakatlariga ham tarqaldi. Rossiyada oltin monopolizmi 1895–97-yillardagi pul islohotlari natijasida kirib keldi va kapitalizm rivojlanishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Pul islohotlarining ikkinchi ko‘rinishiga misol qilib, 1695-yilda Buyuk Britaniyada qabul qilingan o‘z dastlabki qiymatini yo‘qotgan eski tangalarning yangisini chiqarish uchun topshirish haqidagi qonunni keltirish mumkin. Buyuk Britaniyada kapitalizmni rivojlantirish barqaror, to‘la qiymatga ega bo‘lgan pullarni talab qilar edi.

*Uchinchi ko‘rinishdagi* pul islohotlariga 1913-yilda AQSHdagi pul emissiyasi tartibining o‘zgarishini misol qilib keltirish mumkin. O‘sha paytda banknot chiqarish huquqini 12 federal zaxira banklari olgan edilar.

Pul muomalasini barqarorlashtirish va qisman tartibga solish *to‘rtinchi ko‘rinishni* aks ettiradi. U turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin: *deflyatsiya* – ortiqcha qog‘oz pullarni muomaladan chiqarish yo‘li bilan pul massasini kamaytirish; *nullifikatsiya* – eski pul belgilarini bekor qilish va kam miqdorda yangilarini chiqarish; *dinominatsiya* – pul belgilari ustiga yozilgan qiymati ularning aniq munosabati bo‘yicha yangisiga, yanada yirikroq pul birligiga narx, ta‘rif, ish haqi va boshqalar bir vaqtdagi hisobi bilan (xuddi shunday munosabatda) almashtirib o‘zgartirish; *devalvatsiya* – pul birligining metall mazmunini kamaytirish yoki metallga yoki xorij valutasiga munosabat bo‘yicha qog‘oz pullar kursining pasayishi; *revalvatsiya (revalorizatsiya)* – pul birligi metall qiymatining oshishi yoki metallga yoki xorij valutasiga munosabat bo‘yicha qog‘oz pullar kursining oshishi. Bu barcha uslublar pul muomalasi tarixida keng qo‘llanilgan.

Nihoyat, pul islohotlarining beshinchi ko‘rinishi yangi pul tizimi o‘rnatishga olib boradi, siyosiy mustaqillikka ega bo‘lgan u yoki bu davlatning tiklanishi yoki parchalanishi davrida amalga oshiriladi. Misol tariqasida MDH mamlakatlari, jumladan O‘zbekistonda milliy valutaning kiritilishini keltirish mumkin.

1914–1918-yillardagi jahon urushi ko‘pgina kapitalistik mamlakatlarda oltin standartining yemirilishiga olib keldi. Urushayotgan mamlakatlarda

katlarda qog'oz pullarning yirik miqdorda chiqarilishi jahon miqyosida qabul qilingan keskin inflatsiyaning tarqalishiga olib keldi. Urushdan keyingi yillarda ko'pgina mamlakatlarda pul islohotlari o'tkazildi. Germaniyada 1924-yilda nullifikatsiya uslubi yordamida pul islohoti amalga oshirildi: 1 trillion eski markalar 1 ta yangi markaga almashtirildi. Sobiq SSSRdagi pul-kredit islohotlari natijasida 1924-yilda almashtiruv kursi paritetiga muvofiq ravishda 50 mlrd. eski rubllar 1 yangi rublga teng bo'ldi. Shu bilan bir vaqtda 0,774234 g. oltin mazmunidagi 10 rublga teng bank chervoni — revolyutsiyaga qadar rus rubli kabi chiqarila boshladi. Dollar kursi muvofiq ravishda rublga 1,9431 ni tashkil qildi.

Ikkinchi jahon urushi davrida 1939—1945-yillarda inflatsiya barcha kapitalistik mamlakatlarni qamrab oldi. Urushning oxiri va urushdan keyingi yillarda o'tkazilgan pul islohotlari natijasida ham pul muomalasi barqarorligini ta'minlash imkoniyati bo'lmadi. Bunday sharoitlarda islohotlar faqatgina qadrsizlangan pullarni yangilariga almashtirish, valuta kursini pasaytirish uchun olib borildi.

1971-yil avgustda almashtirish talablarining ommaviy ko'payishi natijasida AQSH dollarni oltinga almashtirishni ta'qiqladi. 1978-yil aprelda XVF qonuniy ravishda kapitalistik valuta tizimida oltindan pul metali sifatida foydalanishni bekor qilishni rasmiylashtirdi va fondga a'zo mamlakatlari barcha pul birliklarining oltin tarkibini qayd etishni to'xtatdi.

Sobiq SSSR da oltin tangalarning erkin muomalasi faqatgina 1922—1923-yillardagi pul islohotlaridan keyingina sezila boshlandi. Qat'iy, ta'minlangan oltin va tovar qoplamalari, chervonlar pul tizimi barqarorlashuvi bilan muvofiqlasha boshladi. Ta'kidlash kerakki, yosh davlat islohotlarni xorijiy zayomlarga murojaat qilmasdan olib bordi. Shu bilan bir qatorda 1924-yilda 762,3 *kvadrilno* hech nima bilan ta'minlanmagan g'azna biletleri — *sovbelgilar* muomalada bo'ldi. Natijada rublning xarid kuchi xo'jalik yuritishning rejali shakli bilan qo'llab-quvvatlandi va tovar qoplamasi hamda oltin valutasi zaxiralari bilan ta'minlandi, buning ustiga birinchilikka ega bo'ldi. Oltin, avvalo, jahon puli rolini bajardi va undan jahon bozorida xarid vositasi sifatida foydalanildi.

Bundan tashqari, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida boshqaruvning noiqtisodiy uslublariga ega bo'lish pul muomalasini qayta qurishga olib keldi: pul uning real ehtiyojiga nisbatan ko'p chiqarila boshladi. 15 yil davomida (1970—1985-y) muomaladagi pullar miqdori 3 martaga oshdi, tovar massasi esa faqatgina 2 marta oshdi bu esa inflatsiyaga va rublning qadrlanishiga olib keldi. Bu negativ tendensiya qayta qurish davrida, xususan, qayta qurishdan keyingi yillarda yanada

kuchaydi va fojeali holatni yuzaga keltirdi. Agar 1991-yilning o'rtalari-gacha pul emissiyasi qandaydir miqdorda saqlanib qolgan bo'lsa, undan keyin bosma stanogi tezda aylanmalarni yig'a boshladi. 1991-yilning oxiriga kelib muomaladagi pul massasi 220 mlrd. rublga yetdi va 1992-yilda yanada tez oshib bordi: yanvarda emissiya 20 mlrd. rublni, martda 40 mlrd. rublni, aprelda 60, iyunda 80, iyulda 170 mlrd. rublni tashkil qildi. Umuman olganda, 1992-yilda emissiya 1 trln. rubl atrofida baholandi. 1992-yil oxiriga kelib, 1991-yildagi rubldan 14 kopeykagina qoldi. 1993-yilda Rossiyaning pul massasi shiddatli tarzda oshdi, faqatgina 9 oy davomida 4,5 marta, narxlar esa 8 martaga oshdi va giperinflatsiyaga olib keldi. Inflatsiya 1992-yilda 2500 %ni, 1993-yilning 9 oyi davomida – 800%dan ortiqni tashkil qildi. Bu urush davridagi giperinflatsiyadan tubdan farq qiladi, bu inflatsiya sun'iy tarzda yuzaga kelgan bo'lib u barcha MDH mamlakatlari, jumladan O'zbekiston uchun ham meros bo'lib qolgan.

## 9.2. Milliy valuta va uni barqarorlashtirish muammolari

**Milliy valutani kiritish.** O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar strategiyasida milliy valuta yuritilishi va muomalasi muammolarini hal qilishga jiddiy ahamiyat berilmoqda. «Milliy valuta, deydi, I. Karimov, bu milliy g'urur, davlat mustaqilligi ramzi, davlat suveren davlat atributidir» (O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: «O'zbekiston» 1995, 199-bet.). Bu hodisaga respublika uzoq va jiddiy tayyorlandi. Shuning uchun ham davlat rahbariyati rubl zonasidan jadal chiqish masalasini o'rtaga tashlamadi. Faqatgina 1994-yilda vaziyat shu tarzda o'zgardiki, shunday qaror qabul qilishga undadi:

1. Sobiq sovet tarzidagi pulning tez qadrsizlanishi qo'shni davlatlar tomonidan milliy iste'mol bozoriga kuchli ta'sir o'tkaza boshladi, iqtisodiy islohotlarning qiyin ilk bosqichlarida respublika aholisini ijtimoiy himoyalash tizimini kuchsizlantirdi. Kupon tizimini kiritishga majbur bo'lindi.

2. Tezda qadrsizlanishi ehtimoli bo'lgan yangi rus rublini sotib olish, unga oltin valutasini zaxiralarini sarflash mumkin emasdi. Bunday sharoitda milliy valutaga o'tish zarurati yuzaga keldi.

1994-yil 1-yanvardan pul muomalasi o'tish valutasini – vaqtinchalik to'lov vositasi – so'm-kuponlarga asoslandi, iyuldan esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining muomalaga milliy valuta so'mni kiritish



haqidagi farmoni chiqdi. Bunda so‘m-kuponlar 1994-yil 1-avgustgacha muomalada bo‘ldi va har qanday cheklovlarisiz 1000:1 ga muvofiq ravishda yangi so‘mga almashtirildi. So‘m-kuponlar muomala uchun zarur bo‘lgan pul massasini aniqlash, shuningdek, hududiy tarzda, milliy valutaga o‘tish mexanizmni ishlab chiqishga yordam berdi. So‘m O‘zbekistonning barcha hududlarida qonuniy to‘lov vositasi bo‘lgan yagona valutaga aylandi.

So‘m naqd pul muomalasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki banknotasi ko‘rinishida 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so‘m va 1, 3, 5, 10, 25, 50 tiyin metall tangalar qiymatida chiqarila boshladi. 1996-yilga kelib inflatsion jarayonlar tufayli amaliyotda muomalada faqatgina 50 va 100 so‘mliklar qoldi. Bundan tashqari, 1997-yilda 200 so‘mlik, 1999-yilda 500 so‘mlik, 2001-yilda 1000 so‘mlik kupyuralar chiqarildi.

Bundan tashqari, zamonaviy pullar pul metali bilan bog‘liq emas ekan, so‘mda oltin tarkibi o‘rnatilmagan va milliy valutaning xorijiy pul birliklariga bo‘lgan rasmiy kursi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki (O‘zR MB) tomonidan aniqlanadi va har haftada ommaviy bosmalarda chop etiladi. Banknot va tangalar O‘zR MB tomonidan tasdiqlanadi.

Milliy valutaning muomalaga kiritilishi bilan shaxsiy, mustaqil, moliyaviy va pul-kredit, umuman olganda, barcha iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning real mexanizmi yuzaga keldi va u iqtisodiyotni barqarorlashtirish, korxonalar va tarmoqlarning moliyaviy holatini musmamlash, aholini ijtimoiy himoyalashning va respublika iste‘mol bozorining muhim omiliga aylandi. Shuning uchun ham 1994-yildagi pul islohotlarini ijobiy natija bergan holat sifatida baholash mumkin. Bundan tashqari, u inflatsion jarayonlar yuzaga kelishga xizmat qilishi mumkin emas, chunki, uning asosiy sabablariga daxldor emas.

O‘zbekiston Respublikasida inqirozning yuzaga kelishi xususiyatlari ishlab chiqarishning o‘zida inqiroz moliyaviy inqiroz qo‘yish va ularni butun iqtisodiy tizim inqiroz bilan qo‘shishdir, bu esa rejali markaziy tizimdan bozor tizimiga o‘tishning zaruriy shartidir. Bularning barchasi makroiqtisodiy destabilizatsiyaning uzoq, murakkab xarakterini oldindan aniqlab beradi. Shulardan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy siyosati o‘rnatiladi.

O‘zbekiston rahbariyati qat‘iy monitar siyosat olib borish masalasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘yishi mumkin emasdi va unday qilmadi ham, buning sababi birinchidan, avvalo uning yuritilishi uchun bozor instrumentlari yaratilmagan edi, ikkinchidan, bu qo‘shimcha ijtimoiy sarflar («shoklar») ga olib kelishi mumkin edi, uchinchidan, ochiq inflatsiyaning bo‘g‘iq

inflatsiyaga aylanishiga sabab bo'lardi. Shuning uchun ham ishlab chiqilgan barqaror dastur chuqur tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, ishlab chiqarish doirasida krizis holatidan chiqish, iqtisodiyotda yaxlit moliyaviy sog'lomlikga erishish zarurlarini hisobga olgan holda barqarorlashgan, egiluvchan monitar siyosatni yuritishni nazarda tutdi. Shuning uchun talab qat'iy qamrovining salbiy oqibatlaridan – to'lovsizlik krizisi, inflatsion faoliyatning qotib qolishi, qisqa muddatda ishlab chiqarishning juda tushib ketishi, ishsizlikning o'sishi, aholi real ehtiyojining pasayishi, ijtimoiy va siyosiy beqarorliklardan chiqib ketishga erishildi.

**So'mni mustahkamlash muammolari.** Faqat pul almashtirish bilan cheklangan islohotlar inflatsion jarayonlarni bartaraf etish uchun shart-sharoit yarata olmaydi. Shuning uchun ham ular 90-yillar davomida yanada o'sib bordi: agar dollarning so'mga nisbatan kursi uning muomalaga kiritilishi birinchi haftasida MB tomonidan 1:7 qilib belgilangan bo'lsa, ikkinchi haftada u 1:11 (2006-yil 2-mayda esa 1:1220,13) gacha oshib ketdi.

Qiyinchiliklar bilan milliy valuta muomalaga kiritilgandan keyin uni mustahkamlash masalasi, Prezident I. Karimov ta'kidlaganidek, bozor islohotlarning ikkinchi bosqichining strategik ustuvor masalasiga aylandi va so'mning ichki konvertatsiyasiga erishish, uni qat'iy valutalariga erkin almashtirish masalasi dolzarb qilib qo'yildi (qo'shma farmon, 200-b.). bunda monitar siyosat barqaror va antiinflatsion siyosatning muhim ajralmas qismi sifatida ishtirok etdi.

Monitar barqarorlik milliy pulni barqarorlashtirishning uch toifasidan tashkil topadi: tovar bozorlari uchun narxni barqarorlashtirish; xorijiy valutaga almashtirish kursini barqarorlashtirish; pul bozorida foiz stavkalarini barqarorlashtirish. Bunda narxni barqarorlashtirish monitar siyosat yuritishning markaziy qismi hisoblanadi, kurs almashtirish va foiz stavkalari siyosati bu masala hal qilinishiga muvofiqlashishi lozim.

Milliy pulni mustahkamlash maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar faoliyati tizimini yuritish bilan ham muvofiqlashadi:

1) Markaziy Bankning hukumatga budjet tanqisligini moliyalashtirish uchun kredit taklifini qisqartirish;

2) davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (GKO) savdosini ahamiyatli tarzda kengaytirish;

3) muddatli kreditorlik qarzlari va boshqa to'lovsizlik ko'rinishlarini pasaytirish;

4) aholi jamg'armalarini harakatga keltirish, ularni ssuda fondlariga aylantirish va investitsiyalarga qo'llash, buning uchun esa aholining 90-yillar boshida qo'yilmalarning bekor qilinganligi natijasida banklarga nisbatan so'nggan ishonchini tiklash zarur;

5) budjet tanqisligini qisqartirish va qat'iy moliyaviy siyosat yuritish;

6) soliq tizimini takomillashtirish va soliq tushumlarini oshirish;

7) energiya zaxiralariga narxni, paxta va don xarid narxini erkinlashtirish;

8) antimonopol siyosatni yuritish yo'li bilan narxni sun'iy oshirishga yo'l qo'ymaslik;

9) milliy pul – so'mni almashuv kursini barqarorlashtirish.

Shu tarzda, milliy pulni mustahkamlash uchun daromadlar va narx o'zgarishi siyosatlariga muvofiq keluvchi egiluvchan monitar va moliyaviy siyosat zarur edi.

O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning dastlabki ikki bosqichida makroiqtisodiy barqarorlik doirasida qat'iy koordinatsiyalashgan iqtisodiy siyosat yuritish imkoni bo'lmadi. Ayrim xatoliklarga yo'l qo'yildi. Modomiki, iqtisodiy siyosat to'g'ri tanlandiki, u 1990-yillarning oxiriga kelib o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi:

– islohotlarning ikkinchi bosqichida (1995-y.) makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi, ishlab chiqarishning tushib ketishi to'xtatildi, 1996-yildan boshlab esa iqtisodiyot barqaror o'sa boshladi. 1996-yilda YAIM 1,7% , 1997-yilda 5,2% , 1998 yilda 4,3%, 1999-yilda 4,3% va 2007-yilda 9,5%, 2008-yilda 9,0%, 2009-yilda 8,1%, 2010-yilda esa 8,5% ga o'sdi. Respublikada MDH mamlakatlari orasida birinchi bo'lib 1990-yildagi ishlab chiqarish darajasiga erishildi;

– agar 1992-yilda respublika davlat budjeti tanqisligi 12% ni tashkil qilgan bo'lsa, 1994-yilda u 3,5%gacha, 1999-yilda esa 1,5% gacha kamaydi, 2000-yilda Respublikamiz davlat budjetining taqchilligi (defisit) YAIMga nisbatan 1 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda taqchillik darajasi pasayib borib, 2005-yilda budjet daromadlarining xarajatlardan oshib ketishi 0,1% (profisit)ga erishildi. 2008-yilda davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,5% profisit bilan, 2009-yilda 0,2% profisit bilan va 2010-yilda esa 0,3% profisit bilan bajarildi. Inflatsiya darajasi 2009-yilda tasdiqlangan parametrlar doirasida saqlangan holda 2010 yilda 7,3% ni tashkil etdi.

– Pul massasi o'sish sur'atini kamaytirish maqsadida iqtisodiyotni to'g'ri kreditlashtirish va budjet tanqisligini moliyalashtirishni tezda qisqartirish, foiz stavkalari va majburiy zaxiralar me'yorlarini tartibga solish oldindan ko'rib chiqildi. Bu chora-tadbirlar 1997-yildagina jami

pul massasining 2,9 marta o'sish sur'atini qisqartirish bilan muvofiq-  
lashgan va u inflatsiya sur'atlarida o'z aksini topgan;

– Naqd pul emissiyasi darajasining barqaror qisqarishi kuzatildi:  
1994-yilda –24%, 1996-yilda – 19,7 %, 1999-yilda – 10,2%.

– Respublikada aholi tomonidan banklarga ishonchni tiklash maq-  
sadida MDH mamlakatlari ichida birinchi bo'lib, 1992-yil 1-yanvar holati  
bo'yicha yo'qolgan qo'yilmalar kompensatsiyasini amalga oshirdi. Bu  
maqsad uchun 35 mlrd. so'm ajratildi. Inflatsiyaga yo'l qo'ymaslik uchun  
bu pullar 10 yil 1996–2006-yillar davomida sekin-asta to'lab borildi.

– 90-yillardagi valuta kursi siyosati bevosita inflatsiyani pasaytirishga  
yo'naltirilmagan edi, dollarning rasmiy kursi 1995–1999-yillarda 4  
martadan ortiqqa o'sdi; valuta to'rtta – rasmiy, birjali, tijorat, qora  
kurslarining mavjudligi, rasmiy va qora kurslar o'rtasidagi farqning o'sishi  
– so'mni mustahkamlashga to'sqinlik qildi.

Bularning barchasi inflatsiya darajasining pasayishiga olib keldi.  
Darhaqiqat, 2005–2010-yillarda inflatsiyaning o'rtacha yillik darajasi  
7–9 % atrofida saqlanib turibdi va 2010-yilda 7,3% ni tashkil etdi.

«Iqtisodiyotimizning jahon xo'jalik va moliyaviy-iqtisodiy tizimiga  
integratsiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotganini inobatga  
oladigan bo'lsak, jahon moliyaviy inqirozi, avvalo uning oqibatlarini  
bizga ham salbiy ta'sir ko'rsatayotgani haqida gapirib o'tirishning hech  
qanday zarurati bo'lmasa kerak, deb o'ylayman. Yana takror aytishga  
to'g'ri keladi – bunday ta'sir, avvalambor, umuman dunyo bozorida  
talab va narxlarning keskin tushib ketishida va tabiiyki, mamlakatimiz  
eksport qiladigan mahsulotlarning muhim turlariga nisbatan hamda  
eksportga yo'naltirilgan yetakchi tarmoqlar va ular bilan bog'liq turdosh  
korxonalar faoliyatida namoyon bo'lmoqda.

Bu esa, o'z navbatida, butun iqtisodiyotimizning mutanosib va  
samarali rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, ko'zda tutilgan  
loyihalarni amalga oshirish, o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishish  
yo'lida ko'plab muammolarni tug'dirmoqda. Muxtasar aytganda, 2008-  
yil biz uchun, birinchi navbatda mamlakatimiz mehnatkashlari uchun  
g'oyat murakkab va og'ir bo'ldi. Lekin, yuzaga kelgan barcha muammo  
va qiyinchiliklarga qaramay, xalqimizning fidokorona mehnati va amalga  
oshirilgan tadbirlar evaziga 2008-yilda iqtisodiyotimizning nafaqat  
barqaror faoliyat ko'rsatishiga, balki uning yuqori o'sish sur'atlarini  
izchil ta'minlashga erishdik.

2008-yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 9 foizni, sanoatda  
12,7 foizni, jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda 17,7 foizni

**tashkil etdi**, xizmat ko'rsatish hajmi 21,3 foizga o'sdi. Iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari ham barqaror sur'atlar bilan rivojlandi: qurilish – 8,3 foiz, transportda yuk va yo'lovchi tashish hajmi – 10,2 foiz, savdo sohasi – 7,2 foizga o'sdi. Qishloq xo'jaligida 4,5 foiz o'sishga erishilib, 3 million 410 ming tonna paxta xomashyosi tayyorlandi, 6 million 330 ming tonna g'alla, shu jumladan, 6 million 145 ming tonna bug'doy yetishtirildi. Davlat budjeti ortig'i bilan bajarildi, ko'zda tutilgan defitsit o'rniga yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,5 foiz miqdorida profitsitga erishildi.

Puxta o'ylangan qat'iy pul-kredit siyosatini izchil olib borish tufayli inflatsiya ko'zda tutilgan prognoz ko'rsatkichlari chegarasida, ya'ni yillik 7,8 foiz darajasida saqlab qolindi»<sup>1</sup> (3-жадвал).

3-жадвал

### Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2007</b>	<b>2008</b>	<b>2009</b>	<b>2010</b>
Yalpi ichki mahsulotning o'sishi	9,5	9,0	8,1	8,5
Sanoat mahsulotining o'sishi	12,1	12,7	9,0	8,3
Xizmat ko'rsatish hajmi	20,6	21,3	12,9	13,4
Qishloq xo'jaligi	6,1	4,5	5,7	6,8
Savdo sohasi	21,0	7,2	16,6	14,7
Eksport umumiy hajmining o'sishi	40,7	27,8	2,4	10,8
Davlat budjetining bajarilishi	+1,1	+1,5	+0,2	+0,3
Inflatsiya darajasi	6,8	7,8	7,4	7,3
Iqtisodiyot bo'yicha o'rtacha ish haqining oshishi	44,2	40,0	40	32
Aholi jon boshiga real daromadlarning o'sishi	27,0	23,0	26,5	23,5

Jahon iqtisodiyotining jiddiy pasayishi 2009-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga uning eksportiga kiruvchi xomashyo tovarlari narxlarining tushishi, O'zbekistonning asosiy savdo hamkor davlatlarida iqtisodiy o'sishning pasayib ketishi hisobiga eksport tovarlariga talabning kamayishi, pul o'tkazmalarining qisqarishi orqali ta'sir etishi mumkin.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: «O'zbekiston», 2009-y.

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar moliya bozorlari bilan to'liq integratsiyalashmaganligi sababli xorijiy kreditlar va kapital oqimining keskin kamayishi hisobidan jiddiy zarar ko'rish ehtimoli yo'q.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, respublika iqtisodiyotida inflatsion jarayonlar belgilangan davrda bartaraf etilmagan bo'lsada, giperinflatsiyani mo'tadil, aytilish mumkinki, o'ta muhim nazorat tendensiyasiga o'tkazishga muvaffaq bo'lindi.

Barcha ko'rsatilgan tendensiyalar milliy valuta – so'mni mustahkamlash, uning ahamiyatini iqtisodiyotning pul boshqaruvchisi sifatida kuchaytirishdan dalolat beradi.

### **9.3. Islohotlarning hozirgi bosqichida inflatsiyaga qarshi siyosat**

O'zbekistonda bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmogda, ularning har birida aniq masalalar, aniq muammolar doirasi hal qilinadiki, ularsiz oldinga intilish mumkin emas. 2000-yildan belgilangan bozor islohotlarining yangi zamonaviy bosqichida jamiyatimizda hayotning barcha tomonini erkinlashtirish asosida o'z-o'zini boshqarish bozor mexanizmini ishga solish masalasi qo'yildi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi bugungi kunda barqaror iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy balanslashganlik, dinamik muvozanat bilan bog'langan. 2004-yildan boshlab respublika iqtisodiyoti iqtisodiy islohotlarni kuchaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash asosida tezkor iqtisodiy o'sish trayektoriyasiga chiqdi.

Bu barcha o'zgarishlar antiinflatsion siyosatga tuzatmalar kiritish bilan shartlashilgan. 2002-yilgacha nomonitar antiinflatsion siyosat yutuqlari amal qildi. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi mutaxassislarining fikricha, 40 % gacha narx o'zgarishini pul massasi, ish haqi, valuta kursi kabi monitar omillar bilan, 60 %dan yuqori, alohida davrlarda 84%ga o'zgarishini boshqa nomonitar sabablar, jumladan, inflatsion natijalar bilan aniqlanadi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda inflatsiya bilan kurash monitar omillari hukmronlik qiladi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa nomonitar omillar ustundir.

Pul (monitar) siyosatni ishlab chiqish va realizatsiya qilish – Markaziy Bankning muhim vazifasidir. U mamlakatdagi pul taklifi hajmiga ta'sir ko'rsatishning real imkoniyatlariga ega, u orqali esa tijorat banklari ortiqcha zaxiralari hajmini boshqargan holda ishlab chiqarish va bandlik darajasiga ega bo'ladi.

Bozor munosabatlari rivojlanishi chora-tadbirlari orqali Markaziy Bank ixtiyoriga inflatsion jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi bozor instrumentlari kelib tushadi: zaxira talablarni boshqarish, ochiq bozordagi operatsiyalar, foiz hisob stavkasini manipullashtirish. Ular uzoq muddatli xarakterdagi maqsad va uslublarni birlashtiruvchi antiinflatsion mohiyatni tashkil etadi. Budget holatiga bog'liq bo'lmagan holda ushlab turish zarur bo'lgan pul massasining yillik o'sishida qat'iy limitlarni yuritish uzoq muddatli pul siyosati asosini tashkil etadi. Bu siyosat yuqori samarali, zamonaviy bank tizimi faoliyat yuritayotgan joyda amalga oshiriladi:

a) Markaziy Bank ixtiyorida banklararo kredit bo'yicha foiz stavkasini manipullashtirish joylashgan. Foiz stavkasini oshirish, kreditni qimmatlashtirish pul massasining muomalada o'sish tezligini pasaytirish bilan muvofiqlashgan. Hisob stavkasining pasayishi kreditning arzonlashishiga va investitsion jarayonlarning rag'batlantirilishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki 2000–2005-yillarda hisob stavkasini pasaytirish siyosatini olib bordi. Remoliyalashtirish stavkasining 2000-yilda – 32,3 %, 2001-yilda 26,8 %, 2002 yilda – 34,5%, 2003-yilda – 27,1%, 2004-yilda – 18,8 % ni tashkil qildi va bu tezkor iqtisodiy o'sish zaruratini yuzaga keltirdi.

b) Pul taklifiga ta'sir ko'rsatuvchi mustahkam vosita zaxira talab me'yorlarining Markaziy Bank tomonidan o'zgartirilishi hisoblanadi. Zaxiralar kattaligi, tijorat banklari Markaziy bank hisoblarida saqlashga majbur bo'lgan bank aktivlarining bir qismi ko'p hollarda uning kredit imkoniyatini aniqlaydi – bank o'zida minimal me'yorni o'rnatilgan qonun asosida oshiruvchi erkin zaxiralar bo'lgan holdagina ssuda berishi va pul taklifini kengaytirishi mumkin. Rasmiy rezerv talablarini oshirib yoki kamaytirib, Markaziy Bank banklar kredit faolligini boshqarishi va bu bilan pul taklifini nazorat qilishi mumkin.

Bank amaliyotida majburiy zaxiralar me'yorlarining o'zgarishi har doim ham yuz beravermaydi, bunday tashqari holat tijorat banklari likvidligiga ta'sir ko'rsatadi va ular tomonidan qisman manipullashtirish pul massasi kuchli tebranishiga va makroiqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki zaxira rezervlari koeffitsientini o'rnatish orqali tijorat banklari kredit salohiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu me'yorlar qo'yilmalarning hajmi, ko'rinishi va muddatidan, shuningdek, bankning boshqa majburiyatlaridan kelib chiqib o'rnatiladi. Pul-kredit siyosatining muqobil vositalari rivojlanmaganligi

holatida tijorat banklari majburiyatlariga zaxira talablari respublikada likvidlilik ustidan nazorat qilishning bosh iqtisodiy instrumentlaridan biridir.

d) Markaziy bankda ochiq bozordagi operatsiyalar kabi pul mas-sasining egiluvchan boshqaruvchisi bor, bu yerda munosabatlar majburiy asosda emas, erkin asosda amalga oshiriladi.

Pul bozori — qisqa muddatli zayomlar bozoridir. U banklararo bozor, REPO bozori va g'azna majburiyatlari, dipozit sertifikatlar va boshqa qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar bozorini o'z ichiga oladi. Banklararo bozorda Markaziy Bank kredit zaxiralari oldi-sotdisi yuz beradi. Shuning uchun ham bu bozorda MB da korrespondent hisobi huquqiga ega bo'lgan yoki ega bo'lishga majbur moliyaviy institutlarga bitim tuzishlari mumkin. REPO bozorida qimmatli qog'ozlarni kelajakda ularni xarid qilish sharti bilan savdosi amalga oshiriladi. REPO bitimlarini imzolashda sotuvchi bitim imzolangan vaqtda kelishilgan narx va muddatda xaridordan bitim obyeksi hisoblangan qimmatli qog'ozlarni sotib olishga majbur. Xuddi shu bozorda xorijiy valutalar bilan *svopov* operatsiyalarda bitimlar, kafolatli kreditlashtirish amalga oshiriladi. Qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar bozorida 1 yilgacha muddatga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning qaytarilmaydigan oldi-sotdisi sodir bo'ladi. Bundan tashqari, naqd pulning o'ta zarurligi hollarida ular qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorida sotilishi mumkin.

Ochiq bozordagi operatsiyalar — davlat qimmatli qog'ozlarini (moliya vazirligi tomonidan chiqarilgan) Markaziy Bank tomonidan sotilishi va xarid qilinishi — pul taklifini tartibga solinishining asosiy ishchi instrumentidir. Qimmatli qog'ozlarni sotish va xarid qilishda MB yaroqli foizlar taklifi yordamida tijorat banklari likvidli hajmiga ta'sir ko'rsatadi va ularning kredit emissiyasini boshqaradi. Ochiq bozorda qimmatli qog'ozlarni sotib olar ekan, u tijorat banklari zaxiralarini oshiradi va pul taklifi o'sishiga muvofiqlashadi. Markaziy Bank tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotish qarama-qarshi natijalarga olib keladi.

O'zbekistonda pul bozorining bir qancha segmentlari yaratilgan bo'lsada, ulardan hech biri odatdagi pul bozori funksiyasini bajarish darajasigacha rivojlana olmagan. Bundan tashqari, kuzatilayotgan davr boshida qisman orqaga tisarilish (chekinish) yuz bergan. Masalan, GKO bozoridagi aylanma 2000-yilda, 1999-yilga qiyoslaganda, ularning past daromadlilik tufayli ikki barobar qisqardi. Buning natijasi shundan dalolat beradiki, respublikada erkin moliyaviy instrumentlar va bozor tomonidan o'rnatilgan bazaviy foiz stavkalari yo'q. Bu bilan qisman



bo'lsada, tijorat banklarning katta summadagi ortiqcha zaxiralarni ushlab turganligi, pul massasida naqd pullar ulushi oshishiga olib keluvchi foiz stavkalari tuzilmasi betartibligini tushunish mumkin. Muomaladagi naqd pullarning pul agregati  $M_2$  ga munosabati 1996-yil dekabrda 42%dan 2000-yil iyunda 49% gacha o'sdi. Bu O'zbekiston MB ochiq bozorda keng operatsiyalar olib borolmaganligining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. U bank tizimi likvidligini tartibga solishda xorijiy valuta savdosiga va ma'muriy – buyruq tadbirlariga (nomonitar omillarga) tayanishi lozim edi.

e) antiinflyatsion boshqaruvning strategik masalasi sifatida, shuningdek, budjet tanqisligini unga bosqichma-bosqich barham berish orqali qisqartirish kiradi. Respublikada davlat budjeti tanqisligini kamaytirishga erishildi: davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2005-yilda 0,1%, 2007-yilda 1,1%, 2008-yilda 1,5%, 2009-yilda 0,2%, va 2010-yilda 0,3% profitsit bilan bajarildi. Budjet tanqisligining hal qilinishiga ikki yo'l bilan erishish mumkin – daromadlarni oshirish va davlat xarajatlarini kamaytirish. Eng ma'quli restriktiv (cheklangan) budjet siyosati hisoblanadi, unga ko'ra, hukumat liniyasi iqtisodiyotdan ko'proq olishni emas, davlat g'aznasidan unga kamroq berishdan iborat. Respublikaning zamonaviy soliq tizimi aynan erkinlashtirish tomonida turib soliq yukini kamaytirishni evolyutsionlashtiradi. Bosqichma-bosqich bozor tizimiga o'tkazish mumkin bo'lgan davlat faoliyati ko'rinishlarini moliyalashtirish o'zgartirildi. Bu yerda gap investitsion jarayonlarga davlat aralashuvini kamaytirish, budjet kapital qo'yilmalari hajmini kamaytirish, asoslanmagan dotatsiyalar va subsidiyalarni bekor qilish, xususiylashtirish jarayonlarini kuchaytirish haqida ketmoqda.

f) antiinflyatsion strategiyaning muhim masalalaridan yana biri inflyatsion natijalarni so'ndirishdir. Buning uchun kamida ikki shart bajarilishi lozim: ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qodir bo'lgan bozor tizimi mexanizmlarini imkon qadar mustahkamlash; inflatsiyaga bardosh bera oladigan kuchli, «mehribon» emas, davlatning mavjudligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida Markaziy Bankning boshqaruvchilik salohiyati baribir cheklangan, chunki tijorat banklari ham bank cheklari ko'rinishida pul ishlab chiqarmoqda. Shuning uchun ham inflatsiya bilan kurashishning ishonchli uslublari, masalan, pul massasi o'sishida qat'iy limitlarni o'rnatish talab qilinadi. Samarali antiinflyatsion strategiya milliy iqtisodiyotni tashqi inflyatsion impulslarga ta'sirini minimum holatga olib kelishi kerak. Bunga valuta kursini tartibga solish yordamida

erishiladi. EBBRning Toshkentdagi (2003-yil may) hududiy Kengashi o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki valuta bozorini erkinlashtirish bo'yicha XVF asosiy talablarini bajardi:

- valuta-almashtiruv kursining turliligi bekor qilindi;
- almashtiruv punktlari orqali jismoniy shaxslarga SKV ni o'zlashtirish bo'yicha cheklovlar olib tashlandi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun naqd bo'lmagan hisoblar bo'yicha cheklovlar olib tashlandi;
- SKV dagi talab va taklifdan kelib chiqib banklararo savdo sessiyalarida yagona valuta kursi o'rnatildi.

O'zbekiston boshqa mamlakatlarning xalqaro joriy to'lovlar konvertatsiyasini yuritish bo'yicha tajribalarini o'rgandi. Konvertatsiyaga o'tish uchun tashqi o'zlashtirmalarga murojaat qilmasdan yetarli oltin zaxiralari oldindan topib qo'yildi.

Antiinflyatsion boshqaruvning strategik omillari bilan bir qatorda tez ta'sir etuvchi taktik omillardan ham foydalanildi. Bu omillar qoidaga ko'ra, inflatsiya sabablarini bartaraf etish va uning mexanizmlarini demontaj qilishga mo'ljallanmagan. Ular asosan, favqulodda xarakterga ega bo'lib, inflatsiyaga chek qo'yish uchun yo'naltirilgan. Ular tovar taklifini oshirish, joriy talabni qisqa muddatda boshqarish bilan bog'liq. Oxirgisining maqsadi jamg'arish shakllarini oshirish, ularning likvidligi darajasini kamaytirish, qo'yilmalar va davlat zayomlari bo'yicha foizlarni oshirish, aksiyalarni keng tarqatish va yer uchastkalariga pullarni qo'yishdan iborat.

Pul-kredit siyosatida qat'iy choralarning ko'rilishi inflatsiya darajasi pasayishida aks etdi. O'rtacha yillik inflatsiya sur'ati 2000 – 24,9%, 2001 – 27,4%, 2002 – 21,6%, 2003 – 3,8% 2004 – 3,7%, 2005 – 7,8%, 2006 – 6,8%, 2007 – 6,8%, 2008 – 7,8%, 2009 – 7,4%, 2010 da esa 7,3% ni tashkil etdi.

Shunday qilib, iqtisodiyotning dinamik muvozanati sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi.

Respublika inflatsiyani stimullashgan, mo'tadil iqtisodiy o'sishga erishgan holda bartaraf etdi.

## XULOSALAR

1. Pul islohotlari har qanday vaqtda, har qanday mamlakatda o'tkazilgan. Bu – pul muomalasi doirasini tartibga solish va pul tizimini mustahkamlash maqsadida pul muomalasi doirasida davlat tomonidan amalga oshiriladigan o'zgarishlardir.

2. 1994-yil 1-iyuldan O'zbekistonda Milliy valuta – so'mning muomalaga kiritilishi davlat mustaqilligini mustahkamlash, shaxsiy, mustaqil, moliyaviy, pul-kredit va barcha iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning real mexanizmini yuzaga kelishi, korxonalar va tarmoqlarning moliyaviy holatini mustahkamlash bilan muvofiqlashadi, aholini ijtimoiy himoyalash va iste'mol bozorining omili hisoblanadi.
3. So'mni mustahkamlash muammosi bozor o'zgarishlarining barcha bosqichlarida ustuvor vazifa bo'lgan. Bu puxta o'ylangan, muallaq antiinflyatsion strategiya va taktikalar yuritilishi bilan hal qilinadi. Bu siyosat giperinflatsiyani mo'tadil holatga keltiradi. Iqtisodiyotning dinamik o'sishi sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi. Antiinflyatsion boshqaruvning strategik omillari bilan bir qatorda tez ta'sir etuvchi taktik omillardan ham foydalanildi. Aytish mumkinki, respublika inflyatsion jarayonlarni boshqarishning bozor (monitar) mexanizmlariga ega bo'la boshladi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

*Pul islohotlari, deinflatsiya, nullifikatsiya, denominatsiya, devalvatsiya, revalvatsiya, milliy valuta – so'm, monitar barqarorlik, giperinflatsiya, mo'tadil inflatsiya, boshqariluvchi inflatsiya, antiinflyatsion strategiya, antiinflyatsion taktika, foiz stavkasi mexanizmi, zaxira talablar me'yori, ochiq bozordagi operatsiyalar, budjet tanqisligini qisqartirish, pul massasi o'sishiga limitlar, inflyatsion natijalarni so'ndirish.*

### **Nazorat uchun savollar**

1. *Pul islohotlari deganda nima tushuniladi?*
2. *Pul islohotlarining maqsad va vazifalari qanday?*
3. *Pul islohotlarining ko'rinishlari qanday?*
4. *Pul tizimi evolutsiyasi va uning turlarini aytib bering.*
5. *Kredit munosabatlari va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli qanday?*
6. *Banklar, ularning turlari va kredit tizimidagi roli qanday ahamiyatga ega?*
7. *O'zbekistonda davlatning pul-kredit siyosati, uning dastaklari va amalga oshirish vositalarini ayting.*
8. *Inflyatsiya, uning kelib chiqishi va oqibatlari qanday?*
9. *Milliy valutani barqarorlashtirishning yo'llarini tushuntiring.*

### **1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2007- 120-b.
2. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 16-fevraldagi «Ipoteka to'g'risida»gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-sentabrdagi «Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni.
4. Об электронных платежах, от 14 декабря 2005-г. «ПВ» 15 декабря, 2005.

### **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari:**

1. Krizisga qarshi dasturga kiritilgan qo'shimcha infratuzilma obyektlari bo'yicha loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori №1073. 17.03.2009.
2. O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2008-yil 18-noyabrdagi PF-4053-son Farmoni).
3. Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2008-yil 19-noyabr, F-4010-son.
4. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni №3860, 14.03.2007.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil — maydagi «Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining tashkil etilishi to'g'risida farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2005-yil 20-iyun.

### **3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari:**

1. Mikrokredit tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori №2093, 13.04.2010.
2. Davlat aktivlarini sotish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori № 27. 29.01.2009.

3. «Oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 2009-yil 26- yanvardagi PQ-1047-sonli Qaror.

3.«Mamlakatimizda nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 2009-yil 26-yanvardagi PQ-1050-sonli Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. «2008- yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari» to'g'risida 2009-yil 13-fevral.

5. O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy banki hamda Xalqaro valuta jamg'armasining qo'shma bayonoti. T.: 2008-yil 19-dekabr. Xalq so'zi 2008-yil 25-dekabr.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 7-noyabrdagi «Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PK-726-sonli qarori.

7. Постановление Президента РУз «О гарантиях бесперебойного обеспечения наличных выплат с депозитных счетов в банках», от 5 августа 2005-года. «ПВ» 9 августа 2005 г.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2004-yil 24-sentabrdagi qarori.

#### **4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:**

1. *I.A. Karimov*. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi./Xalq so'zi, 2011-yil. 22-fevral.

2.«Betimsol yutuqlarimizning huquqiy asosi» – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010. 8-dekabr.

3. Prezident I.A. Karimovning «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» nomli ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2010. 13-dekabr.

4. Prezident Islom Karimovning 2010-yil 20-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlari bo'yicha oliy darajadagi yalpi majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2010. 21-sentabr.

5. *Karimov I.A.* Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Toshkent: «O'zbekiston», 2010. – 80 bet.

6. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010. 28-yanvar.

7. *Karimov I.A.* Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: «O'zbekiston», 2009. – 56 bet.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2008- yilda mam-lakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi», 2009-yil, 13-fevral.

## 5. Darsliklar:

1. *Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V.* Iqtisodiyot nazariyasi. IQTISOD-MOLIYA, 2010.

2. *Rashidov O.Yu., Alimov I.I., Toymuhamedov I.R., Tojiyev.R.R.* Pul, kredit va banklar. -T., TDIU, 2008.

3. *Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N.* Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. - T.: «Moliya» - 2008.

4. *Нуреева. Р.М.* Национальная экономика: учеб. - М.: ИНФРА - М, 2010.

5. Экономическая теория / под.ред. Добрынина А.И., Трасевича Л.С. учеб. СПб.: Питер, 2010.

5. Экономика.: Учебник. /Самуэлсон Пол Э., Нордхаус Вильям Д. 18-е изд.: Пер с англ. - М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2009.

## 6. O'quv qo'llanmalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir» hamda 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 29- yanvarda bo'lib o'tgan majlisidagi «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua Tuzuvchilar: B.Yu. Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, U.V. G'afurov, - T.: Iqtisodiyot, 2010.

2. Xodiyev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G'ofurov U.V., Tuxliyev B.K. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. - T.: Iqtisodiyot. 2009-y.

3. «Pul nazariyasi» fani bo'yicha tayyorlangan o'quv-uslubiy majmua. Tuzuvchilar: M. Yaxshiyeva., A. Adashev. - T.: TDIU. 2010.

4. *Shodmonov Sh.Sh., Yaxshiyeva M.T., Yusupov R.A.* Pul nazariyasi, ma'ruzalar matni. -T.: TDIU. 2009.

5. *Шодмонов Ш.Ш., Романовский Г.М* Теория денег. Учебное пособие. - T.: ТГЭУ, 2007.

6. *Xodiyev B. Yu., Bekmurodov A. Sh., G'afurov U. V.* va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik yillarida. - T.: TDIU, 2007.

7. *Rashidov O. Yu., Toymuhamedov I. R., Tojiyev. R. R., Karlibayeva R. X.* Pul muomalasi, kredit va moliya. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2005

8. Лукасьян Г.М. Экономическая теория: ключевые вопросы: учеб. пособ. – М.: ИНФРА-М, 2010
9. Носова С.С. Экономическая теория. Элементарный курс: учеб.пособ. – М.: КНОРУС, 2010.

### **7. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma’ruzalari to’plamlari:**

1. Iqtisodiyotda barqaror o’sish sur’atlari va makroiqtisodiy mutanosiblikni ta’minlashning asosiy yo’nalishlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalar tezislari. – T.: TDIU, 2011-yil 13-may.
2. Milliy valuta barqarorligi va iqtisodiy o’sishning o’zaro aloqadorligi va ta’siri. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalar tezislari. – T.: Iqtisodiyot, 2009-yil, 21-noyabr.
3. Iqtisodiyotning tarkibiy qismlari o’rtasidagi mutanosiblik va muvozanatni ta’minlashning nazariy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalar tezislari. –T.: TDIU, 2008-yil 6-iyun.
4. Iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish mamlakat eksport salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omilidir. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalar tezislari. –T.: TDIU, 2006-yil 28-dekabr.
5. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh etish – barqaror o’sishni ta’minlashning bosh yo’li. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalar tezislari. –T.: TDIU, 2005-yil 16-aprel.

### **8. Statistika ma’lumotlar to’plamlari:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil statistik axborotnomasi, – T.:, 2010.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil statistik axborotnomasi, – T.:, 2009.
3. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari. Statistika ma’lumotlar to‘plami. – T.: SISM – 2006 , 2007, 2008, 2009, 2010.

### **9. Internet saytlari:**

1. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.
2. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo Vazirligining rasmiy sayti.
3. [www.omad.uz](http://www.omad.uz) – Biznes rivoji uchun axborot portali.
4. [www.UzA.Uz](http://www.UzA.Uz) – O‘zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti
5. [www.review.uz](http://www.review.uz) – «Экономическое обозрение» jurnalining rasmiy sayti.
6. [www.cer.uz](http://www.cer.uz) – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.
7. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com) – biznes axborotlari portali.
8. [www.eurasianews.com](http://www.eurasianews.com) – Yevro Osiyo tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.
9. [www.vip.lenta.ru](http://www.vip.lenta.ru) – Internet nashriyoti.
10. [www.InternetNews.com](http://www.InternetNews.com) – yangiliklar serveri.

# M U N D A R I J A

Kirish.....	3
<b>1-bob. PUL EVOLUTSIYASI</b>	
1.1. Pullarning kelib chiqishi, mohiyati va amal qilish shakllarining tarixiy rivojlanishi.....	7
1.2. Hozirgi davrda pulning amal qilish muammolari bo'yicha nazariy tadqiqotlarning kuchaytirilishi.....	12
1.3. Pulning tabiatini tushunishga bo'lgan turlicha konseptual yondashuvlar.....	15
<b>2-bob. PUL TOVAR ALMASHUVI VA QIYMAT SHAKLINING TARIXIY RIVOJLANISH NATIJASI SIFATIDA</b>	
2.1. Ayirboshlash munosabatlari evolutsiyasi, tovar-pul muomalasi. Tovar ishlab chiqarishning yuzaga kelishi va rivojlanishi.....	21
2.2. Tovar-pul munosabatlarining vujudga kelishi.....	24
2.3. Pulning mohiyati va funksiyalari. Hozirgi zamon pulining iqtisodiy mazmuni.....	31
<b>3-bob. PUL TO'G'RISIDA NAZARIY KONSEPSIYALARNING TARIXIY SHARHI</b>	
3.1. Pulning metallistik nazariyasi.....	37
3.2. Pulning nominalistik va davlat nazariyalari.....	39
3.3. Pulning miqdoriy nazariyasi.....	42
<b>4-bob. PUL XO'JALIGINING KEYNS MODELI</b>	
4.1. Keynscha pul nazariyasining asosiy tavsifnomalari.....	48
4.2. Keyns modelida pulga bo'lgan talab nazariyasi.....	53
4.3. Pulning Keynscha va neoklassik nazariyasi sintezi.....	57
<b>5-bob. PULNING NEOKLASSIK NAZARIYASI</b>	
5.1. Monetarizm doktrinasining vujudga kelishi va uning evolutsiyasi.....	63
5.2. M. Fridmanning pul nazariyasi.....	69
5.3. Pulga bo'lgan talab.....	72
<b>6-bob. INFLATSIYA NAZARIYALARI VA UNI JILOVLASH USULLARI</b>	
6.1. Inflatsiyaning mohiyati va uning yuzaga chiqish shakllari.....	77
6.2. Inflatsiyaning shakllari va turlari.....	83
6.3. Inflatsiya nazariyalari.....	86
6.4. Inflatsiyaning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari va uni jilovlash usullari.....	91



**7-bob. PUL – KREDIT TIZIMI. BANKLAR VA ULARNING  
BOZOR IQTISODIYOTIDAGI ROLI**

7.1. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi.....	97
7.2. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari.....	103
7.3. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar, ularning vazifalari va bank islohotlari.....	106

**8-bob. KEYNSCHILIK VA MONETARIZMDA PUL  
SIYOSATI MUAMMOLARI**

8.1. Pulning iqtisodiy tizimga ta'siri.....	118
8.2. Pulning iqtisodiyotga ta'siri, portfelli yondashuvlari va yo'nalishlari.....	120
8.3. Pul qoidasi va pul-kredit siyosati.....	126

**9-bob. O'ZBEKISTONNING BOZOR IQTISODIYOTIGA  
O'TISH DAVRIDA MILLIY VALUTA – SO'MNI  
BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI**

9.1 Pul-kredit islohotlari, ularning maqsadi, vazifalari va usullari.....	132
9.2. Milliy valuta va uni barqarorlashtirish muammolari.....	135
9.3. Islohotlarning hozirgi bosqichida inflatsiyaga qarshi siyosat.....	141
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	147

---

**Sherqul Shodmonovich Shodmonov  
Mavluda Tursunovna Yaxshiyeva  
Ravshan Aminbayevich Yusupov**

**PUL NAZARIYASI**

*Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma*

*Muharrir Xudoyberdi Po'latxo'jayev*

*Badiiy muharrir Yasharbek Rahimov*

*Texnik muharrir Yelena Tolochko*

*Musahhih Muhabbat Xalliyeva*

*Kompyuterda teruvchi Gulchehra Azizova*

Litsenziya raqami AI № 163. Bosishga ruxsat etildi 22.07.2011. Bichimi 60×84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Tayms TAD garniturasi. Shartli b.t. 8,83. Nashr b.t. 10,4. Shartnoma № 43–2011. 500 nusxada. Buyurtma № 23.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30- uy.

«NOSHIR-FAYZ» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent tumani, Keles shahar, K. G'ofurov ko'chasi, 97-uy.



***Cho'lpon nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi***

ISBN 978-9943-05-402-8



9 789943 054028